


A man in a dark jacket and light blue shirt is riding a brown horse through a lush green field. In the background, there are mountains with patches of snow and dense forests of evergreen trees. The sun is setting behind the mountains, creating a bright starburst effect and casting a warm glow over the scene. The sky is filled with dramatic, dark clouds.

Farhod BOBOJONOV

Bir o'lkaki...

Farhod BOBOJONOV



BIR O'LKAKI...

«NOSHIR»

Toshkent

2022

UO'K 654.197(092)(575.1)
85.382(50')
B 79

Taqrizchi:
To'liqin HAYIT – adib

Bobojonov, Farhod.

Bir o'lkaki... Badiiy-publitsistik / F. Bobojonov – T.: "NOSHIR"
nashriyoti, 2022 yil. – 224 bet.

KBK 85.382(50')


Qo'lingizdagi kitob taniqli jurnalist, "Bir o'lkaki..." ko'rsatuvi muallifi, qolaversa, o'tgan asrning afsonaviy diktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston xalq artisti unvonlari sohibi Farhod Bobojonovning uzoq yillik mehnatlari samarasidir. Muallif televideniye endigina tetepoya bo'layotgan XX asrning 60 yillaridagi diktorlik mas'uliyati va mashaqqatlarini o'z misolida yorqin, hayajonli satrlarda ko'rsatib bergan.

Qolaversa, Farhod Bobojonov haqida mashhur yozuvchi va shoir-larning, dramaturg va rejissyorlarning, diktor va jurnalistlarning yozgan ajoyib maqolalari ham joy olgan.

Ushbu kitob Samarqand viloyat saxovatpesha insonlar
homiyligida nashr qilindi.

ISBN 978-9943-6205-8-2


© F. Bobojonov, 2022.
© «NOSHIR», 2022.



Farhod Bobojonov «Dunyo bo'ylab» telekanalining «Mening o'lkam» ko'rsatuvi (1990 yildan «O'zanini topar daryolar», qariyb 20 yillar davomida «Bir o'lkaki...» deb nomlangan) muallifi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston xalq artisti, «Do'stlik» ordeni, «Oltin qalam», «Eng ulug', eng aziz» mukofotlari va «Nuroniylar» medali sohibi, Oliy toifali diktor:

— Cho'girma kiygan yoshulli, qadimiylukda tarix bilan belashgan obidalar, sharsharadek shiddatkor va jarangdor musiqqa... Xorazm haqida so'z borsa ana shu manzara ko'z oldimda jonlanadi.

Bolaligim Amudaryoga yaqin joyda o'tgan. Mo'jazgina qishlog'imiz yaqinida kungurali imoratlar saqlanib qolgandi. Har gal o'sh tarixiy maskan oldidan o'tarkanman, bularni kim qurgan ekan, deya savol berardim o'zimga o'zim. Darvoqe, qishlog'imiz janubida Daryoliq deb ataladigan (qadimda Amudaryo o'zani bo'lgan. U Ko'hna Urganchdan o'tib, Kaspiy taraflarga oqqan) daryo ham bor edi. Ming yillik voqealarga guvoh Daryoliq o'tgan-ketganga o'tmish sirlarini ochmoqchi bo'lgandek hayqirib, suron solib oqardi. Mana shu tabiiy muhit menda ijodiy kayfiyat uyg'otgan, deb o'ylayman.



*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, oliy toifali
diktor Ra'no Jo'rayeva va Farhod Bobojonov*



*O'zbekistan xalq artisti, oliy toifali diktor Galina Melnikova
va Farhod Bobojonov*



Ota-bobolarimiz asli Xivadan, ammo sho'rolarning ta'qib va tazyiqi tufayli qavm-qarindoshlar turli tomonlarga tarqab ketgan. Otam madrasa ko'rgan ziyoli inson edi. Bizga Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor, Ogahiy, Cho'lpondan ko'p o'qib berardi. Uzun qish kechalari chiroqning g'ira-shira yorug'ida Oybekning "Navoiy" romanini mutolaa qilganimiz hamon esimda. Shundanmi, adib ijodiga erta mehr qo'ydim, oradan yillar o'tib, milliy qadriyatlar, an'analarga bag'ishlangan mualliflik ko'rsatuvimni ham Oybek domlaning mashhur she'ridan olingan so'zlar bilan "Bir o'lkaki..." deb nomladim.

Maktabni bitirayotganda rassom bo'laman, deb o'ylardim. Ancha-muncha mashqlar ham qilgandim. Keyin hikoya yozishga qiziqishim ortdi. O'sha mahallar Odil Yoqubovning uylariga tanga qo'ygandim. Bu orada kinematografiya eshigini ham birrov qoqib ko'rdim. "O'zbekfilm" studiyasida plyonka tashuvchi bo'lib ishladim. Shu yerda Shukur Burhon, Hikmat Latipov, Rahim Pir-muhammedov kabi buyuk aktyorlar bilan hamsuhbat bo'ldim.

1969 yil o'tkazilgan diktorlar tanlovi taqdirimni o'zgartirib yubordi. Tanlovda ishtirok etgan yuzdan oshiq nomzod orasida g'olib bo'lib, televideniyege diktorlikka qabul qilindim. O'shandan beri telejurnalistikaning gohida yumshoq, gohida qattiq nonini eb kelyapmiz...



MIKROFON SEHRI...

Har oyda bir marta, chamasi 30–40 xo‘jalik istiqomat qiluvchi Ocha qishlog‘i markazida, hovuz shoxlariga egilib turgan keksa gujum daraxti yonidagi usti ochiq binoda, hind filmlari, asosan xitoy filmlari ko‘rsatilar edi.

Kinomexanik qishlog‘imiz odamlarini mikrofon orqali kinoga taklif qilardi. Men har safar kinomexanik yonida o‘tirib olardim.

Bir kuni qiziquvchanligimni sezib, kinomexanik o‘zi gapirayotgan mikrofonni qo‘limga tutqazdi va so‘zlarini takrorlashimni aytdi. Qo‘limdagi mikrofon shunchalar sehrli tuyuldiki, haya-jon ila uning so‘zlarini takrorladim.

– Bilsang, bir she‘r ham ayt, – dedi u. Men ancha dadillashib, yod olgan Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she‘rini aytdim:

*Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda.
Chappar urib gullagan bog‘in,
O‘par edim Vatan tuprog‘in.*

Qishlog‘imiz uzra mikrofon orqali taralgan she‘rimni eshitganlaridan so‘ng, odamlar orasida “duv-duv” gap tarqaldi.

Shundan keyin, har gal kinofilm namoyishidan oldin qishlog‘imiz yoshullilari menga she‘r ayttiradigan bo‘lishdi.

– Bobojon mug‘allimning (muallim) o‘g‘lidan bi-i-rr she‘r eshitaylik, – deb meni maqtab ham qo‘yishardi. Men maqtovlardan jo‘shib, G‘afur G‘ulom va Hamid Olimjon she‘rlaridan o‘qib berardim. So‘ngra qishlog‘imiz odamlarini mikrofon orqali kinoga taklif qilardim.

7-8 yoshlarimda kinomexanik qo‘limga tutqazgan mikrofon hali-hanuz men uchun sehrli...



BU KITOBGA TURTKI BO'LGAN IJODKORLAR

– Kimdir misli qoyaday sirg'alib kishi xotirasida hech bir iz qoldirmay o'tib ketadi. Kimdir esa chaqinday chaqnaib, bir umrga qalbingda qoladi. Vaqt g'animat. Siz o'z hayotingiz haqida xotiralar biting, – deb har gal uchrashganimizda meni qistovga olardi, adib do'stim Normurod Norqobilov. Televideni-yedagi ijodimiz haqida soatlab mulohaza yuritardik. Oxir-oqibat suhbatimiz bahs-munozaralar sabab yakun topardi.

– Nega kitob yozmasligingizni hech tushunolmadim. Siz televideniya ijod qilib, bir qarasangiz tog'u toshlar orasida, sahroyu cho'llarda, yana bir qarasangiz daryo bo'ylarida, tabiat qo'ynidasiz. Bu yaxshi. Lekin... Shu bilan daqiqalar, oylar, yillar o'tganini sezmaydiz ham. Siz, albatta, kitob yozishingiz kerak. – Bu qadimshunos-tadqiqotchil do'stim Zoyir Ziyotovning menga achinish ma'nosidagi dil so'zlari.

Do'stim, O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron bilan (uzoq yillar televideniya rahbarlik lavozimlarida ishlagan) televi-deniyaning yutuq va kamchiliklari, Til va So'z haqida, uning kuch-qudrati to'g'risida ko'p bora bahs-munozarali suhbatlar qur-ganmiz. “Siz shular haqida, o'z ijodingiz, hayotingiz haqida xoti-ralar yozing”, – deb nasihatlar qilardi.

Erkin A'zam, Qo'chqor Norqobil, Eshqobil Shukur, Muslimbek Yo'ldoshev va shu kabi ijodkor do'stlarim aytgan so'zlarga amal qildim. Bu kitob, albatta, o'qilishi kerak bo'lgan nashr bo'lishi kerak. Yetmish yillik umr manzaralari... ijod yo'llari... Do'stlarim aytganlariday bularning bari, izziz yo'qolib ketmasligi kerak. Baholi qudrat yozish harakatida bo'ldim. Yozdim. Shu asnoda qo'lingizdagi kitob dunyoga keldi. Uni mutolaa qilib, baho berish Sizning hukmingizga havola.



HAMON YURT KEZAYOTGAN FARHOD

Farhod Bobojonovni qachon taniganimni eslay olmayman. Bunga ancha yillar bo'lgani aniq. U bir menga emas, juda ko'pchilikka o'ziga xos ovozgaga, fikrni tiniq ifodalaydigan telediktor sifatida tanilgan. Bu kasbga qiziqish yoshlarda hozir ham kuchli, ammo bundan o'ttiz-qirq yil avval tereekranda shunchaki bir-ikki bor ko'rinib qo'ygan kishi ham mashhur bo'lib ketar edi. O'ktam Jobirov, Nasibaxonimlarning o'ktam ovozi, yoqimli talaffuzi, did bilan kiyinishi ko'plarni o'ziga maftun etar, odamlar o'qilayotgan axborotlarning mazmunidan ko'ra, diktorlarning biyron tiliga havas qilardi.

Farhodning ijodiga e'tibor berganimning alohida boisi bor. U boshqa kasbdoshlaridan farqli o'laroq, ish kunini ertadan kechgacha studiyada o'tkazmay, qo'liga qalam olib, tasvirchilar bilan birga yurt kezdi. Kezganda ham, shunchaki tekis asfalt yo'llar bo'ylab emas, tog'u toshlar, qir-adirlar, soy-so'qmoqlar bo'ylab, jannatmonand o'lkamizni boshdan-oyoq aylanib chiqdi. Qadim qal'alar, o'tmish tarixga shohid noyob inshootlar, mo'jiza buloqlar, purviqor qoyalar, serhosil bog'larni tasvirga tushirishdi. Farhod yosh muxbirlarday, qo'lida mikrofon bilan sayohatlari davomida unga suhbatdosh bo'lgan kishilarning dil so'zlarini yozib oldi. "Bir o'lkaki..." deb nomlangan, juda uzoq vaqt televideniye ekranlaridan tushmagan turkum ko'rsatuvlarining har biri ona-Vatan, uning noyob tabiati, saxovatli kishilari to'g'risidagi mukammal badiiy asarlarga aylandi.

Bu ko'rsatuv bois, Farhodni o'zim uchun kashf etdim. Tomoshabin sifatida u bilan fikrlashib turdik. Shunday suhbatlarimizdan birida unga ikkita taklif aytdim: "Bir o'lkaki..."dan maktablarda qo'shimcha darslik, ko'rgazmali qurol sifatida foydalansa bo'ladi. Ikkinchisi – ko'rsatuv uchun yig'ilgan materiallar asosida g'oyat qiziqarli kitob yaratish mumkin.

Farhod ikkinchi taklif ustida uzoq ishladi. Qo'lyozma tayyor bo'ldi. Uning birinchi qismini o'qib chiqdim. Oldindan aytib qo'yay: bu kitobni, albatta, o'qib chiqish kerak. Negaki, aksariyat tomoshabinlar teleko'rsatuv degani qanday tayyorlanishini bilishmaydi. Ba'zan arzimagan bitta kadrni suratga tushirish uchun bir soat-yarim soat emas, bir necha kun kerak bo'ladi. Qanchadan-qancha injiqliklarni, sun'iy to'siqlarni, dilxiraliklarni yengib o'tishga to'g'ri keladi. Kamerani to'g'rilab, endi ish boshlaganingizda, kutilmaganda yomg'ir sharros quyib qolishi, shamol turishi mumkin. Suratga olishga kimdir kech keladi, kimningdir ishi chiqib qoladi. Rejissyor, operator, stsensariy muallifi, chiroqchi, rassom, montajchi, yana bir necha kishi bir-birini tushunib ishlamasa, maqsadga erishib bo'lmaydi. "Bir o'lkaki..."da Farhod Bobojonov bu ishlarning ko'pini o'zi bajaragan. Buni bilgan biladi...

Ushbu satrlarni qog'ozga tushirayotganimning boisi – bugun qutlug' 70 yoshini qarshilash arafasida turgan Mulla Farhodbek xuddi yosh yigitchalarday yurt kezishda davom etmoqda, Har hafta teleekranlarda uning yangi mualliflik ko'rsatuvlari namoyish etiladi. Bu g'oyat ibratli fazilat deb o'ylayman. Zero, har qanday iste'dod egasi ham, bir zum bo'lsin, izlanishdan to'xtasa, o'sishdan ham to'xtaydi.

Fidoyi kasbdoshimizga uzoq umr, yangi ijodiy yutuqlar tilab qolaman.

Ahmadjon MELIBOEV

Jahon adabiyoti jurnali bosh muharriri



XAYRLI HAYRATLAR

Tinchlik-farovonlik hukmron yurt qishloqlarida bolalarning mitti tasavvurlari, beg'ubor orzu-havaslarini bir kun kelib, albatta, haqiqatga aylanadi. Ular baland va uzoq parvoz qiladilar. So'ngra esa, mitti yuraklar shijoatga makon bo'ladi. Bu shijoat ularni orzularda aks etgan manzillarga boshlaydi. Manzil tutilgan ulkan shaharda boshlab qo'yilgan xayrli ishlar mas'uliyati esa ularni istagan paytda ortiga – ona qishlog'iga qaytishga izn bermay qo'yadi.

Qachonlardir Amudaryo sohilidagi to'rang'ilzorda qo'ziqorin terib, qirg'ovul ovlab yurgan bo'z bola uchun Tangri in'om etgan betakror ovoz tole qanoti ekanligini uning o'zi hali bilmasdi. "Har bir bolaning ichida bitta Motsart yashaydi, faqat uni uyg'otish kerak", degan edi Antuan de Sent-Ekzyuperi. Kun kelib o'sha bolakayning ham ichidagi "Motsart" bo'y ko'rsatdi va orzulari ortidan azim shaharni manzil tutdi. Yillar o'tib esa ko'plab ijodkorlar kabi shu shaharga butkul bog'lanib qoldi. Zero, poytaxt muhiti uni Farhod Bobojonovga aylantirdi. Shu ko'hna Shosh uni ne-ne ulug' zotlar bilan yaqin etdi.

Darhaqiqat, tengqurlari orasida bo'yi pakanadan sal teparoq, o'rtabo'ydan sal pastroq, qomati qotmadan kelgan, qora sochlari bo'liq, ko'zlari samimiy boqadigan, yuzi istarali yigitchani Alloh o'ktam va yoqimli ovoz bilan siylagan edi. Shu boisdan Farhod Bobojonov televideniyaedagi ilk ko'rinishidayoq barchaning sevimli diktoriga aylandi. Uning chiqishini kutadiganlar soni ortib bordi.

Bizning bolaligimizda televideniye biz endi anglayotgan hayotning eng katta mo'jizalaridan biri edi. "Katta bo'lsang, kim bo'lasan?" savoliga "diktir bo'laman" degan javoblar kosmonavt bo'lamandan kam emasdi. Bunga erishish yo'lidagi mashaqqatlar – bu endi butkul boshqa masala.



Diktorlar odatda tayyor matnlarni o'qiydi yoki yod olib gapiradi. Mavzuga munosabatlar ko'z qarashlarida, yuz ifodalarida aks etib turadi. Ko'pchilik diktorlar shugina vazifani ado etish bilan cheklanib qoladi. Farhod aka esa ustozlar o'gitini quloqqa ilgan, mavzuni, masalaning mohiyatini chuqur his qilgan, hayot haqiqatlarini anglab, o'zining fuqarolik pozitsiyasini egallay bilgan va eng muhimi, hamisha kitobga oshno bo'lgan ijodkor-diktorlar sirasiga kiradi. Axir, "O'zanini topar daryolar", "Ochun", "Bir o'lkaki...", "Mening o'lkam" kabi xalqimiz tomonidan sevib tomosha qilinadigan ko'rsatuvlarni tayyorlash uchun shunchaki diktor bo'lishning o'zi yetarli emas-da.

Farhod Bobojonov o'rganishdan charchamaydigan, shuuri yaratuvchanlik ruhi ustuvor bo'lgan holda xayrli hayratlar og'ushida yashar ekan, endilikda o'zi kashf etgan hikmatlarni jamlash maqsadida qo'lga qalam oldi. Ustoz bugun kitob yozdi. Nima unga kuch berdi, bilmadim. Ammo u yozdi. Aslida o'qilgan-o'qilmagan yozilgan-yozilmagan kitoblar qancha. Bu kitob – yozilishi va o'qilishi kerak bo'lgan kitob. Yetmish yillik umr manzaralari... Odamlar e'tiboridagi shaxsning hayot yo'llari... Bu hazil gapmi?.. Odamlar bilishi kerak bo'lgan narsalar izsiz yo'q bo'lib ketmasligi kerak, shu haqiqatni o'z vaqtida anglagan Farhod aka yozdi. Yoza bildi.

Ham mashaqqat, ham zavqu shavq ila bitilgan ijod mahsuli muborak bo'lsin!

Quvondiq SIDDIQOV,
jurnalist



I-QISM

ORZUGA ELTUVCHI YO'L YOXUD QALB KECHINMALARI

*Men shunday bir nurafshon, saodatli so'z ay-
tayki, u dillarni bezasin, ko'ngillarga orom nurini
olib kirsin.*

Muhammad RIZO Erniyozbek o'g'li Ogahiy

2014 yil, 19 oktyabr. Chilpiq qal'asi. Sirli, afsonaviy bu aziz yerdan ziyoratchilarning keti uzilmaydi.

Biz ham keldik, ijodiy safar bilan bu qadamjoga...

Yonginasida Amudaryo oqmoqda. U bugun nelarni o'ylaydi...

Ona daryo – Amudaryo haqida ko'hna tarix so'zlaydi...

Asov daryo qadim zamonlardan boshlab goh mahzun, goh shodon, goh shiddatli qirg'oqlarga qanotlarni urib, to'lib-toshib to'liqinlanib oqqan.

Amudaryoni yunon va rimliklar Okus yoki Oksos, arablar Jayxun, yerli xalqlar dastlab O'kuz, Vaxsh, so'ngra Omul deb ataganlar.

Amudaryo haqida qadim zamonlardan boshlab, hikoya va afsonalar, rivoyatlar, dostonlar bitilgan. Xalq unga intilib yashagan. Daryoga yaqin joylarda zamonlar osha, inson zo-tining tafakkuri, qadoqqo'llari ila ko'plab qal'alar bunyod etilgan.

Chilpiq qal'asidan daryo oqimiga qarshi 8-10 chaqirim yuqoriga qarab, suv yoqalab o'rlasangiz, qadim Xorazm madaniyatiga oid to'rtinchi asrda barpo qilingan afsonaviy Gavr qal'asi salobat va viqor bilan ko'zga tashlanadi. Uzoqdan kuzatsangiz, qal'a daryoga ta'zim qilib turganday, go'yo.

Gavr qal'asi Kushonlar davlatining shimol tomonidagi tayanch istehkomi bo'lib, Amudaryoda kemalar qatnovini nazorat qilib turgan. Yillar o'tgani sayin daryo, qal'adan tobora uzoqlashib bormoqda. U bugun nelarni istaydi....

Gavr qal'asidan taxminan qirq chaqirimlar yuqorida daryo bo'yida, qadimiy Xorazm davlatining poytaxti Kot shahrida Abu Rayhon Beruniy bobomiz (973 yil Kot shahri – 1048 yil G'azna shahri) tug'ilib voyaga etgan. Yunon olimi Xekatay (miloddan oldingi oltinchi asr) asarlarida Kot "Xorazm shahri" deb tilga olinadi. Arablar uni Fil, Abu Rayhon Beruniy esa, Fir deb atagan. Afrig'iylar sulolasining boshlig'i Afrig' u yerda uch qavatli devor bilan o'ralgan qasr qurdirgan. U 20 kilometrlik masofadan ham ko'rinib turgan. Poytaxt shahar Kot 996 yilgi daryo toshqini oqibatida butunlay yuvilib ketgan.

Hozirgi davrga kelib, Kot shahrining bir tomonidagi atrof devor qoldiqlarigina saqlanib qolgan. Shu yerda istiqomat qilayotgan keksalarning hikoya qilishlaricha, devorning ayrim joylari yaqin-yaqinlargacha bus-butunligicha saqlangan. Amudaryoning so'g'a loyidan (uzoq yillar mobaynida daryo cho'kindisidan paydo bo'lgan ma'lum bir qatlam mahalliy tilda so'g'a deyiladi. Pishiq-puxtaligi sabab qadimda binolar, devorlar shu loydan qurilgan) bunyod qilingan mustahkam qal'a devorining qulab, yo'q bo'lib ketish sabablari ko'p. Ikki ming yillar davomidagi tabiat injiqliklari bunga asosiy sabab bo'lgan. Qimmatbaho devor tuprog'i ayrim kimsalarning ro'zg'ori uchun xizmat qilib, yaqin yillarda ham shu tuproqdan binolar barpo qilingan. Xullas, sabablar turlicha. Nahot, qadim bobolardan meros, muqaddas devorning qolgan qismi ham yo'q bo'lib ketsa?! Vatan, millat tuyg'usi qalblarida jo'sh urgan, o'z Ona yurti tarixini bilgan Beruniy shahri ziyolilari va mutasaddilarining bu haqdagi fikrlarini bilгим keladi.

2006 yili «Bir o'lkaki...» ko'rsatuvini tasvirga olish jarayonida Beruniy shahrining tarixi va buguni, Shoh Abbos saroyi,



“Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining aynan shu yerda dunyoga kelgani haqida ham to‘xtalib o‘tganmiz.

Amudaryoning turli minerallarga boy, serunum tuprog‘ida, quyoshning saxiy nurlari haroratida pishib yetilgan shirindan-shakar Shobboz (Shox Abbos) qovunlarining dovrug‘i qadim zamonlardan boshlab, ko‘p mamlakatlarda, ayniqsa, sharq mamlakatlarida juda mashhur bo‘lgan. Hozirda qishki qovunlar maxsus moslamalar yordamida qorong‘u uylarda osib qo‘yilib, bahor oyining o‘rtalarigacha saqlanadi.

2700 yil ilgari yozilgan «Avesto» kitobida «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» degan hikmatli so‘zlar bor. Qadimda Amudaryoda suv serob, don mo‘l bo‘lishini, yurtdagi ma‘murchilik, el obodligini istab, har bahorda ho‘kizlarni so‘yib suvga oqizishgan.

Shamol ta‘sirida, quyosh nurlari aksida jimirlayotgan suv har qanday inson e‘tiborini tortadi, rohatlantiradi. Xayollar sizni uzoq-uzoqlarga yetaklaydi, ko‘p narsalar yodga keladi. **“Ishlaring yurishmay, iztirobda qolsang, daryo bo‘yiga borib qalbingni yoz, ichki sas bilan niyatlar qilib, uzoq vaqt suvga qara, hammasi joyiga tushib ketadi” deguvchi edi, qishlog‘imiz keksalari. O‘sha paytlarda “Menga desa tosh yog‘maydimi, baribir tabiatni yengamiz!” – degan balandparvoz so‘zlar quloqqa chalinardi.**

Bugun tabiat butunlay o‘zgarib ketdi. Orol qurib, cho‘lga aylanib bormoqda. Odamlar iztirobda qoldi, Orol tuzi olis Yaponiyagacha yetib boribdi.

Bir paytlari to‘lib-toshib, hayqirib, to‘lqinlanib oqqan daryoga ne bo‘ldi? Amudaryoning jo‘shqin loyqa suvlarini, ko‘m-ko‘k Orol dengizi sog‘inch-la o‘z bag‘riga olguvchi edi.

Senga ne bo‘ldi, Ona daryo?

Chilpiq qal‘asi Amudaryoning dardlariga sherik bo‘layotganday, go‘yo.

Odamlar keti uzilmas bu go‘shadan. Har bir keluvchining o‘z tafakkur olami bor. Bir zamonlar shu yon-atrofdan Amudaryo bo‘ylarida, Chilpiq tevaragida bir qavm yashagan. Qadim

zamonlarda o'lgan odamlarning jasadi tepalikka olib chiqilib, ma'lum muddat tashlab ketilgan. Jasadlar quzg'unlarga yem bo'lgan. So'ng suyaklar uylarga olib ketilib saqlangan. Bu – haqiqat. Aytishlaricha, bu tabarruk joyda keyinchalik turli sayllar o'tkazib kelingan. Chilpiq haqida turli afsona, rivo-yatlar kezib yuradi. Turli taxminlar bor. U bahs-munozaraga sabab. Biz o'tamiz. Foniylar dunyo talablari behad sirli, men bil-mayman, sen bilmaysan... Bu aziz joy yer turguncha turar, u abadiy, mangu bo'ldi...

Bir qadam nari jilolmaysan. Bag'riga chorlar. To'ymaymiz, to'ya olmaysan.

Olti yoshimda otam meni yetaklab daryo yoqasiga olib kel-gan. O'tishning iloji yo'q. Ertaklardagiday, afsonaviy, uzoqlardan elas-elas ko'zga tashlanayotgan Chilpiqqa intilib, zor-zor yig'laganman. Ming bir armon bilan qishloqqa, uyga qaytgan-miz. Men uchun bu aziz yer armonga aylangan edi.

2001 yil muqaddas "Avesto" kitobining 2700 yilligi nishon-landi. Shu munosabat bilan tayyorlangan uch qismli ko'rsatuvga muallif va boshlovchilik qildim. Ko'rsatuvimizni Chilpiqning qa-lin paxsa devor bilan o'ralgan baland nuqtasidan – necha million yillar ilgari paydo bo'lgan mahobatli tosh yonidan boshladik. Ko'rsatuvda tarixchilar, arxeolog olimlar qatnashdi. Hammasi qalbdan, yurakdan gapirishdi. Ularning so'zlariga tepalikda esa-yotgan shamol hamohang bo'ldi. Go'yo tarix qayta tirildi.

Ne baxtki, olti yoshimdagi orzu-armonlar ro'yobga chiqib, shu maqaddas tuproq sabab "Avesto" ko'rsatuv uchun "Eng ulug', eng aziz" tanlovining bosh sovrinini olishga musharraf bo'ldim. Bu muqaddas sirli olam – Chilpiq menga omad, kuch-quvvat, madad berdi. Shu yil bir paytning o'zida yana ikkita mukofot – "Do'stlik" ordeni, Qoraqalpog'iston xalq artisti unvonlariga sa-zovor bo'ldim.

"Yillarni oson o'tkazmay, tinib-tinchimay, aziyat, zahmat-lar chekib, orzular ichra yasha... Dardkash bo'l. Katta xalqo-na yo'llardan o'tib, ko'zni kattaroq ochib, notinch dunyoning



ufqlariga tikila bilish, tiriklik quyoshining quvonchli nurlarini ham tanaga, hislarga, fikrlarga kengroq yayratish kerak. Shunday kenglik, kichik yo'llar ham katta yo'lga olib chiqadi", – deb uqtirardi ustozim Asqad Muxtor.

Umr shiddat bilan oqayotgan daryo misol. Zavq bilan, baxtiyorlik bilan harakat qilgandagina oqim bo'ylab suzayotgandek bo'lasan. Umring davomida borayotgan yo'ling asta-sekin aniqlashib, ravshanlashib borarkan, bu hayotda yashayotganingga shukrona keltirasan.

"Hayot sehrli va o'ta g'aroyib sayohatning o'zginasi. Har bir nafasingizda quvonch his qiling", – deydi amerikalik faylasuf Bob Prokt.

Chilpiqning eng baland nuqtasi – aylanasi keng, muqaddas tepalik. Uning atrofi doira shaklida – baland paxsa devor bilan o'ralgan. Ajdodlarimizning aql-zakovati, qalb amri ila uzoq asrlar osha, hozirgi davrgacha salobatini yo'qotmagan Amudaryoning so'g'a loyidan bunyod etilgan devor yoqalab yurarkanman, meni fikr va hissiyotlar chulg'ab oldi. Bu yerda afsonaviy muhit hukmron. Sirli olam... Sirli zamin... Sir – noma'lumlik – g'ayb...

Tasvirga olish kamerasi harakatda. Turli qiyofalar aksi. Yuzdagi, ko'zdagi qalb kechinmalari... Oyoq izlari...

Quyoshning ko'zni qamashtiruvchi zarrin nurlarida jimirlab to'lqinlanib oqayotgan suv o'z oqimi bo'ylab ketib bormoqda. U bugun nelarni o'ylaydi...

Tepalikdan kuzataman. Adirliklar oralab, daryo yoqalab, birbirlariga tutashib ketgan so'qmoqlar, yo'llar, ko'z ilg'amas manzillar...

Qishloqning kichik so'qmoqlaridan yurib olti yoshimda maktabga bordim. Boshlang'ich maktab bo'lgani sabab, boshqa tuman markazidagi o'rta maktabning 5-sinfiga o'qishga olishdi. Masofa uzoq – o'n kilometr, otam yoshimga, jussamga loyiq, kichkinagina "Orlyonok" velosipedini markazdagi "Katta do'kon"dan sotib olib berdi. Maktabga borgan kunimoq sinfdoshlarim menga "qishloqi" – (shevada "yovonli") degan tamg'a

bosishdi. Dastlab qishloqdan o'qishga qatnovchi bolalar beshta edik. Fursat o'tmay, yakkalanib qoldim.

Oradan o'n kun o'tib, 10 sentyabrdan yoppasiga paxta terimiga olib chiqishdi. Ertalabdan o'qish, tushdan keyin paxta terimi. Qosh qorayganda qishloqqa qaytaman.

Uyga yetgunimcha do'ppayib turgan ikkita qabristonning shundoq yonginasidan g'ira-shirada zir-zir titrab o'tardim. Biz tomonda o'liklar (er osti suvi yaqinligi sabab) yer ustiga qo'yiladi. Bora-bora dunyo tanib, qalbingda allanechuk hislar uyg'onib, nenidir izlaysan, unga talpinasan. Hayotda ko'rgan, kechirganlaring seni ulg'aytirib qo'yar ekan.

Yoz kelishini biz qishloq bolalari orziqib kutar edik. Ajriqzordan o'tib, qishlog'imiz janubidan oqib o'tuvchi "Daryoliq" atrofidagi qamishzorlar oralab ko'l bo'yida qo'y boqish biz bolalar uchun "katta vazifa" edi. Shunda men tiniq ko'ldagi baliqlarga, ko'm-ko'k osmonga qarab orzular qilar edim. Mening eng asosiy mashg'ulotim – tabiatga oqayotgan suvga qarab rasm chizish edi.

Hademay, o'qish, paxta terimi boshlandi.

To'rt nafar o'quvchini bir haftaga paxta terimidan ozod qilishdi. Adabiyot o'qituvchimiz Pirmat Xudoyberganov yodlash uchun har birimizga to'rt qatordan she'r berdi. Paxta azobidan qutulganimizga shunchalar sevindikki, tuprog'i burqsib yotgan ko'chalarni changitib, dala chetida o'tlayotgan qo'ylarni hurkitib, uzoq-uzoqlarga, adirlik tomon chopdik. She'r yodlash boshlandi...

Kalinin nomidagi qishloqning "Lenin" nomidagi madaniyat uyiga (atrofdagi barcha qadimiy qishloqlarga, xo'jaliklarga (kolxoz) Marks, Engels, Moskva, Leningrad, Ilich, Krupskaya, Partiya XX s'ezdi, Kirov, Jdanov, Voroshilov... nomlari qo'yilgan edi. Tuman markazi yonginasida joylashgan qadimiy qishloqning nomi esa "Kalinin"... (Xalq orasida "Nega shunday nomlangan" degan qo'rquv aralash shivir-shivir gaplar quloqqa chalinardi) tumonat odam yig'ilgan. Adabiyot o'qituvchimiz hayajonda. Apil-tapil



yana bir bor tekshiruvdan o'tdik. She'r aytayotganda qo'rqmay, dadil bo'lishimizni uqtirdi. G'ala-g'ovurda qo'rquv boshlandi. Davraga qarsaklar ostida G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Uyg'un, Mirtemirlar kirib kelishdi. Hamma jim. Bir soniyalik sukunat... G'afur G'ulom ro'parasida turib, his-hayajonda dir-dir titrab, she'r boshladim:

*Aziz asrimizning, aziz onlari,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shox satrlar-la,
Bezamoq chog'idir umr daftarin.*

Yelkamga G'afur G'ulomning qo'li tegdi. Aytganim to'rt qator she'r, butun umrim mazmuniga aylanib, mendagi orzu-umidlar uchquni o'sha soniyadan boshlangan bo'lsa, ne ajab.

Meni adabiyot to'garagiga qabul qilishdi. Men "qishloqi"ni sinf sardori qilib saylashdi. Bir olam zavqu shavqqa to'lib, qishloq so'qmoqlaridan uyga qaytayotib, ovozim boricha hayqirib she'r aytardim.

Tumandagi turli anjumanu bayramlar she'riyatsiz o'tmas edi. Odamlar ma'rifatga, she'riyatga chanqoq edi. Biz bolalar, sahna-da she'r aytib, qo'shiq kuylardik. Sinfdoshim Ilhom Yoqubov qo'shiqni shunday kuylardiki (Oloh rahmatiga olgan bo'lsin), har bir avjida tomoshabinlar zavqlanib qarsak chalardi.

"She'riyatni tushunish, she'r ayta bilish haqqoniy tuy-g'ulardan, haqiqiy tafakkurdan kelib chiqadi. U yurakdan to'g'ri boshqa yurakka o'tadi", – degan edi hassos shoira Zulfiya.

Tabiiylikka intilish, qalbdan aytilgan she'riy nutq, oddiy-likka e'tibor, falsafiy mushohada, chin insoniylik hislatlari, aytayotgan har bir satringda mujassamini topadi. Qisqasi, ay-tilajak she'rning mazmun-mohiyatini chuqur anglab, so'ngra ayta bilmoq kerak.



“She’r hikmat daryosi, sehr daryosi. Jumboqday bittalab yecholsam deyman”, – deydi ustoz shoir Mirtemir. Men turgan sirli Chilpiq yonidagi Amudaryo suvi kabi oqib ketayotgan, oltindan qimmat bo’lgan umr lahzalari... Aytaversa adog’i tugamas voqeliklar... Kimligidan qat’i nazar, har bir inson hayoti, shodligu quvonchlarga, achchiq iztiroblarga to’la...

Oila, bola-chaqa tashvishida tong qorong’isidan oqshomgacha terga botib, mehnat qilgan qishlog’imiz odamlarining orzu-armonlari, huzur-halovati ne edi...

Qishloqda asosan qishli-qirovli kunlarda kechasi gulxan yoqib to’y qilishardi... Doira chalinib, “san’atkor” torda qo’shiq aytib, gavdasi semiz ikkita “raqqosa” beo’xshov raqsga tushib, ko’zlarini suzib, muqomlar qilishardi. “Olma otdim otganga, sim karovatda yotganga... Boqqa kirsang bodom bor, astaroq yuring odam bor... Hay-hay qosh-qabog’ingdan, jonidan, ey...” qabilidagi maza-matrasi yo’q qo’shiqlar aytilardi. Oddiy qishloq odamlari u tomondan bu tomonga beso’naqay yo’rg’alab, pul terayotgan “raqqosa”larga og’zilarining tanobi qochib, tomosha qilishardi. Tonggacha qishloqning kayvonilari ishtirokida uy bazmi bo’ladi.

Qo’shni qishloqlarda o’ziga to’q odamlar, kunduz kunlari qur yasab, mashhur qo’shiqchini taklif qilib, baxshi-yu dorbozlar, masxarabozlar ishtirokida, polvonlar kurashi-yu, qo’chqor urishtirish tashkil qilib, to’y berishardi. To’yga tumonat odam yig’ilardi. Biz bolalar dorbozlarga havas qilib, daraxtlar orasidan arqon tortib, dorda yurmoqchi ham bo’lganmiz. Kelgan qo’shiqchi-sozandalarga havas qilib, ingichka simlar topib, o’zimizcha yog’ochdan musiqa asbobi yasab qo’shiqlar aytganmiz.

O’sha paytlarda barcha bolalar qatori men ham, nelarni istamadim, orzular qilmadim. Tuman markazidagi musiqa asboblari sotiladigan do’konga har kuni kelardim-u, ularni bir-bir chalib ko’rishni orzu qilardim. Sotib olish haqida otamga aytishga botina olmaganman. Bu men uchun bir umrlik armon bo’lib qoldi.



Yozgi ta'til boshlanishi bilan uy-ro'zg'or ishlariga sho'ng'ib ketardik. Erta tongdan to oqshomgacha qishlog'imiz atrofidagi to'qayzorlar, qum-adirliklarda qo'y va sigirlarimizni boqar edik. Ko'lda qamishlarning tebranishi, tiniq suvda baliqlarning suzishi, o'rdak, turli qushlar parvozi, to'rang'il, yulg'un daraxtlari oralab quyonlarning jonsarak chopishi, hamma-hammasidan bir olam zavq olib, tabiat qo'ynida rasm chizardim. Hozir na ko'l, na to'qayzor qolgan... Na bir hayvonot olami bor... Bari yo'qolib ketdi... Erlar o'zlashtirildi. Paxtazorga aylantirildi. Qishloq bilan "Daryoliq" oralig'idagi bir to'plam g'ujum daraxtga tegilmadi. Tegisholmadi. Qo'porib tashlashga jur'at qilisha olmadi. Turli rangdagi o'simliklar: yashil, sariq, mallarang, bir-birlariga chirmashib ketgan g'uj'on oppoq gulli, qamish, to'rang'il, yulg'un, jiyda, jigildaklar (jiydaning mayda bir turi) bir-birlariga tutashib, suyanib, chirmashib ketgan. Oraliqda yuzlarini ajin bosgan boboni eslatuvchi daraxt, o'ychan – ko'kka qarab intiladi. Uning tagiga qadimdan qolgan shamchiroq qo'yilgan. Kuzatasan. Seskanib, eting junjikadi. O'yga tolasan...

Turli ofatu kasalliklardan forig' bo'lishni istovchilar oqimi keti uzilmaydi, "Eshtak bobo" (Eshtak buva) deb atalmish bu muqaddas, aziz joydan, Farzandsizlar kelib, farzand istaydi. Orzular qilishadi.

Ertasiga quyosh chiqar-chiqmay uning yonginasidagi so'qmoqdan mollarni haydab, qum barxanlaridan (Qadimda Amudaryo shu joydan oqqanligi sabab qumliklardan iborat izlar saqlanib qolgan) paydo bo'lgan balandlikka – Gultepaga (Gulto'ba) o'rlaymiz. Charaqlab quyosh chiqadi. Ko'zlar qamashadi. Pastlikka tikilasiz. Suv to'lqinlari yaltirab elas-elas tuya karvonlari bo'lib ko'zga ko'rinadi. Bular bari juda qisqa soniyalarda bo'lib o'tadi. Ko'z oldingizda ma'lum muddat tuyalar aksi qoladi.

Qishlog'imizda "Tuya aravachi" (tuya orvochi) taxallusini olgan Sobir boboni "Sobir tuya" ham deb atashardi.

– Bor! Sobir tuyani chaqir. Paxsa urish hashariga kelsin, tuya aravasi bilan.

– Ertaga bozor. Sobir tuya yuklarimizni tong-saharda olib ketishi kerak.

– Sobir tuyaning o'zi ham, tuyalari ham charchadi. Dam olishsin.

Bobo o'zi boqayotgan tuyalar, uning uzoq ajdodlari haqida, og'zini to'ldirib maqtardi: "Mana shu "Daryoliq"ni yoqalab ket-sangiz, Ko'hna Urganchda paydo bo'lasiz. Qadimda Xorazm-shohlar poytaxti bo'lgan shaharga kun chiqishu kun botardan tuyalarda karvon yo'llari orqali mollar oqib kelgan. Bobomning bobosi, bobolarining bobolari... eheee... sakkiz-to'qqiz avlod nari ajdodlarimiz o'sha davrlarda mag'ribu mashriqqa, elimiz sav-dogarlari mollarini betalafot tashigan. Ular yillab o'z go'shasidan – oilasidan yiroqda bo'lishgan. Mana o'sha tuyalar nasli".

Keksalarning og'izdan-og'izga ko'chib yuruvchi so'zlariga qaraganda, qadimda "Eshtak bobo"ning yon-atrofidan aylanib, qumliklari ko'llar o'rnida, Amudaryoning ayro bo'lagida hayqi-rib oquvchi katta suv oqimi bo'lgan. Aytishlaricha, bahordagi suv toshqinlari, daryoga yaqin go'shalarda turgan mol va tuyalarni oqizib ketgan.

Afsona-yu rivoyatlar tagida ma'lum bir haqiqat yotadi. "Daryoliq" o'rnidagi katta daryoda Kaspiy dengiziga eltuvchi kema qatnovi bo'lgan. Hayot manbai suv – olis manzillarni yaqin qilgan.

Bu xususda aniq ma'lumotlarni aytish ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarimizga havola.

Aytishlaricha, o'tgan asrning 50-yillarida Taxiatosh shahri yaqinidan Kaspiy dengiziga suv tortish harakatlari bo'lgan. Bo'lg'usi kanal atrofidagi, qadimda o'zlashtirilgan, hosildor bo'z tuproqdan foydalanish rejalari ham tuzilgan. Loyihachi olimlarga Davlat mukofotlari berilgan. Xullas, o'sha davrdagi tuzumning bosh rahbari (I.V.Stalin) vafotidan so'ng bu ishlarga nuqta qo'yilgan.



...“Yangi rahbar” (N.S.Xrushchev) butunlay boshqa tomondan “yangi loyiha”ni ishlab chiqish taklifini kiritgan. Qumliklar orallab, uzoq masofa – 800 kilometr ga cho‘zilgan kanal ishga tushdi. Lekin u qanday naf keltirdi? Qay biri afzal edi?

Suvsizlik Orolni holdan toydirdi. Er yuzida tabiatga nisbatan odamzodning beshafqatligi — o‘ziga ofatlarni yog‘diradi. Ko‘p narsalar poyoniga etadi.

“Nimaga qattiq qarshilik ko‘rsatsangiz, o‘sha narsani kuchaytirasiz”.

“Inson idrok ila anglashga qodir bo‘lgan barcha narsaga erisha oladi”.

Insonlarga yaxshiliklar istovchi donishmandlar so‘zi.

* * *

Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir inson o‘z tabiatiga ko‘ra, “oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi”, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi.

Otam Xiva shahridagi madrasalarda diniy va dunyoviy ilmlardan ta‘lim olgan. Ota-bobolari asli xivalik bo‘lib, 1920 yilgi taloto‘plardan keyin urug‘-aymog‘i bilan turli joylarga tariqday sochilib ketgan. Otamga o‘z davrining yetuk bilimdonlaridan saboq olish nasib etgan. Lekin oxiriga etmay chala qolib ketgan. Sargardonlik boshlangan. Baxtiga 20-yillarda Samarqandda ochilgan o‘qituvchilar tayyorlash ilmgohida tahsil olish nasib etgan.

Savodsizlikni tugatish bo‘yicha Xorazmning chekka hududlariga – Mang‘it, Gurlan, Qilich Niyozboy, Ocha, Do‘rmon, Beshuy, Holimbek qishloq ovullariga yuborilib, keksayu yoshlarga saboq beradi. Ko‘p o‘tmay peshonasiga “Avlodi dindor, xivalik”, degan tamg‘a bosiladi. Tug‘ilib o‘sgan yurtida yashash xavfli bo‘lgani sababli, bir kechada ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Toshkentga – xon urug‘lari bilan qochib kelib yashayotgan xolasi Anajonbika yoniga panoht izlab keladi.

Anajonbika Feruzxonning ukasi Otajon to‘raning kichik rafiqasi bo‘lib, farzand ko‘rmaganligi sabab otamni chaqaloq-



ligidan bag'riga olib, tarbiya qiladi. Otajon to'ra vafotidan keyin ham, Anajonbika xon urug'lari bilan birga yashaydi.

Xivaliklar Toshkentga kelganining dastlabki kunlaridanoq turli qiyinchiliklarni boshlaridan kechirishadi. 20-30-yillarning quv-quvlari, ocharchilik... O'sha davrda har qadamda uchrashi mumkin bo'lgan xavf-xatar...

Xivaliklarga xos bo'lgan bir-birlarini suyash, o'zaro mehribonlik, ishbilarmonlik, hunarmandchilik, eng asosiysi, usta ud-daburonliklari sabab, qahatchilikdan omon chiqishadi... Ular juda tejamkor bo'lishgan. Birni ikki, ikkini to'rt qila bilishgan.

Toshkentni "Toshkent – non shahri" deb bejiz aytishmaydi. "Chorsu bozori" xivaliklarning asosiy ro'zg'ori – qozonlari qaynashida xizmat vazifasini o'tagan. Xivaliklar Chorsudan uncha uzoq bo'lmagan Samarqand darvoza, Darxon, O'zgarish ko'chalarida, Anajonbika o'z yaqinlari bilan Chaqar mahallasida istiqomat qilishgan. Anajonbika yoshligidan tirishqoq, qiziquvchan bo'lgani bois, momalaridan kashtachilikni, tikuvchilikni o'rgangan. O'z davrida Xorazmda noyob bo'lgan "Zinger" tikuv mashinasi umrining oxirigacha doimiy hamrohi bo'lgan. (Xivada umrguzoronlik qilayotgan jiyanim Fayzulla shu "Zinger" tikuv mashinasini hozirgacha ko'z qorachig'iday asraydi. Bu – bizning avlodimiz uchun juda qadrlı meros).

Anajonbika Toshkentda kashtachilik, do'ppido'zlik, ayniqsa, kundalik uchun eng zarur kiyim-kechaklarni tikish bilan shug'ullanib, tirikchilik qilgan. Otam ham "Zinger"da kiyim tikib, xolasining ko'makchisiga aylangan. Yashash oson kechmagan. Yangi kiyim-boshga na hojat. Odamlar bir ushoq nonga zor – tirikchilik ilinjida bo'lishgan.

Haddan ziyod g'am-tashvishlar. Qismatli dunyo...

Abdulhamid Cho'lponning:

"Hasratim ko'p, elga aytolmayman,

Armonim ko'p, dilda saqlolmayman",

– degan satrlarini bot-bot eslab qo'yardi otam. O'sha davr iztiroblari haqida, otamning avlodlari to'g'risida gapirish alohida mavzu.



Otam Alisher Navoiyning “Xamsa”si, Sa’diyning “Bo’ston”, “Guliston” asarlaridan hikoya qilar edi. Ogahiy, Mashrab, So’fi Olloyor, Cho’lpon, Oybek asarlari esimni taniganimdan boshlab miltillagan kerosin lampa chiroqlari ostida qulog’imga quyilgan. Otamdagi go’zal so’zlilik, chuqur bilimdonlik qadimiy Xivada istiqomat qilib, umr bo’yi ilm chiroqlarini yoqib yashagan maxdumzoda bobolaridan meros. Otam o’z zurriyodlarida bobolar ilmi davomiyligi bo’lishini orzu qilgan. Shu sababli barcha farzandlari, akam, opam, singlim 5-sinfdan boshlab Toshkent maktablarida ta’lim olgan.

Otamning qistovi bilan men ham 1963 yil iyul oyi o’rtalarida Toshkent shahridagi 82-maktabning 9-sinfiga hujjatlarimni topshirdim. Maktab faqat yuqori sinfning iqtidorli o’quvchilariga mo’ljallangan bo’lib, Toshkent shahrining hamma maktablaridan kelgan o’quvchilarga qo’shib men ham fizika, matematika, tarix fanlaridan imtixon topshirdim. 9-sinfga kamida 150 o’quvchi qabul qilindi. Men 9-“d” sinfida o’qiy boshladim. Mutaxassislikka qarab, bizning sinfga fizika, matematika fani bo’yicha ko’proq soat ajratilgan edi. Bilimga chanqoqlik bilan o’qish boshlandiyu, lekin 5 sentyabrdan biz o’quvchilar ko’rpa-to’shak, ashqoldashqol bilan yoppasiga shaharga yaqin “Bo’zsuv” xo’jaligiga, poliz mahsulotlari terishga olib ketishdi. Sinfdagi notanish o’quvchilarni bir-birlari bilan dala tanishtirdi. Men rus tilida so’zlashga no’noq edim. Rus tili o’qituvchimiz Asya Izmailova bilim darajam past ekanini sezib, daladan qaytib kelganimizdan so’ng, har kuni kechasi allamahalgacha saboq berardi.

Oradan bir oy o’tib, 6 oktyabrda Mirzacho’lga paxta terimiga haydashdi. Bizning maktabimiz o’quvchilarini Titov nomidagi (sovxoz) xo’jalikning ovloq joyidagi yerto’lalarga joylashtirishdi. Kalamush, sichqonlarga makon bo’lgan bu joydan badbo’y mog’or hidi anqib turardi.

Dala ro’parasidagi devorlari to’kilib, nurab ketgan “dala shiyponi”da qizil alvonlarga yozilgan shiorlar: “Kommunizm sari olg’a!”, “Besh yillik planga ko’ra SSSR Amerika Qo’shma

Shtatlaridan o'zib ketadi", "Sotsialistik musobaqada g'alaba qilamiz!", "Paxtani yuz foiz mashinalarda terib olamiz!" degan yozuvlar butun atrofni "bezab" turardi.

Nikita Sergeevich Xrushchuyov "tashabbusi" bilan makkajo'xori yetishtirishga ruju qo'yilgan 1963–1964 yillarda do'konlarda non, un, makaron mahsulotlarini olish uchun soatlab navbatda turishlar boshlandi.

Tong-sahardan paxta terimiga chiqish oldidan, kerosin hidi, yana allaqanday hidlar anqib turgan, yupqa oq tunukadan ishlangan, sarg'ayib chirkin bosib ketgan titanbak samovarda suv qaynatilar edi. Ichmaslikning iloji yo'q. Tong-saharda uch bo'lak qotib ketgan qora non, ikki dona chaqmoq qand berilardi. Tushlik va kechki ovqatga dog'lanmagan paxta yog'idan tayyorlangan kartoshkali makaron sho'rva...

5 noyabr kuni qor bo'roni izg'ib turgan pallada paxta terish yakunlandi. Maktabimizning yetti nafar o'quvchisini "tez yordam" mashinasida Toshkentga olib kyetishdi. Shular orasida men ham bor edim. Sovuqda ming bir azob bilan uyga kelib, o'n kun to'shakka mixlanib qoldim.

Paxta terimi davrida menda oshqozon yarasi paydo bo'lgan ekan. Kechalari og'riqdan uxlay olmay, to'lg'onib chiqardim. Bu kasallikdan to'rt yil azoblandim. 1969 yil izg'irinli Yangi yil oqshomida oshqozon yarasi yorilib ketib, hushimni yo'qotibman. Shifokorlarning tez jarrohlik yordami tufayli omon qolganman. Tuzalishim cho'zilib, uzoq muddat o'qishga borolmaganman.

O'sha davr men uchun katta sinov, hayot maktabi bo'ldi.

Bilim bergan o'qituvchilarimdan bir umr minnatdorman. Ammo... Lekin... sinfimizda chet tili ikki guruhga ajratilgan edi. Bir paytning o'zida ingliz tilidan Yavorskaya, fransuz tilidan Kupchinskayalar dars berishar edi. Kitobdan mavzularni belgilab berishardi-yu, shivirlashib, kulib gap sotib o'tirishardi. Sinfimiz o'quvchilari chet tillaridan mutlaqo savodsiz bo'lib qolishgan. Ingliz tilidan "saboq" olgan men ham...



Hayot – taqdir meni yoshligimdan mashhur, ulug‘ insonlar bilan ro‘baro‘ qildi. G‘afur G‘ulom, Qori Niyoziy, Vosil Qobulov, Bo‘riboy Ahmedov, Shukur Burhonov, Rahim Pirmuhammedov, Hikmat Latipov, Hamza Umarov... Matematika, fizika sohasi bo‘yicha akademik olimlar Qori Niyoziy, Vosil Qobulovlar Eski shaharning Chorsu yaqinida joylashgan, men o‘qigan 82-o‘n bir yillik maktabni otaliqqa olishgan edi. Biz o‘quvchilar ko‘p bor ular suhbatidan bahramand bo‘lganmiz. Qori Niyoziy har gal kelganlarida, fanda buyuklik yaratgan bobolarimiz haqidagi suhbatdan boshlar edi: “Xorazmiy, Beruniy, Farg‘oniy, ibn Sino, Forobiy, Zamaxshariy, Ulug‘bek... Birinchi navbatda bobolaringiz – buyuklarimiz haqida bilishingiz shart! Hayotda, fanda sen uchun to‘ppa-to‘g‘ri, tekis yo‘l yo‘q. Egri-bugri, chag‘ir toshli, tikanli, suvli... Biz ham qishlog‘imiz so‘qmoqlaridan yurib, past-balandliklardan, suvlardan kechganmiz. Shulardan o‘tolsanggina, orzu qilgan, ko‘zlagan maqsadlaringga yerishasan. Ko‘p o‘qi, o‘rgan. Tariximizni bilishing shart”, – deb, Xo‘jand Qo‘qonda, Samarqand Toshkentda ta‘lim olgan davri, yoshlarga bergan saboqlari va o‘z hayotlarining qismatli yo‘llaridan misollar keltirar edi. Qori Niyoziyning “Hayot maktabi” kitobi biz o‘quvchilar uchun dasturilamal bo‘lgan.

G‘afur G‘ulom bilan qisqagina uchrashuv hayotimda o‘chmas iz qoldirgan.

1965 yil. Qish... Beshyog‘och maydonidagi dorixona yonidan o‘tib ketayotsam yoshi oltmishlarni qoralab qolgan bir odam “Beri kel, o‘g‘lim. Bir insonning hojatini chiqarsang kam bo‘lmaysan”, – deb dorixona ichkarisiga olib kirdi. Qarasam ro‘paramda kitoblarda rasmini ko‘rganim, boshida do‘ppi, uzun palto, etik kiygan G‘afur G‘ulom. Haligi odam oq qog‘ozga o‘ralib, ip bilan bog‘langan ikki to‘p kitobni qo‘limga tutqazdi. To‘plam ancha og‘ir edi. “G‘afur aka, bunisi hisobmas. Keyingi gal ko‘l bo‘yidagi oshxonada Maqsud Shayxzoda, sizning xizmatigingizga doimo tayyor, xushchaqchaq gurungchi Yusufjon Hamdam yana... Suhbatingizni xush ko‘radigan yaqinlaringiz bilan oshxo‘rlikda



otamlashamiz”, – deb ikki qo‘li ko‘ksida egilib, xayrlashdi. Men shunday ulug‘ insonning yonida ketayotganimdan xursandman, hayajondaman... G‘afur G‘ulom xayolga berilib, juda ham sekin, qadam tashlardilar. Ariq ko‘prigidan o‘tib, ellik qadamcha yurganimizdan keyin Muqimiy teatri ro‘parasidagi maydonning qoq o‘rtasida to‘xtadilar. Cho‘ntaklaridan kundalikni (bloknot) kitob ustiga qo‘yib, qalamda unga allanimalarni yozdi. Kitobning yon tomonidan o‘qishga harakat qildim. Qori Niyoziyning men o‘qigan “Hayot maktabi” kitobi. G‘afur G‘ulom orada menga bir qarab qo‘ydilar va o‘ychan holatda gapirdilar. Menga aytdilarmi yoki o‘zlariga... bilolmadim. “Har bir odam baxtli bo‘lishga intiladi. Yaxshi. Baxt o‘zi nima? Birovlar “men baxtliman”, – deb keriladi. To‘qima gapmi? Olifalikmi? Komil inson deymiz. Komillik nima? To‘kislik nima? Hayotdan to‘yib ketdim deydi?! Gap ko‘p... Hayotga kelibsan. Yashayapsanmi? Shukrona qil... Bola-chaqangni o‘yla, o‘qit... Inson umri juda qisqa... Eh, hali sen yoshsan, hamma narsa oldinda. Tuppa-tuzuk bolaga o‘xshaysan, ko‘p o‘qi, o‘rgan, lekin hayotda qoqilma”, – deb gapirib, yana allanimalar yozib, sekin-asta qadam tashladilar. Men orqada kelyapmanu, “Oltinchi sinfda o‘qiyotganimda yoningizda turib, she‘ringizni aytganman”, – dyemoqchi bo‘lamanu, salobatlari bosib, hayajonlanaman. Hovliga kirishimiz bilan, sekin muloyimlik bilan “Hu, onasi, Murkarramxon, biz keldik”, – deb chaqirdilar. Tut daraxti yonidagi o‘tirg‘ichga kitoblarni qo‘yib ketayotganimda G‘afur G‘ulom savolga tutdi. Sakson ikkinchi maktabda o‘qishimni aytganimdan so‘ng, “Tuzik, yaxshi saboq beradigan maktab, direktori Rahmatullaev tarixchi, o‘z fanini mukammal biladi. Bizning millatimiz tarixi dunyodagi eng qadimiylaridan. Buni bilishing kerak. Tilimiz, adabiyotimiz, she‘riyatimiz yuksak. Ko‘tarib kelganing, mana bular hammasi Alisher Navoiy kitoblari... O‘qish kerak, uqish kerak, uqish... Gaplarimni yaxshilab uqib ol. Ko‘p o‘qi, odam bo‘lasan!” – deb qo‘l berib xayrlashdi. Barmoqlari uzun, silliq, taftli edi. Shunday sevindimki, hayotimdagi eng quvonchli onlar... Lekin qal-



bimda bir armon qoldi. Ancha yillar ilgari to'rt qator she'rlarini aytganim, yelkamga qo'li bilan qoqib qo'yganlari... Gapirishga uyaldim. Iymandim... Jur'atim etmadi. Aytolmadim.

2001 yil aprel oyi oxirlarida shoirning tug'ilgan kuni yaqinligi bois, G'afur G'ulom uy-muzeyida qizi Olmos opa bilan uchrashib, ko'rsatuv tayyorlashni rejalashtirdik. Oradan ma'lum muddat o'tib, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bilan birgalikda uy-muzeydan ko'rsatuv tayyorladik. Olmos opa dadasi haqidagi xotiralardan so'zladi. Sirojiddin she'r o'qidi. Tut daraxti yonida turib, 36 yil ilgari yuragimda armon bo'lib qolgan "Aziz asrimizning aziz onlari...", – deb boshlanuvchi she'rni to'laligicha aytdim. Hovli o'rasidagi G'afur G'ulom haykali go'yo tirilgandek, men aytayotgan she'rni tinglayotgandek bo'ldi, nazarimda... Shoir tirik...

Ko'rsatuv G'afur G'ulom tavallud topgan kun, 10 mayda televideniye orqali namoyish qilindi.

Toshkent. 60-yillarining eng katta va mashhur maydonlaridan biri, Beshyog'och...

Vokzal bilan aeroportni Chorsu, Eskijuva orqali bog'lovchi asosiy yo'l shu yerdan o'tar edi. Gavjum bozor, savdo rastalari, oziq-ovqat do'konlari, istirohat bog'i – ko'l, Muqimiy teatri, dorixona, choyxona, oshxonalar... Qoq markazda kun bo'yi odamlar qadami uzilmaydigan Alisher Navoiy nomidagi kinoteatr. Mashhur hind filmlari shu yerda namoyish qilinardi. Tong-sahardan odamlar chipta olishga tirband...

O'qish tugadi deguncha Chorsudan 3 tiyinlik tramvay pulini ayab Beshyog'ochga chopar edik. Kino chiptasiga pul topish ilinjida bozorga kirib turli yumushlar, qovun-tarvuz, oziq-ovqat mahsulotlarini tashish deysizmi, biz uchun farqi yo'q. Maqsad pul topish, 4 tiyinlik mashhur "beshyog'och gummasi"dan yeyish va 20 tiyinga kino tomosha qilish...

O'sha davrda mashhur kinoartistlar suratlarini uydagi yotoqxona devorlariga ilish urfga aylangan edi. Biz maktab

o'quvchilari hind kinofilmlarida aytilgan qo'shiqlarni xirgoyi qilib, aktyorlarga taqlid qilar edik. Havas-da...

Havas 11-sinfni tugatayotgan yetti nafar maktabimiz o'quvchilarini ilk bahor kunlari, A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutining kino va drama aktyorligi fakul'tetiga yetakladi. U yerda bizni aktyorlik mahorati bo'yicha kirish imtihoniga tayyorlashga mas'ul Mixail Fattoxov kutib oldi. To'rt yarim oy davomida haftasiga uch marta kelib, dastlab etyudlar o'rganib, bir nechtdan she'r, monolog, masal, hikoyalar yod oldik. 1966 yil 26 aprel kuni Toshkentda qattiq yer silkinishi sababli, maktabni tugatishimizda uchtagina fandan yengilgina imtihan olishdi.

Maktabdoshimiz kinoaktyorlar qiyofasidagi, baland bo'yli, xushbichim, ovozi jarangdor, jozibali, maktabdagi turli anjumanlarda she'r, g'azal aytganda ko'pchilik e'tiborida bo'lgan Kamolxon Karimov bizni tashlab, fizika ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtini tanladi. Maktabimizni tugatgan o'n nafar o'quvchi san'at oliygohiga hujjat topshirdi. Boshqa oliygohlardan o'n besh kun ilgari, ya'ni 16 iyul kuni imtihonlar boshlandi. Opa-singil Ibrohimovalar va menga, biz uchun muqaddas bo'lgan oliy o'quv yurtiga kirish nasib etdi. Kecha-yu kunduz, ter to'kib qilgan mehnatlarimiz o'z natijasini ko'rsatdi. Oradan yillar o'tib, opa-singillar elga tanildi. Dilorom Ibrohimova (Karimova) O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, singlisi Malika Ibrohimova esa O'zbekiston xalq artisti unvonlariga sazovor bo'lishdi.

Kamolxon Karimov o'z hayotida to'g'ri yo'lni tanlagan ekan. Texnika fanlari doktori, professor. O'zbekistonday go'zal mamlakatimiz, millatimiz dovrug'ini butun dunyoga yoyishda xizmatlari katta. Chet mamlakatda O'zbekiston elchisi bo'lib, o'z sharaflari burchini ado etdi. Uchrashuvlarimizdan birida "Sizga havasim keladi, televizorda gapirasiz. El taniydi", - dedi. "Siz siyosiy arbob, olim sifatida qancha mamlakatlarda xizmat safa-



rida bo'ldingiz, anjumanlarda ishtirok etdingiz, ma'ruzalar qildingiz. Sizni chet ellarda ham bilishadi", – dedim.

Akam hozirgi Milliy universitetning tarix fakultetida, opam fizika fakultetining kechki bo'limida tahsil olishar edi.

Uydagi yetishmovchiliklar sabab, mening ham kechki bo'limda o'qishimga to'g'ri keldi. Kechki rejissyorlik bo'limiga o'qishga kirgan xorazmlik Ibodulla Matniyozov bilan "O'zbekfilm" qoshidagi laboratoriyada kinoplyonka tashuvchi bo'lib ishga kirdik. Oylik o'ttiz so'm. Laboratoriyada zaharli havo bo'lganligi sabab, har kuni sut yo qatiq berilar edi. Ko'pincha o'n tiyinga tandirda yopilgan issiq non olib, qatiq bilan tushlik qilar edik. Oradan yillar o'tdi... Ibodulla Matniyozov Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat teatrida bosh rejissyor bo'lib, ko'plab spektakllar sahnalashtirdi. O'zbekiston San'at arbobi unvoniga sazovor bo'ldi. (Alloh rahmatiga olgan bo'lsin). U kishi bilan umrlarining oxirigacha samimiylilik, do'stlik, ijodiy aloqalarimiz uzilmadi. 1998 yil Jaloliddin Manguberding 800 yillik yubileyi munosabati bilan men mualliflik qilgan uch qismli videofilmida Muhammad Xorazmshoh siymosini gavdalantirdi. 2001 yil "Avesto" kitobining 2700 yilligi munosabati bilan ishlangan videofilmida donishmand, buyuk bir inson qiyofasini yaratdi. Ibodulla aka o'ta madaniyatli, o'qimishli, teran fikrlovchi, falsafiy mushohadasi keng, to'g'ri so'z, halol, pokiza inson edi.

Umrning qalbg muhrlangan eng qimmatli soniyalari...

Talabalikning birinchi kuni. Biri kam ellik yil. Yarim asr...

O'zbek san'ati rivojiga umrlarini baxshida qilgan ustozlar... O'z fanlari sohasida, shogirdlariga ezguliklar, yaxshiliklar (istashgan) ulashgan. Sizga ta'zim... Biz ham muqaddas o'quv dargohiga qadam qo'ydik bugun. Dastlabki nasihatomuz dil so'zlari...

Qancha talabalarni mashhurlikka yetaklagan o'quv xonasi. Dastlabki mashg'ulot... Aktyorlik mahorati bo'yicha ustozlar bilan tanishtiruv: Abdurahim Sayfuddinov, Arsen Ismoilov, Xarlambidis (millati grek). Ular jiddiy, lekin yuzlaridagi tabassumni yashira olishmas edi. Birinchi so'zni ustoz Abdurahim Sayfud-

dinov boshladi: "Tabriklaymiz! Halollik, oqillik, pokizalik bor joyda unum bo'ladi. San'at qadim zamonlardan shu kunga qadar insoniyatni tafakkurga, nurli kunlarga, baxt-saodat ila go'zal chamanlarda yashashga chorlagan. Siz – talabalar, mayda maqsadlaru manfaatlar ichida chuvalashib ketmang. Yuksaklikka intiling. San'at o'rtamiyonalikni yoqtirmaydi. Ikki foiz talant, to'qson sakkiz foiz mehnat... Shoshsang ham shoshmay so'yla, harakatdan to'xtama. Aktyorlik mahorati fani har biringizni oldin fikrlab, o'ylab, keyin so'zlashga o'rgatadi. Qisqasi oldin o'yla, keyin so'yla!" – deb o'z ma'ruzasini yakunladi.

Ustozning qosh-qovog'i soliq, gapirganda o'ta bosiq, bir so'zni ikki marta takrorlamaydigan, nutqi ravon, sof adabiy tilda so'zlovchi, talabchan, jiddiy, kezi kelganda muloyim va mehribon, mulohazali inson edi.

Xarlambidis – 60 yoshdan oshgan, hali ham ko'rinishidan bardam-baquvvat, ozg'in, oq yuzli, sochlari ham oq, silliq qilib orqaga taralgan, o'rta bo'yli inson edi. Qisqa va lo'nda, falsafiy mushohada bilan sekin, samimiy gapiradi, asosan kiyinish madaniyati haqida... Ustozning o'ta madaniyatli inson ekanligi bo'yinbog'ini qanday o'rab taqqanidan ham ma'lum edi.

Arsen Ismoilov o'sha paytda 25 yoshlardagi navqiron yigit bo'lib, o'z ishiga o'ta mas'uliyat bilan yondashishi, jiddiyligi yoshini ancha ulg'aytirib ko'rsatar edi. Qaddi qomati tik, epchil, harakatchan bu inson to'rt yil davomida kursimizga rahbarlik qilib, aktyorlik mahorati va sahna harakati fanidan saboq berdi. Arsen Ismoilov professional aktyorlar uchun nihoyatda zarur bo'lgan sahna jangi, qilichbozlik va sahna harakati sirlarini o'rgatuvchi, talabchan, mohir, o'z sohasining haqiqiy ustasi. Birinchi ish faoliyatini biz bilan boshlagan ustoz, uzoq yillar davomida yoshlarga murabbiylik qildi. Institut "Sahna harakati" kafedrasi mudiri, professor darajasigacha yetib bordi. 80 yoshni qoralab qolganlariga qaramay, bir joyda o'tirolmaydi, tinib-tinchimaydi, hali-hanuz yoshlarga mehribon ustoz. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,



Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Arsen Ismoilov qo'lida tarbiya topganlar elda mashhur bo'ldi, yurtga tanildi, hukumatimizning qancha unvonu mukofotlariga sazovor bo'lishdi.

O'zbekiston xalq artisti, oliy toifali diktir Mirzohid Rahimov, O'zbekiston xalq artisti, mashhur kinoaktyor Murod Rajabov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, teatr va kino aktyori Gulchehra Sa'dullaeva bilan bir darsxonada yonma-yon o'tirib, Arsen Ismoilovday san'atga o'z umrlarini baxshida qilgan ustozlardan ta'lim olganmiz. Gulchehra 18 yoshida Abdulla Qodiriy asari asosida yaratilgan "O'tkan kunlar" badiiy filmida Zaynab obrazini yaratdi. 60-yil oxirlaridan boshlab ko'plab televizion teatrlarda bosh rollarni ijro etdi. Respublika "Yosh tomoshabinlar teatri"dagi ijodiy faoliyati maqtovg'a loyiq.

Birinchi kursda sahna mahoratidan etyud mashqlarini Murod Rajabov bilan birgalikda bajarar edim. Ko'pincha men voqelikni o'ylab topardimu, shu zahoti Murod aktyorlik mahoratini ishga solardi. O'qishning dastlabki kunlaridanoq, uning talanti yarq yetib ko'zga tashlandi. 70-90-yillarda teatr va kinoda ko'plab milliy siymolarni yaratdi. El uni olqishladi. Uning ijrosida o'zbek kinosida o'zbekona yangi qiyofalar paydo bo'ldi. O'zbek kinosi tarixida o'chmas iz qoldirayotgan san'atkorlardan biri... Murod Rajabov bilan hamkorligimiz keyinchalik yana davom etdi. 1996-97 yillarda men mualliflik qilgan "Bir o'lkaki..." ko'rsatuvida rejissyorlik va men bilan birgalikda boshlovchilik qildi. Biz Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida ijodiy safarlarda bo'ldik. Ko'p qismli ko'rsatuvlarga tele-tomoshabinlarning mehri tushdi. O'zbek adabiyotida o'lmas siymo Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning she'ri asos qilib olingan "Bir o'lkaki..." ko'rsatuvining ovozi qiru adirlar, sahroyu daryolar, tog'lar osha aks-sado berdi.

1990 yilda tashkil qilinib, mutassil ikki yil namoyish qilingan "O'zanini topar daryolar" ko'rsatuvi 1996 yildan "Bir o'lkaki" deb nomlanib, dastlabki ko'rsatuvlarning o'zagi va davomiyligi hisoblanadi. Men mualliflik va boshlovchilik qilgan "O'zanini

topar daryolar” ko’rsatuviga mashhur kinorejissyor Jahongir Qosimov rejissyorlik qildi. Ko’rsatuvda Vatan, millat haqida kuy-lanib, tarixiy Afrosiyob, Samarqand yodgorliklarining o’tmishi va bugungi qiyofasi, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, Mirzo Bobur-larning siymolari, hujjatli badiiy publitsistik film darajasida tasvirga olindi. Ko’rsatuvda adiblar Tohir Malik, Xayriddin Sultonov, Xurshid Davron, aktyorlardan Hojiakbar Nurmatov, Sayyora Yunusova, Karim Mirhodiev, Said Muxtorov ishtirok yetishdi. Jahongir Qosimov dunyo rejissurasini chuqur bilgan, o’zbek kino rejissurasi, televizion rejissurasida o’ziga xos uslub yaratgan, teran fikrlovchi, keng mushohadali ijodkor.

“O’zanini topar daryolar” ko’rsatuvi o’lmas shoir Abdulhamid Cho’lponning, “Hasratim ko’p elga aytolmayman, armonim ko’p dilga joylolmayman” – degan she’riy satrlari bilan boshlanar edi. Ko’rsatuvlarning ayrimlari o’sha davrda taqiqlandi. Millatimiz ulug’ligi, qadimiyligimiz haqida gapirish, Amir Temur, Boburday buyuk bobolarimiz to’g’risida ijobiy fikrlar aytish aslo mumkin emas edi. 1918-20 yillardagi milliy xalq ozodlik harakati haqida ham to’xtalib o’tgan edik. Ko’rsatuvlar bir yil chang bosib yotib, 1991 yil Mustaqillik bayramidan keyingina efir yuzini ko’rdi.

1966 yil, 31 avgust. Birinchi marta telekamera ro’parasidagi hayajonli daqiqalar...

Umr lahzalarini belgilovchi tasodifiy uchrashuv...

Mening O’zbekiston televideniyesi ostonasiga dastlabki (U paytlar Toshkent telestudiyasi deb nomlangan) qadamni qo’yishimga, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan jurnalist Tohir Mullaboev sababchi bo’ldi. Tohir aka uzoq yillar bolalarga bag’ishlangan rang-barang ko’rsatuvlarga muallif va muharriklik qildi. Doimo yuz-ko’zlarida tabassum balqib turadigan, ochiq chehrali, bolalarday beg’ubor, shoir tabiat inson. Mening she’r o’qishga havasim va iqtidorimni ko’rgan Tohir Mullaboev televi-deniya o’qishim uchun “Ustoz” nomli she’rini qo’limga tutqaz-di. She’r menga ma’qul keldi. Yod oldim. Ne baxtki, bolalar uchun yangi o’quv yiliga bag’ishlab tayyorlangan ushbu ko’rsatuv bosh-



lovchisi, men ko'rsatuvlarini sevib tomosha qiladigan diktör Nasiba Ibrohimova ekan. Ko'rsatuvda ishtirok etadigan barcha bolalar ichida opaning menga qarata aytgan fikrlari hali-hamon yodimda...

"Hozir ko'rsatuv boshlanadi. Minglab tomoshabinlar sizni ko'radi, gapingizni, she'ringizni tinglaydi, zavq oladi, xulosa qiladi. Siz kamera ro'parasida turib, minglab odamlarga qarata gapirishingiz kerak. Buning iloji yo'q. Gapira olmaysiz. Faraz qiling. Go'yo, kamera ichida eng yaqin insonlaringizdan biri turibdi. Siz birgina shu odamga qarata gapiring. Shunda yuzlab, minglab televizor qarshisida o'tirgan tomoshabinlarning har biri "menga gapiryapti" deb, o'ylasin. Hozir siz hayajonlanyapsiz. Chunki siz mas'uliyatni sezyapsiz, his qilyapsiz. Albatta, hayajon bo'lishi tabiiy hol. Bu yaxshilikdan dalolat. Nim tabassum ila oddiy, samimiy gapirishga harakat qiling", – deb Nasiba opa menga oq yo'l tiladi.

Televideniyaedagi birinchi ustoz... Dastlabki saboq...

Shu so'zlardan so'ng telekameraning kichkinagina oynachasi meni sehlrab qo'ydi. Gapirib, she'r aytayotganimda kamera ichida go'yo odam qiyofasi gavdalanganday bo'ldi.

Televideniyaedagi ilk qadam...

Xalq e'tiboridagi diktör bilan uchrashuv men uchun mo'jiza edi.

Televideniyaeda gapiruvchilar xoh u diktör, diktör, boshlovchi, fan haqidagi ko'rsatuvlarni olib boruvchi olim, adabiy ko'rsatuvlarda boshlovchilik qiluvchi shoiru yozuvchilar, adabiyotshunoslar, kim bo'lishidan qat'i nazar o'z davriga yarasha, o'sha davr nuqtai nazaridan chiqishlar qilinardi. Ko'p hollarda televideniyaeda so'zlovchilar erkin gapirmasdi, gapira olmasdi, stsensariya yozilganidan chiqmagan holatda (nuqta, vergullargacha e'tibor berib) o'qib berishar edi. Bu o'sha "davir" talabi edi... (senzura kuchli bo'lgan.)

60-yillarda televideniyaedagi ko'plab ko'rsatuvlarni olib borish diktörlarga vazifa qilib yuklatilgan. Diktör – xalq orasida har tomonlama o'rnak bo'ladigan – shaxs. Madaniyatli, o'qimishli,

keng fikrlovchi intizom – odob-axloqda barcha havas qiladigan – inson. Qisqasi, haqiqiy diktor – turli mish-mishlaru har xil mayda-chuyda gap-so'zlardan yiroq – xalq minbaridagi shaxs. Senga hamma havas bilan qarasin, senday bo'lishga intilsin. Chunki sen doimo insonlar nigohidasan, qalbidasan.

Nasiba Ibrohimova – o'qimishli, har tomonlama teran fikrlovchi, tafakkur olami keng, oddiy, samimiy, hayotiy gapira oladigan diktorlardan biri edi – doimo xalq olqishida bo'lgan.

Nasiba Ibrohimovanning adabiy-badiiy ko'rsatuvlar, "Axborot"ni olib borishi, qishloq xo'jaligi, sanoatga oid ko'rsatuvlarni, har bir chiqishini tomoshabinlar orziqib kutardi. Olib borish uslubi meni ham maftun etardi. "Mening opam ham shu diktorday ko'rsatuvlar olib borsa", – deb orzu qilardim.

Orzu...

Men bir umr televideniye ga bog'lanib qolaman, diktor bo'laman, deb hech o'ylamaganman. Ancha muddat turli ko'rsatuvlarda she'rlar o'qib suhbatlarda qatnashib yurdim. Ko'rsatuvlarda qatnashish men uchun oson kechmagan. Ancha murakkab jarayonlar, to'siqlardan o'tib, dastlab bolalar uchun tayyorlandigan "Otalarimiz jasorati" ko'rsatuvini, undan keyin "Yoshlik" studiyasining qator ko'rsatuvlarini, jumladan, "Istiqbol egalari", "Studentlik oltin davrim" ko'rsatuvlarida Dilfuza G'ulomova bilan birgalikda boshlovchilik qildim. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, rejissyor Mirabbos Mirzaahmedovning shu ko'rsatuvlarda boshlovchilik qilishimda xizmatlari beqiyos. Mirabbos Mirzaahmedov uzoq yillar "Otalar so'zi, aqlning ko'zi" ko'rsatuviga rejissyorlik qilgan, keyinchalik shu ko'rsatuvlarda Ota qiyofasini gavdalantirgan. Shu kunlarda ham nafaqada bo'lishiga qaramay, tinib-tinchimay matbuotda chiqishlar qiladi.

Talabalikning ilk kunlari...

Sahna nutqi o'qituvchimiz Sotimxon Inomxo'jaev: "Qator turinglar... Engashmang", – deb biz talabalarni bittalab tekshiruvdan o'tkazdi. "Gavdangni tik tut... Qaddingni g'oz ushla", – derdi.



Eng asosiy talablaridan, talaffuzni tuzatish, soʻz ustida ishlash, sof oʻzbek tilida gapirishni oʻrganing.

Artikulyatsiya, diktsiya, nafas va ovoz gimnastikasi ustida mashqlar bajaramiz. Bularning har birini alohida soatlarga ajratamiz. Har bitta harfga alohida-alohida toʻxtalib, mashqlar bajaramiz... p-f, x-h, q-gʻ, ch-s...

“...i – a – o – u – e – oʻ ... oʻzbek tilining goʻzalligi, nafisligi, jozibasi, jarangdorligi va ravonligi unli tovushlar tufayli”, – deb taʼkidlardir har bir mashq avvalida ustoz.

“Notiqlik sanʼati boʻyicha shunday bilim olginki, kelgusida u senga yoʻlchi yulduz boʻlsin. Sening ijoding, mahorating, har qanday insonning yuragidan, qalbidan joy olsin!”

Biz talabalar, oʻz kasbining mohir ustasi, fidoyisi Sotimxon Inomxoʻjaevdan mutaxassisligimiz boʻyicha toʻrt yil saboq oldik.

Millatimiz tarixi, eski oʻzbek tili va fors tillarini mukammal bilgan, odamlarga yaxshiliklar istovchi bu pokiza inson xastaligi sabab, keksalikkacha yetib bora olmadi. (Oxiratlari obod boʻlsin)

Oʻzbekistonda ilk bor koʻrsatuvlar (televizion koʻrsatuvlar 1956 yil 5 noyabr) efirga uzatilganligining 10 yilligi munosabati bilan tayyorlangan dastur kelajagimga umid uygʻotdi.

Maʼlumot oʻrnida shuni aytish mumkinki, ular birinchilardan edi. Ijodiy ishlar boʻyicha direktor Mirsolih Miraʼzamov, texnika direktori Marziya Abdullaeva, rejissyorlar Bobo Xoʻjaev, Armugʻon Muhamedov, tasvirchi (operator) Poʻlat Rasulov.

Birinchi koʻrsatuv qaldirgʻochlari – diktorlar Iqbol Olimjonova, Yunona Stolyarovalar. Keyinroq bu diktorlar safiga Galina Melnikova bilan Raʼno Madrahimova (“Mahallada duv-duv gap” filʼmida arxitektor qiz rolini ijro etgan) qoʻshildi.

60-yillar televideniyesi hozirgi davr televideniyesiga nisbatan juda ibtidoiy boʻlgan – texnika jihatidan ham. Lekin oʻz davri-ning moʻjizasi boʻlgan.

Televideniye asr, davr ixtirosi, katta bir kashfiyot yangligʻ xonadonlarga kirib bordi. Dastlab, oʻz imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, koʻproq kinofilmlar, kontsertlar namoyish qilindi.

Butunlay yangi soha bo'lganligi bois, ijodiy jarayonlarda maxsus mutaxassislar kam bo'lgan.

Televideniye talabi – intilish, izlanuvchanlik, o'z davri – jamiyat, milliy yashash tarziga xos, qizg'in ijodiy izlanishlar davri boshlandi. Yangi nomlar kashf etildi.

Televideniye tug'ilganidan buyon, hayotning har jabhasida, odamlarga hamroh, hamqadam. Televidenie insonlarni ma'naviy-ma'rifiy kamolotga eltuvchi katta kuch. Televideniye imkoniyatlari beqiyos...

1969 yil sentyabr oyida Toshkent televideniye studiyasiga (diktör) diktör bo'lib ishlash uchun, televideniye orqali maxsus tanlov e'lon qilindi.

Muttasil bir oy davom etgan e'londa "o'zbek va rus tillarini mukammal bilishi shart" degan so'zlarga alohida urg'u berilgan. Tavakkal qilib, hujjatlarni topshirdim. O'sha yilgi tanlov – televideniye tashkil bo'lgandan 13 yil keyingi eng katta tanlovlardan biri bo'lgan. Ishtirokchilar yuzdan ziyod. Bitta o'ringa... Menda qo'rquv paydo bo'ldi. Nega?..

Televideniyedagi ijodimda atak-chechak davrim o'tib, uning eshiklari men uchun keng ochilgan bo'lsa? Nega shubha, ikkilanish.

1966 yildan boshlab, to'rt yil davomida katta-kichik ko'rsatuvlarda ishtirok etdim. Yillar mobaynida "Yoshlik" studiyasi ko'rsatuvlarida boshlovchilik qildim. Ancha-muncha tajribaga ega bo'ldim. Keng xalq ommasiga mo'ljallangan bu ko'rsatuvlarning o'z tomoshabini bor edi.

60-yil oxirlaridan boshlab, radioda "Yoshlik" radiostansiyasi eshittirishlarida O'zbekiston xalq artisti Rixsi Ibrohimova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimi Dilfuza G'ulomova bilan birgalikda boshlovchilik qildim.

Eshittirishlarda tinmay band bo'lishimga imkoniyat yaratgan radiorejissyor Rustam Yovqochev mendan nazariy va amaliy bilimni ayamadi. Tilni charxlashda radio imkoniyatlari beqiyos.



Garchi men televideniye ko'rsatuvlarida, radioeshittirishlarda boshlovchilik qilayotgan bo'lsam-da, 1969 yilda televizion teatr rejissyorlari taklifi bilan rollar ham ijro etdim.

Amerika yozuvchisi Teador Drayzerning "Amerika fojiasi" romani asosida yaratilgan ikki qismli televizion teatrdagi (rejissyor Ganja Yoqubov) Frank Gariet rolini ijro yetishim, televizion teatrdagi hatto kichkinagina epizodik qiyofada chiqmagan men uchun tasavvur qilish qiyin bo'lgan katta voqelik edi. Ustiga-ustak, televizion teatr ishtirokchilari teatr va kinoda suyagi qotgan mashhur aktyorlar: O'zbekiston xalq artistlari Turg'un Azizov, O'lmas Alixo'jaev, Oydin Norboeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Svetlana Murodxo'jaeva, Mahmud Do'smatovlar edi.

Oradan bir oz fursat o'tib, Zinnat Fatxulinning "G'unchalar" spektakli asosida yaratilgan ikki qismli televizion teatrdagi rejissyor Mirzakarim Boboev, rollarda O'zbekiston xalq artistlari Maqsum Yusupov, Sur'at Po'latov, Naima Po'latovalar (davrasida) qurshovida bosh rol – yetim bolani ijro etdim. Singlim rolini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nafisa To'xtaeva ijro etdi.

Hayotimda televideniye va radio umrim mazmuniga aylanib bordi. O'zimni usiz ayro tasavvur eta olmayman. Bas, shunday ekan, asosiy maqsadim ne bo'lganda ham diktorlar tanlovida g'olib bo'lish.

Nazarimda, menda nimadir yetishmayotganday... yana shubha, ikkilanish...

Odamning voyaga yetib, shakllanishida muhit, yaxshi odamlar ta'siri katta. Men o'sha daqiqalarda hayot maktabini ko'rgan, bilimdon, olijanob insonlar qurshovida bo'ldim.

Ana shulardan biri, notiqlik san'ati bilimdoni, nutq madaniyati bo'yicha respublikamizdagi eng yetuk mutaxassislardan biri, O'zbekiston xalq artisti, professor Nazira Alieva edi.

Televideniyedagi badiiy, she'riyat bilan bog'liq ayrim chiqishlarim doimo shoir va adib Turob To'la, Nazira Alieva kuzatuvla-

rida edi. Ularning har bir tanqidiy fikrlaridan to'g'ri xulosa chiqarishga harakat qilardim.

Turob To'la 40-yillarda radioda diktorlik qilgan. Shu tufayli ham o'ziga xos badiiy so'z aytish san'atiga ega ijodkor edi. 80-yillar boshlarida matbuotda – "Sharq yulduzi" jurnali orqali menga tosh otilganda o'z muhofazasiga olgan insonlardan biri Turob To'la edi.

Tig'iz payt keldi. Ustozim Nazira Alieva talabalar bilan mashg'ulot, kundalik yumushlaridan vaqt ajratib, gohida o'quv xonasida, ba'zan uyida – nabiralari qurshovida meni diktorlar tanloviga tayyorlay boshladi. Har kuni bir, bir yarim, gohida ikki soatdan mashg'ulot.

"Nega kayfiyating yo'q, xumpar", – dedi bir kuni opa. (Opa "xumpar" so'zini yerkalash ma'nosida aytar edi) "O'zingni qo'lga ol! Optimist bo'l! Do'stga ham, dushmanga ham o'zingni zaif, nimjon qilib ko'rsata ko'rma, xumpar. Odam o'zini-o'zi tarbiyalay bilishi lozim. Qalbingda maqsad, ishonch, orzular jo'sh urib tursa, yurishu turishing, qadam tashlashing ham o'zgarib, chehrang ochiq, yuzing yorishib turadi. Ishingda baraka, katta natijalar, yutuqlar bo'ladi. Doimo seni yaxshiliklar kutadi. Senga atrofdagilarning hurmat, e'tibori oshadi".

Ustoz nazariy-psixologik, ham amaliy mashg'ulotlar uslubi bilan, ham teran fikrlari ila meni ijodda yuksakliklar sari yetakladi.

So'zlarni to'g'ri talaffuz qilib, jo'shqin, ifodali o'qish sirlarini o'rgatdi. Siyosiy, qishloq xo'jaligi mavzusidagi lavhalarni qanday talqin qilish kerak, "Axborot" dasturi qanday o'qiladi, hamma-hammasini birma-bir, batafsil o'rganishga harakat qildim.

Opa rus tilini yoshligidan mukammal bilgan. Shu tufayli ham rus tilida o'qishni, talaffuz qilishni o'rganishim ancha oson kechdi. Rus shoiri Sergey Yesenin she'rlarini rus tilida yodlatib, ifodali o'qishning ayrim jihatlariga ham e'tiborni qaratdi. O'zbek shoirлари Asqad Muxtor, Abdulla Oripov she'rlaridan yod olib tayyorgarlik ko'rdim.



Badiiy o'qish sirlari – sochma, barmoq vaznidagi she'rlar qanday o'qiladi, opadan batafsil saboq olgan edim. Hozirgi kungacha o'rgatganlariga amal qilib, yoshlarga ham saboq beraman. Shu tufayli, 2010–2014 yillar oralig'ida "Yoshlar" telekanalida 10 martadan ko'p namoyish qilingan "13 studiya" ko'rsatuvida "she'rni qanday o'qish kerak"ligi haqida ma'lumot berdim.

Ustozim Nazira Alieva "San'at – mening hayotim" kitobida yozadi: "...mening bobokalonim birinchi o'zbek generali Jo'rabek (Jo'rabek Qalandarov qori o'g'li) g'oyat xalqparvar, olijanob kishilardan biri bo'lgan ekanlar. Bobomning to'ng'ich farzandi Olloqulibek Jo'rabekov ham yuksak malakali harbiy qo'mondon bo'lgan ekan. Bobomeros an'analarni davom ettirgan mening dadam Nasriddinbek ham uzoq yillar polkovnik darajasida ishlaganlar...

Jo'rabekning evara-chevaralari orasida yirik davlat arboblari, harbiy qo'mondonlar, taniqli olimlar va nihoyat, men ham borman.

Men onamdan juda yosh yetim qolganman. Onam yevropa-cha ta'lim olgan, yuksak madaniyatli va bilimdon ayol bo'lgan ekanlar. Aytishlaricha, menda ham onamning ko'p jihatlari bor emish.

Ayam olamdan o'tgach, men xolam Ulfatxon (aslida ismlari O'g'iltoyxon) Jo'rabekovanning tarbiyalarida qolganman".

Bu qalbi saxiy, daryodek bag'rikeng ayolning menga bo'lgan cheksiz muruvvatining yana bir qimmatli tomoni shundaki, u o'z hikoyalari, xalqimiz yaratgan dostonlar haqidagi qator suhbatlari, naqlari bilan meni nafosat dunyosiga olib kirdi, adabiyot, san'at olamiga ulkan mehr uyg'otdi".

Nazira Hakimbekova (Alieva) 1925 yildan Bokuda Ozarbayjon Davlat Turk teatr texnikumida o'zbekning mashhurlari – xalq artisti Halima Nosirova, O'zbekiston xalq artisti Sayfi qori Olimovlar bilan birgalikda tahsil oladi. So'ng Moskvada – Markaziy teatr san'ati texnikumida o'qishni davom ettiradi. Texnikum bazasida tashkil qilingan Davlat teatr san'ati institutini tugatib,

taqdir taqozosi bilan yana Bokuga qaytib keladi. Opa Ozarbayjon tilini mukammal bilardi. M. Azizbekov nomidagi Ozarbayjon drama teatrida V. Shekspirning "Otello" spektaklida Dezdemonaga va qator pyesalarda yetakchi rollarni sof ozarbayjon tilida ijro etgan. Shu bilan birgalikda o'qituvchilik faoliyatni davom ettirib, o'zi ta'lim olgan, teatr texnikumida sahna nutqi fanidan yoshlarga ta'lim beradi.

Nazira Alieva 30-yillar o'rtalarida O'zbekistonga butunlay qaytib keladi. O'zbek teatri asoschilaridan Mannon Uyg'ur, Etim Bobojonovlardan o'zbek teatrining o'ziga xos sirlarini, milliylikni qunt bilan o'rganadi. Teatrda Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo'jaev, Sora Eshonto'raeva, Obid Jalilov, Zamira Hidoyatova, Xolida Xo'jaevalar bilan yonma-yon turli rollar ijro etadi.

Nazira Alieva ustozlari Mannon Uyg'ur (Og'a) haqida bot-bot es-lardi, hurmat bilan tilga olardi:

– Unlilar nutqning ko'rki, lazzati, – der edi Og'a, – shuning uchun unli tovushlarning to'laqlonli, burro talaffuz etilishiga alohida e'tibor berish zarur. Xususan, unli tovushlar so'zning oxirida kelganda judayam jiddiy e'tibor berish, judayam aniq va burro gapirish kerak. So'zlarni yodlab gapirmanglar. Eng avvalo, o'sha so'zlarning mag'zini chaqib olib, keyin gapiringlar..." – deb o'rgatgan. Men ustoz so'zlariga doimo amal qilib keldim. Xuddi shu asnoda shogirdlarimga ham o'rgataman, –degan edi Nazira Alieva o'zining "San'at mening hayotim" kitobida.

1945 yil Toshkent Davlat teatr san'ati instituti ochiladi. Mannon Uyg'ur va Nazira Alievalar pedagogika ishiga taklif qilinadi. Opa o'zbek sahna nutqi darsi o'qitilishiga birinchi qadamlarni qo'yish sharafiga muyassar bo'lganlardan biri.

Men opa haqida ko'proq to'xtalдим. Nazira opa – har qanday maqtovga loyiq. Opa – hayotim davomidagi eng sevimli insonlarimdan biri, haqiqiy ustozim edi.

Barcha shogirdlari qatori men ham opaning mehr bulog'idan suv ichganman. Ustoz aytganlariday: "Qalbingda, yuraging-



da, quloqlaring ostida “o‘zbek tilining ohangdorligi” doimo jaranglab tursa bas, u seni ijodda yuksakliklarga yetaklaydi...”

Nihoyat, ko‘rik tanlov kuni ham yetib keldi.

O‘zbekiston Davlat teleradioqo‘mitasi raisining muovini Ubay Burhon boshchiligida, rejissyor, muharrir, tasvircilardan iborat nufuzli badiiy kengash ish olib bordi.

Diktorlikka qiziquvchi yuzdan ortiq talabgorlarning bari, bir necha kun davomida televizion kamera orqali bitta-bittalab ko‘rikdan o‘tkazildi. Go‘yo rentgenda tekshiruvdan o‘tkazilgani singari. Yuz tuzilishi, husn-qiyofasi (ayniqsa, qizlarning) ekran-ga tushadimi, yo‘qmi? Saralandi.

Vaqt o‘tib, bilim darajasi, erkin fikrlashi, qobiliyati, nutqi, so‘zlarni qanday talaffuz qiladi – savol-javob tarzida suhbat bo‘lib o‘tdi. Undan keyin esa o‘zbek va rus tillarida gazetada bosilgan xabarlardan “Axborot”, “Yangiliklar” qanday o‘qilsa, kamera orqali o‘qittirib ko‘rishdi. Ifodali badiiy o‘qish va she’r aytishimizgacha tekshiruvdan o‘tdik. O‘zbek shoirlarining she’rlarini o‘zbek tilida, Sergey Yesenin she’rlarini rus tilida aytdim.

Ko‘rik to‘rt bosqichdan iborat bo‘lganligi sababli, uzoq mud-dat davom etdi.

Oxirgi yakuniy tanlovda ikkita qiz, Mamajon Nurmatov degan yigit va men qoldim. Ubay Burhon qabulxonasida yengilgina savol-javob bo‘lib o‘tdi. Qabulxonaga ish yuzasidan kirib-chiquvchilar ko‘payganligi sabab suhbat oxirigacha davom etmadi. Xonadan chiqdik. Qatorasiga navbat. Rahbar uchun ming bir tashvish, ming bir ish.

Bizni rahbar xonasiga yetaklab kelgan, bosh diktor O‘ktam Jobirov kayfiyatsiz bir holatda “Sizlarni xabardor qilamiz... Chaqiramiz... Qo‘ng‘iroq qilib turinglar”, – deb xayrlashdi. Oradan kunlar o‘tdi. Jimlik...

Rejissyor Mirabbos Mirzaahmedov ko‘rsatuvlarida boshlovchilik qilar edim. Yoshlarga bag‘ishlangan “Istiqbol egalari” ko‘rsatuvi va ssenariysini olib kyetishga kelayotganimda, tele-

videniye hovlisida O'ktam Jobirovga ro'baro' keldim. "Mulla, ko'rinmay ketdingiz, qo'ng'iroq ham qilmaysiz, xonaga kiring, hozir kelaman", – deb, o'tib ketdi. (O'ktam aka biz yoshlarni erkalab "Mulla" deb chaqirardi). Diktorlar xonasiga kirsam, oxirgi ko'rikda qatnashgan qizlardan biri o'tiribdi. Salomlashdik. "Sen ham keldingmi?" deganday menga taajjubda, hayratomuz, mensimayroq ko'z ostidan qarab qo'ydi.

O'sha davrda "O'zbekiston xotin-qizlari" (hozirgi "Saodat" jurnali) jurnali muqovasida shu qiz suvrati chiqqan edi. Marg'ilon do'ppisida, qirq o'rim sochi oqib turgan suvga tegay-tegay deb turgan go'zal, xushsuvsat qiz timsoli. Hali ham suvratdagiday o'sha go'zal qiyofa. Qirq o'rim sochlari tovongacha tushib turibdi.

Bir ozdan so'ng xonaga O'ktam aka tabassum bilan kirib keldi. "Rahbarimizga har ikkalangiz ham ma'qulsiz", "Otincha" siz ham (O'ktam aka qizlarni hurmat qilib, "Otincha" deb chaqirardi) Farhodga o'xshab ko'rsatuvlar olib borishingiz zarur. Hali-gacha televideniye ekranida biron marta ham ko'rinmagansiz. Qarang Farhodni, Ubay Burhonning ko'rsatmasi bilan katta mu-siqali ko'rsatuvga boshlovchilik qilyapti.

1970 yil 23 yanvar'. Hayajonli, quvonchli daqiqalar. Bundan oldin qancha ko'rsatuvlarda ishtirok yetib, boshlovchilik qilgan bo'lsam-da, bunchalik hayajon bosmagan edi. Bu galgisi men uchun katta sinov, imtihon.

Mening hayotimni, go'yo, taqdirimni belgilovchi sinov...

Tamaraxonimning shogirdi, ustoziga o'xshab, qo'shiqlarini aytayotib, ularni raqslari orqali bayon etuvchi, o'ziga xos nafis ovozda kuylovchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Gul-shod Otaboeva uchun ham unutilmas kun. Bu san'atkor jonli ijroda 40 daqiqa kuyladi.

Shoir Yong'in Mirzo ko'rsatuvga xos yetti varaqdan iborat sena-riy tayyorladi. Men ko'rsatuvga bir hafta tayyorgarlik ko'rdim.

Ko'rsatuv muharriri, shoir Anvar Isroilov, ko'rsatuv rejissyori Larisa Inozemtsevalar so'zlarning mag'zini chaqib, hayotiy, od-diy, samimiy gapirish kerakligi haqida saboq berishdi.



Larisa Inozemtsevaning o'zbek millatiga bo'lgan hurmati, mehri sabab, o'z ona tilida qanday so'zlasa, o'zbek tilida ham shunday gapirardi. Adabiyotimizga, san'atimizga qiziqishi katta bo'lib, o'zbek madaniyatini jon dilidan sevardi.

Rejissyor Larisa opaning ko'rsatuvdan oldin aytgan dil so'zlari qalbinga ko'chdi: "Farhod men sizni kamera orqali kuzatyapman. Hayajonlanyapsiz. Bu yaxshi. Shunga yarasha, tabassum ila yuragingizni, qalbingizni oching. Chehrangiz yorqin, sochlarinigiz taralishi-yu, bo'yinbog'ingiz bog'lanishi, hamma-hammasi joyida, yarashqli. Men ishonaman. Bor mahoratingizni ishga sola bilasiz. Diqqat. Boshlaymiz!.."

Ikkinchi qavatdagi diktorglar gapiradigan kichkina maket studiyasida tasvirchi va men. Yurak duk-duk urib, soniyalar ketmoqda. Larisa opa aytgan so'zlar menga dalda bo'ldi. Ruhiyatim tetikalashdi. His-hayajon ichra gapirayotib, go'yo men oppoq bulutlar aro parvoz qilmoqdaman...

Mening kamtarona suhbatim, sozandalar jo'rligidagi milliy, xalqona, jozibador qo'shiqlar yangrab, o'lkamiz bo'ylab, xonadonlarga kirib bordi.

Ustozlar aytgan talabu o'gitlarni qanchalik uddaladim, bilmayman. Go'yo tushda ko'rganday, hammasi bir zumda o'tdi-yu ketdi.

Tasvirchining "Yaxshi olib bordingiz", – degan so'zi qu-log'imga chalindi. Maket studiyasidan chiqdim-u ko'zlarim qorong'ilashib ketdi. Yechimini kutayotgan nihoyatda muhim sinovdan o'tdimmi, yo'qmi?!

Rejissyor pulti yonida turgan ko'pchilik orasidan baland bo'yli, qaddi qomati tik, salobatli, sochlariga oq oralagan Ubay Burhonga ko'zim tushdi. U jiddiy tarzda ko'rsatuv ijodkorlariga nelarnidir uqtirar edi. Ko'rsatuv muharriri Anvar Isroilov, rejissyor Larisa Inozemtsevalar so'zsiz bosh chayqash bilan javob berishardi.

Musiqali ko'rsatuvlar bosh muharriri San'at Ro'zimatov va muharrir Anvar Isroilovlarga "Bu yigitdan ko'proq foydalaninglar", – deya xonani tark etdi.

Larisa opa: "Nega xomushsiz. Sinovdan yaxshi o'tdingiz", – dedi. Anvar aka uning so'zini davom yettirdi: "Tabriklayman seni. Boshlanishi yomonmas. Ubay Burhon rahbar sifatida o'ta talabchan. Hamma ko'rsatuvlarni yoqtiravermaydi. Ayniqsa, diktor, boshlovchilar masalasida... Ko'rinishiga, talaffuziga, aytayotgan har bir so'ziga, alohida, o'ta sergaklik bilan e'tibor beradi. Maqtash, maqtanishni o'ziga ep ko'rmaydi. Menimcha, bugungi ko'rsatuv Ubay akaga ma'qul bo'ldi, chog'i. Rahbar aytganday, musiqali ko'rsatuvlarga seni jalb qilamiz. Yangi loyihalarimiz bor. Jamoamiz bilan kelishgach, sening ko'rsatuvni olib borish qobiliyatingga qarab, mosini tanlaymiz", – deya qo'limni mahkam siqib xayrlashdi.

Negadir qor uchqunlab turgan ayozli oqshomda Navoiy ko'chasi bo'ylab, piyoda yurgim keldi. Ko'cha bo'm-bo'sh. Odam zoti ko'rinmaydi.

Xursandlik chetga surilib, jismu jonim, qalbim ma'yuslanib qoldi. Bekatga kelib to'xtagan tramvayga chiqmasdan, Xadra maydonidan o'tib, Chorsu tomon yurdim. Chaqar bekatidan o'tuvchi birinchi tramvayga ham o'tirmadim. Izg'irin shamolda yuzimga kelib urilayotgan qor uchqunlariga ham parvo qilmay, tosh yotqizilgan ko'chada tramvay izlari bo'ylab yurarkanman, qadamim yanada sekinlashdi. Shu alfozda qancha yo'l bosdim, bilmayman.

Yuragimda, qalbimda allanechuk o'zgarishlar paydo bo'ldi. Tanam titrab ketdi. Ko'zlarimdan duv-duv yosh to'kildi...

Mana shunday qish oqshomlarida otam aytgan afsona, hikoya, she'rlar quloqlarim ostida jaranglab, sas berdi...

Maktabda adabiyot fanidan ta'lim bergan ustozim Pirmat Xudoyberganov, Toshkentdagi ustozlarim Nazira Alieva, Sotimxon Inomxo'jaev, Anvar Isroilov, Rustam Yovqochev, O'ktam Jobirov, Nasiba Ibrohimova, Mirabbos Mirzaahmedovlar ko'z oldimdan o'tdi. Har birlaridan katta harflar bilan yozilgan "NELARNIDIR" olganman.



– Yo‘l tugamasa, tramvay izlari ufqlarga tutashib ketsa-yu... u meni katta umid yo‘llariga olib chiqsa. Ustozim Asqad Muxtor aytganlariday: “Chinakam shodlik lahzalarini guldek uzib emas, Dante aytganiday, abadiy so‘lmas gulzorga ko‘z tikib yashaydi. Abadiy so‘lmas gulzor esa – umid”.

Yillar o‘tib, mendagi umid nihollari barg yoza boshladi. Ne baxtki, yangi tashkil qilingan “Xatlardan – qo‘shiq-larga” ko‘rsatuvining boshlovchiligini ishonch ila menga topshirishdi. Ko‘rsatuv ketishi hamono kamina nomiga maktublar yog‘ildi. O‘sha davr teletomoshabini bunday ko‘rsatuvlarni tomosha qilishga chanqoq edi.

Muxlislarning talab, istaklari inobatga olinib, bu ko‘rsatuvning muntazam efirga uzatilishi uchun, har yakshanba kuni soat 20:00 da, 40 daqiqadan vaqt ajratildi.

Yakshanba kunlarining birida, qishloqdagi qo‘shnimiz traktorchi Qo‘chqor aka oila a‘zolari bilan ko‘rsatuv olib borayotganimni ko‘rib qolishgan. Ishonishmagan. “Yurtimiz keng, bir-biriga o‘xshaydigan chehralar ko‘p. Nahot, qishlog‘imiz bolasi televizorda chiqib gapirsa. Ishonmayman”, – deydi Qo‘chqor akaning rafiqasi Oyimjon opa. Unchalik e‘tibor ham qilishmagan.

Hafta o‘tib, ko‘rsatuvni sinchkovlik bilan kuzatib, yuzimdagi xolimdan tanishgan. Bizning xonadonimizda televizor yo‘qligi sabab Bozorboy degan o‘g‘lini uyimizdagilarni chaqirib kelish uchun jo‘natishadi. Otam va onam yetib kelganlarida, ko‘rsatuv tugaydi. Faqat xayrlashayotgan daqiqalarnigina ko‘rishga ulgurishadi. Ko‘z yoshlari bilan afsuslar ila uyga qaytishadi.

70-yillarda televideniya diktorlar, boshlovchilar kam, sanoqli bo‘lganligi sabab, diktorlikka qabul qilish ma‘lum darajada voqelik hisoblanardi. Diktorlik san‘atiga qiziquvchi ayrim teletomoshbinlarni tanlov natijasi qiziqtirar edi.

Televideniening o‘zida ham, o‘qish joyimda, men ishlayotgan “O‘zbekfilm” kinostudiyasida ham, tanigan-bilgan yaqinlarim orasida, men haqimda: “Teletanlovda ishtirok etibsan. Seni

yuzdan ziyod nomzodlar orasida g'olib bo'libdi", degan gap-
so'zlar oralab qoldi.

Oradan uch oydan ko'proq vaqt o'tdi. Ko'cha-ko'yda uchrashib qolgan tanish-bilishlar ham "Tabriklasak bo'ladimi?" deya gap boshlashardi. Ba'zilar esa piching aralash "gap qistirishardi".

Diktorlar guruhi rahbari O'ktam Jobirov mening diktorlar safida bo'lishim tarafdori edi. Har gal uchrashganimizda: "Sabr qilib turing. Hozircha oldingi ishxonangizdan bo'shamay turganingiz ma'qul", – degan fikrni bildirib, ko'rsatuvlarni olib borishim haqida o'z maslahatlarini ayamas edi.

"Boshlovchilik qilayotgan har bir ko'rsatuvingiz, har gal siz uchun katta imtihon. "Bolalar" tahririyatining "O'talarimiz jasorati" ko'rsatuvini olib boryapsiz. Nomlanishi mazmunli, chiroyli. Lekin ichki mohiyatiga kirib borsangiz, matni sayoz, yuzaki, quruq gaplardan iborat. Iloji boricha bunday ko'rsatuvlardan uzoqroq yuring. Ular sizga obro' olib kelmaydi. "Yoshlik" studiyasidan olib borayotgan ko'rsatuvlaringiz menga ma'qul. Durust. Taklif qilishsa, boshqa ko'rsatuvlarda ham boshlovchilik qilavering. Faqat maqtovlarga uchmang. Ko'rsatuv tanlashda adashmang," – derdi O'ktam aka yo'l-yo'riq ko'rsatib.

Ko'rsatuv olib borish bahonasida, diktorlar xonasiga tez-tez kirib turardim. Bu gal kirganimda, diktorlar tanlovida qatnashib, men bilan birga ko'riknig oxirgi kunigacha yetib kelgan qiz o'tiribdi. Oradan ancha vaqt o'tib, bu qizning yana paydo bo'lib qolishi meni hayratlantirdi, taajjublantirdi. U salomimga javob ham bermadi. Menga sovuq qarash qilib, deraza tomonga qarab o'tiraverdi. Qizning qo'lida ruchka, oldida teledasturlar yozilgan varaqlar turardi.

Qizni ko'rik tanlov vaqtida, mashq qilayotgan paytlarimda ko'p bor kuzatganman. Teledastur, ayniqsa, "Yangiliklar" o'qishni mashq qilayotganida hayajonlanib, ba'zida "r" tovushi "g"ga aylanardi. Ora-orada nozu karashma bilan go'zalligini namoyish qilish harakatida bo'lardi. O'sha daqiqalarda, gapirayotganida qalin do'rdoq, bo'rtik labi uchidan tovushlar sochilib



ketardi. U ham boshqalar singari mashhur bo'lishni xohlardi. Orzular qilardi.

Nahot, u qiz yana diktora bo'lish harakatiga tushib qolgan bo'lsa...

O'ktam aka diktora xonasiga "Musiqali ko'rsatuvlar muharririyati"dan muharrir Jaloliddin Najmiddinov va rejissyor Mahmud Ikromovlarni boshlab keldi va iltimos ohangida gapirdi: "Yuqorining topshirig'i. Bu haqda rahbaringiz San'at Ro'zmatov ham xabardor. Singlimiz musiqali ko'rsatuvlarda boshlovchilik qilishga ham qiziqar ekan. O'qitib, sinab ko'rsangizlar..."

"Qiziqish yaxshi, – dedi Jaloliddin aka. – Musiqali ko'rsatuvlarda chiqishga havas qiluvchilar juda ko'p. Ishq boshqa, havas boshqa... Bugun ham ertalab boshlovchilikka qiziquvchi yigit-qizlar kelishdi". Mahmud aka uning so'zini davom yettirdi: "Qizimizni ham shular qatorida, jamoamiz bilan birgalikda sinab ko'ramiz", – deya qiz bilan birgalikda chiqib ketishdi.

"Men bu qiz haqida aniq fikr bildira olmayman. Siz haqingizda esa Ubay Burhonga yana bir bor eslataman. Qo'limda bo'lganda edi, shu bugunoq sizni ishga qabul qilardim. Ko'ryapsiz-u, diktora yetishmayapti. Tez-tez xabarlashib turing, kuting", deya O'ktam aka men bilan xayrlashdi.

Ko'chaga chiqdim-u, o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Ichim hapriqib ketdi. Kutish...

Olib borgan ko'rsatuvlarim yaxshi baholanib, Ubay Burhon tufayli boshlovchilik qilishimga keng imkoniyat eshiklari ochilib, ko'rsatuvlar olib borayotgan bo'lsam... Ko'pchilik ovoz bilan ko'rik-tanlovda g'olib bo'lsamu, diktora qabul qilinmasam. Qanday to'siq bo'lishi mumkin? Boshim g'ovlab, fikrlarim ayqash-uyqash, chalkashib ketdi. Turli xil o'y-xayollar miyamda charx urardi. "Hali sen kimsan, yo'lingni birovlar to'sadigan? Kimsan o'zi?! Hech kim emassan... Vassalom. Men dardimni kimga aytaman?.." – deya yuragim o'rtandi.

Bugun ham ko'nglim iloji boricha hech kim bilan uchrashmaslikni ixtiyor etdi. O'qish va ishdan bo'sh vaqtlarimda Navoiy

ko'chasi bo'ylab, Xadra va Chorsu maydonlari atrofida yurib, o'zimni ovutish – kundalik odatiy holga aylangan.

Chorsuda birinchi tramvay aylanib to'xtaydigan oxirgi bekatga yaqinlashganimda, odamlar siyrak joyda oq sallali, oppoq soqolli, egnida oppoq chopon – istarali, nuroniy bobo meni to'xtatdi.

“Kecha ham xuddi shu joydan parishonxotir, xafahol bo'lib o'tib ketding. “Oynai jahon” orqali ko'rib, seni taniganim sabab, aytar so'zlarim bor.

Odamlar qalbiga tushish hammaga ham nasib etavermaydi. Endi sen ko'pchilik nigohidasan. O'zingni aslo tushkun, g'am-tashvishli ko'rsatma.

Sening yuzing, ko'zlaring so'ylab turibdi, yaxshi oila farzandisan. Toleying bor yigitsan. Men hammaga ham nasihat qilavermayman. Avvalo, senga bu dunyoda yashash nasib etibdimi, shukrona keltir. Hayot yo'ling hali oldinda. Omad senga ko'p bor kulib boqadi. Sen – doimo yaxshi, halol, pokiza insonlar davrasida bo'lishga intil. Endi borar yo'lingdan – hayot so'qmoqlaridan, o'z sevgan ishingdan ortga qaytishni xayolingga keltira ko'rma. Yo'ldan adashma. Umidsizlanma. Sabr qil. Kelgusida seni ko'p yaxshiliklar kutadi. Tez orada ishlaring o'nglanib ketadi. Faqatgina sabr qil... Kut...” – deya bobo yo'lida davom etdi.

Shu daqiqalarda, odamlar ishdan qaytish onlarida, bekatda chunonam odam ko'paydiki, bobo to'planganlar orasiga singib ketdi.

Men Chorsuda, shu joyda oppoq soqolli boboni necha kunlab, soatlab kutdim. Afsuski, boboni boshqa ko'rish menga nasib etmadi. Hozirgacha ko'z oldimdan nari ketmaydi bobo. Ovozi quloqlarim ostida sas beradi...

Faqatgina sabr-toqat... Kutish... Qancha kutgin desa, mayli, kutaman. Choram qancha, chidayman albatta. Orqaga yo'l yo'q.

Orada ma'lum muddat, ko'pchilikka, ayniqsa, televideniye ijodkorlariga kam ko'rinishni istadim. Sababi ayon.



1970 yil aprel oyi o'rtalarida men yashaydigan "Atirgul" ko'chasi 50-a uyga "Kastyorniy" ko'chasi 18-uyda yashovchi kursdoshim, televideniye diktori Mirzohid Rahimov yirik ko'zlari chaqnaib kirib keldi.

– Do'stim, senga xushxabar, – dedi meni bag'riga bosib. – Tabriklayman. Seni diktorlikka – bizning safimizga qabul qiladigan bo'lishibdi. Tezda hujjatlaringni O'ktam akaga olib bor. Oxirgi vaqtlarda televideniya ko'rinmay qolding. O'qishga, darslarga ham bormay qo'yding. Tinchlikmi? Seni "Yoshlik" studiyasi rejissyori Mirabbos aka bir-ikki marta so'roqladi. "Istiqbol egalari" ko'rsatuvini olib borishing kerak ekan. Yana "Musiqali ko'rsatuvlar" tahririyatidagi Anvar Isroilovga, she'rlar asosida tayyorlangan musiqali ko'rsatuvga boshlovchilik qilishga va'da bergan ekansan. Xabarlashay desa, uyingda telefon yo'q. Va'da berib, uchrashmaganing uchun sendan xafa. Aldamagin-da. Anvar Isroilov haqiqiy shoir, ko'ngli ham shoir tabiat – o'ta nozik. Bu inson hamma boshlovchilarni, diktorlarni yoqtiravermaydi. Ko'rsatuv olib borishdagi qaysidir jihatlarining ma'qul kelgan bo'lsa kerak. Bu sen uchun omad. Ertadan kechikmay uchrash.

Bu so'zlarni eshitdim-u, badanim qaqshab-titrab, tanamdan sovuq ter chiqib ketdi. Nahot...

1970 yil 20 aprel kuni meni diktorlikka emas, rejissyor assistentligiga qabul qilishdi. Nega?

O'ktam aka mening ishga kirish haqidagi arizamga qo'l qo'ydirish uchun Ubay Burhon xonasiga olib kirganda, televideniye mutasaddilaridan biri mening diktor bo'lishimga qarshi chiqadi. "Ko'rsatuvlarni olib borishi yomon emas... ancha durust. Lekin yana bir oz to'xtab tursa..." degan fikrni bildiradi.

Chorsudan uyga – "Chaqar" bekati tomon piyoda ketyapmanu, tramvayning "taq-tuq" ovozi to'xtamasa deymen. Negadir ko'nglim Beshyog'ochga borishni istadi. G'afur G'ulom uyiga yaqin, yo'lning o'ng tomonidan oqib o'tuvchi suv bo'yida uzoq vaqt o'tirib qoldim. Ariqdagi suv toshqin, limmo-lim oqardi. Mening ko'nglimda o'ksik bir holat...

G'afur G'ulomning "Baxt nima?.. Komillik nima?.. Hali sen yoshsan. Hamma narsa oldinda. Lekin hayotda qoqilma" degan so'zlari, Qori Niyoziyning biz o'quvchilarga aytgan "Hayotda, fanda sen uchun to'ppa-to'g'ri, tekis yo'lning o'zi yo'q... Egri-bug'ri, taqir-tuqir, chaqir toshli..." degan gaplari, barcha ustozlarimning o'gitu nasihatlarini quloqlarim ostida sas berdi, bir-bir ko'z oldimdan o'tdi. Navoiy nomidagi kinoteatr oldida har doimgidek odam tirband. Chipta olishga uzundan-uzun navbat. Turganlarning ba'zilari beparvo, birovlarining yuzida kulgi, ayrimlari-ning qosh-qovog'i soliq. Hayotda bir xil to'kislik yo'q. Bo'lmaydi ham. Kimdir kuladi. Kimningdir qalbida g'am-tashvish. Kimdir yig'laydi.

Oradan ikki kun o'tib, meni rejissyor assistentligiga qabul qilishdi. Ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar tahririyati bosh muharriri Erkin Azimov, tahririyat bosh rejissyori Maqsud Yunusov, diktorlar guruhi rahbari O'ktam Jobirovlar Ubay Burhon qabuliga borishdi. Besh daqiqalar o'tib, meni ham ichkariga taklif qilishdi.

Ubay Burhon bir oz jiddiy, nim tabassum bilan gap boshladi: "O'ktam, yigitchamiz Farhodga rejissyor assistentligi ishidan bo'sh paytlarida soat 18:00 dagi kechki dasturni ochishi, oraliqdagi ko'rsatuv e'lonlarini olib borishiga imkoniyat yaratish kerak. Teletomoshabinlar e'tiborini qozonish oson emas. Toki, teledeniyeniye yana bir yangi qiyofaga ega bo'lgani ko'rinsin. Qancha o'rganishi kerak bo'lsa, o'rgansin. Nasiba Ibrohimovanning diktorlik ta'limini olsin. Bu haqda Nasibaga o'zim ham aytaman", - dediyu menga qo'lini uzatdi va boshqa so'z aytmadi. Bu meni tabriklashi va chiqib kyetishimga turtki edi.

70-80-yillarda navbatchi diktor soat 18:00 da ko'rsatuvlar dasturini kadrda e'lon qila turib, teletomoshabinlarga kayfiyat bag'ishlar edi. Ko'rsatuvlar oralig'ida har yarim soat, bir soat o'tib, navbatdagi ko'rsatuvlarga qisqacha izoh berib o'tilardi. Go'yo dasturxonda barcha nozu ne'matlar boru, ulardan bahramand bo'lishini diktor eslatib, maqtov so'zlari ila taklif qilishi lozim. Har bir chiqish diktordan katta mahorat talab qilar



edi. Bundan tashqari, diktör shu kungi navbatchiligi davomida turli hajmdagi ko'rsatuvlarni ham olib borishiga to'g'ri kelar edi. Masalan, musiqali, qishloq xo'jaligi va hokazolarni...

– Diktör ko'rsatuvlar oralig'idagi har bir chiqishida teletomoshabinni shunday jozibador, ta'sirchan so'zlari ila taklif et-sinki, hatto boshqa xonada uy yumushlari bilan band bo'lgan uy bekasi ham, ko'pchilik oila a'zolari qatori televizor qar-shisidan ketolmay qolsin. Ta'sirchan, hayotiy ovozi, so'zlari teletomoshabinni sehlrab qo'ysin. Diktorning navbatdagi chi-qishini sabrsizlik bilan kutsin, – deb uqtirardi ustozim Nasiba Ibrohimova.

Asosiy vazifam rejissyor assistenti bo'lgani sabab, unga an-cha vaqt sarflar edim. Qolgan vaqtimni diktörler xonasida o't-kazardim.

Ko'chada yurganlarimda televideniyeda "yangi qiyofa" paydo bo'libdi, degan so'zlar elas-elas qulog'imga chalinadigan bo'ldi. Men bundan kuch-quvvat olardim.

1972 yil 1 dekabridan to'la diktörlik faoliyatim boshlandi.

Rahbarimiz, so'z ustasi, O'zbekiston Respublikasi san'at ar-bobi Ubay Burhonning (barcha yosh diktörler kabi) menga ber-gan beg'araz amaliy yordami, televideniyeining yetuk ijodkorlari, muharrir va rejissyorlari sabab miqyosi keng katta dasturlarda chiqish menga nasib etdi.

Ubay Burhon salobatli, shunga yarasha madaniyatli inson edi. O'zgacha viqor ila sof adabiy tilda, jarangdor ovozda gapirardi. Radiodagi "o'sha davr"ga xos bo'lgan badiiy o'qishlari, she'r ayti-shi ko'pchilikka manzur edi.

Ubay Burhon 1921 yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1946 yili O'zbekiston Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgach, Respublika radiosiga muharrirlikka qabul qilinadi. 1967 yildan 1985 yilgacha Davlat teleradioqo'mitasi raisining o'rinbosari lavozimida mehnat qiladi. Uzoq yillar rahbar bo'lib ishlashiga asosiy sabablardan biri, radio va televideniyeda tamal toshi qo'yilib, shu joyda unib, o'sganligi. Shu tufayli ham radio

va televideniyeining ijodiy jihatlarini miridan-sirigacha bilgan desam mubolag'a bo'lmas. Ubay Burhon mohir tashkilotchi, qattiqqo'l, shu bilan birgalikda odamlarning qalbiga tezda yo'l topa oladigan ajoyib inson, mehrdaryo rahbar edi. Uning xonasi chinakam ijodiy laboratoriyani eslatardi.

Ubay Burhon rahbarlik qilgan davrdagi radio va televideniyeining ko'plab ijodkorlari, ayniqsa, televideniye diktoralari beg'araz yordam, o'gitlaridan bir umr minnatdor. Har bir diktorning qaysi ko'rsatuvni olib borishga mosligi, nelarga qodir ekanligi, hamma-hammasini sinchkovlik bilan kuzatib, ko'rsatuvlarni shaxsan o'zi taqsimlab, diktoralar qalbiga quloq tutardi. Biz Ubay aka so'zlaridan ma'naviy ozuqa olib, har bir ko'rsatuvga yaxshigina yondashib, qalbimizda jo'shqinlik paydo bo'lardi. Ayrim ko'rsatuvlarni tayyorlash jarayonida muallif, rejissyor, diktoralar bilan birgalikda asosiy ishtirokchiga aylanardi. Ayniqsa, o'zbek adabiy tilini mukammal bilganligi uchun, diktoralarning sofligiga, madaniy saviyada gapirishiga e'tibor berardi. "Har qanday ijodkor – jurnalist, muallif, boshlovchi o'z ona tilida ravon gapira olmasligi, noto'g'ri talaffuz, millatga hurmatsizlik, madaniyatsizlik belgisi hisoblanadi. Siz diktoralar til masalasida har jihatdan saboq bo'lishlaringiz kerak. Ko'pchilik teletomoshabinlar til masalasida sizlarga ergashadi", – deb eslatib turardi.

Ubay Burhonni bilgan har bir inson – uni chinakam ijodkor, radio-televideniye ostonasida o'sib-ulg'aygan, butun umrini uning rivojiga baxshida qilgan, professional yetuk rahbar sifatida qadrlaydi. Bu insonning o'zbek televideniyesi tarixida, ijod yo'lida yorqin, o'chmas izi bor.

Ubay Burhon o'zbek madaniyatining haqiqiy fidoyilaridan edi.

Er yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, odamlar o'z zamonasidan, yashash tarzidan kelib chiqqan holda, o'zidan oldingi o'tgan odamga nisbatan tanqidiy yondashib kelgan. Inson aslida shunday yaralgan. Toki insoniyat bor ekan, u zamonlar osha shunday davom etaveradi.



Rahbar ishdan ketdimi, bo'shatildimi, har xil mish-mishlar paydo bo'ladi. Kimdir xafa bo'ladi, kimlardir xursand, yana kimdir beparvo. Balki bu hayot qonuniyatidir.

Qaysidir rahbar hayot so'qmoqlarida o'chmas iz qoldiradi. Kimlardir izziz yo'qolib ketadi. Televidenie ijodida ham xuddi shunday bo'lib kelgan. Kelib-ketuvchilar ko'p. Iz qoldirganlar qancha?..

"Toshkent telestudiyasi" o'z ko'rsatuvlarini boshlagan 50-yillardan 90-yillargacha, katta dasturlarni olib borishda "o'sha davr" mafkurasi, qonun-qoidalariga amal qilgan holda "o'sha zamon"ning eng katta rahbarini maqtovlarga o'rab, (ko'rsatuv boshlanishi asnosida) rahbar olib borayotgan "lenincha" dono siyosat"ni balandparvoz so'zlar ila osmon qadar ko'klarga ko'tarib maqtash talab qilinardi.

Biz diktoru boshlovchilardan ham partiyaning "dono siyosati"ni (har bir jumlada aytilardi) alohida ko'tarinki ruh bilan o'qib berish talab qilinardi.

Har bir varaqdagi so'z senzura tasdig'idan o'tib, dumaloq "tamg'a" bosilganidan keyingina ko'rsatuvda o'qishga ruxsat berilardi. Xayriyatki, musiqali, badiiy, bolalarga atalgan ko'rsatuvlar bunday "hamdu sano"lardan mustasno edi. Bunday ko'rsatuvlarni qo'limizdagi "qog'oz"larsiz o'qimasdan, dilimizdan gapirish harakatida bo'lardik.

Mening jonu dilim badiiy o'qish, she'riyat edi. 70-yillar boshlarida shoir Mirtemir ijodiga ko'p bora murojaat qilganman. Xalq tiliga yaqin quyma satrlari bir umr qalbimga muhrlanib qolgan.

Ter to'kaman, jilaman,

Mayli ayoz, mayli yoz.

Cho'qqiga intilaman.

Yaratmoq, qurmoq uchun

Keldim axir jahonga.

Halol, pok oshab yashay,

Bir ushoq yemay tekin.

Mehnatkash yurt oldida

Yuzim bo'lsin doim oq.

1972 yil 1 mart. Bahorning ilk kuni. Radio uyida Shoira ismli nozikkina qiz bilan eshittirish olib bordik.

Shu kun – umrimiz iplari bog'lanishiga sababchi bo'ldi.

Shoiraning televideniye ko'rsatuvlarida ishtirokini – boshlovchiligini ko'p bor kuzatganman.

60-yil oxirlarida "Yulduzcha" ko'rsatuvi bolalarning eng sevimli dasturiga aylanib ulgurgandi.

Shoiraning ko'rimliligi, gapirish uslubi, mushohadasi "Yulduzcha"ga mos bo'lganligi bois ko'rsatuv qahramoniga aylandi. Ko'rsatuvni qiziqarli, jozibali maromda olib borish – atrofidagi ishtirokchilarga ko'p jihatdan bog'liq. O'zbekiston xalq artisti Karim Xonkeldiyevning ("Otalar so'zi – aqlning ko'zi" ko'rsatuvida ham boshlovchilik qilar edi) "donishmand bobo" timsolida chiqishi, Shoiraning bobo bilan suhbat, jajji bolajonlarning she'rlar, qo'shiqlar aytib, raqsga tushishlari ko'rsatuvga o'zgacha joziba bag'ishlar edi.

Shoira – barcha ko'rsatuvlarda, ayniqsa, "Yulduzcha" ko'rsatuvida a'lo kayfiyatda, doimo kulib gapirardi. Tabassum bilan chiqishi, negadir menga ortiqchaday, yerish tuyulardi.

Televideniyeda men uni necha marta uchratsam-da, hech muloqot qilmagan edim.

Bir kun ko'rsatuvni yakunlab, ruhiyati baland holda chiqayotganida sal kinoya aralash gap tashladim: "Nega televizorda gapirganingizda ko'p kulasiz?" – deyishim hamono, gapim ta'siridin yuzini o'girib ketvordi... Shu-shu menga teskari qarab o'tadigan bo'ldi.

Oylar o'tdi. Radiodagi uchrashuv... Uyg'onish fasli – bahor haqidagi radiokompozitsiyani o'qish Shoira bilan mening zim-mamga yuklandi. Eshittirish biz haqimizda yozilganday, ilk uchrashuvimizni kuylar edi, go'yo...



Eshittirish rejissyori Tohira Shamsieva “Bahor yomg’iridan nim urgan maysalarda jonlanish. Oppoq qorli tog’lar. Osmonda oq va qora bulutlar kezib yuribdi. Yoshlarning orzu-o’ylari, kechinmalari... Ilk visol onlari... Shularning barini qalbingizdan o’tkazib, his-hayajon ila gapirishga harakat qilinglar. Ishonch bilan... Yurakdan...” – dedi.

Bular bari mening qalbimga ko’chdi. Shoiri o’qish asnosida ikki-uch joyda qoqildi.

“Shoiri, nega bunchalik hayajon?.. Ilgari “boshqalar” bilan o’qiganingda hammasi sippa-silliqlik kyetardi-ku? Ikkalangizni bekorga taklif etmaganmiz. Gapirish uslubingiz, ovozingiz bir-birlaringga juda mos. Bu gal mayli. Keyingi safar, kayfiyatlaringizni chog’lab, yaxshi tayyorgarlik bilan kelasizlar”.

Xayrlashdik.

Radio uyi bilan televideniye oralig’i piyoda yursangiz 30-40 daqiqalik yo’l. Negadir ikkalamiz ham ixtiyorsiz yo’lga tushdik, oldindan kelishib olganday. Na undan, na mendan bir og’iz sado chiqdi. Gapirishga chog’landim. Lekin asta-sekin qadam tashlashimizga xalaqitday tuyuldi. Chamasi, bir soatlar yo’l yurdik. Televideniye hovlisiga kirib keldigu, sassiz xayrlashdik.

Oradan kunlar o’tdi. Shoiri bilan birgalikda ko’p ko’rsatuv va eshittirishlarda ishtirok etdik. Bir-birimizdan maslahatlar oladigan bo’ldik.

Shoiri ancha muddat televideniye kelmadi. Betoblighi sabab ko’rsatuvlarda ishtirok etolmadi.

* * *

Oradan oylar o’tdi. Radio kundalik hayotimizga aylandi. Eshittirishga tayyorgarlik jarayoni qizg’in kechardi. Bahs-munozara – bir-birimizga bo’lgan samimiy munosabat – maslahatlar, har bir so’zga, jumlagi alohida e’tibor bari-bari eshittirish muvaffaqiyatida o’zgacha joziba kasb yetardi. Yo’lda ketayotganimizda ham eshittirish xususidagi gaplarimiz tugamasdi.

Shoiraning ovoqidagi mayinlik, nim tabassum, qop-qora ko'zlaridagi o'ychanlik, qadam tashlashiga hamohang bo'lib, menda o'zgacha mehr, his-hayajon uyg'otardi.

Televideniye kelganimizda bir-birimizdan uzoqroq yurish harakatida bo'lardik. Xuddi qalbimizdagi kyechinmalar oshkor bo'layotganday, biz haqimizda shivir-shivir gaplar oralaganday tuyulardi. Uyalardik. Andisha. Tortinchoqlik...

Ishlarimiz tugaganidan so'ng, Shoirani har kuni Anhor ko'p-rigi yonidagi bekatda poylardim.

Suv yoqalab yurishdan hech charchamasdik.

Kechga tomon uyiga kuzatardim. Gohida piyoda, tramvayda, avtobusda...

1973 yil. 1 mart. Uyg'onish faslining birinchi kuni. Umrimiz lahzalari... Ilk uchrashuvimizning bir yilligi... Biz bu kunni Anhor yoqalab, suv bo'yida, negadir mahzun qarshi oldik.

Shoira va men oqayotgan suvga qarab, xayollar og'ushida edik.

Oxirgi bekatgacha kuzatib qo'yishimdan uydagilari xabar topgan... Uzunquloq gaplar...

Bir-birimizga gapirmadik, gapira olmadik. Oradan ancha fursat o'tdi. Taqdirlarimiz bog'lanishini har ikkalamiz ham qalbi-miz ila his qilardik.

– Bobongiz, ota-onangizning xohishi...

– ...

Xayrlashdik.

Oradan kunlar o'tdi. Mening xayolimdan nelar kechmadi, deysiz?

Radiodagi ishtirokimizdan so'ng ixtiyoriy, ixtiyorsiz sukut saqlab, Anhor bo'yidagi biz uchun aziz joyga yetib keldik.

– O'sha kungi savolim javobsiz qoldi?

– Mening kelishim savolingizga javob.

Farzandlari, nabiralarining inon-ixtiyori bobosi qo'lida bo'lib, bir so'zli, cho'rtkesar, qattiqqo'l inson ekanligi xususida Shoiradan eshitgan edim.



Umr savdosi. Bizning oilamiz to'g'risida surishtiruvlardan yaxshi xulosalar qilingan. Ayniqsa, mening televideniyaedagi diktorigim – istaram, chehram, gapirishlarim bobosiga xush yoqqan.

Anhor yoqasida turib ahdu paymon, orzular qildik...

Xuddi tushdagiday – 40 yildan ortiq vaqt o'tib ketibdi. Amudaryo misol oqib ketayotgan umr... Men o'sha damlarni sog'inib-sog'inib eslayman. Umrimiz lahzalari...

1973 yil 8 iyun. Shoir kelinlikning harir oq libosiga burkandi. To'yimizda televideniye va radio ijodkorlari, barcha diktorlar, mashhur hofizu san'atkorlar ishtirok yetishdi. Yelkamga hayot olaxurjuni osildi.

Taqdirimizni qarangki, otalarimizning fe'l-atvori, bilimi, eski o'zbek alifbosida yozishlarigacha o'xshashlik bor ekan.

Ikkita quda uchrashganlarida Navoiy, Mashrab g'azallaridan o'qib, mutolaa qilishardi.

Qayinotam – Hasanxon Nizomov uzoq yillar Milliy universitetda fors tili va adabiyotidan yoshlarga saboq bergan. O'z davrida eski o'zbek husnixati – arab alifbosida yozish bo'yicha respublikamizdagi eng obro'li shaxslardan biri bo'lgan. Bu tabarruk insonni bilganlar hali-hanuz yaxshi so'zlar ila hurmat bilan yodga olishadi (Oxiratlari obod bo'lsin).

Tutash taqdirlar... Shoir bilan hayotimizning ko'p qismi ijodiy hamkorlikda kechdi. U mening televideniyaedagi maslahatgo'yim, tanqidchim, desam, mubolag'a bo'lmas. Shukrlar bo'lsinki, besh farzand – ikki o'g'il, uch qizni o'zbekona odob-axloqli, o'qimishli qilib, voyaga yetkazdik. To'ylar qildik. Ming bora shukrlar qilaman. Ko'z tegmasin, deyman. Nevaralarimizning orzulari beqiyos... Ulardan umidimiz katta.

1973 yilning avgust oyi. Ayni pishiqchilik. Shoir bilan ota makon – Xiva shahridagi ajdodlarimiz iz qoldirgan bobomning uyiga qadam ranjida qildik. Afsuski, biz borganimizda buldozer na'ra tortib uyni yiqitayotgan ekan. Qisqa bu soniyalar butun umr qalbmida yomon xotira bo'lib muhrlanib

qoldi. Shu tuproqqa duv-duv ko'z yoshlarim to'kildi. Armonli dunyo...

Shundan so'ng, men tug'ilib o'sgan Ona qishlog'imga sog'inch ila yetib keldik. Shoir bilan bolaligimdagi so'qmoq yo'llardan yurib, yalangoyoq qumlar kechdik. Kechqurun menga qalbi yaqin qishloqdoshlar bilan diydorlashib, suhbatlar qilish, to'qayzorda chiyabo'rilarining uvillashi, qishloq itlarining ularga jo'r bo'lib vovillashlari maroqli edi.

O'sha daqiqalardan boshlab, butun olam go'zalligi, yurtimizning tabiati, qadimiyligini, ajdodlarimizni – hamma-hammasini bo'y-basti bilan tasvirlash orzusi qalbimga yashirindi.

Faylasuf shoir Iogann Volfgan Gyoteda shunday so'zlar bor: "Dono fikrlar allaqachon, yuz martalab o'ylab ko'rilgan. Lekin u chinakam sizniki bo'lib, miyangizda chuqur ildiz otishi uchun uni yana va yana mulohaza qilish kerak".

Qalbidagi yashirin orzu – ancha yillar o'tib, 1990 yilda qalbimga ko'chib, bo'y ko'rsata boshladi.

"Qo'limda qalam, yurakda alam" bilan moziyga nazar tashlamadim. Xalqimiz orasidagi shoirtabiat bir odam o'zicha, tushunib-tushunmay shu so'zlarni xirgoyi qilib yurardi. Qadimdan xalqimizning ma'nan boyligini, millatimizdan jahonda tengi yo'q ilm ahillari yetishib chiqqanligini oynai jahon orqali aytishni o'zimga maqsad qildim. Ozmi-ko'pmi maqsadimga erishdim. Tomoshabinlar e'tirofi – eng oliy mukofot.

1974 yilning bahorida televideniyedagi uchra-shuvlarning birida shoir Barot Boyqobilov: "Zulfiya opa seni so'roqladi. Borgin", – dedi. Aniq esimda yo'q. Ishimda qandaydir tig'izlik bo'lib, oradan chamasi bir hafta o'tdi. Navoiy ko'chasidagi kitob do'konida Barot aka bilan tasodifan uchrashib qoldik. "Shunday inson seni yo'qlasa-yu, bormasang...", – deya tanbeh berdi. Shu kuniyoq, Navoiy ko'chasi 30-uyning yuqori qavatiga ko'tarilib, tepasiga "O'zbekiston xotin-qizlari jurnali" deb yozilgan xonaga kirdim. Hayajonlanish, hadiksirash ancha bosilganidan so'ng qabulxonadagi yordamchi qiz ruxsati bilan Zulfiya opa bi-



lan uchrashish nasib etdi. Harakatlari chaqqon, ko'zlari doimo kulib turuvchi Zulfiya opa meni ochiq chehra bilan kutib oldi. Kirishim hamono atlas ko'ylakli, qo'hlikkina ayolga ko'zim tushdi. Bu ayol – Ona yurti O'zbekistondan, Toshkentda ta'lim olgan hindistonlik yigit bilan taqdiri bog'lanib, Hindistonga kyetishni ixtiyor etgan rassom Ra'no Habibiy ekan. O'sha zamon mafkurasi Vataniga kelishni man qilgani bois, Zulfiya opa aralashuvi orqaligina xokisor rassom ayol o'z tug'ilib o'sgan go'shasiga qadam ranjida qilgan ekan.

Zulfiya opa mehmon ayol bilan iliq xayrlashdi.

Opa televideniyedagi "She'riyat kechasi"da chiqishlarimni ko'pdan beri kuzatayotganligini gapirib, ancha maslahatlar berdilar. Shundan so'ng televideniyeda Hamid Olimjonning turkum she'rlaridan o'qishimni tavsiya qildilar. Shunday obro'li shoiraning bildirgan ishonchi men uchun sharaf edi.

Bir oy o'tar-o'tmas, Hamid Olimjon tug'ilgan kunning 65 yilligiga bag'ishlab "O'zbekiston" deb atalgan 20 daqiqalik she'riy guldasta tayyorladim. O'ta sinchkov, qat'iyatli, nozikta'b Zulfiya opaga adabiy-badiiy, she'riy ko'rsatuvlarning hammasi ham yoqavermas edi. Men tayyorlagan ko'rsatuvga nisbatan opaning ijobiy bahosi, rahbarimizga qilgan qo'ng'irog'i, menga yanada keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Respublikamizning eng nufuzli jurnallaridan biri – "Sharq yulduzi" jurnalida shoira Zulfiyaning "Kamalak" nomi bilan turkum she'rlari e'lon qilindi.

Kamalak singari tovlanuvchi bu she'rlar insonni go'zallik sari, olis-olislarga, cheksiz ufqlarga yetaklaydi.

Uyg'onish faslida iliq kunlar boshlanib, osmonni oq-qora bulutlar zabtiga olib, chunonam jala quyadiki, zum o'tmay bulutlar orasidan quyosh tabassum qiladi. Osmon qo'ynida yetti rangda tovlanuvchi kamalak paydo bo'ladi. Tabiatning bu go'zalligi, husni-jamoli har qanday odamni o'ziga mahliyo qiladi, qalblarga

rohat bag'ishlaydi... Jurnaldagi she'rlarni o'qidimu, televideniya o'qishga ruxsat olish maqsadida Zulfiya opa huzuriga shoshildim.

– She'r ijodkorning qalb kechinmalari... She'riyat ixlosmandlari undan zavqlanib, xulosalar qiladi. Go'zal hayot sari intiladi, – dedi Zulfiya opa.

Opaning yoniq ko'zlari bir oz jiddiylashdi.

– San'atkorning, she'r o'quvchining she'rni tushunib-tushunmay, o'zini majburlab yod olishi – kechirilmas hol. Omma orasida, keng kitobxonlar davrasida, ayniqsa, radio, televideniya-dagi she'rxonlik kechalarida chiquvchilar, san'atkorlar she'rdagi har bitta so'zning ma'nosini qalbdan, yurakdan his qilib, ayta bilmog'i lozim, – dedi va bir oz o'ylab, so'zini davom ettirdi Zulfiya opa:

– Hozirgi holatingizdan, so'zlaringizdan angladimki, she'rlarimni televideniya o'qishni ixtiyor etibsiz. O'qiyotganingizda she'rlar oralig'ida aslo shoshmang, fikringizni jamlang. So'zlarning ma'nosiga yeta oling.

Asqad Muxtorning yozuvchi sifatida ham, she'r yozish uslubi, o'qishida ham o'zgacha ohang bor. Ayniqsa, omma orasida, keng kitobxonlar bilan uchrashuvlarda teran mushohada ila muloqot qilib, she'rlarni faylasufona, jarangdor ovozda o'qishlari juda yoqimli. Tinglovchining qalbini zabt eta biladi. Asqad aka-ningizning dunyoqarashi, tafakkur olami keng ijodkor. Ovoz-ingizda, she'r o'qishingizda, jussangizda, bo'ylaringizda ba'zi o'xshashliklar bor. Bu inson sizni har jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, o'rgatadi, degan umiddaman, – deya opa meni Asqad Muxtor xonasiga boshladilar.

Asqad Muxtor muharrirlik qilayotgan "Guliston" jurnali bilan Zulfiya opa rahbarlik qilayotgan "O'zbekiston xotin-qizlari" jurnali "Sharq" nashriyot matbaa kompaniyasi joylashgan binoning uchinchi qavatiga ko'chib o'tishgandi. Xonalari yaqinligi sabab, bu mashhur insonlar bir-birlari bilan tez-tez muloqotda bo'lib turishardi.

Asqad Muxtor bilan uchrashuvning birinchi kunidagi suhbat hali-hanuz ko'z oldimdan nari ketmaydi, so'zlari quloqla-



rim ostida aks-sado beradi. Bunday insonlar suhbatidan bahra olish – ulug' ne'mat. Ustoz ko'zoynak tagidan qarab, har bir gapini o'ylab, shoshmasdan, notiqlik san'ati, badiiy o'qishning ulug'vor kuchi haqida gapirdilar. Asqad akaning ijodiy ishlariga halaqit berib, hadeb xona eshigini taqillatib borishni o'zimga ep ko'rmasdim. Oradan ma'lum muddat o'tib borganimda, gap orasida ertaknamo gap qildilar: "O'zga mamlakatda badiiy so'z ustasi bor edi. So'zdagi ohangi, aytish uslubi butunlay o'zgacha bo'lib, yuksak professional darajada ediki, she'r aytganida odamlarni sehrlab qo'yardi. Kunlardan bir kuni, xalqning eng mashhur shoirlaridan biri og'ir xastalanib "Ko'z yumganimdan, to yerda qo'nim topgunimgacha she'rlarim sizning ijroingizda yangrab tursa..." – deb vasiyat qilgan ekan.

Men badiiy o'qish san'atining ta'sir kuchi naqadar ulug'ligi haqida gapirmoqchiman. Omma orasida yakka o'zi chiqishlar qilib, bir yarim-ikki soat nutq irod qilish, badiiy so'zlar aytib, she'rlar o'qish o'ta yuksak mahorat talab qiladi.

Ma'ruzachi har jihatdan dunyoqarashi keng, bilimdon, o'z ishini miridan-sirigacha puxta bilganligi sabab, odamlar qalbiga yo'l topa biladi. Soatlab gapirsa ham zeriktirmaydi. Shunday badiiy so'z ustalari borki, soatlab she'r aytadi. Eshituvchini o'ziga mahliyo qiladi. Afsuski, "Badiiy o'qish" san'ati turini egallaganlar juda kam... Siz omma orasida, tomoshabinlar qarshisida turib, "badiiy o'qish" san'atini egallashga harakat qiling. Sizda barcha imkoniyatlar mavjud", – deya kuyunchaklik bilan gapirdi ustoz.

Negadir o'sha paytlarda men rag'bat qilmadim. Afsusdaman...

Mening maslakdoshim – televizorda ko'p bora birgalikda she'rlar o'qiganmiz, she'riyatni yuksak darajada qadrlaydigan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Farhod Aminov odamlar orasida Toshkentdagi "Bilimlar uyi"da badiiy o'qishlari bilan bir-ikki muvaffaqiyatli chiqishlar qildi. Qandaydir sabablar bilan uning davomiyligi bo'lmadi. (Olloh rahmatiga olgan bo'lsin).

Atoqli adib, shoir, notiq, faylasuf Asqad Muxtordan omma orasida so'zlashning ko'p jihatlarini o'rgandim.

Mamlakatimizning barcha viloyatlarida, ko'plab tumanlarda, jamoat joylarida, ishlab chiqarish korxonalarida, olis qishloqlarda turli kasb egalari bilan uchrashib, xalqimiz tarixi naqadar qadimiyligi, millatimiz ulug'ligi, ajdodlarimizning buyukligi, osmonimiz musaffoligiga shukronalik haqida ma'ruzalar qildim.

Respublika Ma'naviyat-targ'ibot markazi huzuridagi "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasida ma'ruzalar qilish kundalik hayotimning bir bo'lagiga aylandi.

Ming qatla shukrlar bo'lsinkim, ustozim o'gitlari hozirgi kunlarda ham men uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

80-yillar oxirlarida O'zbek milliy teatrida Asqad Muxtorning 60 yillik tavallud kunlari bo'lib o'tdi. Ijodiy kecha ustozning "Yillarim" she'rini o'qishim bilan boshlangan edi. Kechada u kishi faqat mening she'r o'qishimga ruxsat berganlar. Bu she'rni ijodiy kechada o'qishim uchun ustoz bilan chamasi bir hafta tayyorgarlik ko'rdik. Necha bor o'zlari o'qib, o'rgatdilar. Necha bor menga o'qitdilar.

– "Ertaga kechada uchrashamiz", – deya chuqur nafas oldilar. Sekin so'zladilar:

– "Hammasi o'tdi, ketdi... Kovlashlar... 50-yillarning sovuq sharpalari ketimdan quvib yurdi... Ma'lum muddat Boqi Rahimzoda yurtini o'zimga makon qildim... Izg'irin shamollar tanani kesib, qalblarni yalab o'tdi, dog'lab ketdi. Sassiqlik, alaf dudlardan nafas oldik... Hammasi o'tdi... ketdi...

Biringiz – boqiysiz, biringiz – balki puch.

Biringiz – shodliksiz, biringiz – o'kinch...

... O, orqada qolgan mening yillarim..."

Oradan yillar o'tdi...

Nahotki, Asqad Muxtor day o'zbek milliy adabiyoti ravnaqi uchun bir umr ijod qilgan, zabardast, buyuk inson – tilimizning sofligi uchun qayg'urgan fidoyi inson tildan qolib, gapira olmasa? She'rlar o'qiyolmasa?! Fikrlarini tilida bayon qilmasa... Nahot?!



Har gal Asqad Muxtorning uyiga borganimda ko'pincha o'g'li Temur aka kutib olar edi. To'g'ri ikkinchi qavatga – shoir ijodxonasiga ko'tarilar edim. Ko'pincha deraza oldida uzoqlarga qarab turganini kuzatardim. Bir gal borganimda salomimga bosh chayqab, alik olganlaridan so'ng, kitob javoniga yaqinlashib, jigar-rang kitoblarini oldilar. "Yillarim" she'rini o'qishimni imo-ishora bilan tushuntirdilar. Kitobdagi she'rga bir qaradimu, qalbimning tub-tubidan joy olgan bu she'rni o'zlari o'rgatganlaridagiday, o'zlari o'qiganlaridagiday dildan o'qish harakatida bo'ldim:

Biringiz – boqiysiz, biringiz – balki puch.

Biringiz – shodliksiz, biringiz – o'kinch,

Biringiz – baxtlisiz, biringiz – baxtsiz,

Biringiz – yarador, o'lgansiz vaqtsiz,

O, orqada qolgan mening yillarim.

Sizga nasib qilgan quvonch – yuragimda,

Qalbd dardingiz olib yuraman

Siz meni ayamay o'tda tobladingiz,

Shundan zamin uzra g'olib yuraman.

Siz mening tirmashib chiqqan zinamsiz,

Har biringiz g'ishti, men imoratman.

Siz mening daxlsiz, yolg'iz xazinamsiz,

Sizdan iboratman,

O, mening orqada qolgan yillarim.

She'rni aytganimdan so'ng, ko'zoynak tagidan bir tomchi yosh dumaladi. Nahotki, ijodi osmon qadar yuksak; har bir gapidan nurlar taraluvchi, oqil va halol, talabchan, metin irodali insonning qalb torlariga darz ketsa... Bu inson hayotining asl ma'nosi ijod etish; xastalik ijodkor fikr-xayolini so'ndira olmadi. Tinib-tinchimay yuksaklarda parvoz qildi. Yashash bu inson uchun ijod qilishga aylandi. "Qo'lida qalam, yurak alam-armon" bilan ijod qilmadi. O'zlari aytganlariday:

*Umr yo'li oyoq izi emas,
Uni na qor, na chang bosa oladi.
U qora chiziqday, yo nurday muqaddas bo'lib,
El ko'nglida mangu qoladi.*

Ilgari borganlarimda, Roza kennoyi achchiq qora choyu, mu-rabbo-shirinliklar bilan mehmon qilardi. Endi esa... Roza opa-niing oyog'i muzda sirg'anib, lat eb, o'rinlaridan jilolmaydilar. Asqad aka esa ikkinchi qavatdan pastga tusha olmaydilar. Bir-birlarini uzoq ko'rmaslik azobi...

Asqad aka holsiz asta yurib, tunchiroq ostidagi ijod daftar-larini qo'liga oldi. "Tundalik"lar yozayotganini imo-ishora bilan ko'rsatdilar. Siyohi hali qurib ulgurmagan, bedor qalbi, uyg'oq tafakkuri ila bitilgan ayrim satrlarni o'zlarining xohishlari bilan – adibga o'qib berdim. "Avvallari yashash uchun yozdim, endi yozish uchun yashamoqdaman", "Qarilikdan qo'rqma, unga hali yetish kerak", "Vaqt o'tyapti!" – deymiz sal hazinlik bilan. Bu gapni inson o'zini ovutish uchun o'ylab topgan. Aslida biz o'zimiz o'tyapmiz", "Shunday yillarni ko'rdikki, baxtli bo'lish uyat edi", "Uning "ko'tarilishi" ham, "yiqilishi" ham aqliylik balosi edi...", "Bizning avlodda zamondan qochganlar qutuldi..."

Adib o'qiganlarimga quloq tutdi. Uzoq o'yg'a toldi. Sokinlik. Men sas chiqarmadim...

Har gal borganimda, ijodlaridan namunalar o'qib berish, men uchun odatga aylandi. Agar tez-tez bormasam, she'rlar o'qimasam, nimanidir yo'qotganday sezardim o'zimni. Borishim bilan chehralaridagi mahzunlik o'rnida o'ychan-iliqlik paydo bo'lardi. Ketayotganimda ko'zoynak tagidan ma'noli qarash qilardi. Cheksiz xayolot – ijod olamida suzardi.

Bir vaqtlar do'stlar bilan hasratlashardim...

Yolg'iz o'tkazaman g'amgin chog'larni.

Sukunat cho'chitmasin dardim...



...Jonlar oromini buzmasin dardim,

Tunni uyg'otmasin.

Xastalik shoirni yenga boshladi. Ustoz rejissyor Mahkam Muhamedov bilan tezlikda Asqad Muxtor haqida "Umr" deb nomlanuvchi ko'rsatuvni shoir ijodxonasida tasvirga oldik. Shoir o'ychan. Kitob javonidan kitobni olib, deraza yoniga boradi. Menga kitobni tutqazib, o'tirg'ichga o'tiradi. Umr haqida shoir holatini berishga harakat qilamiz. Tabiiy. Qanday bo'lsa, shundayligicha. She'rlaridan o'qiyotganimda, ko'zoynak tagidan o'tkir nigoh ila boqish va ko'zidagi bir tomchi yosh kadrda muhrlanib qoldi.

Bu ko'rsatuv televideniyeining "Oltin fond"ida saqlanadi.

...Asqad Muxtor uzoq yillar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o'rinbosari, "Sharq yulduzi" jurnalida bosh muharrir, 1969 yildan "Guliston" jurnalining bosh muharriri lavozimlarida ishlagan. Ko'plab roman, qissalar, drama asarlari, poemalar, she'riy kitoblar yaratgan.

Adabiyotshunos olim Naim Karimovning yozishicha, "Asqad Muxtor asarlarining bir qismi hamma yozuvchilarimizda bo'lganidek, oshini oshab, yoshini yashadi. Ammo qolgan aksar qismi adabiyotimiz xazinasida qoladi... Asqad Muxtor hayot ma'nosini ijod etish, deb tushungan milliy adabiyotimiz ravnaqi uchun yashagan va shu adabiyotni bir necha pog'onaga yuksaklikka ko'targan yozuvchi edi".

Shoirning ko'plab she'rlari "Vaqt", "Umr" haqida bo'lib, 70-yillarda yozgan bir she'rida "O'lim qancha imillasa, mayli, men roziman" – deb yozgan edi. Ustoz oxirgi oylarda Birinchi hukumat shifoxonasi yotog'ida butunlay mixlanib qoldi.

Asqad Muxtorning shogirdi Erkin A'zam bilan shifoxonaga bordik. Bizdan sal ilgariroq shoir Erkin Vohidov borgan ekanlar.

Asqad Muxtor day zabardast ijodkor soch-soqoli o'sgan, doimo taqib yuradigan ko'zoynaksiz shiftga – bir nuqtaga tikilib yotardi. Adib go'yo, ufqlarga tutash xayolot olamida suzardi. (Men uchun bunday vaziyatni yozish to'g'rimikan? Bilmadim).

Salomlashganimizdan so'ng, noqulay vaziyat paydo bo'ldi. Biz turgan tomonga sal o'girilib, "Sizlarga rahmat" deganday muloyim bir qarash qildilar. Bu qarashda juda katta ma'no bor edi. Bunday vaziyatda kelgan har qanday inson, bir xil tarzda "Albatta sog'ayib ketasiz. Tuzalib ketasiz" – degan so'zlardan nariga o'tolmaydi.

Yonlarida o'tirib, har daqiqada holidan xabarlashib turgan kelini Rumiya opaga Asqad aka imo-ishora qilib, o'ng qo'li butunlay harakatsiz bo'lganligi sabab, ne bir mashaqqatlarda kelining yordami bilan chap qo'liga qalam oldilar. Kelini ushlagan qalin qog'ozga ne bir azoblarda "Na chora"... so'zini yozoldi, xolos. "Men ketyapman", – deganday chap qo'li harakatga keldi.

Bu holatni ko'rib, ich-ichimdan ezildim. Nimadir bo'g'zimga kelib, turib qoldi. Necha oylar shu holatda yotib, qiynalib ketdi. Bundan ortiq azob bo'lmasa kerak inson uchun. Nahot, nahot... bu odam hayotidagi so'nggi daqiqalar... Sezganday. Sal ilgariroq bu she'rni bitgandi:

Endi orzulardan xotiralar ko'p,

Endi o'tmishgina men uchun hadsiz.

Men uchun tobora og'irdir sukut,

Savollar tobora shafqatsiz,

Ha, oshni oshadik, yoshni yashadik,

Qoshgacha qahraton qirovi indi.

Bir qarashda: besh kuningni o'yla,

Ertaning qayg'usi qoldimi endi...

Adabiyotshunos olim Naim Karimov aytganlariday: "...inson keksalik fasliga sabot, matonat va zakovatning jonli timsoli o'laroq kiradi.

Ammo bu dunyoning bevafoqligi shundaki, u insonning aql va zakovat pillapoyasining baland poyalariga qadam qo'yanida oyog'iga bolta uradi..."



Asqad Muxtorning soʻnggi ijodi – “Uyqu qochganda” (Tundaliklar) asarida, insonni uygʻoqlikka chorlovchi shunday soʻzlar oʻz mujassamini topgan: “Vaholanki, asar yozuvchidan unib chiqadi; farzandiday unda tugʻiladi, ulgʻayadi, kamol topadi, u farzandini avaylaydi, himoya qiladi. Asar – yozuvchining taqdiri; kerak boʻlganda yozuvchi qurbon boʻlishiga ham tayyor. Uning bu gʻayritabiiy sadoqati, yozmasdan turolmasligi, ruhiyatga, falsafaga, mushohadaga moyilligi, shaxsi, feʻli, uslubi, qarashlari, dardi, qiynalishlari... Qobiliyati qancha katta boʻlsa, shuncha katta kuch sarf qiladi. U – beixtiyor fidoyi, ham baxtiyor, ham baxtsiz – bu uning irodasiga bogʻliq emas...”

Inson bu dunyoda yashar ekan, mashaqqatu sinovlarga duch keladi.

Inson – oddiylikdan murakkablik tomon qadam bosadi. Yaxshiliklar sari intiladi. Sening fikrlash qobiliyating, tafakkur olamingga qarab, hayot yoʻling belgilanadi. Dunyoda sabab va oqibat qonuni mavjud. Odam borki – toʻkis, yaxshi yashash haqida orzular qiladi. Lekin unga osonlikcha erishish mumkinmi?.. Muvaffaqiyatlarga qiyinchilik, halol mehnat, pokizalik orqali erishiladi. Osonlik bilan kelgan muvaffaqiyat qoʻldan tez chiqib ketadi. Hokazo... Bunga ota-bobolarimiz hayotidan – oʻtgan va hozirgi zamondan xohlagancha misollar keltirish mumkin. Balandparvoz soʻzlashning senga ne keragi bor. Hamma-hammasini qalbingdan, yuragingdan, barcha hissiyotlaring bilan aytyapsan... ayta bilasan.

Sen uchun baxt nima? Dunyoga kelding. Yashayapsan. Shukrona keltirasan. Tinchlik. Yuraging taskin topadi. Yashash inson uchun sinov... Baxt ne asli...

Hayotda sen toʻgʻri yoʻlni topib, tanlay bilsang, yaxshiliklar yoʻliga tushib olasan. Yurgan sari koʻz oldingda kelajaging; orzu qilgan hayot manzaralari namoyon boʻladi.

Olg'a qarab intilib, orqaga bir-bir nazar tashlaysan: "Men nelerga intildimu, nelar meni qanoatlantirmadi? Orzu qilib, hayotda ko'zlagan – xohlagan joyimga yetib bora oldimmi? Men nelar qilishim keragu, kelgusida yana nelar kutmoqda meni; hayotim davomida qanday o'zgarishlar... "Nelar" degan fikr, o'y-xayol butun qalbimni qamrab, boshimni chulg'ab oldi".

Yo'l yurib so'qmoqdan halloslagancha, tepalikka qarab o'rlaysan. Yuksaklikda – muqaddas Chilpiqning keng maydonida turib, atrofga boqasan. Ko'z oldingda go'zal, ajib manzara namoyon bo'ladi.

Tepalikdan pastga termulasan, ona daryo – Amudaryo to'l-qinlanib, oqib bormoqda. To'xtamaydi. Odamlarga hayot, rizq-nasiba ulashuvchi daryo qirg'og'ida, bir-birlari bilan kesishgan so'qmoqlar ko'p. Ulardan biri seni katta yo'lga olib chiqadi.

Donishmandlarda shunday so'zlar bor: "Maqsadi aniq bo'lgan odam, hatto eng og'ir yo'l bo'ylab ham harakatlana oladi. Hech qanday maqsadi yo'q odam, eng tekis yo'lda ham olg'a qarab yurolmaydi".

Qaraysan, hu, nariroqda, daryoga tutashib ketgan to'qayzor. Undan narida esa ufqlarga tutash, elas-elas ko'zga tashlanuvchi – har xil ajib ranglarda tovlanuvchi go'zal manzaralar. Ko'm-ko'k musaffo osmon.

Qaraysanu, ular ortida yuksak orzular, oliy xayollar, senga ilhom beruvchi, harakat qilishga undovchi, ilgarigidan ham yaxshiroq bo'lishiga chorlovchi qandaydir kuch mavjud. Hayot falsafasi: chuqurroq o'ylab, atrofingga nazar sol. Ko'p narsalar ayon bo'ladi. Aslo maqtovlarga, aldovlarga ucha ko'rma. Yengil-yelpilik ichra g'arq bo'lma. Hali qiladigan ishlaring, orzularing bisyor. Albatta sen ko'zlagan maqsadlaringga erisha olasan.

Ana shulardan biri bugun sizlarga hikoya qilganim – Orzuga eltuvchi yo'l... ijod so'qmoqlari...

2014 yil 19 oktyabr',
Chilpiq qal'asi



II QISM

BIZ ANGLAGAN, ANGLAB YETMAGAN DUNYO...

*Andishani sen o'zinga, dil, kor ayla,
Umringni sovurma elga, bedor ayla.
Manzur esa elga ne, bari bor senda,
O'z qasringga o'zing o'zingni me'mor ayla.*

Pahlavon MAHMUD

2016 yil. Bahor. Ohangaronlik do'stim Akrom hoji meni kenja o'g'li Boboxonning ertalabki nikoh oshiga taklif qildi. Yig'inda barcha tanish-bilish do'stlar bilan diydorlashdik. «Rahmat», «Minnatdorman», «Tashakkur» so'zlari takror-takror aytilib, mehrli, qalbi toza, ko'zi yoniq odamlar bir-birlaridan yaxshi so'zlarni ayamaydilar. Karnay-surnay, nog'oralardan taralayotgan ohang qalblarga allanechuk tarovat bag'ishlaydi. Bahorning mayin yellari karnayning ohangiga esh bo'lib, ovozlarni uzoq-uzoqlarga olib ketadi.

Kimdir aytgan edi «Har bir inson o'ziga xos jahondir», deb. Biz sir-sinoatlarga boy olam ichra uning bag'rida yashaymiz. Balki har bir insonning o'zi bir olamdir. Shu dunyo qalbida nelar yashirin? Barcha ezguligu yaxshiliklar, armonlar, turli o'y-xayollaru orzular, tashvishlaru to'qlik-farovonlik. Hamma yaxshi yashasam, to'ylar qilib, elga osh bersam, deydi. Bu o'zbekka xos jihatlardandir...

*Taqdirin o'z qo'li bilan yaratuv inson,
G'oyibdan kelajak baxt bir afsona...*

Bu faylasuf shoir G'afur G'ulomning qaynoq qalbidan otilib chiqqan she'riy satrlar.

Do'stlar qutlovi, tabriklar, milliy musiqiy lahzalar, mumtoz kuy-qo'shiq – bari-bari inson qalbiga jo'shqinlik olib kiradi.

Shunday bir ajib kayfiyat meni tog'lar qo'yniga yetakladi. Keng, ravon, tekis yo'lda ketayotgan mashinam, xuddi tirik jon-zotga o'xshab, itoatkorona yurib, kurtak yoza boshlagan maj-nuntol yonginasida to'xtadi.

Ertalabki quyosh nurlarida yaltiragan qorli tog'lar ko'zni qamashtiradi. Bahoriy borliqqa qarab to'yaysan kishi. Simirib-simirib nafas olasan. Sirli olamni ko'rib, rohatlanasan. Endigina nish urgan o't-o'lan, bo'z tuproqdan bosh ko'tarib chiqqan boshlagan yashillik oralab ketdim. Anchadan beri odam oyog'i tegmagan bilinar-bilinmas so'qmoq seni adirliklar osha tog'lar qo'yniga olib chiqadi. Olisda, qoyali tog'lar osha uchayotgan burgut ko'z ilg'amas osmonu falakka singib ketdi. Uzoqlarda – qoya ortidan qo'y-qo'zilarining ma'rashi eshitiladi. Cho'ponning ovozi elas-elas quloqqa chalinadi. Bo'z tuproq orasidan bo'rtib chiqqan maysalar hayotga intiladi. Qaraysan. Ular guyo tirik jonzotga o'xshaydi, ko'kka qarab bo'y cho'zadi. ... Ha demay adirliklar yashillikka alvonga bo'yalib, chuchmo'ma-yu lolaqizg'aldoqlar, tabiatdagi barcha o'simliklar olami o'z chiroyini ko'z-ko'z qiladi. Ona tabiat dunyoda tengi yo'q, takrorlanmaydigan ajib go'zallikni in'om etadi jannat-makon o'lkamizga. Tabiatga bahoriy iliqlik olib kirgan oftobning saxiy nurlaridan lazzat olayotgan qushlarning chug'urchug'urlari, xonishlari yon-atrofga, borliqqa yoyiladi.

Orqaga qaraysan. Hu, adirlikdan pastroqda, ko'm-ko'k bug'doyzor chayqalib, to'liqlanib jilva qiladi. Undan narida esa dehqonu bog'bonlar bahor yumushlari bilan band. Er haydayotgan traktor na'ra tortadi. Uning ortida qarg'alar uyumi uchadi, qo'nadi. Ular yemish ilinjida ovora. Olamdagi tirik jonzotlar ichida faqat odamzodgagina ong va aql berilgan. Ayni shu da-qiqlarda inson xayoliga nelar kelmaydi deysiz... Tabiat qo'yniga



chiqqanda har qanday odam o'zida xotirjamlik va o'ychanlik, ezgulik va quvonchni his qiladi. Ba'zilar esa his-hayajonga berilib, tog'lar qo'ynida ovozi boricha hayqirgisi keladi.

Zarrin nurlarda yarqiragan oppoq qorli tog'lar... G'uborsiz, ko'm-ko'k osmonning har-har joyida oppoq bulutlar suzadi. Qaraysan. Falakda cheksizlik. Koinot. Olam keng. Sirli...

Milliy adabiyotimizni o'z asarlari bilan dunyoga tanitgan ijodkorlardan biri – “Navoiy” romani orqali jahon ensiklopediyasida o'z o'rniga ega shoir va adib Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek ijodida (vafotidan chamasi bir yillar ilgari yozilgan) shunday to'rtlik bor:

Sirli yo'llar bosib kezaman osmon,

Izlayman-izlayman, hamon bilmayman.

Oltindan sepilgan osmonga somon,

Haqiqat nimadir izlayman hamon.

Quyosh qora bulutlar ichra singib ketdi. Borliq qorong'ilashdi. Guyo oq va qora bulutlar ichida suzasan. Momaqaldir oq gumburlaydi, chaqmoq chaqadi, tabiatdagi kurashish... Inson hayoti ham xuddi tabiat singari azal-azaldan qarama-qarshiliklar, turli sir-sinoatlarga boy bo'lgan. Kurashgan. Izlangan. Taraqqiyot sari intilgan. Unda orzular bisyor. Odamzod yaralibdiki, u tiriklik, hayot, yaxshi yashash uchun qadam tashlaydi. Uning hayot tarzi ongi, aqli va fikriga bog'liq. “Baxt qushi” osmondan shundoqqina kelib, sening yelkangga qo'nmaydi. Dunyoda yaxshi tashvishlari muammolar g'ij-g'ij. Gohida atrofida anvoyi gullar ufurib turgan ravon so'qmoqlardan, gohida esa chag'ir toshli, tikonlar bosgan hayot so'qmoqlaridan yurasan.

Birdaniga guvillab, vahimali tog' shamoli esdi. Sharros yomg'ir quydi. Pana izladim. Ilojsiz. Dam o'tmay shamol bulutlarni uzoq-uzoqlarga – tog' cho'qqilari orqasiga haydab ketdi. Ro'paramda ataylab terib qo'yilgandek tik qoyatoshlar. Yomg'irdan so'ng quyoshning zarrin nurlaridan jilolanib har xil ranglar-



da tovlanayotgan toshlarga qarab uzoq termulib qoldim. Qoya-toshlar ortidan sizni o'ziga chorlovchi qizg'ish qum tuproqlar orasida nish urgan o'simliklar olami. Ular namlikda yaltillab, har xil tusda ko'zga tashlanadi. Yanada qiziqishim ortib, qalbim jo'shib, to'qinlanib shijoat ila ne bir qiyinchiliklarga qaramay xalloslaganimcha qiyaliklardagi toshlar oralab yurib, balandlikka ko'tarildim. Ro'parangda undan-da go'zal tabiat. Chor-atrofga qarab to'ymaysan. Tabiat maftuniga aylanasan. Bunchalar go'zalsan, ey ona tabiat! Yana va yana tepaliklardan oshasan. Ko'rgan sari ko'rging kelaveradi. Charchash neligini bilmaysan.

“Bu dunyoda men bir yo'lovchi...” – deydi rus shoiri Sergey Yesenin. Cho'ponlar, ovchilar yurib, iz qoldirgan yolg'izoyoq so'qmoqda ketyapmanu, yana bir bor bu joylardan xuddi shu tarzda o'tish nasib qilarmikan, degan sog'inch ichki ovozda sas beradi. Nelar xayolga kelmaydi deysiz. Gohida ravon, gohida chag'ir toshli hayot so'qmoqlari... Bir kam dunyo... Hayotda nelargadir intilib yashaymiz. Yaxshiliklar sari intilamiz. O'zimizcha “baxt” izlaymiz. Dunyoda “yaxshilik”lar bisyor. Bu hayotda “tashvish”lar ham ko'p.

Uzoqlarda elas-elas ko'zga tashlanib, kumush rangda tovlanayotgan jilg'a e'tiborimni tortdi. Men endigina qo'ylar su-ruvi – otar o'tgan, mayda tosh-tuproq aralash yolg'izoyoq cho'pon so'qmog'idan yurib, to'p-to'p bo'lib jamlangan na'matak changalzorlarni aylanib o'tib, olg'a qarab intildim. Hansiraysan. Yurak duk-duk tepadi. Uzoqdan jilg'a bo'lib ko'ringani bu – kichikroq soy ekan. Uning tepasida esa qiyalikdagi toshlar orasidan sizib, o'rmalab chiqayotgan suv. Katta sig'imdagi aylana – doira shaklidagi buloq. Ajabo... Tabiat mo'jizasi... Suvga qaraysan. Jilmasdan, harakatsiz bir joyda turganday, guyo. Sokinlik. Yashil-ko'kish rangdagi suvda pag'a-pag'a suzib yurgan bulutlar aksi. U buloqdagi suvda suzyapti. G'uborsiz, ichida hech qanday gard yo'q shaffof suvni men 5-6 yoshlardagi bolakayga o'xshatgim keladi. Norasida qalbi ham buloqning zilol suviday toza. Loyqalanmagan.



Bo'zto'rg'ay, yana allaqanday qushlar xonish qiladi. Buloqdan pastda suvning mayin jildirab oqishi quloqqa chalindi. Shu tomonga qarab jilaman. Jimir-jimir suv quyosh nurida yaltiraydi.

Qushlar ovozi, suvning shildirashiga qo'shilib, jo'r bo'lib sehrli sas chiqaradi. Tabiat yaratgan ohang maftuniga aylanasan. U seni allalaydi. Qaraysan. Atrofdagi kichik-kichik buloqchalar katta buloq suviga qo'shilib, toshdan-toshga urilib, sakrab katta soyga qarab intiladi. Soy uzoqlarda oqayotgan daryo suviga qo'shilib ketadi. Borliqdagi bari narsalar bir-biriga chamberchas bog'lanib ketgan. Shirin xayollar meni orqaga – yana buloq bo'yiga yetakladi. Sayohatdagi doimiy hamrohim – ko'rpachani yozib ohistagina yonboshlayman. Xotirjamlik. "Xudoga shukur" deyman. Shukrona keltiraman. Har kuni ertalab o'rnimdan qo'zg'alishim hamono "Shukur" deyman. O'tirganda, yurganda ham "Behisob shukurlar" so'zi takror va takror xayolimda kechadi. Bu so'zlar kundalik yumushlar barobarida o'y-xayol, fikrimni chulg'ab oladi. Aytib adog'iga yetolmaydigan hayotingdagi minnatdorchilik tuyg'ulari – bari-bari qalbingga ko'chadi, yuragingdan o'tadi. Tinch osuda hayot. Buloq suvida xuddi oynadagi singari o'z aksing ko'rinadi. Hayotman. Yashayapman. "Ming bora shukur..." Qalbimdan, tanamga ichki ovoz sas beradi: "Shukur..."

Tog'lar ichra yetti uxlab tushga kirmagan sarguzashtlar olamiga tushib qolganday sezasan o'zingni. Tanang va ruhing dam oladi. Jaloliddin Rumiy "Ichingdagi ichindadur" deydi. Qalbing hislaring toza. Negadir ichki sasda buloq bilan hasratlashishni ixtiyor etding. Az-Zamaxshariy deydi: "Bu dunyo ibratli ishlaru pand-nasihatlariga to'ladir, ayni vaqtda ko'z yoshlarga ham serob". Kimdandir eshitgan edim "Dard bilan kulib-kulib yig'laydi" deb. Hayot qarama-qarshilik, sir-sinoatlarga boy. Ayni shu daqiqalarda sening xayoling, fikring, aqling buloq suviday beg'ubor, toza. Har bir insonga umr o'lchab beriladigan umrning qadriga yeta bildingmi? Sen o'y-xayollaring, orzularing, fikring, aqling ila olg'a qarab harakatlana oldingmi? Nelarga erisha bil-

ding, hayotingda, ijod so'qmog'ingda qanday to'siqlarga ro'baro' kelding? Oldingda seni nelar kutmoqda?

Hayot falsafasi: "Chuqurroq o'ylab atrofga nazar tashla". O'tgan kunlaring davomida senga nisbatan ba'zi bir adolatsizlik, qarama-qarshiliklarni eslab, afsus-nadomatlar qilishga hojat bormikan?! Bir kitobda o'qigan edim: "Muvaffaqiyatsizlikka uchrab, oyoqqa turgan kishi yanada qat'iy va mas'uliyatli odamga aylanadi. Omadsizlik shaxsni o'stiradi. Hayot kurashdan iborat. Faqatgina o'zingga ishon!!!"

Bolalik chog'imda bobolarning aytgan so'zlari yodga keladi. "Shodlik kunlarda ham, boshingga g'am-tashvish tushganda ham Amudaryo bo'ylariga chiq". Suvga qarab, ko'ngling yoziladi. Suvda xosiyat ko'p". Sen suv bo'yida aqlning ovozigga quloq tut. Ichki kechinmalarining, qalbing tug'yon uradi.

Negadir sehrli bir kuch seni buloq bo'yiga chorladi. Go'yo sen hozir kelajak bilan yuzma-yuz turibsan. Kelgusida seni nelar kutadi. Sharq falsafasi: "Dastlab ruhan ko'tarinkilik yashashga ishtiyoq, saodatmand kunlarga umid uyg'onish zamirida tug'iladi", – deydi. Psixologlarning fikricha, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilarning oltmishdan yetmish yoshgacha bo'lgan davri – eng samarali payt bo'lar ekan.

Umr o'tmoqda... Senda orzular bisyor. Ichida katta kuch va salohiyat borligini bilgan odam o'ziga qattiq ishonadi. Ishonch va qat'iyat, oddiygina tuyg'u emas. Muvaffaqiyat hech qachon o'z-o'zidan kelmaydi. Buning uchun ongli tarzda ish yuritib, kelajakka umid-ishonch bilan sabr-toqat ila, olg'a qarab harakatda bo'lgandagina yutuqlarga erishasan. Sening hayoting, yashash tarzing faqatgina o'zingga bog'liq. Fikring, aqlingga quloq tut.

Umr o'tmoqda... Sen shu yoshinggacha nelarga erishding? Ustozlaringdan qanday saboqlar olding? Kimlar bilan do'st-oshno tutinding? Hayoting davomida yaxshilarning yaxshiligidan xursand bo'lib, yomonlarning yomonligidan aziyat chekding? Sen yomonlik istamasang-da, yaxshiliklar sari tashlagan har bir



qadamingda, boshingga zarb kelib urilsa, g'ashingni keltirsa. Mendan ne istadi ular?.. Vo ajab...

Sokin buloq atrofidagi jonzot – qushlar ham chug'ur-chug'urini sekinlatib, mening qalbidan chiqayotgan sassiz nidomga sherik bo'layotganday, go'yo. Sen aqling ovozigga quloq tut.

Esayotgan mayin bahor shamoli bulutlarni haydab, ko'm-ko'k osmonda quyosh charaqlab ketdi. Buloqdan chiqqan zilol obi hayot, toshdan-toshga urilib, quyosh nurida kumush rangda tovlanib, daryo tomon shoshadi. Ba'zi odamlarning hayoti ham shunday, urilib-surilib, olg'a intiladi.

Tangri tomonidan in'om etilgan nodir tug'ma iste'dod egasi Chingiz Aytmatov asarlarini cheksiz havas, ehtiros, hayrat-la o'qiganman.

“Alvido, Gulsari” asari qahramoni Tanaboy va uning suyukli oti Gulsari hozir, mana shu yerdagi adirliklar osha ketayotganday tuyuladi menga.

Tyanshan tog'ining etagida yastanib yotgan Qurama-Chotqol tog'lari oralig'idagi yaylovlarning kengligi va bahavoligi, ko'zni qamashtiruvchi moviylik, oq sallali cho'qqilar guyo osmonu falakka, abadiy samoga tutashib ketganday.

Tyanshan yon bag'ridagi bizning o'zbek tog'larimiz bilan qirg'izlarning tog'lari tutashib ketgani singari xalqlarimizning bir-biriga mehrini, qon-qardoshligini ayro tasavvur etib bo'lmaydi.

Tanaboy tog'lar oralig'ida adirliklardagi qishloqlarda umrguzaronlik qiladi. Shodlik bor joyda g'am-tashvish ham birga yurarkan. Hayotning achchig'i-yu chuchugi, shodligi-yu g'am-tashvishlari unga begona emas. Qayg'uli kunlar uni o'ygatoldiradi. Bari-barini his qilib yashaydi. U hayot sinovlari oldida chekinmaydi. Tanaboy mard, qarama-qarshiliklarga dosh beruvchi, irodali, to'g'riso'z, halol inson.

Sening hayot yo'lingda ham asar qahramoni Tanaboyga o'xshash jihatlar bor. Sen ham Chingiz Aytmatov o'z asarlarida

yo'zganiday metinday mustahkam irodali bo'l. O'zi tirik, qalbi o'lik sovuq e'tiqodlilardan, umidlari so'nik, ichi g'ovaklardan yiroq yur. Umr so'qmoqlari atrofidagi jarliklardan ehtiyot bo'l.

Odamsod yaralibdiki, u tiriklik, hayot, yaxshi yashash uchun o'z maqsadlari sari intiladi. Inson hayoti azal-azaldan qarama-qarshiliklar, turli sir-sinoatlarga boy bo'lgan. Kurashgan. Izlangan. Ongli taraqqiyot sari intilgan. Odamda orzular bisyor...

Go'zal tabiat manzaralari, odamlarning qiyofalari, ularning taqdirleri, ko'z oldimdan bir-bir o'tadi.

Tangri tomonidan insonlar hayoti belgilab qo'yilgan. Shu jumladan, sening hayoting ham... Shukrona keltirib yashaysan. Ziynatlanasan. Hayotda neki istarding, ko'pi ijobat bo'ldi. Intilding. Tole senga yor bo'ldi. G'amu tashvishlardan yiroqsan.

Sening ruhiyating tetik. Olg'a qarab intilishda davom etasan. Atrofga qaraysan. Mo'jiza. Sen tiriksan, hayot davom etadi.

Borliqqa zeb berib qushlar sasi avjga minadi. Ko'nglim jo'shqinligidan ko'kka qarab hayqirgim keladi.

Hozir sen buloq yonida yetti uxlab tushingga kirmagan, sar-guzashtlar olamiga tushib qolding. Osmonga qaraysan, bir-birlarini quvlab, oppoq bulutlar kezadi. Bulutlar orasidan charaqlab chiqqan quyosh nuridan ko'zlaring qamashadi. Tabiatning bahordagi ajoyib mo'jizasi bu. Janub tomonda adirliklarga tutash tog' qo'ynidagi kengliklar osha kamalakning chiroyiga qaray-san. Ranglar jilosi... Maftun etuvchi go'zal manzaralarning quyosh nurida jimirlab yaraqlashidan ko'zlaring toliqib, yumiladi. Ichingda shirin hayajon paydo bo'ladi. Sen sir-sinoatlarga boy olam ichra uning bag'rida tinch osuda o'lkada yashayotganing-ga shukurlar qilasan, shukrona keltirasan. Osmonga qaraysanu, harakatdagi bulutlar ichra suzasan, go'yo. Ular osmonu falakda bulutlarni to'zg'itib uzoq-uzoqlarga tog'lar osha ketib bormoq-da. Qarab huzurlanasan. O'yg'a tolasan... Tiriklik dunyosi...

Hayotning doimiylik qonuni bor. Biz dunyoga keldik, izimizdan boshqalar keladi... Biz ketamiz izimizdan boshqalar ham ketadi. Chunki falak aylanadi. Aylanayotgan tiriklik ayla-



nayotgan falakdir aslida. Tiriklik. Dunyoni aql va tafakkur bilan ko'rgan kishilarning barchasi biz baribir hayot qonunidan chiqib ketmasligimizni aytib o'tishgan. Agar oyog'imiz yerdan uzilsa, boshimiz osmonga tegmaydi. Sizu bizni shu zaminning ko'rinmas kuchi, aniqrog'i, sehri ushlab turibdi. Bu tiriklikning na Aflotun va na Arastu o'ylab, o'yiga etolmagan. Bu qonun aylanish, hayotning doimiylik qonunidir. Sen hozir buloq bo'yida o'tmish, bugun, kelajak bilan yuzma-yuz turibsan. Negadir sehrli bir kuch meni bugun, sening huzuringga chorladi, ey muqaddas buloq. Ming-minglab insonlar sendan kuch-quvvat olgandir, ehtimol, ularga huzur-halovat bag'ishlagansan.

Ulug' faylasuflardan biri, insonning dunyoga kelish lahzasidan, ilk qadam, ilk harakati xatar sari, ochiqroq gapirsak, yo'qlik sari, deb aytgan ekan. Yana bir donishmand juda ham o'rinli so'zlagan: "Odam bolasining birinchi qadami yorug'lik saridir. Tiriklikka qo'yilgan qadamdir. Yangi tug'ilgan chaqaloq qulog'iga bobolar azon aytadi Onalar esa farzandini beshikka belab alla aytadi. Ezgulikdan boshlangan harakat, ezgulik sari bo'ladi.

Odamzod yaralibdiki, u tiriklik, hayot, yaxshi yashash uchun harakat qiladi. Inson hayoti azal-azaldan qarama-qarshiliklar, turli sir-sinoatlarga boy bo'lgan. Kurashgan. Odamlarning birbirlarini ko'rolmaslik qusuri azaldan bor. Guyo sen oppoq va qora bulutlar ichra suzasan. Uchar gilam seni uzoq-uzoqlarga olib ketadi. O'y-xayollar seni cheksizlik sari yetaklaydi. Oldinda seni nelar kutadi?

Ulug' allomamiz Najmiddin Kubro shunday deydi: "Umr va vaqtdan ko'ra shoshqinroq, o'lim va oxiratdan ko'ra yaqinroq, orzu, umiddan ko'ra olisroq, xotirjamlikdan ham ko'ra go'zalroq narsani ko'rmadim olamni kezib".

Umr o'tmoqda... Senda hali orzular bisyor. Har bir daqiqani g'animat bil. Umring davomida vaqtdan unumli foydalana olmagan paytlaring ko'p bo'lgan. Endi afsuslanishdan ne hojat?.. Hayotda yashashingdan maqsad ne aslida? Buni har kim har xil

tushunadi. Sen hayoting davomida birorta odamga ham dushmanlik qilishni istamagansan, vaholanki, senga toshlar otilsa ham. Sening qalbing, hislaring toza.

Negadir ichki sas bilan, beozor buloqqa butun kechinmalarining, yaxshiliklarni aytishni ixtiyor etding. Qalb daftariga bitilgan so'zlarni aytging keladi. Kimdandir eshitgan edim: "Dard bilan kulib, kulib yig'laydi", deb. Ayni shu daqiqalarda sening hayoting, fikring, aqling buloq suviday beg'ubor.

1970–1990 yillarda televideniyeining barcha ijodkorlari, diktör diktörleri qatorida men ham ijod osmonida parvoz qilganman.

Tog' qoyalarida sirli va sehrli bo'lib ko'rinayotgan quyoshning zarrin nuridan sochilayotgan taram-taram ranglarga qarab, yurtimiz xonadonlaridagi qalblarga quvonch olib kirgan, O'zbekiston xalq artisti Mirzohid Rahimov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Nasiba Ibrohimova, Nasiba Qambarova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Ra'no Jo'raeva, Dilorom Umarova, Sevara Tursunova, Rahmatilla Mirzayev, Muslimbek Yo'ldoshevlar bir-bir ko'z oldimdan o'tdi. Har birining o'z tomoshabini bor edi. Bu diktör-diktörler televideniyeiga o'ziga xos, yarashliq rang-baranglik olib kirdi. Hali-hanuz teletomoshabinlar ularning ijodiy-xayrli ishlarini hurmat va sog'inch ila yodga olishadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, oliy toifali diktör, ustozimiz O'ktam Jobirov diktörlerga bosh bo'lgan davrda diktör-diktörlikka iqtidorli, harakatchan, doimo o'z ustida ishlaydigan, kasb mahorati bo'yicha ijodiy izlanishlar olib boradigan, fikrlash doirasi keng yoshlar qabul qilingan. Ular keyinchalik hukumatimizning mukofotlariga sozovor bo'lishgan. 70-80-yillarda televideniyeida o'ziga xos diktörlik maktabi yaratilgan edi.

O'ktam Jobirovning shogirdlaridan biri Muslimbek Yo'ldoshev ko'p kitob mutolaa qiladigan, tafakkur olami keng, yuksak bilimga ega, qadamidan o't chaqnaydigan, qalami o'tkir, qator badiiy va



she'riy kitoblar muallifi, tarjimon, notiqlik san'atini puxta egallagan, falsafiy mushohadali, so'zamol, oliy toifali diktordan biri.

Hozirgi kunda diktor-diktorlik san'atini mukammal egallab, uni yuqori pog'onalarga olib chiqayotgan, ustozlari san'atini davom ettirib, fayzli oqshomlarda xonadonlarga xushnudlik ulashuvchi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Dildora Rustamovaning ijodi tahsinlarga loyiq.

O'zbekona qiyofadagi yigitlarimizning ovozi, sof o'zbek tilida gapirishlari, qizlarimizning milliy liboslarda, bahor gullaridek nozik, shirin so'zlari har qanday tomoshabin ko'ngliga allanechuk ilqlik olib kiradi.

Zotan, televideniye – ko'ngil oynasi.

Vaqt bizga oliy hakam, kutib turmaydi.

Televideniya diktorlik san'ati – boshlovchilikning o'zigagina xos bo'lgan jihatlari bor. Muslimbek Yo'ldoshevning "Diktorlar" kitobida keltirilishicha, televideniya diktor bo'lib ishlaganlar soni 54 tani tashkil qilar ekan. 1980–2000 yillarda televideniya ko'rik tanlov asosida diktorlikka qabul qilingan Alisher Badalov, Botir Ziyaev, Dilfuza Yusupova, Dildora Nizomxo'jaeva, Surayyo Obloqulova, Mavluda Ahmedova, Ra'no Rahimova, Dilfuza Abduqodirova, Shuhrat Qayumov, Namuna Zohirova, Aziza Usmonova, Shuhrat Rahmatjonovlar hozirgacha bir-birlaridan mehrlarini darig' tutmaydilar, xuddi bir oila farzandlaridek. Shu diktorlar orasida Shuhrat Qayumov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist" unvoni bilan taqdirlangan.

Yoshlarning keksalarga hurmatlari bo'lakcha. Ularning doimiy suhbat-muloqotlarini tashkillashtiruvchi uzoq yillar davomida diktor bo'lib ishlagan Maqsuda Qoratoeva har bir ishda kamarbasta. Oramizdan ketgan diktorlarni yodga olganimizda, qayg'uga botib, iztirob chekamiz. Georgiy Irlin, O'ktam Jobirov, Davron Zunnunov, Mirzohid Rahimov, Halima Yusupova, Rahmatilla Mirzayev, Abdumomin O'tbosarovning oxirlari obod

bo'lsin. Bu diktorlarning chin ma'nodagi mo'tabar, muxtasar yaxshi so'zlari uzoq-uzoqlarga ruhlari bilan koinot ichra singib ketdi.

Buloq bo'yida, tabiat qo'ynida o'tirib, hozir sanab o'tgan diktorlarni eslab ketdim. Har birining xalqimiz orasida o'zlariga yarasha hurmat-e'tibori bor edi. Bu diktorlar boshqa ko'rsatuvlar qatori "Axborot" dasturini o'qiganlarida, xonadonlarga fayz kirar edi, jarangdor ovozlari odamlar ruhiyatini ko'tarishga qodir edi. Har bir chiqishlaridagi ko'tarinki ruh, ovozlardagi o'ziga xos joziba, talaffuz, tilning sofliqi, aniq va ravon gapirishlarini ko'pchilik teletomoshabinlar hali-hanuz sog'inch-la eslashadi.

Bu gulshan ichra yo'qtir baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.

Alisher Navoiy

Bu aziz insonlar bilan uzoq yillar birga ishladim. Men uchun ularning birlari aka-opa, birlari uka-singil edi. Navoiy bobomiz aytganlaridek, "Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar".

Men suxandon-diktor diktorlik davrimda, undan oldin va keyin ham, o'zimni badiiy o'qishsiz tasavvur qila olmaganman. Jonu dilim she'riyat edi. Televideniyeidagi chiqishlarimni o'sha davrdagi zamondoshlarimning ko'pchiligi yaxshi bilishadi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Zulfiya, Mirtemir, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Matnazar Abdulhakim she'rlari qalbimdan, yuragimdan shu qadar joy olganki, hali-hanuz o'y-xayolimni butkul egallagan. Ba'zan she'rlar aytib, hayqirgim keladi. Dam olish onlarida yod olgan she'rlarim qalbimdan kechib, ta'rifu tavsiflar ila cheksizlikka yetaklaydi. Insonni ilhomlantiradi, dilni rohatlantiradi, tuyg'ular uyg'onadi, umidlar paydo qiladi.

She'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiy bobomiz bir baytida shunday yozadi:



Umidimdan meni xursand etgil,
Umidim shulki, umidingga etgil.

Bu bayt bilan bobomiz, umidimga yetkazib meni xursand qilgin. Mening maqsadim shuki, sen o'z maqsadingga erishgin, deydi.

1970 yillarda umid, maqsad menga qanot bag'ishladi. O'sha davrda adabiyotshunos olim Ozod Sharofuddinovday millat ma'naviyati uchun qayg'uruvchi, adabiyotimiz, she'riyatimizni targ'ib qiluvchi zukko inson e'tiboriga tushdim. 1970 yilning boshlarida Respublika bilimlar uyida Ozod aka rahnamoligi va boshlovchiligida she'riyat kechalari bo'lib o'tardi. O'sha davrlardayoq mashhur bo'lgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjonlarning har birlari bilan alohida uchrashuv kunlari bo'lib o'tardi va bunday uchrashuvlar haqiqiy she'riyat bayramiga aylanib ketardi. Ozod Sharofiddinov ma'ruza qilib, shoirlar o'z she'rlaridan namunalar o'qir edilar.

O'zbek kino va teatr san'atida o'chmas iz qoldirgan, ayniqsa, kinoda Alisher Navoiy siymosini yaratgan buyuk aktyor Razzoq Hamroev ham ana shunday she'riyat bo'stonida qatnashib, she'rlar o'qir edilar.

Shu ijodkorlar qatorida san'at olamiga endigina kirayotgan yigirma yoshlardagi men ham shoirlar she'rlaridan namunalar o'qir edim. Bunday kechalardan rag'bat olib, qanot yozib, go'yo osmonlarda uchib yurar edim.

Yoshu qari, ayniqsa, yoshlar adabiyotiga chanqoq, o'ch ediki, uchrashuvda ixlosmandlar ko'pligidan sahna atrofida tirbandlik hosil bo'lib, har bir she'r o'qish oralig'ida gulduros qarsaklar yangrardi. Bu kechalarda ishtirok etgan yoshlar qalbida ham bir umr muhrlanib qolgan bo'lsa ajab emas. O'sha davrlardagi navqiron yoshlar, hozirgi kunga kelib 70 yoshlarni qoralab qolgan. O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni faxriy unvonlari, "Dustlik" va "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlariga sazovor bo'lgan buyuk shoir Erkin Vohidov o'sha davrlarda ham xalq

orasida ma'lumu mashhur edi. Shoirligidan tashqari televideniye orqali chiqishlari bilan ham xalq olqishiga sazovor bo'lganlar. "G'azal oqshomi" ko'rsatuvining boshlovchisi edi. Shu ko'rsatuvning rejissyori, O'zbekiston san'at arbobi Maqsud Yunusov meni Erkin Vohidov so'roqlayotganini aytdi. 1974 yil oktyabr oyi boshlarida Erkin aka bilan uchrashuv kuni belgilanib, O'zbekiston haqida yangi yozgan, hali siyohi qurib ulgurmagan she'rlarini televideniya o'qishim uchun qo'limga tutqazdi. Shunday mashhur shoir menga ishonch bildirganidan sevinchim ichimga sig'masdi. Haqqoniy tuyg'ular, Vatanni ulug'lovchi, qalb kechinmalarini ifodalagan she'rni televideniya o'qiganimdan so'ng, iqtidori yuksak shoirning menga aytgan tilaklari, dil so'zlaridan bahra olib, she'riyat osmonida parvoz qildim.

Erkin Vohidovning insoniylik, Vatan, Ona xalqiga mehr-muhabbat haqidagi suhbatlaridan bahramand bo'ldim, saboq oldim. Ayniqsa, bu yorug' olamda vaqtning qadriga yetish kerakligi, ardoqli shoirimizning gaplarida, qarashlarida, harakatlarida sezilib turardi. Inson umrida belgilab qo'yilgan vaqtning biror daqiqasi ham besamar ketmasligi haqida kuyunib gapirgani hamon yodimda. Bunga o'zi qat'iy amal qilar edi. Mabodo, yaqinlarining, do'stlarining to'y-ma'rakalarida ishtirok etsa, vaqtini qizg'onib, rejalashtirib uchrashuvga borar edi. Men bunday voqealarning ko'p bora guvohi bo'lganman.

Bundan chamasi besh yillar ilgari katta bir anjumanda shoir Erkin Vohidov rafiqasi Gulchehra yanga bilan ishtirok etishdi. Shunda men 35 yil ilgari Erkin aka yozgan she'rini aytdim. Anjumanda Erkin aka so'z olib, mening she'r o'qishim haqida iliq so'z aytdilar. Gulchehra yanga "Oradan uzoq yillar o'tsa ham she'r yodingizdan ko'tarilmabdi. Rahmat sizga", – deb minnatdorchilik bildirdi. "Qalbinga, yuraginga muhrlanib qolgan she'r yoddan chiqarmidi?", dedim men.

Erkin aka 2015 yilning noyabr oyida 1-hukumat shifoxonasida davolandilar. Soat o'n sakkiz. Sokin payt. Xonalariga kirishga navbatchi hamshiradan ruxsat so'radim. Erkin aka meni ochiq



chehra bilan kutib oldilar. O'zlarini ancha tetik sezib, ko'zlari yog'duli boqar edi. Men qisqa suhbatdan so'ng, shoirni toliqtirib qo'ymaslik uchun ketishga chog'landim. So'zlaridan angladimki, suhbat davom etishini xohladilar. Gap ko'proq she'riyat haqida bo'ldi. Rusning ulug' shoiri Sergey Yesenin o'zbekchada kuylatgan buyuk shoirimiz Erkin Vohidov tarjimalari haqida gapirib, oldin she'rni rus tilida o'ziga xos ohangda aytdilar. Keyin she'rni o'zbek tilida aytganlarida she'rning ta'sir kuchi yanada joziba kashf etdiki, mendagi yurak urishi bilan uyg'unlashib ketdi, guyo. Sergey Yesenin suvratlarida aks etgan moviy ko'zlaridagi o'tkir nigoh o'ziga xos farqi ochib taralgan oltin rangida tovlanuvchi sochlari, bepoyon rus o'rmonlaridagi go'zal qayinzorlar ko'z oldimdan bir-bir o'tdi...

Men ham Erkin akaning she'r aytishlaridan zavqlanib, jo'shib, ilhomlanib, ulug' shoirimizdan ijozat so'rab, Sergey Yesenin "Ex, vi sani..." deb boshlanuvchi she'rini rus tilida, "Singlim Shuraga" she'rini o'zbek tilida hayajon-la aytib berdim.

Bu dunyoda men bir yo'lovchi,

Shodon menga qo'l silki, yerkam.

Xuddi shunday shod erkalovchi

Ziyo to'kar, kuz fasli oy ham.

Isinurman oyning taftida,

Ilk bor undan orom olar jon.

Allaqachon so'ngan sevgiga

Umid bog'lab yashayman hamon.

"Sodda, samimiy, byetakror satrlar", deya qiyiq ko'zlari tepasidagi o'ziga yarashqliq qaboqlari bir oz ko'tarilib, o'ychan, o'tkir nigoh ila nim tabassum bilan xayolga berildilar Erkin aka.

Ehtimol, 70-yillarda Sergey Yesenin she'rlarini tarjima qilib, kechalarni bedor o'tkazgan xush onlari yodga tushganmikan?

Iste'dodli, tarjima qilishda ham byetakror, buyuk o'zbek shoiri Erkin Vohidovning, ulug' rus shoiri Sergey Yesenin turkum she'rlarini o'zbek tiliga o'girishi tarjimon uchun ham, she'riyat muxlislariga ham bir olam quvonch edi.

Ketar chog'imda, 1974 yil oktyabr oyida Erkin aka ijod qilgan "O'zbekiston" she'rini esladik. Bu she'r hozir, istiqlol kunlarida o'zgacha jaranglaydi. Turli anjumanlarda, bu she'r menga dasturilamal bo'lishini eshitib, xursand bo'ldilar va she'rga ju'ziy o'zgartirish kiritdilar.

1998 yilning iyulida O'zbekiston televideniyesi rejissyori Qodir Sa'dullaev bilan Xitoy mamlakatiga ijodiy safarimizda, Pekin shahridan 68 kilometr shimolda tog'larni kesib o'tuvchi Buyuk Xitoy devoriga chiqqanimizda butun dunyo ijodkorlarining anjumani bo'layotgan ekan. Xitoylik hamkasblar o'zbekistonlik mehmon sifatida menga so'z berishdi. Atrof tog'lar bilan o'ralgan, balandligi chamasi 10 metrlar, eni 5 metrdan ziyod dahlizga o'xshash uzun devorlar bo'ylab minglab odam ishtirok etayotgan anjumanda o'z ona tilimda shoir Erkin Vohidovning "O'zbekiston" she'rini o'qidim. Jarangdor mikrofon orqali aytgan she'rim Buyuk Xitoy devori bo'ylab, tog'lar osha aks-sado berdi. Xursandligim va hayajonimdan butun qalbim titrab ketdi. Yuzimdagi his-hayajon, she'rdagi "O'zbekiston" degan so'zlarim tarjimonsiz ham eshituvchilar qalbiga kirib bordi.

"Uzbeki... Uzbekistan... O'zbekiston"... – degan olqish so'zlar, ingliz tilida yangragan ovozlar atrofni egalladi. Yon-atrof butun dunyodan kelgan kinokamera, tele va videokameralarga to'lib ketgan. Hayajon, quvonchni qalbiga sig'dira olmadim. Ko'zlarimda yosh qalqidi. Jannatmakon yurtim qiyofasi: osmon-o'par tog'larimiz, daryolaru ko'llar, barglari shitirlayotgan terakzorlar, tabassum-la boqib turgan bobolaru momolar, beshikdagi bolasiga termulgan Ona qiyofasi, adirliklar bag'rida varrak uchi-rayotgan jajji farzandlar, o'tloqdagi qo'y-qo'zilar, qo'ying-chi, yurtimizdagi go'zal manzaralar – bari-barisi qisqagina soniyalarda xayolimdan o'tdi. O'lka sog'inchi har narsadan ustun.



Yurtim,
Seni oldim yana qalamga,
Qutlug' yoshing bahona bo'lib,
Yana kelib qo'nding tonggi misramga
Falak nisor etgan durdona bo'lib
Iqbol peshonamga bitgan oshyonim
O'zbekistonim!

Toleim bor ekan, senga hamnafas
Otashin quyoshing bilan yo'g'rildim.
Yuz yil avval emas, yuz yil kam emas,
Tug'yonli asrda senda tug'ildim.
Gullar sochding men ilk bosgan qadamga
Bag'ring menga nurli koshona bo'lib,
Jahon ichra mening tengsiz jahonim
O'zbekistonim!

Ko'p ellarni kezdim, ko'p yurtlar ko'rdim,
Bir-biridan go'zal, bir-biridan soz.
Lekin Sharqda mash'al, charog'on yurtim,
Olamda tengi yo'q, o'lkadur mumtoz.
Bunda do'stlik kuyin aytur har chechak,
Bunda baxtni qilur har bulbul navo
Dillardagi azal bashariy tilak –
Buyuk birodarlik gulshani aro.
Osiyoxon degan suluv sanamga
Oltin senu, atlas so'zona bo'lib,
Kulib turgan, yorug' munis makonim,
O'lkam, onajonim, yuragim, jonim –
O'zbekistonim!

Buloq yonida ko'rpachaga yonboshlaganimcha, bir qadam ham nari jilolmadim, turib ketolmadim.

Qaraysan, tizma tog'lar, ko'm-ko'k adirliklar, daralar... tabiat so'lim, fusunkor...

Ko'z ilg'amas cheksizlik... bahorgi quyosh nuridan ko'zlar qamashadi. Uzala tushib yotganingcha oppoq bulutlar kezayotgan osmonga qaraysan. Ko'zlaring yumilib, xayol seni chulg'ab olib, olis-olislarga yetaklaydi...

Hayot qayig'ing biror daqiqa to'xtamaydi. To'xtatolmaysan. Umr, go'yo oqar daryo. To'xtata olmaysan. Qancha yo'llar, so'qmoqlardan yurding. Xitoy, Hindiston, Turkiya, Angliya kabi mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lding. Jannatmakon yurtning shaharu qishloqlarini kezding. Hozir yonida turgan buloq suviday toza eling gaplaridan zavqlanding. Telekamera – ko'zgu orqali qurgan suhbatlaringdan ko'plar bahramand bo'ldi, qalbingning tub-tubida bir umrlik armonlar qoldi... Oynai jahon orqali hishayajon-la eling, yurtning uchun jo'shib so'zlagan onlaring...

Shukur qil. Yuraging urib, oyoqlaring yurib turibdi. Sog'omonsan. Yurt kezasan. Odamlar orasiga singib ketasan. Toki tiriksan, ijoding to'xtamaydi.

Buloqda aksim ko'rindi, boshqa bir odam qiyofasida. Seskanib ko'zimni olib qochdim va darhol orqa tomonga o'girilib qaradim, atrofga alangladim. So'ng beixtiyor suvga qo'lim tegib, "qiyofa" jimirlashib ketdi. Shu qisqagina daqiqalarda esa xayolimdan nelar kechmadi...

Bir nafas o'tib, buloq suvi o'z holiga, holatiga qayta boshladi. Qizig'i, unda aksim "holing nechuk?" deya horg'inlik ichra menga qarab turardi... Hali qadding tik, bechorahol emassan, horg'inlik senga yot, hayotda egilma... Shu tariqa buloqqa qarab, ichki ovozda qalb va ko'zlar so'zlashadi. Ko'ngildagi chizgilar xayolda aks etadi va yana xayolda xotiralar jonlanadi...

Qancha zahmatlar, qiyinchiliklar ortda qolib, olg'a qarab intilding, hayoting davomida olqishlar, hamdu sanolar ko'p bo'ldi. Televideniye'dagi ijoding davomida mushohadasi keng, boobro'



insonlardan o'rganding, yaxshi fikrlar, maqtov so'zlarni eshitding.

Irodang, aql-idroking ila ruhiyatingni, fikringni to'la ishga sola bilmaganliging sen uchun armonga aylandi bugun. Gohida vaqtning qadriga yeta bilmading.

Nega endi bugun butun hayoting, kechinmalaring buloq bo'yida yodga keldi. Ishingdagi qarama-qarshiliklar, to'siqlar, aqlingning to'laqonli ishlashiga turtki bo'lgandir, yaxshiliklar sari undagandir. Bunda esa senga adabiy muhit – kitoblar yordamga keldi. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Chingiz Aytmatov, Ernest Xeminguey, Gabriel Garsiya Markes asarlaridagi insonlar taqdiridan xabardorliging turtki bo'lgandir, rag'bat olib, ishonch kuching oshishiga sababchi bo'lgandir.

Ernest Xeminguey "Chol va dengiz" asarida: "Yolg'iz holdan toygan baliqchi dunyodagi eng katta baliq bilan kurashadi. U bunda kuch emas, balki zakovatning ustunligini isbotlab bera-di", – deydi.

Qaysidir kitobda o'qigan edim: Ba'zan muvaffaqiyatsizlikka uchrab, qalbing jarohatlanadi. Ammo vaqt eng yaxshi davo. Yaxshi kunlar kelishiga ishonadilar va unga intiladigan odamlarga muvaffaqiyatning yangi kurtaklari bo'y ko'rsatadi.

Odamzodga qisqagina umr berilgan. Shu umring davomida qirchillama yoshingda muvaffaqiyat, olqishlar ichra ijod (hayot) qayig'ida suzib ketding. Seni gangitib, iztirobga solmoqchi bo'lganlardan yiroqlashib, yuqorilab ketding. Endi sen ularning shovqinli baqir-chaqir gaplarini eshitmaydigan darajada uzoqlarga suzib, ilgarilab ketding. Mabodo saslari kelib qolgan taqdirda ham, ro'baro' bo'lganingda ham, yaxshi muomalada bo'lib, tabassum-la javob qilish harakatida bo'lasan. Hayotda nelarga va kimlarga ro'baro' kelmaysan. Ba'zisini kulgi bilan yengasan...

Kimdir sizga nisbatan adolatsizlik qilsa, siz ham unga yaxshilikni ravo ko'rmaysiz aslida, bu tabiiy. Ehtimol, unday qilish kerakmasdir, yomonlikka yaxshilik ila javob qaytarish o'rinlidir.



Yillarni ortda qoldirib, aql-idrok ila maqsad sari intilish harakatida bo'lding. Kimlardandir ranjiganing, achchiq iztirobda qolganingni yuzlariga to'kib solmading. O'zingni tiyding. Ularni yomonlab sen obro' olarmiding? Ulardan senga ne foyda?

Ishlab turgan diktor-diktor ma'lum muddat oynai jahonda ko'rinmay qolsa, odamlar orasida har xil gaplar tarqaladi. Turli mish-mishlar... mening hayotimda ham xuddi shunday voqea yuz berdi. Go'yo, men do'st-birodarlarim bilan baliq oviga borganimda qayiq ag'darilib, cho'kib ketgan emishman! Ertalab uydan ko'chaga yumush bilan chiqib ketganimdan bir oz vaqt o'tib, uyimizga uchta ayol kirib keladi:

– O'g'lingiz shunday bo'lib qolibdi-da, ko'rgulik... – deb onamga ta'ziya bildirishadi.

Onam hayron:

– Unday bo'lishi mumkin emas! O'g'lim hozirgina ko'chaga chiqib ketdi, – deganlaridan so'ng ayollar hangu mang bo'lib qolishadi.

Ko'chada yurib ketayotganimda “Xayriyat, Xudoga shukur, salomatmisiz? Odamlarga ham hayronsan...” – deganlar ham bo'ldi. Inson uchun eng yomoni orqavorotdan o'zi haqida bo'lmag'ur, oldi-qochdi gaplarni eshitishdir.

O'sha kuni otam, ustozlarim aytgan, qalbimga muhrlanib qolgan so'zlar, miyamda charx urib, butun xayolimni chulg'ab oldi. Otam: “Hayot yo'llari juda ham notekis. Mabodo ishing yurishmay, yo'lingda to'siqlar paydo bo'lsa, ularni aylanib, chekkalab, sakrab o'tib, olg'a qarab yur, yaxshilikka intil! O'sha intilishing senga avvalgi ishingdan ham ko'ra ko'proq muvaffaqiyatlar olib keladi. Turmushda nelar bo'lmaydi, istamagan holatlarga duch kelsang, ularga e'tibor berib, vaqt sarflab o'tirma. Ular haqida nolib gapirma, hasrat qilma”, – deganlar yoshligimda.

Notiqlik san'ati bilimdoni ustozim Nazira Alieva “O'zingni qo'lga ol. Optimist bo'! Do'stga ham, dushmanga ham o'zingni zaif, nimjon qilib ko'rsatma! Odam o'zini o'zi tarbiyalay bilishi lozim. Qalbingda maqsad, ishonch, orzular jo'sh urib tursa, yurish-



turishing, qadam tashlashing ham o'zgarib, chehrang ochiq, yuzing yorishib turadi. Ishingda baraka, katta natijalar, yutuqlar bo'ladi. Doimo seni yaxshiliklar kutadi. Senga atrofdagilarning havasi kelib, hurmat-e'tiboring oshadi", – degan edilar.

Olimlarning fikricha, "Miyamizdan kuniga 60 mingga yaqin bo'lgan turli xil fikr-o'ylar o'tar ekan. Baxtimizga ularni boshqarishning usuli bor, bu bizning hissiyotlarimiz bilan bog'liq. Hissiyotlaringiz o'z hayotingizni yaratishingizda ajoyib "ish quroli" bo'lib xizmat qiladi. Sizning hissiyotlaringiz nimalar haqida o'ylayotganingizni aniqlashga yordam beradi. Fikrlar hissiyotlarni uyg'otadi. Siz hayotingizda hamma narsaga erishishingiz mumkin, sizga hech qanday chegara yo'q.

Buning uchun avvalambor, o'zingizni yaxshi his qilishingiz, hayotdan lazzatlanishingiz lozim bo'ladi. Aslida orzularingizdan maqsad shu".

Tushkunlikka tushmasdan yaxshi narsalar haqida o'ylashni o'zimga maqsad qildim. Bo'lib o'tgan voqealar to'g'risida iloji boricha o'ylamaslik harakatida bo'ldim. Ish yuzasidan O'zbekiston televideniyesida bosh muharrir bo'lib ishlayotgan O'rol O'tayevga uchrashishni o'zimga maqsad qildim. Uning ssenariysi asosida xalq og'zaki ijodi – baxshichilik san'ati haqidagi turkum ko'rsatuvlarga boshlovchilik qilardim. O'rol bilan dastlabki ishga kelgan kundan boshlab, ijodiy hamkorlik qilib kelardik. Biz yaqin do'st edik. O'zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga nomzodlik paytida Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida unga ishonchli vakil sifatida bir oydan ko'proq yonma-yon, qishloqmaqishloq yurib, tekis-notekis tuproqli, chaqir toshli so'qmoqlarda qadam tashlaganmiz. Deputat sifatida o'zi tug'ilib o'sgan tumanda ko'plab ishlarni amalga oshirdi. Televideniya oddiy muharrirlikdan direktorlik lavozimigacha mashaqqatli ijod yo'lini bosib o'tdi. (Oxirati obod bo'lsin.)

Oradan ancha yillar – 26 yil o'tib buloq bo'yida turibmanu, o'sha davrdagi voqealiklar kinotasmaday ko'z oldimdan bir-bir o'tdi. Har qanday sharoitda, nima bo'lishidan qat'i nazar bobola-

ring o'rgatganlaridan saboq olib, aqllilik, sipolik bilan ish yuritishning harakatida bo'ldim.

90-yillar boshida televideniye osmonida qisqa muddat tanani kesib o'tguvchi sovuq shamollar esdi. Bu keskir shamol zarbi, barq urib, yashnab turgan ayrim daraxtlarning shoxlarini sindirib, gullayotgan gullarni yulib ketdi. Bundan men ham benasib qolmadim. Xushimdan ketadigan darajada junjiktiradigan "sovuq shamol" tanamni, qalbimni yalab ketdi.

"O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvonini olganimdan bir oz fursat o'tib, "Axborot" dasturidan, bir yil davomida esa hamma ko'rsatuvlardan olib tashlandim. Qayotga xatoga yo'l qo'rganligimni hech bir rahbar tushuntirib berolmadi. Aybim Nima?

Odam shunday holatga tushar ekanki, ba'zi insonlar bilan muloqotda bo'lib, suhbatlashayotganimda xato gapirib qo'ymadimmikin, deb hadiksirab xavotirga tusharkansan. Turli, vahimali o'y-xayollar boshim uzra charx urib aylanaveradi, aylanaveradi. Xuddi hayotda ortiqcha odamday sezar ekansan o'zingni.

"Ezgulik va yomonlik to'qnashgan joyda tomoshabin ko'p bo'larkan". Ko'hna hind "Ta'birnomasi"dan.

Televideniye ijodkorlaridan hech biri mening yonimni olmasdi, ola bilmadi...

Televideniedan butkul ketish haqida ariza yozdim. Men uchragan rahbarlar kyetishimga rozi bo'lishmadi. Chunki hech qanday aybim yo'q edi. Bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lgan rais muovini Elbek Musaev meni o'z xonasiga chaqirdilar: "Sen shu muqaddas dargohda o'sding, ulg'ayding, xalq orasida obrue'tibor topding, yaqindagina O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoniga sazovor bo'lding. Qani, arizangni yirtib tashla. Hammasi o'z o'rniga tushib ketadi. Bir oz sabr qil. Chida, bolam," – deya menga eng yaqin inson sifatida nasihatimiz so'zlarni aytdilar. Bir og'iz shirin so'z menga dalda bo'ldi.

"Chida"... Choram qancha...

“O‘zida katta kuch va salohiyat borligini bilgan odam, o‘ziga qattiq ishonib omadsizlik oldida bosh egmaydi, aksincha, muvaffaqiyatsizliklar uni toblaydi va yanada kuchli ishlarga ruhlanti-radi”, – deydi faylasuflardan biri.

Tushkunlik holatidan meni badiiy adabiyot, she‘riyat qutqarib qoldi. Adabiy muhitga yaqinligim tufayli yozuvchi, shoirlar ijodi haqidagi ko‘rsatuvlarga boshlovchilik qilardim. Shoirlarning she‘rlari asosida “Adabiy kompozitsiya”, “She‘riyat kechalari ” ko‘rsatuvlariga o‘zim muallif va boshlovchilik qilib, 20-30 da-qiqa televideniyeda she‘rlar o‘qir edim. Shular asosida mening muallifligim va Jahongir Qosimov rejissyorligida “O‘zanini topar daryolar” ko‘rsatuvi vujudga keldi. Oliy toifali diktorlik davrimda 250 so‘m oylik va shundan ko‘p miqdorda gonorar olar edim. Ijo-dim oralig‘ida bir muddat tanaffus bo‘lib, oddiy muharrir sifatida 170 so‘m oylik bilan ish boshladim.

“Turkiston” gazetasining 1992 yil 4 fevral sonida “Noumid shayton deydi” maqolasi e‘lon qilindi:

Nima sababdan oynai jahon diktori Farhod Bobojonov ke-yingi paytlarda ko‘rinmay qoldi? Yoki ishdan ketdimi? Bir qan-cha mushtariylar xuddi ana shu savol bilan murojaat qilishgan. Ularning qiziqishlarini inobatga olib yaqindagina O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvonini olgan va negadir teleekranlarda ko‘rinmay qolgan Farhod Bobojonovni suhbatga taklif etdik.

– Farhod aka, adashmasam 20 yildan buyon sizni oynai jahon-da ko‘ramiz. Va bunga o‘rganib qolganmiz. Endi bo‘lsa sizni ish-dan ketgan bo‘lsa kerak, deyishyapti.

– Shubhalar noo‘rin. Televideniyeda ishlayapman. Faqat endi diktorlik qilmayapman, xolos. Adabiyot va san‘at bo‘limiga ijodiy xodim bo‘lib o‘tdim. O‘z ixtiyorim bilan.

– Nega endi to‘satdan?

– To‘satdan emas. Men bu haqda anchadan buyon o‘ylab yurardim. Lekin jizm etolmasdim. O‘rganib qolgan ishingdan voz kye-chish qiyin ekan. Ayniqsa, eng yaxshi yillaringni, im-koniyatlaringni shu ishga bag‘ishlagan bo‘lsang.

O'tmishimizga, tariximizga qiziqaman. Shu mavzuda ko'rsatuvlar tayyorlashni niyat qilib yurardim. Ana shu niyatimni amalga oshirish imkoniyatini endi qo'lga kiritdim.

Yaxshi ko'rsatuvlarni olib borish ham bir san'at. Balki adabiyotni, she'rni yaxshi ko'rishim uzoq yillar shu sohada ishlashimga sabab bo'lgandir. Istaysizmi, Cho'lpondan, Abdulla Oripov, Mirtemirdan bir soat to'xtamay yoddan she'r aytib beraman...

– Cho'lpon she'rlarini qachon birinchi bor teletomoshabinlarga o'qib bergansiz?

– Afsuski, bolaligimda otamning ko'magida yod olgan she'rlarimdan faqat o'tgan yiliga foydalana oldim.

– Farhod aka keyingi paytlarda ro'znomalar, oynomalar faoliyatida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Siz televideniyaedagi o'zgarishlarni qanday baholaysiz?

– Bu ma'lum darajada ijodiy jamoamizda shakllangan ma'naviy muhitga ham bog'liq. Ijodkor sifatida har xil mayda gaplardan baland tura oladigan haqiqiy jonkuyarlar bo'lsagina ish olg'a siljiydi. Avvalo sog'lom, ijodkorona muhit yaratish kerak.

– Adashmasam tarixiy mavzuda tayyorlanadigan ko'rsatuvlaringizda bu fikrlar o'z aksini topsa kerak?

– Har bir kishi hech bo'lmasa o'zi yashayotgan joy tarixini bilish kerak. Qo'qon, Buxoro, Xiva, Samarqand... bu shaharlar o'tmishining o'zi bir tarix. Imkoni bo'lsa shu yurtlar haqida hikoya qilsam deyman.

– Hozir O'zbekiston televideniye va radio eshittirish davlat qo'mitasi qaytadan tuzilib teleradiokompaniyaga aylantirildi. Endi oynai jahonda ham ijobiy o'zgarishlar bo'lar.

– Noumid shayton deydilar. Yaxshi niyatda qilingan yangilik yaxshi natija berar.

Muyassar Mansur suhbatlashdi.

70–80-yillarda televideniyaedamoyish qilinadigan "Olamda nima gap?" ko'rsatuvi ommabop bo'lib, teletomoshabinlar orasida har jihatdan o'z mavqeiga ega edi. Ko'rsatuvda o'zimizning va



dunyo tarixini, o'z davridagi siyosiy jarayonlarni yaxshi biladigan, jahonda yuz berayotgan dolzarb, kundalik voqealardan xabardor tarixchi olimlar, siyosiy sharhlovchilar qatorida tarixchi Erkin Hayitboev ham ishtirok etardi. Oradan bir oz vaqt o'tib, taqdir taqozosi bilan Erkin Qahhorovich Hayitboev O'zbekiston teleradiokompaniyasi raisi etib tayinlangach, ishni ko'rsatuvlar sifatini yaxshilash, saviyasini oshirish, qalami o'tkir, sof adabiy tilda yerkin gapiruvchi jurnalistlar, diktor – diktorlar ijodiga e'tiborini kuchaytirib, ularni rag'batlantirishdan boshladi.

Erkin Hayitboev baland bo'yli, qalin sochlari orqaga silliqlab taralgan, oq-sariq yuzli, chehrasi doim kulib turuvchi, ovozi jarangdor – keskir, bir so'zli, o'z ishiga puxta, bo'layotgan voqelikni tez ilg'ab oladigan sezgir, talabchan rahbar edi.

“Olamda nima gap?” ko'rsatuvi orqali chet ellardan olingan siyosiy voqealar tasvirlangan lavhalarni kadr ortida men o'qir edim. Erkin aka bilan ana shunday ish jarayonlari tufayli yaqindan tanish edim. Tabiat qonuni – yangi rahbar kelgandan so'ng birdaniga muhit o'zgarib, ijobiy o'zgarishlar sari qadam tashlanadi. Kimdir bundan quvonadi, yana kimdir bezovtalanadi, kimlardir befarq...

Televideniye imkoniyatlari juda katta. Agar iste'dodingni ishga sola bilsang uning ochilmagan qirralari juda ham ko'p. Men qator mualliflik ko'rsatuvlariga qo'l urib, ijodiy ishlarga sho'ng'ib ketdim.

Kunlardan bir kun yangi rahbar meni xonasiga chaqirtirib, “Axborot”ning maxsus sonini men o'qishim kerakligini tayinladi. Men endi diktor emasligimni aytdim. Rais ko'nmadi. O'qimaslikning iloji yo'q. O'qidim. Erkin aka diktorlikka qaytishim haqida fikr bildirdi.

Mualliflik ko'rsatuvlarimni ko'rganlaridan so'ng, fikri o'zgarib, meni “Adabiy dramatik ko'rsatuvlar tahririyati”ga bo'lim boshlig'i qilib tayinladi. Rejissyor Jahongir Qosimov bilan hamkorlikda, mening muallif va boshlovchiligimda tayyorlangan “O'zanini topar daryolar” ko'rsatuvimizning



buyuk o'tmishimiz va hozirgi zamon bilan bog'liq ba'zi jihatlariga raisimiz sinchkov ko'z bilan qarab, katta ishonch bilan, o'z munosabatlarini bildirganlaridan so'nggina efirga qo'yilar edi. 1993 yilga kelib, eng yuqoridagi rahbarlar tavsiyasi bilan Prezidentimiz Islom Karimov nomiga kelgan maktublar asosida, Farg'ona, Namangan, Jizzax viloyatlaridan "Maktub – ko'ngil oynasi" nomli turkum ko'rsatuvlar tayyorladik. Bildirilgan katta ishonch bizni yanada samarali ijod qilishga undar edi.

Aslida ijodkor uchun ne kerak? Salgina rag'bat, turtki, yaxshi so'z... Shunda sen olam-olam quvonch bilan qanot yozib, olg'a intilasan. Senda yangidan-yangi fikrlar, g'oyalar paydo bo'ladi. Inson qalbi xuddi musiqa asbobi torlariday ingichka, soch tolaridek nozik. Bir og'iz so'z bilan osmonlarga parvoz qilasan, yomon dakki bilan nafis iplar uziladi...

Osmonga qarayman. O'z hamrohlaridan ajralib qolib, yolg'iz kezayotgan bir to'p oppoq bulut meni kuzatayotganday tuyuldi.

Bahor yomg'iridan so'ng changlardan tozalangan osmon shunchalar tiniqlashganki, unga qarab ko'ngling ravshanlashadi. Qalbingda sirli tuyg'ular kezadi, go'yo. Unga tushayotgan bir parcha oq bulut aksiga qarab, qalbing taskin topadi. Bu yerdagi manzara, sokinlik seni allalaydi... Ko'zlarim yumildi. Olis-olislariga parvoz qildim, koinot qo'ynida, yer yuzidagi ranglardan butunlay boshqacha ko'rinishdagi gunafshaga o'xshash qizg'in tUSDagi, zangori, to'q qizil, nim ko'k – xuddi baqaterak tanasi rangi va uning barglariday ko'kish, qurbaqa rangiday ranglar oralab uchaman yetti qat osmon ostida. Oxiri ko'rinmas falak...

Tog'ning kechki salqin havosidan, qornim nihoyatda ochligidan etim junjikib uyg'onib ketdim. Ko'zlarimni yumib, bu tushning oxirigacha davom yetishini istardim. Yana uyqu bosdi. Negadir birdaniga cho'chib tushdim. Shu yoshimda butunlay uyg'onmay qolishdan qo'rqdim. O'zimni majburlab, sapchib o'rnimdan turib ketdim.



Bundan yigirma yillar ilgari og'ir xastalanganimda uyquga ketib, xuddi hozirgiday holatda, barcha go'zalliklar, ranglar ichra osmonu falakda uchganman. Shunda alahsirab, qaltirashimdan qo'rqib, shifokorlar meni uyg'otib qo'yishgan. Oh, butunlay uxlab qolishdan Allohning o'zi asrasin.

Biz anglagan, anglab etmagan dunyo...

Yon-atrofda endigina nish urib hayotga intilayotgan ko'katlaru tog'u toshlar – bari-barida tiriklik mavjud. Hu, cho'qqayib turgan cho'qqi-yu, osmono'par tog'lar ham million yillardan beri o'sishda davom etadi. Buloq suvida esa milliardlab bizning ko'zimiz ilg'amaydigan zarrachalar mavjud. Ular tirik. Cheksiz, tuganmas olamda, milliard sayyoralar ichra, biz milliard odamlar umrguzaronlik qilayotgan Yer deb atalmish sayyoramiz ham koinot ichra bir zarrachadir balki? Bu endi odam bolasi tasavvuriga sig'dira olmaydigan jumboq!

G'afur G'ulom aytganlariday, inson hayoti "kapalak umriga qiyos qilgulik". Umr o'tar, qachon ketamiz, yolg'iz Allohga ayon, bilmaymiz...

Mana umrimizning yana bir kuniga yakun yasalmoqda. Hademay boboquyosh o'z yotog'iga bosh qo'yadi. Shoshilmoq kerak. Buloq bilan xayrlashishning shirin azoblari... Kun botish arafasida buloq suvi, shunchalar pokiza, shunchalar tiniq ko'rinadiki, tasavvurga sig'dira olmaysan. Suv shunchalar tip-tiniq, tozaki, bironta g'ubor, chang yo'q. Shu muqaddas joyda sen yolg'on so'zlar aytmadimg, aytolmaysan ham. Bari rost. Sen barcha armonlar girdobidan chiqib olding. Ko'ngling taskin topdi. G'uborlar yozilib, fikring tiniqlashdi.

Pastlikka qarab, jilg'a-soy bo'ylab harakatlandim. Yuqoriga chiqishdan ko'ra, quyiga tushish ancha engil kechadi.

Qamchiq dovoniga ketaverishda, tog' qishloqlaridan ancha berida, katta yo'lga yaqin joydagi pastlikda oqish tutun ko'zga elas-elas tashlanib, ko'kka o'rmalaydi... qo'ylarning ma'rashi, itlarning horg'in, erinib vovullashi eshitiladi. Yaqinlashganim sari, itlar ovozi avjga chiqdi. Shunda itlarga "yot joyingga", de-

gan bo'g'iq ovoz eshitildi. Men avvallari cho'pon itlarni ko'p bor kuzatganman. Qo'rqmasdan itlarga qarab boraversangiz, dastlab hurishi avjiga chiqadi, keyin ovozi pasayadi. Hozir egasining muloyim, lekin keskir tovushini eshitishi hamono boshini bir tomonga egib chekkaga qarab keta boshladi. Gavdasi, boshining kattaligidan yurishlari ham o'ta salobatli, vahimali ko'rinadi.

Cho'pon ikki qo'llab ko'rishib, meni samimiy qarshi oldi, kigiz ustiga ixchamgina ko'rpachasini yozib, o'tirishga taklif qildi. Ha... cho'pon zoti borki, bir tishlam nonini ham yo'lovchi bilan baham ko'radi.

Qirq besh yoshlardagi kamtar, kamgap bu inson dasturxon yozib, choyga taklif qildi. Oraga bir oz jimlik cho'kdi.

Uy tegirmonida tortilib, sal suvi qocha boshlagan kepakli qoramtir bug'doy nonning mazasi bo'lakcha. Buloq suvining tog' o'tinida qaynatilgan xushbo'y ko'k choyi-yu, totli nonning laz-zati yana qayda bor?

– Ho', soy bo'yida uyimiz, mehmonimiz bo'ling. Sizday mehmonga bitta qo'y so'ysak ham kamlik qiladi.

– Rahmat, uka. Tabiat manzarasida, keng yaylov qo'ynida siz bilan suhbatlashib, bir piyola choy ichishning gashti o'zgacha.

Bunday insonlarning mabodo uyiga borib qolsangiz, borini siz bilan baham ko'radi. Mayiz, o'rik turshagi, tut qoqi, saryog', echki qatig'i – bari-bari bir zumda dasturxonda muhayyo bo'ladi. Zotan, mehmon kelishi xonadon egalari, farzandlari uchun misoli bir bayram.

Bahor ayyomi cho'ponlar tashvishi o'n karra oshadi. Chunki qo'zilatish mavsumida qo'ylarni qarovsiz qoldirib bo'lmaydi. Namgarchilik, yomg'ir, kechki izg'irin shamoldan asrash kabi barcha tashvishlar qo'sha-qo'sha keladi. Qishdan bazo'r chiqqan qo'ylarni, adirliklarda tindirmay yurg'azganda, endi chiqayotgan ko'k o'tlardan eb, quvvatga kirishi koni foyda. Cho'ponga kecha-yu kunduz biror daqiqa ham tinim yo'q. Atrofimizda qo'ylar galasi, bir-biridan chiroyli har xil ko'rinishdagi qo'zichoqlar...



Cho'ponlarning ba'zilari tabiatan shunday yaralgan – savol bersangiz qisqagina javob olasiz.

– Qancha qo'yingiz bor?

– Bir ozgina... shaharliklarning ham qo'ylarini boqaman.

Oraga bir oz jimlik cho'kdi, o'ng'aysizlikdan qutulish uchun ketma-ket savollar berdim:

– Bahor boshlandi, mehmonlar ko'paysa kerak?

– Ha. Yana bir oylar o'tib lolaqizg'aldoq paytida adirlikka sig'may ketadi odam zoti, baqir-chaqirlar, bolalar ovozi olamni tutadi. Ularni uzoqdan turib kuzataman. Xursandchiliklari bir olam jahon. Haqiqiy dam olishga ne yetsin.

– Odamlarimizda mehr-oqibat kuchli.

– Shundayku-ya, ammo orasida olasi ham bor-da. Tunov kun bashang kiyinganlar suhbatini eshitdim. Bittasi nima deydi, deng, "Odamzod yer yuzidagi jonzotlar ichida eng vahshiysi", – deydi. Odam, "madaniy yirtqich" emish. Eh, gap ko'p. Qo'y boqib kun bo'yi xayol suraman. Bo'ri qo'yni bo'g'izlab o'ldirsa, inson zoti uni pichoq bilan so'yadi. Eh, he... Bu yog'i ularning falsafasi. Rosa tortishuvlar bo'ldi-ya.

Kamgap yigit chunonam gapga berildiki, so'z qulfi o'z-o'zidan ochildi.

– Choydan iching, aka, charchoqni oladi. Buloqqa chiqish ancha mushkul. Uncha-muncha odamning yuragi betlamaydi, ba'zilarning sog'lig'i ko'tarmaydi, – deya uzoq ma'ruza qilishga chog'langanday chuqur nafas olib, so'zida davom etdi:

– Men sizni ertalab uzoq kuzatdim. So'qmoq yo'ldan yurib, so'ng adashdingiz, urilib-surilib, axiyr i jilg'a bo'ylab buloqqa qarab yurdingiz. Xayriyat, dedim. Men g'ira-shirada, hu-u, kunchiqar tomondagi qoya ortida, kungayga qaragan adirlikda qo'y suruvdim. Sizga yo'l ko'rsatay desam, masofa uzoq. Baqir-sam, baribir eshitmaysiz. Ochig'i, men sizni tanidim, siz goh otga, goh tuyaga minib dashtlarda, sahroyu cho'llarda, daryo bo'ylarida, adirliklaru tog'u toshlarda ko'p kezasiz. Qishloqlar

oralab ketasiz. Odamlar bilan suhbatlashasiz. Televizorda ko'rib, sizga havasim keladi. Sizning armonlaringiz bo'lmasa kerak?

– Armon?.. Sizda-chi?..

– Armonim bor, aka – Suhbatdoshim chuqur nafas olib, xayolga berildi. – O'qiy olmadim, sharoit ko'tarmadi... Ishimdan nolimayman, ota kasb.

– Otaning davomchisi bo'lish, siz uchun faxr, menimcha.

– Eh, nimasini aytasiz?! Bobolarim ham cho'pon o'tishgan.

– Bilaman. Tabiat qo'ynida qo'y boqib shundan lazizat olasiz.

– Qish izg'irini, bahorgi tashvishlar ancha qiynaydi.

– Har bir ishda o'ziga yarasha qiyinchiligi bor, uka. Odam oldinga qarab intiladi. Ishida baraka, rivoj bo'lishini istaydi. Bola-chaqam deydi, ro'zg'ori but bo'lishini istaydi. O'zbek borki, to'y qilib, elga osh berishni orzu qiladi. Istak, xohish, harakat ko'p bo'lsa, ishlar yurishib, armonlar ortda qoladi, uka.

– Men ham bolalarimga to'y qilish orzusidaman. Sizni, albat-ta, tuyga aytaman.

Anchadan beri sizga o'xshash insonlar bilan suhbatlashish orzusida edim.

Bu yerdagi tabiat manzaralarni ko'rib, ba'zi-ba'zida yo'lovchilar to'xtab o'tishadi. Bir kuni ulardan biri, suhbatlashib o'tirganimizda, "Qo'y boqib zerikmaysizmi, orada kitoblar ham mutolaa qilib turasizmi?", – deb qoldi. Men aniq bir javob bera olmadim. Shu bo'lib deng, o'tgan suhbatdan ta'sirlanib, qo'limga kitob oldim. O'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti deysizmi, iloji bo-richa vaqt topib o'qiyman.

– Hozir qaysi kitobni mutolaa qilayapsiz?

– Amerikalik yozuvchi Ronda Bernning "Hayotning eng buyuk siri" kitobini. Muqaddimasi "Hayotda o'z yo'lini izlaganlar va farovonlikka intilganlar uchun" deb boshlanadi.

– Bu kitobdan so'ng Ronda Bernning "Qahramon" nomli kitobi ham chiqdi. Uni ham o'qing. Unda insonni o'ylatadigan falsafiy, mushohadaga chorlovchi so'zlar ko'p.



Masalan, kitobdagi qahramonlardan biri, hindistonlik ishbi-larmon Rao shunday deydi: "O'z xato va omadsizliklaring uchun boshqalarni ayblamasdan, javobgarlikni o'z bo'yiningga olsang va ularga yashiringan saboqlarni izlasang, topsang – qahramon-lik olg'a siljishingda qudratli vosita bo'ladi. Aslida ham xato va omadsizliklardan qochib bo'lmaydi: ulardan saboq olib, ijobiy xulosa chiqarish esa o'zingizga bog'liq!"

Amerikalik ishbi-larmon Lerd Gamil'ton esa "Omadsizlikka uchrashing mumkinligiga hamisha tayyor turishing lozim. Men ham eng kerakli saboqlarimni muvaffaqiyatlardan emas, omad-sizlikdan olganman. Chunki aynan shunday saboqlar orzu sari yetaklaydi", deydi. Hozir jahon adabiyoti, ayniqsa, amerikalik va dunyodagi ishbi-larmonlar hayoti haqidagi kitoblarning ix-losmandlari ko'paydi. Misol uchun, Jo Vitalining "Baxt sari to'rt qadam", "Tortish kuchi kaliti" kitoblari ham ommalashib ketdi.

– Qayerga borsam kitob do'koniga bir sho'ng'ib chiqaman. Aytgan kitoblaringizni topolmasam, qaytarish sharti bilan shu kitoblarni menga bersangiz.

– Kitobga o'chlingiz meni juda quvontirdi. Yumushlaringiz kamaygan paytda Toshkentga borib, men bilan albatta uchra-shing, – deya cho'pon bilan xayrlashdim.

Ha, hayot biz uchun sinov. Cho'pon bilan bo'lgan mana shu qisqagina suhbat ham meni mushohadaga chorladi.

Alisher Navoiy bobomiz "Bir narsaga ikki shukur", deganlar. Vaqt qisqa, umr g'animat, negaki, sen o'z orzunga erishsang, u bilan yashasang, nafas olsang – bu eng oliy saodat. Cho'pon yigitning bir oz ma'yus, o'ychan, nurli ko'zlari va so'zlaridan o'z ishidan rozilik, afsuslanmaslik, lazzatlanish hissi uyg'oq. Zotan, u ham hayot haqida o'ylaydi. Qo'y-moli ko'p bo'lib, o'z rizq-nasibasini halol terib yeyishni ko'zlaydi. Unda ham tash-vishlar ko'p. Lekin bizning ishimiz bilan farqi shundaki, u tog'lar qo'ynida, sokinlikda yaxshi tashvishlar bilan ovora. Sen ham o'z tug'ilib o'sgan qishlog'ingda qo'y boqib, dehqonchilik qilib,



umrguzaronlik qilganingda ortiqcha tashvish va qiyinchiliklar bo'lmasmidi? Balki...

Negadir hayotda ko'p narsani ko'rsang, bilsang, har xil odamlar bilan munosabatda bo'lsang, shovqinli ko'chalarga chiqib, insonlar qalbiga quloq tutsang, oynai jahonda dunyoda bo'layotgan tabiiy ofatlar, sodir etilayotgan jirkanch voqealarni kuzatsang, dunyo juda ham tashvishli ko'rinadi. Biroq sen o'z hayotingdan nolima, afsuslanma, sening ijoding uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Xohlagancha ijod bo'stonida sayr qilishing mumkin. Bu sening fikring va ijod mahsulingga bog'liq.

Sen uchun ijod qilish cheklanmagan. Qolaversa, dunyodagi eng baxtli odamlar birovlar uchun nimadir qilayotgan odamlar. Shuning uchun "Baraka topgin", degan so'zni eshitish sendan yiroqlashmasin, hayoting mazmuni ana shunda.

Men yo'l chetida turgan avtoullovimga yaqinlashganimda, qizarib botayotgan quyosh ma'yus holatda o'zining eng oxirgi zarrin nurlarini borliqqa, yon-atrofga taratmoqda edi. Yo'l yoqasidagi kurtak yoza boshlagan majnuntol ham "mana, hayotimning yana bir kuni yakun topmoqda", deganday quyosh bilan xayrlashyapti. Majnuntolga tushayotgan zarrin nurlarning jilosini ta'riflashga so'z o'jiz. Faqat uni rassom ko'zlari ila his qila bilmoq kerak.

Majnuntol yonida turib qoldim. Ketolmadim. Cho'ponning "qurey-qurey", degan ovozi eshitildi. Qo'ylar o't-o'lanlar ko'p bo'lgan adirlik tomon chumoli misol harakatlanyapti. Orada endigina tug'ilgan qo'zichoqlar ma'rashi-yu, itlarning "Men ham borman, hamrohlik qilyapman", – deganday har zamon-har zamonada bir vovullab qo'yishi tog'dagi sokinlik qo'ynida yanada maroqli, quloqqa yoqimli eshitiladi.

Avtoullovimga kelib o'tirdim. Ketolmadim.

Quyosh allaqachon o'z yotog'iga bosh qo'yib to'lin oy o'z yog'dusini tarata boshladi.

Potirlab yulduzlar ko'rindi. Ularning ko'rinishi tog'da butunlay boshqacha, charog'on. Avtuloovning eshiklaridan kirgan



tog'ning salqin, mayin shabadasi yuzlarni siypalab o'tadi. Majnuntol oy yorug'ida yanada ko'rkam, o'ychan, boshi egik sochlari taram-taram, xuddi tirik jonzotga o'xshaydi.

1976 yili atoqli shoirimiz Mirtemirning "Eng yaxshi tilaklar bilan" menga sovg'a qilgan kitobidagi – televideniye orqali necha bor o'qiganim – "Majnuntol" she'ri ni eslab ketdim.

*Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Qovrilmay to g'ashlik alangasida,
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Nafasimni rostlay ko'lankasida.*

*Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Qushlar ovozig a quloq solayin.
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Xayol og'ushida orom olayin.*

Ohangaron shahrida hayot qaynaydi. "Majnuntol" to'yxonasi ro'parasiga kelganimda mashinamni sekinlatdim. Katta yo'lda g'izillagan mashinalar oqimi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan mashinalari karvoni tinim bilmaydi. To'yxona atrofi to'la mashina. To'yga kirishga chog'landimu, lekin...

Yo'l chetida turib, kelin-kuyovga xayolan tilak bildirdim. Shunda otashqalb shoir Rauf Parfining she'riy satrlari yodimga keldi:

*Sevgisiz tiriklik anduh, befarah,
Mangu sharofatli ma'raka bugun.
Qani ey, do'stlarim, to'ldiring qadah,
Dunyoda muhabbat borligi uchun.
Ko'kda oy-yulduzlar kirgandek so'zga,*

Aziz boshingizga sochar nurini.

Yulduzlar shu'lasin tilayman sizga,

Men sizga tilayman oyning umrini.

Uyga shoshildim. Mashina karvonlarining barchasi tezroq o'z manzillariga yetish istagida harakatlanadi. Bunday chog'larda esa ustozim Abdurahim Sayfutdinovning "Hayotda shoshib, shoshilmagin", degan so'zlariga amal qilishni o'zimga maqsad qilganman.

Avtoulovingga ko'p erk beraverma. Shoshilma. O'y-xayollar, orzu-maqсадlar og'ushida sog'inch-la o'z makon-manzilingga ketyapsan. Sen uchun eng katta quvonch umr yo'ldoshingning sog'-omon yurishi, har tomonlama qo'llab-quvvatlashi, farzandlaring orzularini amalga oshirish, baxtli yashayotganlarini, nabiralaringning quvnoq, sog'lom ekanini, o'qimishli bo'lishlarini, jajji kichkintoylarning atak-chechak qilib yurishlarini ko'rishdan yoqimliroq narsaning o'zi yo'q.

Shu soatgacha, hayotingning har bir kunida, umring davomida seni ezgu yo'lga da'vat qilib turishganini his qilish – eng oliy saodat. Hali hayotingdagi oxirgi manzilgacha uzoq... ishonch va orzuingga bo'lgan e'tiqoding senga keng imkoniyatlar eshiklarini ochadi. Demak, umr yo'llaridan dadil qadam tashla...

Ustozim Asqad Muxtor aytganlariday:

Umr yo'li oyoq izi emas,

Uni na qor, na chang bosa ola oladi.

U qora chiziqday yo nurday muqaddas bo'lib,

El ko'nglida mangu qoladi.

Ohangaron – 2016 yil mart



III QISM

MENDAN NIMA QOLUR...

*Umr – qumsoat ham yarimlab qoldi,
ko'nglim to'lgani yo'q bilganlarimdan.
Yodimni og'ritar kechirganlarim,
ko'pdir qilmaganim qilganlarimdan.*

Shavkat RAHMON

2018 yil. Birinchi mart. Toshkent–Urganch poyezdi Qizilqum kengliklari osha tong g'ira-shirasida olg'a qarab intilmoqda. Bir maromda ketayotgan poyezd g'ildiragining “Taqa-tuq” ovozi menga o'tmishimni, to'g'rirog'i, o'smirlik davrimni eslatdi. Bundan 55 yil muqaddam, 14 yoshimda, Amudaryo bo'ylaridan Toshkentga xuddi shunday vagonda ko'zlarim yumilgan holatda, o'y-xayollarga berilib, bir olam orzular og'ushida kelganman. Endi esa oradan ancha yillar o'tib, Xorazm taraflarga ketmoqdasan “Dunyo bo'ylab” telekanalidagi ijodiy guruhing bilan.

Umring kitobining bitiklari qoladi bu yo'llarda...

Orada yillar suvday oqib ketdi. Shukronalar keltirasan. Vagondagi kimlardir shirin uyquda, yana kimdir ko'zlari yumilgan holda bezovta, yana birovlar ko'zlari ochiq, xayol suradi. Sen ham xayol surasan... O'ylaysan, fikrlaysan...

Buyuk faylasuf Suqrot “Boriga shukur qilmagan odam istaganiga erishganida ham minnatdor bo'lmaydi...” degan ekan. Sen taqdiringga shukurlar qilasan, shukrona keltirasan. Sen diktor-diktor bo'lding, elga tanilding. Diktorlikdan ketganingdan so'ng, qariyb o'ttiz yildan beri yurt kezasan – jurnalist-ijodkor bo'lib. Tog'laru adirliklar, daryolar, sahroyu cho'llar osha, bog'u rog'larga burkangan qishloqlarda suhbatlar qurding, qalbi daryo insonlarni tasvirlarga tushirding. Har qancha maqtovga loyiq



shaharlarimiz, qadimiy kentlarimizdagi tarixiy joylarni ziyorat qilib, tasvirlarda muhrlading. Bobo va momolarimizdan duolar olding. Har bir kentu qishloqlar oralab bosgan qadaming qutlug'. Yurtingga, elingga, xalqingga minnatdorchilik tuyg'usidan ko'zlaringda yosh qalqiydi.

Bir do'stimdan eshitgan edim. El hurmat-e'tiboridagi bir nuroniy bu hayotda yashayotganiga, sog'u omonligiga, farzandlari o'sib-ulg'ayib, elu yurt koriga yaraganiga shukrlar keltirib, har tongda minnatdorchilikdan ko'zi yoshlanmaguncha o'rnidan tura olmas ekan.

Shunday ajoyib tuyg'ularni his qilib, rag'bat olgan odam kayfiyati ko'tarilib, tetiklashadi. Umr yo'llariga nazar soladi. Sen hayotsan. Bu yo'llarda bizning bugunimiz, ertamiz o'tib boradi.

Ne baxtki, mana shu yo'llarda vagon g'ildiraklarining "taqatuq" tovushiga hamohang tarzda chayqalib, shoir Omon Matjonning falsafiy mushohadalarga boy, afsonaviy, shoirona she'riy suhbatlaridan ko'p bora bahramand bo'lganman.

Xuddi asarlaridagi kabi shoirning Ona yurtiga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ulari suhbatlashish asnosida butun vujudingizni qamrab oladi. Sizda ham kindik qoni to'kilgan ona diyorga nisbatan sog'inch hislari paydo bo'ladi. Omon akaning Ota makon, Ona yurt, o'z eliga mehri shu qadar kuchlikli, o'z farzandlariga Diyor, Elyor ismlarini qo'ygan.

Ko'hna Xorazmning Bog'olon qishlog'ida tug'ilib o'sgan shoirga shu joy tuprog'ining har zarrasi qadrlil va aziz, muqaddas va sehrli...

Ilm, madaniyat, san'atga maskan bo'lgan, jahonga buyuklarni, qomusiy olimlarni yetkazib bergan qadim Xorazmning o'tmishi, buguni, kelajagi doimo O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning yuragi, qalbining tub-tubidan joy olgan. Bularsiz o'z hayotini tasavvur etolmaydi shoir.

Xuddi hozirgiday esimda... Bundan yigirma bir yil muqaddam Urganch shahrida O'zbekiston xalq artisti Ortiq Otajonovning tavallud kunlari bo'lib o'tdi. Ana shu munosabat



bilan shoir poyezdda yurishni xush ko'rganligi sababli, jan-natmakon o'lkamizning bog'u rog'lari, shaharu qishloqlari, sahroyu qumliklari osha manzaralarni tomosha qilib, Xorazm diyoriga yo'l olganmiz...

O'zining tavallud ayyomida hofiz Ortiq Otajonov shoir Omon Matjon she'ri bilan aytiladigan "Umr o'tar" qo'shig'ini shu qadar avj pardalarida butun vujudi ila kuyladiki:

*Umr o'tar, qayrilish ko'p,
Uchrashish, ayrilish ko'p,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
O'sha kulishlaring, o'sha kelishlaring,*

– degan joyida qarsaklar qo'shiqqa qorishib, olqishlar ichra singib ketdi, yuraklarga oro, rohat bag'ishladi, qalblarga armonu orzular olib kirdi.

Shundan so'ng Omon Matjon she'rlarini jon dilidan sevuvchi she'riyat muxlislari hurmat-ehtirom ila shoirni davraga taklif qilishdi. U dedi:

*– Alpomishga ot mindirgan cho'qqilar,
Oltin tarix endi ravon o'qilar.
Dunyodirman endi dunyo safinda,
Borar bo'ldim endi hurlar qatiga!*

Olqishlar ichra:

*– Yana-yana, – degan ovozlar eshitildi.
– Men bosgan qadamni yerim tushundi,
Har bir nafasimni she'rim tushundi.
Tilimda goh gul undi, goh tikan,
Lekin har so'zimni elim tushundi.*



She'rsevar muxlislar yuragiga she'riy satrlar, yoniq hislar olib kirdi. Eshituvchilarning qalblari jo'shqin, ko'zlarida nur, shoir-dan she'rlar kutishyapti.

*– Demak, bitta o'lchov qalbimda qat'iy,
Tuqqan vatanimdan ma'no olaman.
Erda qay bir avlod vakili emas,
Millatim farzandi bo'lib qolaman.*

Qarsaklar, olqishlar... Shoirning yuragidan otilib chiqqan she'riy satrlar eshituvchilar qalbiga muhrlanib qoldi. She'rlar va qo'shiqlar bir-biriga ulanib uzoq davom etdi.

Shoir aytgan she'rlar ta'siridanmi, qo'shiqsevar xalq olqishidanmi, ko'nglimiz yayrab, yana poezdga chiqdik. Vagonga o'tirishimiz hamono shoirning qarashlarida, yuz-ko'zlarida ma'yuslik paydo bo'ldi. Poezd o'rnidan qo'zg'alib, oradan ma'lum muddat o'tsa hamki, shoir ko'zlarida nurli ma'yuslik...

*– Umr nima o'zi!
Imon keltiray,
Hikmat bu, bahordek qisqa va ayon:
Sevgi ila ma'sud damlarni o'yla,
Asl umr shudir. Qolgani – yolg'on...*

She'rni aytib uzoq xayolga cho'mdi shoir.

Uch kishi hamroh edik shoirga. Omon akaning katta o'g'li Diyor, Hakim akamning katta o'g'li – jiyanim Xurshid. Biz ham o'zimizcha xayollarga berildik.

Shoir, ehtimol, armonlari, ushalmagan orzulari haqida o'yla-yotgandir.

Balki tug'ilib o'sgan yurtiga kelib bolaligini qo'msayotgandir... Qishloq ichidagi gujum, qoramonlar oralab, ko'lchalari suvga limmo-lim, qizil sholi (Xorazmda qadimdan qizil sholi guruchini



xush ko'rishgan) ekilgan paykal bo'ylab yob (ariq) yoqasiga borib, suvga qarmoq tashlab, zavqlanib o'tirganlari, kun botishi arafasida buzoqlarning sog'inch-la ma'rashlari, podadan qaytayotgan mollarning yob bo'yidagi po'rsillab yotgan mayin tuproqni changitib qaytishlari, podachiga ergashib "hay-hay"lab yalang oyoq chopishlari, tig'iz paytida jonsarak onasining qozonga olov yoqishlari, sigir sog'ishlari, tun cho'kib arna (kanal) atrofida-gi tuqayzorda chiyabo'rilarining uvillashi, itlarning vovullashi, shundan keyingi qishloqdagi sokinlik, ko'rpaga burkanib bolalarning bir-birlariga ertak, afsonalar aytishlari – hamma-hammasini orzu-armonlar bilan eslayotgandir.

Taniqli adabiyotshunos Georgiy Lomidze o'zining "Buyuk mushtaraklik tuyg'usi" kitobida: "Yozuvchi ona tuprog'ining yaqinligini doimo his qilib turmog'i kerak, chunki ona tuproq uning g'ayratiga g'ayrat qo'shadi, hayoti va faoliyati uchun oziq beradi... bolalik, yoshlik chog'ing bilan bog'liq bo'lgan narsalarni sevmalik mumkin emas", – deydi.

Inson qalbi manzaralarining ko'zni qamashtiruvchi, dillarga oro beruvchi ranglarning mayin ipak qanotlari ichra suzadi shoir. Biz hamrohlar bir-birimizga imo-ishoralar bilan muomala qildik.

Kun botishi arafasida xayollar meni uzoq-uzoqlarga yetakladi. Qalbmida huzurlanish paydo bo'ldi. Ortiq Otajonovning bugun ijro etgan "Umr o'tar" qo'shig'idan ta'sirlanib, shu qo'shiqni ijro etgan barcha san'atkorlarni eslab ketdim...

O'zbekiston xalq artisti Otajon Xudoyszukurov ijro etgan "Umr o'tar" qo'shig'i hali-hanuz quloqlarim ostida sas beradi. Qalblarni titratib, yuraklarni junbushga keltiruvchi ohang, osmon qadar kengliklar osha aks-sado beradi.

O'zbekiston xalq artisti G'ulomjon Yoqubov ijro etgan bu qo'shiq ham avj pardalarda dard bilan tarovatli, jozibali kuylanib, sizni fikrlashga, o'ylashga chorlaydi.

Ortiq Otajonovning o'g'li Ulug'bek Otajonov ishq-muhabbat haqida kuylaydi guyo. Farhod-Shirin, Tohir va Zuhro, Layli-Majnun muhabbatlari ko'z oldingizdan bir-bir o'tadi.



Tun qorong'ilashdi, vagon derazasidan kirayotgan salqin shabada, vagon g'ildiraklarining "taq-taq, taqa-tuq, taq-taq" ovozi "Umr o'tar, vaqt o'tar" she'riga esh bo'lib ohanglar og'ushida qolasiz.

Otajon Xudoyszukurov, Ortiq Otajonov, G'ulomjon Yoqubov, Ulug'bek Otajonov... yana ko'plab san'atkorlar jo'r bo'lishib, hech boshqa bir ohanga o'xshamaydigan mungli, nolali, sirli, sehrli ovozlari goh uzoqlashadi, goh qalbga yaqinlashadi. Tuyg'ular shodlik va hasrat aralash inson umri davomiyligini, balki haqiqat, muhabbatni ko'ylaydi...

Ilinj shul;

ko'r taqdir ajratsa hamki,

Pinhona qovushgan ikki tuyg'uni,

Mening yuragimdan uzolmas aslo

Sendan yodgor qolgan nurli qayg'uni...

Tunda, to'lin oy yorug'ida sahro o'ta vahimali ko'rinib, qalbingizda qandaydir so'lg'in, g'amgin hislar paydo bo'larkan, guyo umr juda ham tez o'tib ketayotganday.

Vaqt g'animat, umr yuguruk...

Biz anglagan, anglab yetmagan o'tkinchi dunyo...

"Taqa-tuq, taq-taq, taqa-tuq"...

"Mabodo go'zallikning buyuk qudratidan larzaga tushmaydigan odamlar topilib qoladigan bo'lsa, ular bilan bahslashib o'tirmaymiz!" V.G.Belinskiy.

Umr so'qmoqlaridan ketayotganingizda turfa xil odamlar ham uchrab qoladi. Ular bilan bahslashib o'tirishga na hojat.

Biz ijodkorlar hissiz, tuyg'usiz odamlardan yiroqmiz.

Shoirning asosiy maqsadi, Vatanning, insonlarining orzu-umid, armonlarini ko'ylash.

"Omon Matjon go'zallikni sevgan, e'zozlagan, tushungan bitta inson sifatida, o'z qalbining tuyg'ulari rangidan she'riyatga rang beradi..."



(Jumagul Jumaboevaning “El bilsa bo’ldi” kitobidan olindi.)

Tun qorong’iligida poyezd “men uyg’oqman, ketyapman” – deganday sas berdi.

Omon Matjonning “Umr o’tar” she’ri butun qalbmni, fikrimni chulg’ab ajib bir kayfiyat ulashdi uyg’onayotgan tong oldida.

Umr o’tar, vaqt o’tar,

Xonlar o’tar, taxt o’tar,

Omad o’tar, baxt o’tar,

Lekin hech qachon chiqmas yodimdan

Sening yurishlaring, sening kulishlaring.

Umr – yo’l, qayrilish ko’p,

Uchrashish, ayrilish ko’p,

Unutish, aytilish ko’p,

Lekin hech qachon chiqmas yodimdan

O’sha kulishlaring, o’sha kelishlaring.

Oradan yillar o’tib Omon Matjon bilan poyezdda yana Xorazm sari yo’l oldik. Ayni bahor ayyomida ko’chat ekish pallasi, Andijon viloyatining Izbosgan tumani Michurin nomidagi xo’jalikdan meva ko’chatlar orilgan yuk mashinasi kuni kecha manzilga olib borish uchun vodiyan va tomon yo’lga chiqqan.

80-yillarda Omon Matjon “Yoshlik” jurnalining bosh muharriri bo’lib ishlagan davrda, shoir tashabbusi bilan bog’ tashkil etilgan bo’lib, Bog’olondagi shu boqqa “Yoshlik” nomi berilib, vodi tomonlardan, mevalarning eng yaxshi navlari, asosan olma ko’chatlari olib kelingan. Eng qizig’i shundaki, meva ko’chatlari turlariga qarab, Urganch shahridan Yangibozor tumaniga qadar yo’l atroflariga ham ekilgan. Mevalar ko’kka bo’y cho’zib, hosilga kirganda yerlik aholi mevalardan bahramand bo’lib, shoirga rahmatlar yog’iladi.



Shundan so'ng 90-yillarda shoir nomi bilan bog'liq yana bir bog' tashkil qilinib, 1993 yil Omon Matjonning 50 yillik tavallud kunlari munosabati bilan fevral oyi oxirlarida "Ogahiy" nomi-dagi viloyat teatrida va tug'ilib o'sgan Bog'olon qishlog'ida, bu-tun viloyat ahli va kitobxonlar bilan uchrashuv bo'lib o'tadi.

Tong-sahardan el-yurtga osh tortildi. Xuddi shu pallada qishloq kutubxonasining ochilishi, odamlar qalbiga o'zgacha shukuh, bayramona kayfiyat olib kirdi. Qishloq kutubxonasini turli adabiyotlar, badiiy asarlar bilan boyitishda Omon Matjon-ning xizmatlari beqiyos. Qishloq odamlarining ma'naviyatini yuksaltirish, savodxonligini oshirish, farzandlarining ilimli, bi-limli bo'lishlarini chin qalbdan istaydi, shoir.

O'sha davrda Xorazm viloyati hokimi bo'lgan Marks Jumani-yozov boshchiligida boqqa adib, shoir va san'atkorlar: Said Ah-mad, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Otajon Xudoyshukurov, Yoqub Ahmedov, Jabbor Razzoqov, tasvirchi Rafael' Kamolov va men, hovuz atroflariga, har birimiz bir tubdan gujum daraxti o'tqazdik. Bog'ning qolgan qismiga esa viloyat qishloqlaridan olib kelingan turli xil meva daraxtlari ekildi. Bularning bari 50 yillik tavallud kunlari o'tayotgan shoir Omon Matjonga yuksak ehtirom va hurmat belgisi edi. Bu daraxtlar Ona daryo Jayhun-ning saxiy suvlaridan emib, ko'kka bo'y cho'zib noz-ne'matga aylanib insonlar dasturxonini bezaydi.

Ey, Amudaryo!

Bir yonda tuqay! Bir yonda daryo,

Oqar qumlar aro yarqirab

Amudaryo – mangu muhabbat,

Amudaryo – abadiy hijron.

Daryodan oqib keluvchi "Arna"ning kuch-quvvat, darmon beruvchi, shifobaxsh suvlaridan ichib ulg'aydi shoir. Bolaligimda menga ham shu suvlardan simirib-simirib ichish nasib etgan.



Hozir Omon aka bilan yonma-yon vagonda ketyapmizu, ularning nigohi keng dalalar, endi kurtak chiqara boshlagan daraxtlarda edi.

Shaharda istiqomat qilganingda, ko'zlaring kengliklarni ko'rolmaydi, uydan ko'chaga chiqasanu atrofga qaraysan, binolar, tirband mashinalarga qadaladi ko'zlaring. Shovqin. Ana shunday damlarda, poyonsiz kengliklarni qo'msaydi yurak. Shoir aytganday:

Abadiyat bo'lib tog'lar rom etdi,

Qoyalar osmonning cho'ng ustunlari.

Bunda ham dunyoga sig'mayin ketdim,

Dalaga qamalgan duldul singari.

Garchi yeru ko'kda uyg'undir umr,

Lekin har yurakning o'z tug'rosi bor.

Men qanday muhitda kim bilan bo'lmay,

Ruhim doim uyg'oq va yo'lga tayyor.

Men voha o'g'liman, talabim kenglik,

Erkin havolardan to'qiyman she'rlar.

Bor bo'l, ma'no qadar yorqin bo'lgan so'z,

Bor bo'l, ufq qadar ochiq keng yerlar!

Omon aka shu ko'yi vagon derazasidan qaragancha xayol-larga berildi. Vagon xizmatchisi choy keltirdi. Shoirning xayoli bo'lindi. Omon akaga choy uzatdim.

– Avval shaharga intilardik, endi esa ko'proq qishloqqa, tabiat qo'yniga...

– Omon aka, har bir odam o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'i, odamlari, uning tabiatini sog'inadi.

– Sog'inch... Xotira... bolalikning beg'ubor onlari... Har bir odam uchun tug'ilib o'sgan joyi qadrlı va aziz. Siz bilan biz nega ketyapmiz? Bundan falsafa yasash shart emas. Bu oddiygina haqiqat.



Men indamadim. Choydan quyib uzatdim.

Omon akaning odatlaridan biri, safarga chiqqanlarida, albatta yonlarida kichkinagina radiopriyomnik olib yuradilar. Negadir hozir birdaniga eshitishni xohlab qoldilar. Shoir tabiatan shunday. Quloqlariga yaqin tutib, ko'zlari yumuq holatda dunyo xabarlaridan eshitdilar, so'ng musiqa chalindi. Vagon xizmatchilarining ikkalasi ham andijonlik ekan. Shoirning hurmati uchun vagon-restoranda "andijoncha osh" damlashibdi. Achchiq-qina damlangan ko'k choydan ho'plab, Omon akaning kayfiyati chog' bo'ldi, paxta gulli piyolaga qarab she'riy satrlar yodiga keldi:

– *Daraxtlar va giyohlarning tarh-fayzin*
Bir risola yetmoq istab, sozlab bayotin.
Obdon boqsam o'z umrimning qabatloriga
Men yashabman o'shalarining rangin hayotin.

– Choydan quying, ukam.

Shoir choydan ho'plab, bir nuqtaga tikilgancha, mushohadaga berilib, asta-asta she'rlar o'qiy boshladi.

– *Tongning tiniq durlarini tun changalidan*
Omon olib chiqqanimdan – pokman, omonman,
Men – maysaman, qitiqlayman tovonlarini
Bolakaylar yelkamda shod o'ynagan damlar.
Ha, giyohman-poyondozman barra va yumshoq,
Tuprog'imga og'ir botmasin deb qadamlar...

Tong otdi. Quyosh qum-barhanlari uzra, o'zining saxiy, zarrin nurlarini socha boshladi.

– *Tong otdi, olamda ming rasm ko'rdim,*
Mehrli ko'zlarni pok, ma'sum ko'rdim.



*Hech kim zahar sepib-bol yiqqan emas,
Gul kirgan uylarda tabassum ko'rdim.
Taning hech tinmasin o'rgangan ishdan,
Ko'ngling o'zi suygan, o'rgangan ishdan
Aqling elab tursin bori olamni,
Shunda umring tinmas yangilanishdan.*

Poyezd uzoq sas berdi. G'ildiraklarning "taq-tuq, taqa-tuq" ovozi tezlashib, poyezd olg'a qarab ketib bormoqda. Vagonning bir maromda chayqalishi, shoir radiosidan taralayotgan musiqa ohangi, deraza tirqishidan kirayotgan toza havo – bari-bari qo'shilib odamni allalaydi, u shirin xayollar og'ushiga cho'madi. Shu pallada Omon akaning quyidagi satrlari yodimga keldi:

*Oyu yillar kezardim ajib so'roq ichinda,
Gul kabi goho ochib ko'nglimni bog' ichinda,
Gohi ko'rdim dilimni oydagi dog' ichinda.
Bu dunyo bir tilsimdir, qil bor qiyoq ichinda,
Bir ganji ko'k ichinda, biri tuproq ichinda...*

Qadimda g'arb bilan sharqni bog'lovchi, ellarni-ellarga, dillarni-dillarga tutashtiruvchi "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab, bizning zamonaviy karvonimizda, ko'zlari yumilgan holatda, poyezd harakatlariga monand tebranib nelarni o'ylaydi shoir? Ota makon, ona yurtiga ketib bormoqda shoir...

*– Sen aqlingga yog'du qorgan buyuklar bilan,
Ta'zim saqlab yuzma-yuz kel qayta va qayta.
Amindurman, yuragingda uyg'onar gulxan,
Va oydin bir yo'lga boshlar qo'shiqlar ayta.*



Qizilqum kengliklari osha zamonaviy karvon yo'llarida bizning bugunimiz, ertamiz o'tib bormoqda. Umr o'tar, vaqt o'tar...

Mahatma Gandi: "Dunyoni qanday ko'rishni istasangiz, o'zingiz o'shanday o'zgaring", – deydi. Olamdagi, tabiatdagi har bir go'zallikni, hodisalarning yaxshi tomonlarini his qila bilish, ko'ngil ko'zgusidan o'tkaza bilish, ko'pchilikka, ayniqsa, ijodkorlarga xos xususiyat. Faqat yaxshiliklarni o'ylasang, yashayotgan hayotingdan senda rozilik hissi bo'lsa, qalbing g'ururlarga to'ladi, xayolingizni yanada yangi orzu-istaklar chulg'ab oladi. Faqat va faqat yaxshiliklarni o'yla.

Bugungi hayotingdan chindan ham zavqlansang, senda ishonch bo'lsa, ertangi kuning yanada ajoyib bo'ladi. Yashayapsan, hech qachon tushkunlikni o'ylama, uni butkul unut. O'ylasang bodroqday paydo bo'ladi, bolalab ketadi, maqsadsiz o'y-xayollar o'ralashib, arosat yo'lda qolib ketasan, harakatdan to'xtasang g'arq bo'lasan. Seni harakatdan to'xtatadigan narsa ikkilanish va shubha. Hammasi o'zingga bog'liq. Bugungi kuningdan quvonib, yomon narsalarga, o'tkinchi xayollarga berilmasdan olg'a intilib, bor narsang uchun muvaffaqiyatlarga erishganingdan hayotdan minnatdor bo'lib, yanada ko'proq yaxshilikka intilib yasha, optimist bo'!

Vaqt yugurik. Vagonda ketyapmanu, xayollar meni uzoq-uzoqlarga yetaklaydi. Bundan 52 yil muqaddam 17 yoshimda televideniye ostonasiga qadam qo'ygan bo'lsam, o'sha davrlardan boshlab, to shu kunlargacha bu muqaddas dargohga qanchadan-qancha insonlar kelib ketmadi, qanchalari o'z mehnatlari, ijodlari bilan o'chmas iz qoldirdi va qoldirmoqda.

Yaqinda men televideniyeining faxriylari, fidoyi ijodkorlari bo'lmish O'zbekiston xalq artisti, Oliy toifali diktora Galina Melnikova va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Oliy toifali diktora Nasiba Ibrohimovalar bilan uchrashdim. Ularning bilimi, dunyoqarashi, tafakkur olami keng. Gapiradigan gaplari



salmoqli, o'rinli, maqsadli, fikrlari teran. Aslida diktör-diktör shunday bo'lishi kerak. Bu insonlarga bo'lgan hurmat-e'tiqodim 1966 yildan boshlab, to bugungi kungacha davom etib keladi. Har gal ularning suhbatlaridan bahramand bo'laman. Nafaqat televideniyaedagi chiqishlari, turli anjumanlarda, jamoat joylarida ularni ko'p bor kuzatganman. Har bir so'zini tinglovchilar olqishlar bilan hayrat-la tinglashadi.

Galina Melnikova 1956 yilda, 20 yoshida diktörlik faoliyatini boshlagan. Nasiba Ibrohimova esa, 1957 yilda, 15 yoshida diktörlik safiga qabul qilingan. 15 yoshida... Bunaqa yoshdan ish boshlash hammaga ham nasib etavermaydi.

Jajji qizaloqlik davridayoq Nasiba biyron, burro gapirgan. Undagi notiqlik san'ati tug'ma bo'lib, bolalik chog'laridanoq ancha sergap bo'lganligini aytishadi. O'zbekiston radiosida ustozlaridan saboq olib, tili yanada charxlanadi. Televideniyaedagi diktörlik faoliyati davomida serqirra ijodkorga aylanadi. Siyosiy ko'rsatuvlar, "Axborot" dasturini olib ketishi barobarida badiiy, musiqiy ko'rsatuvlarni olib borish bilan xalq e'tiboriga tushadi.

Nasiba Ibrohimova boshlovchilik qilgan 70-yillarning eng mashhur ko'satuvi "Marhabo, talantlar!"ning dovrug'i O'zbekiston bo'ylab keng yoyiladi. Samarqandning Registon maydonidan "Intervideniye" uchun uzatilgan dastur katta voqelik edi. Mana shu tarixiy voqelikni yal-yal tovlangan Marg'ilon atlasida o'zbek qizining sof rus tilida olib borishi ko'rsatuvga yanada joziba bag'ishlaydi.

Nasiba Ibrohimova har jihatdan havas qilsa arzigulik salmoqli ko'rsatuvlarga diktör-diktörlik, boshlovchilik qilib, o'zbek diktörlik san'atida katta iz qoldirgan. Shu ko'rsatuvlarni tomosha qilgan o'sha davr teletomoshobini qancha yillar o'tsa hamki, hozirgacha eslaydi.

Nasiba Ibrohimovaning fikrlash doirasi kengligidan, nutq-talaffuzi ravonligidan, so'zamolligidan, har qancha o'rnak olsa arzigulik. Bu inson suhbatlaridagi mazmun, joziba o'ziga tortadi, kayfiyat uyg'otadi, mahliyo qiladi.



Har bir aytar so'zi buloq suviday qaynab chiqadi, shaffof, toza. Afsuski, o'sha davrda televideniyeining yozib olish imkoniyatlari bo'lmagan. Agar saqlanganida edi, u hozirgi davrda ko'pchilik teleijodkorlarga, ayniqsa, yosh teleboshlovchilarga namuna bo'lar edi.

Galina Melnikova ish faoliyatining dastlabki davrlaridan to bugungi kungacha biror daqiqa ham televideniyeidan o'zini ayro tasavvur qila olmaydi.

O'z davrida "Novosti", "Axborot" ko'rsatuvlariga diktorlik qilish barobarida, katta bayram dasturlari, "Yangi yil oqshomi", dolzarb mavzudagi davra suhbatlarida davra boshi, boshlovchilik qilgan. O'zbekiston Respublikasi nomidan safarlarda ishtirok etgan. Yaqin-yaqinlargacha hukumat qarorlari, Prezident farmonlarini va tabriklarini o'qishga jalb qilingan.

Galina Melnikovaning televideniyeidagi har bir chiqishida gapirayotgan so'ziga o'ta talabchanlik bilan yondashishi, fikrlashi, bosiqiligi, samimiyati bari-barida o'z mujassamini topgan.

Bu diktor-diktor 80 yoshdan oshgan bo'lishiga qaramay, hozirgacha tinim bilmaydi, ko'p vaqtini jamoat ishlariga qaratgan.

O'z davrida teletomoshobinlar orasida o'chmas iz qoldirgan, notiqlik san'ati jonkuyarlari, fidoyi diktor-diktorlar O'zbekiston xalq artisti, Oliy toifali diktor Galina Melnikova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Oliy toifali diktor Nasiba Ibrohimovalarni eslaganimda ular bilan birga ishlagan davrlarim, diktorlik faoliyatim bot-bot yodga keladi.

Shu o'rinda taniqli yozuvchi Erkin A'zamning so'zlarini keltiraman:

– Hozir kim ko'p desangiz televizoru to'y tomoshalarda nom taratgan "yulduz"u "yulduzcha"lar ko'p. Bundan o'ttiz-qirq yil burun esa, besh-o'n san'atkor hamda televideniye diktorlarigina shunday mashhur edi. Televizorda bor-yo'g'i ikkitami-uchtami kanal bo'lar, sanoqligina diktor har kech ekranda ko'rinaverib bamisoli har bir xonadonning a'zosiga o'xshab ketar edi. Ularning yoshiga, qaysi mavzularga moslashganiga qarab muxlislar



doirasi ham shakllanib ulgurgan, deylik, biz tengi avlodning diktori Farhod Bobojonov edi.

1975 yilda diktorlar O'ktam Jobirov va Galina Melnikovalarga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvonlari, 1976 yilda esa diktorlardan Nasiba Ibrohimova va Nasiba Qambarovalarga respublikada xizmat ko'rsatgan artist unvonlari berilgan. Orada ancha tanaffusdan so'ng, 1990 yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni menga ham nasib etdi. Televideniye tarixida diktorlar ichida beshinchi bo'lib shu yuksak unvonga sazovor bo'ldim. U ham bo'lsa taqdirning menga bergan in'omi edi, bu. Qanchalab ijodiy jarayonlar, uyqusiz tunlar... Respublikamizda bo'lib o'tgan turli anjumanlar, shoir va yozuvchilar bilan bo'lib o'tgan ijodiy kechalarda boshlovchilik qilish, badiiy chiqishlar, "Axborot" dasturi, san'at, qishloq xo'jaligiga oid ko'rsatuvlarga diktorlik-diktorlik qilish, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Oliy toifali diktor Ra'no Jo'raeva bilan birgalikda Orolga bag'ishlangan uzluksiz telemarafonga boshlovchilik qilish, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Oliy toifali diktor Rahmatilla Mirzaev bilan birgalikda Samarqandning Registon maydonidan telemarafonni olib borish... ..Sanab sanog'iga yetish qiyin. Bularni eslash menga maroqli, zavq bag'ishlaydi.

Ustoz Mirtemir aytganlariday:

*Mayli hansirab qolay,
Imillamayin lekin.
Ketda qolmoqning o'zi,
Yuz o'limdan yomonroq.
Halol non oshab yashay,
Bir ushoq yemay tekin,
Mehnatkash yurt oldida.
Yuzim bo'lsin doim oq...*



*Kekkaymoqqa havas yo'q,
Bo'lolmayin havoyi.
Mehnatsiz bir nafas yo'q,
Men ilhomga shaydoyi.*

Butun sahro uzra kun yoyilib ketdi. Keta-ketguncha tuganmas manzaralar, "Uzoqlarda bir tekis, tuya karvonlari harakatlanib bormoqda – tiriklik dunyosi... Orqama-orqa bir qator tizilgan, inson uchun beminnat xizmat qiluvchi tuyalar, qadim "Ipak yo'lini" ko'z oldimga keltirdi. O'tgan ming yilliklar davomida yurtimiz sarhadlaridan o'tgan karvonlar, mag'rib bilan mashriqni bog'lab, mamlakatlar rivojiga hissa qo'shgan. Hozir esa qadim yo'llar bo'ylab, bizlarni o'z manziligacha eltuvchi zamonaviy "Umr karvoni" – tiriklik dunyosi ketib bormoqda.

*Umr o'tib borar misoli ertak,
Ertaning ketidan kelib qolar shom
Faqat g'aflat ichra yonmagin, yurak,
Qaytib kelmas sira bu yoshlik ayyom.
Payt kelar, va'daning qiymati qolmas,
Muhlat bermas u dam to'lgan paymona.
O'tgan bir oningni qaytara olmas,
Na ko'z yosh, na afsus va na bahona.*

Bu she'r – yoshlik yillarimdan boshlab, yuragim, qalbmning tub-tubidan joy olgan. Bu she'r – yosh o'tgani sayin necha bor xayoldan kechadi, bot-bot yodga keladi.

*Yillar o'tayotir poyama-poya,
Yillar – umidlarga otashin charog'.
Zamon-ku fazoda bilmas nihoya,
O'tgan fursatlar ham qaytmagay biroq.*



Abdulla Oripovning qalbidan qaynab-toshib chiqqan bu she'rni shoir va she'riyat muxlislari o'rtasidagi ijodiy uchrashuvlarda necha bor takror-takror aytganman.

Shu kungacha oradan qancha yillar o'tdi... 1975 yilning may oyi boshida, Ona diyorumiz ayni gullarga burkangan pallada, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi muovini Normurod Narzullaev va shoir Abdulla Oripovlar Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari bo'ylab ijodiy safarda bo'lishdi. Abdulla aka taklifi bilan men ham ularga hamroh bo'ldim.

Oddiy xalq vakillari, ziyolilar, talaba-yoshlar, maktab o'quvchilari bilan ijodiy uchrashuvlarda odamlar Abdulla Oripovni ko'rishi hamono, gulduros qarsaklar yangrab, ko'pchilik chehrasida tabassum paydo bo'lar, har bir o'qilgan she'r oralig'ida olqishlab turishardi. Shunda men ham Abdulla Oripov she'r-lariga xalq orasida chanqoqlik naqadar kuchli ekanligidan ruhlanib, she'riyat ixlosmandlaridan jismu-jonim quvvat olib, jo'shib – she'rlar aytganman. Bular bari bugun shirin xotiralar bo'lib qoldi.

*Yana bahor keldi. Yana olamda
Ajab bir go'zallik, ajib bir bayot
Men seni qutlayman shu ulug' damda,
Ulug' yelkadoshim, muzaffar hayot!*

* * *

*Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am,
Toshqinlar kiradi qalbimga manim.
Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,
Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim,
Faqat sen qalbimga cho'ktirmay malol
Charchagan ruhimga ilhom solursan.
Bahor ham, umr ham o'tar, ehtimol,
Faqat sen dunyoda mangu qolursan.*

Bu she'r Abdulla akaning boshqa she'rlari qatori avlodlarimiz qalbida mangu jaranglab turadi.

O'sha paytlarda men kabi yoshlar orasida adabiyotga, she'riyatga mehr juda kuchli edi. Odamlar she'riyat kechalari-ning uzoq davom etishini istashar, she'r ixlosmandlari qalbidan allaqachon joy olib, omma orasida yod bo'lib ketgan she'rlarini Abdulla akaning o'zlaridan eshitishni juda-juda istashar edi. Asosiy tinglovchilarning o'rtacha yoshi 15 yoshdan 35 yoshga-cha edi. 34 yoshli Abdulla Oripov ularning yuragidan, qalbidan joy olib, chehralarida tabassum ila ko'zlaridan nur charaqlagan yoshlarni ko'rib, shoir zavqlanib, ta'sirlanganidan Vatan, insonlar taqdiri, umr haqida she'rlar aytganlari hali-hanuz quloqlarim ostida aks sado beradi, ko'z oldimdan nari ketmaydi.

Yuz yil yashab o'tar dunyodan birov,

Fursat manglayiga sololmas izlar.

Yo'q, yo'q, yillar emas ularga egov,

Uni yemiradi beomon hislar.

Iltilimoslarga ko'ra, shoir ketma-ketiga bir nechta she'r o'qidi:

Ko'pdan kutgan edim orziqib, mana,

Bulutlar tarqaldi to'kishib ko'z yosh

Xayolim osmonday yorishdi yana,

Yorug' kunlarimday porladi quyosh.

Shoshqin daryolarning zangordir labi,

Shamollar o'ynaydi yiroq-yiroqda.

Yurgil, sayr etaylik, yurgil, malagim,

Dunyo tashvishlari qolsin uzoqda.

Ko'ryapsanmi, qanday yasharmish olam

Beparvo go'dakday jilmayadi jim.



*Go'dagim, bu chiroy qaytmaydi hecham,
Qaytmagani kabi mening yoshligim.
Bugun bosh ustingda yashnagan yaproq
Shovullab to'kilar erta poyingga.
Bu uchqur yo'lovchi solmaydi quloq
Sening iltimosing sening ra'yingga.*

Shoir she'rlaridan mehrim osmon qadar yuksaklarda bo'lib, she'riyat ixlosmandlari davrasida hayqirib-hayqirib she'rlar o'qiganman. Har gal Toshkentda Abdulla Oripov xonadonlarida bo'lganimda qog'ozga endigina tushib, hali siyohi qurib ulgurmagan she'rlarini o'zlari o'qib, keyin esa mening o'qishimni xohlar edilar.

Shu zaylda tong otardi.

Safarimizning beshinchi kuni, Qarshi shahrida istiqomat qiluvchi Abdulla akaning pochchasi Panji aka xonadoniga Toshkentdan – Markazqo'mdan qo'ng'iroq bo'lib, ertaga soat 11da Sharof Rashidov qabulida Abdulla Oripov bo'lishi kerakligini tayinlaganligi sababli, Abdulla akani aeroportga kuzatib qo'ydik. Ular bilan birgalikda shoir Normurod Narzullaev ham qaytib ketdi. Abdulla aka ertasiga xursand va o'ychan holatda qaytib keldi. Sharof Rashidov buyuk italyan shoiri Dante Aligerining Abdulla Oripov tarjimasidagi "Ilohiy komediya" asarining "Do'zax" qismini o'qib tarjima uchun rahmat aytishga huzuriga chaqirgan ekan. Chamasi, bir soatlar atrofidagi suhbat Abdulla Oripov ijodi haqida boradi.

Abdulla aka Toshkentdan qaytib kelgan kunning ertasiga biz, Shahrisabz va Kitob tumanlarida bo'ldik. Eng chekka tog' qishlog'idagi maktab o'quvchilarining aytgan she'rlari menga shu darajada ta'sir qildiki, shu she'rlarini bitgan shoir qalbidan nelar kechdi ekan o'sha daqiqalarda.

Maktabning yuqori sinf o'quvchilari shoir she'rlaridan jo'shib-jo'shib namunalar o'qiydi:



Qiz – Goho xayol daryosida jim

O'tkazaman tunlarni bedor.

Ba'zan g'aliz jumla ustida

Soatlab bosh qotirganim bor.

Yigit – Shaloladek bo'lsa she'rlarim,

Yog'du sochsa misli alanga.

Sidqidil-la qobil o'g'ildek

Xizmat qilsa elga, Vatanga.

Qiz – Hali bunga ko'p gap bor hali,-

Fikrlarim tarqoq, tuyg'usiz...

Hali qancha tunlarni yana-

O'tkazishim kerak uyqusiz...

Yigit – Achinmayman, sizga o'ylarim,

Achinmayman, sizga uzun tun.

Achinmayman, chunki otashga

Oq yo'l berar odatda, uchqun!

16 yoshda shoir kechalari bedor o'tirib yozgan "Uchqun" deb nomlanuvchi bu she'r, kelgusida ilhomini alangalatib, yog'dular sochadi. Ko'zni qamashtiruvchi, nurlar taratuvchi she'rlar, dos-tonlar, dramatik asarlar, tarjimalar insonlar qalbiga shukronalik, Vatan tuyg'usini, sevgi-muhabbatni, tafakkur olami, hayot falsafasini, xalq dardiga sherik bo'lib, quvonchlarini tarannum etib, qalbga yoniq hislar olib kiradi. Shoir qalbi hamisha uyg'oq.

Shoir 24 yoshiga yetganida qalbi yanada olovlanadi.

Yo'q, kerakmas, qo'ying, kerakmas,

Menga orom istamang, do'stlar,

Xilvat soz deb qistamang, do'stlar,

Qo'ying bunday orom kerakmas,



Nogohonda xayolga botsam,
Yo uxlasam o'yg'oting darrov,
Nomim tutib, so'z qoting darrov
Behudaga bir yoqqa borsam,
Qo'llarimdan ushlab o'shal dam,
Kurashlarning safiga qo'shing,
Qur, yarat deng, hayqir deng, jo'sh deng,
Shunday yashar odatda odam!

Qaddi-qomati tik, baland bo'yli chehrasi yorqin yigitchaning uchrashuv yakunida aytgan Abdulla Oripovning bu she'ri qalblarga yanada jo'shqinlik, fayz olib kirdi.

Biz Shahrisabzdan ancha kech, tun qorong'isida, shoir tug'ilib o'sgan Neko'z qishlog'iga yo'l oldik.

Masofa ancha olis. Abdulla aka o'z xayollari og'ushida. Shoirning 60-yillarda yozgan she'rlari ko'z oldimdan bir-bir o'tdi. Abdulla Oripov 22-23 yoshlarida she'riyat osmonining yuksak-yuksaklarida parvoz qiladi.

Abdulla Qahhorday yuksak didli adib, yosh shoirning she'riy satrlarini "O'tmishdan ertaklar" asariga epigraf qilib oladi.

*Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy,
Asrlar g'amini so'ylar "Munojot".
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod?*

Shoirning 1965 yilda yozgan qator she'rlari keng kitobxonlar orasida shov-shuvga sabab bo'ladi. Shu davrda men boshqa tengdoshlarim qatori "Uyqu", "Dorboz", "Ming yillarki"... Ona tilimga "Xo'rozqand", "Tilla baliqcha" kabi she'rlarni yod olganman.



*Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni,
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,
Xoru xas, xazonlar ustin yopdilar.*

*Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni.*

Har safar ijodiy uchrashuvdan so'ng Abdulla akanikiga qaytib kelganimizda, hovuz bo'yidagi o'zlari dam oladigan o'rindiqqa o'tirib, yon-atrofga – hovuzga qarab, xayolga cho'mardi. Bu gal ham shu holat takrorlandi. Abdulla akaning hovuz bo'yida oy yog'dusidagi qiyofasi, qarashlari, o'tirishi sirli, ko'zlari o'ychan boqadi.

O'zlari she'rda aytganlariday, ismi o'yib yozilgan terak o'rnida yangi ekilgan terak va tollar. Hovuzdagi suv ma'yus jimirlaydi, tirik jonzotga o'xshab.

Qalblarda ham ma'yuslik...

– Safarimiz ham qaridi. Ertaga qaytamiz, – dedilar Abdulla aka va uzoq xayol surdilar va she'riy satrlar aytdilar:

*Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,
Qancha manzillarda tuzdim oshyon.
Va buyuk hikmatga axir yuz burdim,
Siylangan joyida azizdir inson.*

*Yurtim senda ekan nasibam tugal,
Sen o'zing maskanim, sen o'zing shonim.
Sen onam, sen singlim, yorimsan, azal,
Ey jonim, jahonim O'zbekistonim.*



*Ista, qismatimga o'zing ber barham,
Ista, yaxshi kunda nomim qilgil yod.
Mensiz ham mukammal ekan bu olam,
Mensiz ham baxtga yor ekan odamzod.*

*Yurtim, faqat sening qo'lingdan tutib,
Bolangday ergashib keta olsam bas.
Sen piri komilsan, men senga muhib,
Seni tanimagan meni ham bilmas.*

Shoir Abdulla Oripov aytganlariday:

*Umr o'tib borar misoli ertak,
Ertaning ketidan kelib qolar shom.*

Biz har safar manzillar sari oshiqamiz... Hademay, Xorazm tuprog'iga qadam qo'yamiz. Mendan tashqari yana to'rt kishidan iborat ijodiy jamoa 22 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan, qalbi qaynoq yigitlar. Ular poyezd harakatiga monand tebranib, o'z xayollari og'ushida. Tasvirga olish uchun barcha texnik imkoniyatlar mavjud. Sen biliming, tafakkur olaming, fikringni, ong-tushunchangni ijodiy ishingga safarbar qila olsang bas. Rejissyor Islom Tojiev xayolan allaqachon o'z ishini boshlab yuborgan. Tasvirchi Salohiddin Najmiddinov ko'rsatuvni tasvirga olish jarayonida o'z ishiga o'ta mas'uliyat bilan yondashadigan yigit. Hozir esa ko'nglida xotirjamlik, o'z xayollari bilan band. Muallif-boshlovchi, rejissyor, tasvirchi, texnik xodim, chiroq ustasining ishlari bir-birlari bilan uzviy bog'liq – xuddi zanjir kabi. Poyezdda ketishning o'ziga yarasha yaxshi tomonlaridan biri, suhbat nima haqda bo'lmasin, asosiy mavzu ko'rsatuvni har tomonlama professional tasvirga olish haqida boradi.



Eramizdan oldingi davrlarda millatimizning buyuk davlatchilik tarixini boshlab bergan butun dunyo tamadduniga o'z hissasini qo'shgan, buyuk allomalar yurti Xorazm diyoriga kelishimizdan asosiy maqsad, uzoq ming yillardan beri, halqimiz qalbiga singib ketgan "Navro'z" bayramini tasvirga olish va shu bilan birgalikda xivalik, gurlanlik, bog'otlik, hazorasplik 80-100 yoshli nuroniy bobolar va momolarning suhbatlarini tasvirlarda muhrlash.

Har gal "Mening o'lkam" ko'rsatuvini tayyorlash jarayonida, elda suyuk nuroniylar bilan uchrashamiz. 2017 yilning kuzida parkentlik 108 yoshli Tojixon momo, 101 yoshli Anor momo, 93 yoshli qaddi-qomati tik, bardam-baquvvat Anorboy Jalilov va yana qanchalab keksalar bilan suhbatlar qurib, duolarini olganimiz.

Sen negadir 93 yil umrguzaronlik qilgan o'z onang Shukuroy momoni o'z vaqtida jo'yali tasvirga ola bilmading. Armonli dunyo...

Umr yo'ldoshing bilan ham xuddi shunday holat – 44 yil birga yashab, hayotingdagi eng yaxshi kunlar nashidasini totding. Lekin tasvirlarga ovozi bilan yozib olish nasib etmadi. Televideniyedagi ijoding davomida hamfikir, hamqadam bo'lding. Shoiraxon uzoq yillar "Bolalar" tahririyatidagi bo'limga rahbarlik qildi. Besh farzandning ota-onasi bo'ldingiz. Ularni o'zbekona odob-axloqli, o'qimishli qilib tarbiyalab, voyaga yetkazdingiz. Hozirgacha 9 nevarangiz bor. Bir umr bola-chaqa tashvishi bilan yashab, oila to'kisligi uchun birga hamjihatlikda harakatda bo'ldingiz.

Kun kelib, umr yo'ldoshing qalbingdan sitilib-yulinib ketdi. Bu ayriliq, qayg'u seni qanchalar iztirobga soldi. Endi hech qachon qaytib kelmaydi suyukliging...

Poyezd Amudaryo ko'prigidan o'tayotganida "Biz yetib kel-yapmiz" – deganday uzoq sas berdi. Poyezd olg'a qarab shoshilmoqda. "Umr karvoni" ketib bormoqda.



Vagondan tashqariga qaraysan. Yo'l chetlariga, tomorqalariga, tartib bilan ekilgan daraxtlarning pastki qismiga o'lchamli qilib oppoq ohak surtilgan. Qaraysan havasingni keltiradi. Odamlar tomorqalarida g'imir-g'imir harakatda, bahoriy uyg'oqlik, yaxshi kayfiyat bilan ishga kirishishgan.

Hu, ancha narida keng maydonni egallagan qabriston. Seskanish sezasan. Qatorasiga ming-minglab qabrlar. Ular abadiy uyquda. Dunyoning boshqa bironta joyida uchramaydi bunday ko'rinish-manzara. Qabr yer ustiga qo'yilib, atrofiga g'isht terilib, suvalib, o'ziga xos shakl berilgan. Insonni o'yga toldiruvchi, fikrlashga undovchi, rag'bat uyg'otuvchi, bu dunyoning o'tkinchi ekanligini eslatuvchi manzara...

Sening urug'-aymog'ing, bobo-momolaring ham, Xorazm tuprog'ida – Xiva shahri atroflarida, Gurlan, Xonqa, Amudaryo-Mang'it, Xolimbek tomonlarda qo'nim topgan – ular abadiy uyquda. Shu daqiqalarda ularning ruhlari kezib yurgan bo'lsa, ne ajab.

Sening ota-onang, qarindoshlaringdan ba'zilar Toshkent shahrining "Komolon" qabristoniga dafn qilingan.

Umr o'tib borar misoli ertak... Sen yana qancha umr ko'rasan, yolg'iz Ollohga ayon. Hayotingning 55 yili sen uchun muqaddas va aziz bo'lgan qadimdan "Non shahri" deb atalmish Toshkentda o'sib ulg'ayding, o'qiding, xalq orasida obro'-e'tibor topding, Toshkent – Vatanim, jonajon O'zbekistonim yuragi. Sen bu zamindan o'zingni biror daqiqa ham ayro sezmagansan, seza bilmaysan. Butun O'zbekiston sarhadlari, qishlog'u tumanlari, ovullar – barcha-barchasi – u joylarda yashovchi ko'ngli pok, beg'araz, mehmondo'st odamlar sen uchun naqadar aziz va qadrlil. Insondan faqat xalqiga, elu yurtiga bo'lgan mehr-ezguliklar, yaxshiliklar qoladi. Shukronalar keltirasan. Qalbingda bolalar-cha beg'uborlik, ruhiyating tetik, bardam-baquvvatsan.

Sen ijodiy safarlarda doimo sog'inch hislari ila odamlar ichra singib ketasan.



Bahorning ilk kunlaridan boshlab barcha insonlar qalbida uyg'onish, bahoriy kayfiyat. Quyosh ham Xorazm diyori uzra o'zining saxiy nurlarini sochmoqda, ko'rsatuvni "tezroq tasvirga olishni boshlang", deganday. Ijodiy jamoamiz borgan zahotiyoq ishga kirishadi. Biz ko'nglimizda iliqlik uyg'onib yo'limizda davom etamiz. Bu yo'l bizni qalbida ezgulik gullari ochilgan, yuragida mehr chechaklari ungan, bu dunyoning barcha yaxshiliklari, shodligi-yu, g'amini ko'rgan, achchig'i-yu, chuchugini tatigan insonlar huzuriga chorlaydi.

Poyezd horg'in bir holatda sekin harakatlanadi.... Vagon g'ildiraklaridan chiqayotgan "taq-taq, taqa-tuq" ovozi xuddi umr soatiga o'xshaydi. Umr o'tib borar...

Ustoz Abdulla Oripov yozganiday:

*Qayga shoshayotir umri ravoning,
Ne topding va nedan bo'lding mosuvo?
Bir zum gupursa ham vujudda qoning,
Bir zum barchasidan sukunat ravo.
O'tmishu kelajak bir zum yonma-yon,
Gohi past, goh baland bo'lib suringay.
Etti og'ayni ham ko'kda nogahon
Savol alomati bo'lib ko'ringay.
Qaraysan, yiroqda bir yo'lchi tanho,
Na ortga burilar, na chiqar sasi.
Boshda toj, dilda o't va qo'lda aso,
O'sha ketayotgan umring o'rtasi.*

Qishloq oralab ketayotgan bizning karvonimiz yanada sekinlashadi. Poyezd o'tib ketishini kutayotgan turli rusumdagi avtoullovlar tizimi. Yo'l chekkasida bir to'da ayollar, qo'llarida tugun. Ulardan ancha narida jajji farzandini bag'riga bosgan yoshgina ayol. Vagonlarga termulib bolasining ko'zlari javdiray-



di. Orasta kiyingan bir to'lda maktab o'quvchilari vagon derazalariga qarab, qo'llarini ko'tarib qiyqirishadi. Hu, ancha narida maktabning sport maydonida to'p o'ynayotgan bolalar.

Qarilikdan qaddi egik bir bobo hassasiga tayangan holda, temir yo'l chekkasidagi yo'lak bo'ylab ketib bormoqda...

Umrimiz kitobining ma'lum bir bitiklari qoladi temir yo'lning po'lat izlarida. Bizning kunlarimiz, tunlarimiz ibtidosi va intihosi bitilgan taqdir yo'llarining bir ko'rinishidir bu yo'llar.

Orzularga eltuvchi bu yo'ldan bizning bugunimiz, ertamiz o'tib boradi.

Toshkent – Urganch poyezdi.

1 mart, 2018 yil



IV QISM

2019 YILNING ILK KUNLARIDAGI

IJODIM NAMUNALARI.

NURLI YO'LLARGA CHORLOV.

LONDONGA MAKTUB

Yangi yil eshik qo'ng'irog'ini chalayotgan daqiqalarda, Londondan nevaram Ziyoda qo'ng'iroq qildi:

– ... o'zingizni ehtiyot qiling, – degani qalbinga cho'g' solib, ko'zlarimga yosh qalqdi.

Odam hayotda borligiga, yashayotganiga shukrona keltirarkan. Hali bardam-baquvvatsan. O'lchab berilgan umrning hayot qayig'ida gohida to'lqinlar, gohida sokinlik ichra suzib ketmoqdasan uzoq-uzoqlarga. Oldinda seni nelar kutadi. Vaqt yugurik... Uni ushlab qololmayсан.

Eng oliy hakam Vaqt – nahot bo'shliqlar ichra sovurilib – yo'qolib ketsa... Vaqt g'animat...

“Hayotni sevasanmi? Sevsang vaqtни boy berma, chunki vaqtdan hayot degan mato yaraladi”, – deydi Benjamin Franklin. “Vaqtning qadriga yeta bilsak, o'z umrimizni mazmunli yashab o'tamiz”.

Qizim! Sening sog'inch-la aytgan yurak so'zlaring xat yozi-shimga rag'bat uyg'otdi. Qalbimning tub-tubida senga aytar so'zlarim bisyor. Quloq tut!

Abdulla bobongning Do'rmondagi bog'ida “Umr”, “Olam va Odam” haqidagi mushohadaga chorlovchi nasihatimiz suhbat-larini ko'p bora eshitgansan.

Umr o'tib borar misoli ertak,

Ertaning ketidan kelib qolar shom.



Umr xuddi oqar daryo misoli, uni orqaga qaytarib bo'lmaydi. Hayotingning har bir soniyasidan unumli foydalana bil. Vaqt juda ham tez o'tib ketishini bir tasavvur qilgin-a.

2014 yil. Yangi yil oqshomini Shoir buving, xolang, pochchang, qudalar bilan Londonning eng orasta, go'zal makonlaridan biri Temza daryosiga yaqin joyda nishonlagan edik. Vaqt yugurik... 2019 yilda xuddi shu daqiqalarda singling va jiyanlaring bilan kutib olmoqdasan Temza daryosi bo'ylarida Yangi yil oqshomini.

Yangi yil barchaning qalbiga o'zgacha bir hislarni olib kiradi, yuraklarni shodlantiradi. Negadir iztirobli hayajon bosadi mening qalbimni... Umr kitobining yana bir yiliga yakun yasaldi. Yana bir yil ortda qoldi...

Shayx Sa'diy hazratlari aytadi:

Tug'ildimu, ey voh, bozorga bordim,

Kafanlik oldimu, mozorga bordim.

Tangri tomonidan umr har bir odamga belgilab qo'yilgan. Shukrona keltirib yashaymiz. Bilamiz, hozirgi yoshlarning hayotga munosabati boshqacha. Tezkor zamon.

Hozirgi zamon talabi. Qadimiy Sharq va G'arb adabiyoti bilan birgalikda hozirgi zamon adabiyotini mutolaa qilib mag'zini chaqqaningda umr falsafasi o'yu-xayoling, qalbingni butkul qamrab oladi. Shundagina sen bu dunyoda yashayotganingga, vaqtning qadriga ko'proq eta bilasan.

Qizim, sen yigirma yoshga qadam qo'yding. Uch yarim yoshingdan boshlab samolyotda, goh poezdda, gohida avtoulavlarda Shoir buving va mening hamrohligimda yurt kezding. To'rt yoshga qadam qo'yganingda Xivalik 100 yoshli Anabiyi momoga savollar berib, hamsuhbat bo'lding. Bu tasvirlar hozirgacha televideniye arxivida saqlanadi. Maktabni rus tilida imtiyozli tugallading. Ingliz tilini bosqichma-bosqich mukammal o'rganib, televideniya chiqishlar qilding. Litseyni yapon tili mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli tugallading. Toshkent shahrida ingliz,



yapon, rus tillarida o'tkazilgan bahs-munozarada qatnashib yuqori o'rinlardan birini egallaganingda, buvingning ko'zlaridan sevinch yoshlari to'kilgan.

Hali hamma narsa oldinda seni kutib turibdi.

Ingliz tili mutaxassisligi bo'yicha notiqlik san'atini mukammal egallab, jahon miqyosiga chiqishingni orzular qilaman. "Quyosh bo'lmasang ham yulduz bo'l. Yulduz bo'lganda ham osmondagi eng yorqin yulduz bo'l", – deydi, Nobel mukofoti laureati Ro-bindranat Tagor hikmatlaridan birida. Sening tengqurlar-ingga ham aytar so'zlarim bisyor. "So'zamollik – aqlga sayqal beruvchi nur... Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda yo yaxshi notiq bo'lib qolish kerak", – degan edi buyuk faylasuf Tsitseron.

Notiqlikni egallagan navqiron yosh tezda yoshlar sarkoriga aylana-di. Notiqlikni egallagan jamoadagi rahbar odamlarni o'z orqasi-dan ergashtirib, rahbarlikning eng yuqori mavqeini egallaydi.

Notiqlik – millatimiz ulug'ligini belgilaydi. Bugungi har bir rahbar xodim – notiqlikni, gapirish san'atini to'la egallashi lo-zim. Bu esa davrning eng muhim talabi hisoblanadi.

O'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan buyuk Alisher Navoiy notiqlik san'atini o'z davrida yuksak darajaga ko'taribgina qolmay, nutq madaniyati nazariyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. U "Mahbub ul-qulub" asarining 24-bobi-ni voizlikka bag'ishlagan. "Muhokamat ul-lug'atayn", "Nazmul ul-javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzilishining go'zal namu-nalari bo'lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo'shgan.

"Qobusnoma" asari Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan bo'lib, 44 bobdan iborat. Uning 6-7-boblari so'z odobi haqida. Asar muallifning farzandiga qilgan nasihatlar sifatida yozilgandir. U farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. "...yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham, yo-



mon ko'rinadi". "Kishi diktora va notiq bo'lishi lozim". "Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Haloyiq sening so'z bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar".

Oradan qancha asrlar o'tsa hamki, bu aytilgan nasihat so'zlari o'z qadr-qimmatini yo'qotmadi. Hozirgi zamonda millatimiz sha'nini yanada ulug'lamoq uchun, mamlakatimiz aholisining 60 foizini tashkil qiladigan yoshlarni e'tiborga olib, bog'cha yoshidagi farzandlarimiz qalbiga Vatan mehrini singdirib, notqlikka o'rgatish bolani dadillikka undaydi.

Maktab davrida, talabalik yoshida notqlik san'atiga, so'zamollikka o'rgatish g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Yoshlarimiz kelajakka ishonch-la qadam tashlaydi.

Shuni hozirgi yoshlarimiz mamnuniat bilan ayta oladilarki, biz eramizdan oldingi davrlarda buyuk davlatchilik tarixini yaratgan millatmiz. Bunday maqomga ega davlatlar sirasiga hozirgi Misr, Xitoy, Hindiston, Iroq, Suriya, Eron, Yaponiya, Yunoniston, Italiyani kiritish mumkin.

Hozir sen Yangi yilni kutib olayotgan London shahri XI asrda paydo bo'lgan. Samarqand 2750, Termiz, Qarshi 2700, Buxoro, Xiva 2500 yoshda.

Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Zamaxshariy kabi olimlarimiz, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk sarkardalarni, Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi jahoniy shoirlarni bergan xalqning qoni har birimizning yuragimizda, tomirlarimizda jo'sh urib oqadi. Bunday xalqni sevmay bo'lrmi?! Yurtimizning geografik joylashuvidan tortib, uning uzoq asrlik tarixini chuqur o'rganmoq, O'zbekistonning har bir yoshi singari, sening ham muqaddas burching. Bundan 2700 yil ilgari "Avesto" kitobida yozilgan, "Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu amal" so'zlari xalqimiz qalbida, dilida yashayajak!

Jannatmakon o'lkamizda hozir o'zgacha go'zal fasl hukmron. Zumrad ko'zli ilk bahordan oltin kuzgacha fasllarning o'z



tarovati bor. Yana qayda bor bunday yurt! Londonning Yangi yil oqshomi qancha go'zal bo'lmasin, ko'zlarni qamashtirmasin, o'z tug'ilib o'sgan yurtning tarovati o'zgacha. Yuzlari doim quyoshga mengzar millatimizning mehri bo'lakcha.

Nevaraginam Ziyoda! Seni Toshkent shahrida sog'inib qoluvchi Farhod bobong. 2019 yil. Yangi yil oqshomi.

NURLI YO'LLARGA CHORLOV LONDONGA IKKINCHI MAKTUB

Kunlar bizni shoshib shoshiradi.

Umr o'tmoqda... Vaqt olg'a qarab shitob bilan ketib bormoqda...

Mana, nevaramga birinchi xatni yozganimga yigirma kunlardan ko'proq vaqt o'tib, ikkinchi maktubni yozmoqdaman. Oiladagi osudalik, tinchlik, to'kis hayot, yaxshi so'zlaru madad, insonga doimo kuch bag'ishlaydi, balki bir umrlik quvvat baxsh etadi. Guyoki men osuda hayot kechirayotgandayman. Shukrlar bo'lsinkim, yurtimizda tinchlik, ko'z tegmasin deymiz.

Uzoq yillar mobaynida bu xalq ne bir azoblarni boshidan o'tkazmadi. Otilish, osilish...

XXI asr... Jahonda fan taraqqiyoti va texnikalar asri deya atalayotgan mazkur davr bir qator yuksalish-rivojlanishlar bilan birga turli tahdidlaru xavf-xatarlarni ham insoniyatga ro'baro' qilmoqda. Bu davrda tinchlikni saqlash, odamlarni ezgu amallarga oshno etish hamda davlatni rivojlantirish eng katta va mas'uliyatli vazifa sifatida o'zini tobora namoyon qilmoqda. Shukronalar bo'lsinki, bugun O'zbekiston nomi dunyo hamjamiyatida, o'ziga xos jarang sochmoqda. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar tufayli O'zbekistonda dadil harakatlar davri boshlandi. Bularning bariga albatta ziyoli, o'qimishli, tafakkur olami keng xalqparvar, katta hayot tajribasiga ega, ko'pni ko'rgan mard insonlar sabab. Xalqni yaxshiliklar sari ergashtira olishda, notiqlik juda



katta qudratga ega. Zotan minbarlarda, xalq orasida yurib, nutq irod qilish, o'ta darajada yuksak salohiyat, donishmandlik, tafakkur, insoniy fazilatlarini talab qiladi. Notiqlik san'atini egal-lagan inson gapirganda nutqida, ovozida ilohiy bir qudrat namo-yon bo'ladi. Bu qudrat esa insonlar qalbini junbushga keltiradi, jonlantiradi, uyg'oqlikka chorlaydi va rag'bat uyg'otadi.

Bularning O'zbekiston yoshlari uchun ta'sir kuchi juda ham katta. U dasturilamal vazifasini o'taydi. Qadimda bizning ajdod-larimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarimiz nutq haqida o'z fikrlarini bayon qilishgan. Abu Rayhon Beruniy bobomiz, nutqda mazmun va shakl birligiga katta ahamiyat berishi haqida gapiradi. Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy (870-950) to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va tugal nutq tuzish haqida qimmatli fikrlarini bayon qiladi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997 yil) ham "Mafotiq ul-ulum" ("Ilmlar ka-litlari") asarida o'sha davr nutq madaniyati, aruz va qofiya ilmi hamda she'riyatda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalari, ular-ning fazilatleri va nuqsonlari haqida so'zlaydi. Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "Nazm ul-javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi.

XIII asrda Hirotida yashagan atoqli alloma Husayn Voiz Koshi-fiy nutq haqida qimmatli fikrlar bildirgan:

"Bilgilki, odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga ri-oya qilmagan odam bu sharaftan bebahradir".

Bu shuni ko'rsatadiki, X-XV asrlarda o'lkamizla badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ish-langan edi.

Demak, nutq madaniyati tarixi qadimiy ekan, uning boyligi ham bitmas tuganmasdir. Bu boyliklardan o'rinli foydalanish jozibali nutq ifodasini hosil qiladi. Nutq madaniyati sohasi va uning maqsadini ommaga yetkazishda o'tmish notiqligining ijobiy tomonlaridan keng foydalanish zarur. Ushbu notiqlikning ko'pgina ko'rsatmalari, qoidaviy holatlari, taniqli notiqarning



shaxsiy qobiliyat va faoliyatlari nutq madaniyatini tarbiyalashda yaxshigina namunaviy tashviqot quroli vazifasini o'taydi.

Bu masala Sotimxon Inomxo'jaevning "O'tmish sharq notiqligi" kitobida yaxshi ko'rsatilgan.

Qariyb ikki yillardan oshdi. Bog'cha yoshidagi farzandlarimizga o'zbek tilida notiqlikni o'rgatish bo'yicha dadil qadamlar tashlandi.

Shuning barobarida chet tillarda so'zlash bo'yicha sezilarli ishlar boshlandi. Notiqlik orqali bog'cha yoshidanoq bolada Vata tanga mehr uyg'onadi, farzandlarimizni dadillikka undaydi.

Maktab yoshidagi bolalarga o'zbek tili, ingliz tili va boshqa chet tillari bo'yicha notiqlikdan to'garaklar, turli anjumanlar tashkil etilib, nutqdan turli musobaqalar o'tkazish davri yetib keldi. Faqat olg'a qarab harakatda bo'lishimiz lozim.

Talabalik davrida ham barcha yoshlarga notiqlik san'atini o'rgatib borish zarur. Bunda esa avvalo bilimga, so'zamollikka erishish, shijoatli bo'lish bugungi kun talabi.

Shu o'rinda O'zbekiston Yoshlar ittifoqiga keng o'rin ajratish, uning har bir a'zosi uchun g'urur, iftixor bo'ladigan notiqlik san'atini egallash, rivojlantirish, dunyoviy bilimlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston yoshlari yanada jipslashib, kelajakka ishonch-la nazar tashlashi shu kunlardagi dolzarb vazifalardan biri.

Jahonning yuksak minbarlarida o'zbek (millatining) yoshlarining ingliz, fransuz, nemis, ispan, shved... arab, fors, hind, xitoy, yapon, koreys va dunyoning boshqa tillaridagi nutqlari jahonning yuksak minbarlaridan ovozlarini yangrab, o'zbekona, milliy, inson ruhiyatini ko'taradigan yoshlarning jo'rovoz qo'shig'i bo'lishini orzular qilamiz. U qalblarga jo'shqinlik olib kiruvchi shunday qo'shiq bo'lsaki, u millatlararo birdamlik chorloviga aylansa. Albatta, bu O'zbekiston Yoshlari harakati va tashabbusiga bog'liq!

Siz bunga nima deysiz, aziz yoshlar, o'g'il-qizlarim? Bu aytilgan dil so'zlarim senga ham taalluqli, nevaraginam Ziyoda!

Farhod bobong. 24 yanvar, 2019 yil



V QISM

ZAMONDOSHLAR TALQINIDA

Dedilar: "Dunyoda aslida kim aziz?"

Aytdilar: "Ustozdir, ustoz begumon!"

Tag'in aytdilarki, aziz shubhasiz –

Ustozlar qadriga yetolgan inson.

Qadri baland, ustozlarim, do'stlarim, shogirdlarim! Sizga bo'lgan ehtiromim ifodasiga munosib so'z topishga o'jizman. Sizlarning har biringiz – bu gulshan sahnida o'z ifori, o'z "men"iga ega ijodkorsiz. Aytar so'zingizning o'z yog'dusi, mehri, salobati bor. Kamtarona hayotim, ijodim haqida aytgan so'zlaringizdan mamnunman. Ularni jamlab to'plam holiga keltirdim. Ibratli so'zlaringiz kitobxonlarga manzur bo'ladi, degan umiddaman.

FARHÖDJONGA TILAKLARIM

Men Farhod Bobojonovni hali u diktör (diktör) bo'lib tanilmasdan avvalroq bilardim. Farhodjon kichik-kichik hikoyachalar yozib bizga o'qittirib ketardi. Keyin bilsak, u rasm chizishga ham ishqiboz ekan. Xullas, Farhodda iste'dodning turli qirralari g'unchalay boshlagandi. Biroq u vaziyat deymizmi, peshonamanglay deymizmi sabab bo'lib, yigitlik yillarining katta qismini televideniye'ga bag'ishladi. Farhod Bobojonov taniqli diktör bo'lib yetishdi. Bilasiz, elu yurt ko'pincha o'zi ko'rib, eshitib turgan narsasiga e'tiborini qaratadi.

Farhod Bobojonov yurtimizda g'oyat taniqli shaxsga aylanib ketgandi. Esimda Farhod bilan safarlarda birga bo'lganimizda

odamlar yopirilib kelib, uni o'rab olishar, iltimoslari, dardu xasratlarini unga ayta boshlardi. Soddamiz-da, hamma masalani diktor xal qiladi, deb o'ylaganmiz-da. Otam rahmatlik Farhodjonni juda yaxshi ko'rardi, yarim hazil bilan: "Bizlarning qulog'imiz og'irroq televizorda qattiqroq gapirgin, Farhodjon o'g'lim", deb qo'yardi. Farhod Bobojonov diktorlikdan ketgandan keyin ham, baribir radio-televideniye vakili bo'lib qolaveradi. Ma'naviy, ma'rifiy mavzulardagi ko'pdan-ko'p ko'rsatuvlarga mualliflik qildi. Farhod Bobojonov ko'ngli ochiq, beozor, ishonuvchan odam. Qitmirlik, soxtarkorlikni bilmaydigan, dil ko'zi doimo uyg'oq nozik ta'bli yigit.

Farhodjonga bundan buyon ham qilgan va qilayotgan mehnatlariga munosib farog'atli umr tilayman.

Abdulla Oripov, O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri 2013 yil 9 yanvar. Tanlangan asarlar 7 tom kitobidan olindi.

OVOZIDA QADIMIY HARORAT BOR

Men o'zbek televideniyesi sohasida yigirma yilcha ishladim. Shu sababdan bo'lsa kerak, bu sohaning pastu balandini, yutuq va kamchiliklarini bir qadar bilaman. Garchi televideniya, bir qaraganda, tasvir birlamchi bo'lib tuyulsa-da, adabiyot odami bo'lganim uchungina emas, avvalo, televideniyaning milliy taraqqiyotdagi o'rnini anglaganim uchun, bu sohada Til va So'zni, uning kuch-qudratini birlamchi deb bilaman.

Televideniyesi sohasi juda tez o'zgaruvchan, zamon talablariga moslashuvchan sohadir. Bugungi televideniyaning 30-40 yil oldingisi bilangina emas, hatto 10 yil oldingisi bilan ham solishtirib bo'lmasligining sababi ham shunda deb o'ylayman. Bu o'zgaruvchanlik men birlamchi deb bilgan Til va So'zga, uning radio va televideniya tutgan o'rnini, ahamiyati, soha xodimlarining Til va So'zga bo'lgan munosabatida yaqqol aks etadi.



O'zbek televideniyesi tarixida Til va So'z xususida gap ketganda, albatta, birinchi navbatda, diktorga katta e'tibor beriladi. Chunki diktorga tomoshabin uchun Til va So'zga mas'uliyatli ijodkor timsoliga aylangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Qodir Maxsumov, Tuyg'unoy Yunusxo'jayeva, O'ktam Jobirov, Nasiba Ibrohimova, Nasiba Qambarova, Davron Zunnunov va boshqa juda ko'p diktorga xalqimizning sevimli san'atkorlari safidan munosib o'rin egallagan. Ana shu safda mening qadrdon do'stim Farhod Bobojonovning ham o'ziga xos o'rni bor. Zero, u sazovor bo'lgan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist", "Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq artisti", "Oltin qalam" milliy mukofoti sohibi, "Oliy toifali diktorga" kabi faxrli unvonlari mening bu gapimning yorqin isboti desam, xato qilmayman.

Farhod aka yarim asrdan ziyod vaqt davomida har kuni «Axborot» dasturi, bayram kontsertlari, reportajlar, hukumat tadbirlari boshlovchisi, hujjatli telefilmlar muallifi sifatida o'ziga xos jozibali va tiniq nutqi bilan xonadonlarimizga "tashrif" buyurdi.

Farhod Bobojonovning bu yuksak maqomlarga erishuvining asosiy sababi bor. Bu sabab uning ma'rifatli inson, umri ziyo sochish bilan o'tgan Bobojon Rahimberganov oilasida o'sib-ulg'ayganida. Farhod akaning o'z esdaliklarida yozgan mana bu yozuvlar bu fikrimni isbotlasa kerak: "Otam Alisher Navoiyning "Xamsa"si, Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston" asarlaridan hikoya qilar edi, – deb xotirlaydi u. – Ogahiy, Mashrab, So'fi Olloyor, Cho'lpon, Oybek asarlari esimni taniganimdan boshlab miltillagan kerosin lampa chiroqlari ostida qulog'imga quyilgan. Otamdagi go'zal so'zlilik, chuqur bilimdonlik qadimiy Xivada istiqomat qilib, umr bo'yi ilm chiroqlarini yoqib yashagan maxdumzoda bobolaridan meros edi. Otam o'z zurriyotlarida bobolarimiz davomiyligi bo'lishini chin yurakdan orzu qilgan..."

Yana shu xotiralarida maktabda o'qib yurgan yillari G'afur G'ulom ro'parasida turib she'r o'qiganini eslab yozadi: "Yelkamga G'afur G'ulom qo'li tegdi. – Aytganim to'rt qator she'r, bu-

tun umrim mazmuniga aylanib, mendagi orzu-umidlar uchquni o'sha soniyadan boshlangan bo'lsa, neajab..."

Farhod Bobojonovning she'rni naqadar sevishini, naqadar qadrlashini men o'zaro hamkorlik qilgan paytlarda chinakam his etganman. U bilan bir necha she'riy video lavhalar tayyorlagan kunlar hech qachon yodimdan chiqmaydi. Ba'zan yolg'iz qolgan paytlarimda Farhod aka ovozi bilan tirilgan Oybek, G'afur G'ulom, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Asqad Muxtor, yashirmayman, o'zimning she'rlarimni qayta-qayta tinglaganman. Ayniqsa, ustoz Rauf Parfiga nazira tarzida yozilgan "Qor yog'ayotgan oqshom shaharni kezsang" satrlari bilan boshlangan she'rim asosida tayyorlangan video lavha efirga uzatilganda tomoshabinlardan son-sanoqsiz maktublar kelganini unutmayman. Keksa bir samarqandlik jurnalistning maktubida "Farhod Bobojonovning ovozida qadimiy harorat bor" deb yozilgani ham esimda turibdi.

Keyinchalik Farhod Bobojonov bilan ijodiy hamkorligimiz qadimiy Xorazm tarixiga oid, xususan, Xiva shahri haqida o'nlab televizion filmlar tayyorlash bilan davom etdi.

Yuqorida yozganimdek, O'zbekiston televideniyesida, aniqroq aytsam, "Toshkent", "Yoshlar" va "O'zbekiston" teleradiokanal-larida 20 yildan ortiq vaqt mobaynida ishladim. Televideniye ishi, bu, eng avvalo, jamoa bo'lib ishlashni talab etadi. Qaysi telejanr bo'lmasin, bir o'zingiz ishlay olmaysiz, u rejissyor, operator, diktor va hatto chiroqchi ustaning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Ayni shu sababdan bo'lsa kerak, o'tgan vaqt davomida juda ko'p ijodkorlar bilan hamkorlik qildim, ularning ayrimlari mening yaqin do'stlarimga aylanishdi. Ana shu do'stlarim qatorida, men uchun qadrli insonlar safida Farhod Bobojonovning ham borligidan chin yurakdan faxrlanaman.

*Xurshid DAVRON,
O'zbekiston xalq shoiri*

JONSARAK

Aksariyat taniqli odamlar birmuncha kibrnok keladi. Har kim bilan soʻrashib-gaplashib ketavermaydi. “Kerak boʻlsa, oʻzing kel” degan kabi dimogʻ bilan bir chetda gʻoʻddayib turadi. Hozir kim koʻp desangiz – televizoru toʻy-tomoshalarda nom taratgan “yulduz”u “yulduzcha”lar koʻp. Bundan oʻttiz-qirq yil burun esa besh-oʻn sanʼatkor hamda televideniye diktorlarigina shunday mashhur edi. Televizorda bor-yoʻgʻi ikkitami-uchta kanal boʻlar, sanoqligina diktor har kech ekranda koʻrinaverib bamisoli har bir xonadonning aʼzosiga oʻxshab ketgan edi. Ularning yoshiga, qaysi mavzularga moslashganiga qarab muxlislar doirasi ham shakllanib ulgurgan, deylik, biz tengi avlodning diktori Farhod Bobojonov edi.

Koʻcha-koʻyda uni hamma tanir, havas ila boqar, shuhrat jozibasi-da, koʻpchilik u bilan doʻstlashgisi, birga yurgisi kelar edi. Kimning kim bilan oldin tanishgan ham, kim avval qoʻl uzatganiyu tanishuv qaerda sodir boʻlgani ham hozir esimda yoʻq, ammo Farhod Bobojonovni hech qachon mashhurlarga xos kibr bilan sipo chekib turgan holatda koʻrmaganim rost. U odmiligi, kirishimligi, koʻydi-pishdiligi bilan “mashhur”lar ichida ajralib turar, qachon qaramang, oʻz “qavmi” – artistu sanʼatkorlar qolib, shoir-yozuvchilarga qoʻshilib yurar edi. Keyinroq maʼlum boʻldiki, oʻzining ham qogʻoz-qalamga havasi zoʻr ekan, bir qancha maqola va ssenariylar yozdi, kechmishnoma yoʻsinida yaxshigina kitob bitdi. Televidenie muxbiri, muharriri sifatida tayyorlagan koʻrsatuvlari ham asosan sanʼat, sanʼatkorlar, yurt goʻzalliklari, nafosatiga bagʻishlagani shundan.

Bizni Farhod Bobojonov bilan yanada yaqinlashtirgan jihat – ikkimizning ham ustoz Asqad Muxtorga mehrimiz boʻldi. Farhod aka u kishi toʻgʻrisida bir necha koʻrsatuvlar qildi. Maxsus filmlar yaratdi, bemorlanib tili aylanmay qolgan shoirning sheʼrlarini xush qiroat bilan oʻqib muallifning ham, muxlislarning ham



tahsinini oldi. Ana shunday kezlarda shogird sifatida kaminani ham teleko'rsatuvlarga jalb qilib turardi.

Bizning boshqa bir darddoshligimiz ham bor. Ikkovimizning ham oshqozonimiz yallig'lanib, bir-ikki kasalxonada birga davolanib chiqqanmiz. Hali-hamon uchrashganda hol so'rashuvni shundan boshlaymiz: "Qalay, og'rimayaptimi?" "O'zlariniki-chi?" Keyin esa Farhod aka "Hu-u, varrak uchirtirganim yodimgizdami?" deb qoladi. Yodimda, yodimda, Yunusobod mavzeidagi adirlar bo'ylab ikkovlon varrak tortib chopganlarimiz! Ikkovimiz ham bolalikdan uzoqlab ketgan ekanmizmi, varrakbozlikni udalalayolmay, o'sha yerda aylanishib yurgan bolakaylar yordamga kelgan. So'ng yam-yashil maysazorga yonboshlab bolalik mavzularida gurung qilganmiz. O'sha ko'rsatuv qayta-qayta namoyish etilib, tanish-bilishlar talay vaqt "Rosa varrakboz ekansiza" deya mutoyiba qilib ham yurishgan.

Bu gaplarga endi ko'p bo'ldi. Farhod Bobojonov o'tgan yillar mobaynida taqdirning achchiq-chuchugini ko'p tatigan. Lekin o'zgargani yo'q – hamon o'sha-o'sha bolafe'l, beg'ubor, do'stga mehribon, jonsarak... Qarimasligi sababi shu bo'lsa kerak.

Erkin A'ZAM, yozuvchi

YAXSHI ODAM

Bu dunyoda yaxshi odam ko'p, lekin yomonning biri ham yaxshining mingi o'rnini bosishi mumkin. Ha, yaxshining yuz, ming, o'n ming, million nafari ham kamlik qiladi, yomonning biri ham ortiqlik qiladi. Chunki biz hamisha oftobga intilgan kabi yaxshilarga intilib yashaymiz, ularning toza, charog'on chehralaridagi tabassum olamni yoritgan oftob kabi bizning yuragimizni, ko'nglimizni nurafshon etadi.

Dunyoda yaxshi odamlar bo'lmaganda edi, bu dunyoning qizig'i ham, mazmun-matrasasi ham qolmagan bo'lardi. To'g'rida, dunyoga kelib nima qilarding, agarkim bu dunyoda yorug'lik,



ezgulik, yaxshilik ko'rmasang, dunyoning senga ne qizig'i bor? Yer yuzida yaxshi odamlar bo'lmaganda edi, yer allaqachon o'z o'qidan chiqib kyetardi. Agar yer yuzida yaxshi odamlar bo'lmaganda edi, allaqachon osmon qulab tushgan bo'lardi va yerga qapishib qolgan bo'lardi. Osmonni yaxshi odamlar suyab turadi, yerni yaxshi odamlar asrab turadi.

Farhod aka ham yaxshi odam. Kamtar. Hamisha jilmayib turadi. Yuragida kiri yo'q. Beg'ubor. Yosh bolaga ham o'xshaydi. Ta'sirchan. Tezda hayratga tushadi. Hayajon yuragida to'lqin urib turadi. Ishonuvchan. Sodda. Kamtar. O'zini hech qachon to'rga urmaydi. Xudoyim bergan ichki andisha va madaniyat o'ti botinida o'chmagan. O'zini ko'z-ko'z qilishni yomon ko'radi. Birovning etagidan tortib, undan oldinga o'tib olishni sira-sira xayoliga keltirmaydi. Eng muhimi, adabiyot va san'atni inson yuksalishining ildizi, insonning qanoti deb biladi. Kattaga ham, kichikka ham birday munosabatda bo'ladi, yaltoqlikni umuman bilmaydi, shuning uchun ham bu hayotda goh unday, goh bunday kunlarni boshidan kechirib, hayotdan faqat nur axtarib, yorug'lik topib, osuda yashayveradi, yo'qsa kimsan, Farhod aka! Farhod Bobojonov-a! Bobojonov!!! O'z TVning kekxa diktorlaridan biri! Hali ham damiga dovuchcha pishadi, hali ham yosh yigitlarday jarangdor ovozda ko'rsatuvlar olib boradi. O'sha-o'sha, hu-u-uv oldingi zamonalardagiday navqiron Farhod aka!

Farhod aka O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist. (Men u kishini o'zimcha O'zbekiston xalq diktori deyman. To'g'ri, bunday unvon yo'q, lekin men o'zimcha shunday o'ylayman...) Farhod aka ko'p o'qiydi. Adabiyotni teran tushunadi, nozik his qiladi. U kishi tinimsiz kun bo'yi she'r o'qishlari mumkin. Mirtemirdan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovdan... va hokazo yoniq so'z shoir-larimizning she'rlarini maromu ma'noga solib o'qiydiki, asti qo'yaverasiz. O'sha she'rlarda harakat, jonlilik paydo bo'ladi – she'rni dramaga aylantirib yuboradi.

Farhod akaning chehrasi har bir o'zbek xonadoniga juda yaxshi tanish. Ayniqsa, katta avlod ahli u kishini "Axborot" va



boshqa xabar dasturlari orqali uzoq yillar deyarli har kuni TVda ko'rib-eshitib borishgan. Akamiz hozir ham qiziqarli ko'rsatuvlar tayyorlab odamlar ko'ngliga iliqlik baxshida etyapti.

Farhod aka hozir ham ancha yosh ko'rinadi. Sababi ayon, yuragi toza. Birovga hasad qilmaydi. Hech kimga yomonligi yo'q. Axir qalbi yoniq va toza odamning yuzi ham tiniq bo'ladi, yuzi ham qarimaydi, axir hasaddan yiroq odam hech qachon betob bo'lmaydi. Insonni qaritadigan ham, chiritadigan ham shu – hasad!!! Har birimizni Xudo shundan asrasin!

Farhod aka haqida so'z aytish uchun insondagi barcha yaxshi fazilatlarni sanab o'tishimiz kerak. Men aytmagan jamiki yaxshi, insoniy xislatlar Farhod akada bor! Muhimi, men umrini inson bo'lib yashab o'tayotgan shu insonga havas qilaman.

*Qo'chqor Norqobil,
shoir, dramaturg*

MAQTOVLI UKAM

Agar bizlar birinchi bosqich diktorglari bo'lsak, ikkinchi bosqichda bizning safimizga yana bir nechta yoshlar kirib kelishdi. Mirzohid Rahimov, Farhod Bobojonov, Xudoyberdi Mamadievlar mana shular qatorida edilar.

Farhod Bobojonov to'g'ridan-to'g'ri diktorglar guruhiga kirib kelmagan. U institutda o'qib yurgan kezlarida, avvaliga "Bolalar va o'smirlar uchun ko'rsatuvlar tahririyati"da beriladigan ko'rsatuvlarga aralashib yurdi. Juda chaqqon, qo'li ko'ksida, ochiq yuzli yigitcha edi. Bu tahririyatda u Akmal aka Haydarov (ha, ha, ayni o'sha, g'olib futbol jamoasi murabbiyi Ravshan Haydarovning otasi) tayyorlagan ko'rsatuvlarda pishidi. Inoyat Abdusoatova muharrirlik, Aydar Ibragimov rejissyorlik qilgan ko'rsatuvlarni olib borib yurdi. Shu davrda universitetning jurnalistika fakultetini bitirgan bir qator yigit-qizlar televideniye jamoasiga kelib qo'shilishdi. Ularning orasida juda shirin bir qiz-



cha ham bor edi. U ham ko'rsatuvlarga boshlovchilik qila boshladi. Bu qiz Shoira Nizomova edi. Balki shu qiz sabablidir, Farhod shu tahririyatga bog'lanib qoldi. Ular birgalashib ko'rsatuvlar olib borishdi, hamkorlik qilishdi. Vaqt o'tib o'rtalaridagi munosabat muhabbatga aylandi. Bularning biri xorazmlik, biri toshkentlik ekani ham muammo tug'dirmadi. Toshkentlik qiz xorazmlik kelinga, xorazmlik yigit toshkentlik kuyovga aylandi.

Shoira kelin bo'lganda ham rosa maqtoqli kelin bo'ldi. Arofat opam shifoxonada davolanayotganlarida Farhodning onalari bilan hamxona bo'lib qolibdilar. Gapdan gap chiqib, ular rosa kelinlarini maqtabdilar. "O'zimning qizlarimdan ham a'lo", debdilar. Bir kuni o'sha maqtoqli kelin – Shoira kirib kelibdi. Shunaqa go'zal, tili shirin, chindanam maqtasa maqtagulik ekan. "Xonaga xuddi Iqboloy kirib kelganday bo'ldi-ya!" degan edilar o'shanda opam. Ular birinchi diktor Iqbol Olimjonova bilan bir sinfda o'qishgan, bu qizchaning qosh-ko'zlarini, muomalasini o'sha sinfdoshlariga o'xshatganlar-da.

Farhodning televideniyeiga kirishib kyetishi uning diktorlar safiga qabul qilinishida o'z ifodasini topdi. Avvaliga bolalar, o'smirlar, qishloq xo'jalik xodimlari uchun ko'rsatuvlarga boshlovchilik qilib yurgan bo'lsa, asta-sekin "Yangiliklar" ko'rsatuvini o'qish darajasiga etdi. Ammo uning badiiy ko'rsatuvlarga ixlosi o'zgacha edi. Bu bolaligidan bormidi yoki "Bolalar" tahririyatidagi faoliyatidan yuqqanmidi, har qalay, adabiy-badiiy ko'rsatuvlarda ko'p ishladi.

O'zbekiston radiosining "Adabiy eshittirishlar tahririyati"da Nasiba Ergasheva ismli bir muharrir opamiz "Gulshan" radiojurnalini tashkil qildilar. Bu eshittirish nihoyatda ommalashib ketdi. Muxlislari juda ko'p edi. Rangin musiqiy bezaklar, jonbaxsh mavzulari bilan bu eshittirish xalqning e'tiborini qozondi. Uni Nasiba opa bir o'zlari olib borardilar. Ovozlar juda yoqimli edi. Har haftada bir marta, shanba kuni soat 10.00 da boshlanar, odamlar uni kutib o'tirishardi. Sal vaqt o'tib, meni Omon Muxtorov radioga chaqirtirdi. "Nasibaxon, shu "Gulshan" radiojurnalini siz Temur-



*O'zbekistan xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni
Abdulla Oripov ijodkorlar bilan*



*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Oliy toifali diktor
Nasiba Qambarova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist,
Oliy toifali diktor Nasiba Ibrohimova, O'zbekiston xalq artisti,
Oliy toifali diktor Galina Melnikova*




Onam bilan eng quvonchli daqiqalar



Chapdan: 1. Ziyod Tirkashev "Nurli ziyod" fermer xo'jaligi bog'boni. 2. To'raxo'ja Erxo'jayev "Qadriyat" gazetasi bosh muharriri. 3. O'ng tomonda Rashid Roupov - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist




*Umr yo'ldoshi
Shoirra Nizomova*



*Farhod Bobojonov
1970 yillar*



*Kinorejissyor Jahongir Qosimov (o'ng tarafda), telerejissyor
Qodir Sa'dullayev (chap tarafda)*



*Tasvirchi Salohiddin Najmiddinov (o'ng tarafda),
rejissyor Islom Tojiyev (o'rtada)*




*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
Oliy toifali diktor Muslimbek Yo'ldoshev*



Farhod Bobojonov o'z oilasi va jiyanlari davrasida



Farhod Bobojonov va umr yo'ldoshi Shoira Nizomova



1974 yil televideniya ijodkorlarining eng quvonchli onlari



*Farhod Bobojonov, Abdulla Oripov, Normurod Narzullayev,
Ismoil To'xtamishov 1975 yil Qashqadaryo*



malik Yunusov bilan birga olib borsangiz” dedilar. Men hayron bo'ldim. Axir, Nasiba Ergasheva bu eshittirishning ham muallifi, ham boshlovchisi bo'lsa, nima uchun ularni eshittirishdan chetlatishayotganiykin, deb o'yladim. Lekin sababini so'ramay rozi bo'ldim. Endi bu eshittirishni Temurmaliq ikkimiz olib boradigan bo'ldik. Ko'p vaqt o'tmay sir ochildi. O'lmas Umarbekov boshqa ishga ko'tarilib ketib, Nasiba Ergasheva ularning o'rnlariga Bosh muharrir bo'lib tayinlandilar. Endi u kishi rahbarlik bilan boshlovchilikni birga olib borishlari ko'p jihatdan mumkin emas edi.

Bu eshittirish Nasiba Ergasheva kabi Temurmaliq Yunusov uchun ham keyingi katta ishlariga pillapoya bo'ldi. U ham boshqa ishga o'tadigan bo'lib qoldi. Men bilan birga boshlovchilik qiladigan odamni topishni rahbarlar o'zimga havola qilishdi. Shunda men Farhodni tanladim. Chunki uning adabiyot va san'atga qiziqishi, intilishlari menga ma'qul kelardi. U tez ilg'ar, mavzuga tez kirishib ketardi. Chunki eshittirish mavzularidagi ko'p narsalarni u avvaldan bilar, o'qigan va yoki yodlagan bo'lib chiqardi. Bu eshittirish o'zimga ham juda yoqar edi. U badiiy jihatdan juda pishiq, rejissyor, mualliflar, ovoz operatorlarining mahorati tufayli oldingi safda turardi. Farhod ham shu eshittirishning qolipiga tushdi-qo'ydi. Mana shu eshittirishni olib borishi tufayli u o'zining shevasidan qutulishi oson bo'ldi. Rejissyorlarning talabchanligi, eshituvchilar oldidagi mas'uliyatni his qilishi, uni o'z ustida ko'p izlanishiga sabab bo'ldi. Shu taxlit bir necha yillar biz u bilan mana shu radiojurnalni birgalashib olib bordik. Men ham bu eshittirishdan ketganimdan keyin, u endi Dilfuza G'ulomova bilan hamkorlikda ishladi. Ushbu hamkorliklarimizning eng sara namunalari bugun radioning “Oltin fondi”da saqlanadi.

Garchi diktorlik kasbidan sal uzoqlashgan bo'lsam ham, men hamisha hamkasblarimni, xususan, Farhodning ijodini ham kuzatib yurganman. U adabiy-badiiy ko'rsatuvlarga astoydil mehr qo'ydi. Adabiy kompozitsiyalar tayyorladi, Mirtemir, Asqad Muxtor singari ulug' adiblar ijodxonalaridan ko'rsatuvlar olib bordi. Ba'zan ko'rsatuv muallifi kim ekan, deb ham o'ylanib qolar-



dim. Chunki u boshqa mualliflar tayyorlagan ko'rsatuvlarni xuddi o'zinikiday qilib o'zlashtirib olardi. O'sha ustozlari uning og'ziga tuflab qo'yishganmi deyman. Nega yetuk adiblar uni bunchalik jiddiy qabul qilisharkin, desak, u har bir ko'rsatuv oldidan juda puxta tayyorlanar ekan. U Shukrullo bo'ladimi, Ramz Bobojon bilan ko'rsatuvlar bo'ladimi, hamma asarlarini sinchkovlik bilan o'rganib olarkan. Shuning uchun ham ular Farhod bilan hisoblashib, o'ylashib gaplashisharkan.

Men faxrlanar darajadagi ko'rsatuvlari ichida uning "Dunyo bo'ylab" kanalidagi chiqishlarini aytishim kerak. Nazarimda bu kanal aynan Farhod uchun tashkil etilganday. Bu yerda uni har turli ko'rinish va holatlarda uchratasiz. Hali tuya ustida, hali eshak mingan... Bir qarasangiz janubda, bir qarasangiz shimolda yurt kezib, odamlar qalbini ovlab yuradi. Insonlar haqida hiko-yalar qilib beradi. Mamlakatimizda biron-bir tuman qolmadiki, u ko'rsatuv tayyorlamagan bo'lsin. Agar viloyatlarning ham unvon bera oladigan huquqlari bo'lganda edi, menimcha, Farhod barcha viloyatlarda xizmat ko'rsatgan diktor bo'lgan bo'lardi.

Farhod Bobojonovning shunday shakllanishida Shoira-ning xizmati katta bo'ldi. Biz bu gapni ko'p joyda o'rinli-o'rinsiz ishlataveramiz. Ammo bu holda aynan shunday bo'lgan. Shoira oila hamjihatligini saqlashda, ota-ona va qayinonalar duosini olishda, farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berish masalalarida yuksak chidamlilik ko'rsatdi. Farhodning erkin ijod qilishi uchun hamma sharoitni yaratib berdi. Nabiralar tug'ilishganida Shoira hali kuchga to'lgan, ijodi qaynagan muharrir bo'lishiga qaramay, erta ishdan ketdi. Ijod o'chog'ini oila o'chog'iga almashtirdi va yanglishmadi. Ham ijodkor er uchun ko'ngilxotirjamlik, ham oila uchun bag'ri butunlikni ta'min qila oldi. O'g'il-qizlarni o'qitish, ilimli qilish, orzuli to'ylarida o'zi bosh bo'ldi. Afsus, o'zi erta ketdi. Orzulari, niyatlari to'la yuragi tuyqus to'xtab qoldi. "Opajon, singlingiz Shoira har doim sizni o'ziga ustoz deb bilardi. Hurmati juda baland edi..." dedi Farhodjon ta'ziya kunlarida. Ichkari-rida to'plangan ayollar esa, meni Shoira haqida so'z aytishimni



so'rashdi... Garchi ular Shoirani inson, jigar, quda yoki qo'shni sifatida tanishsa ham, uning qanday ijodkor bo'lganini menchalik bilmasliklari tabiiy. Kamdan-kam uchraydigan bu kabi vaziyatda to'liqlanmay, ko'zga yosh qalqimay so'z aytib bo'larmidi...

Shu yerda belini bog'lab turganlar orasida Qobilbek Karimbekovga ham ko'zim tushdi. Kezi kelganda u haqda ham bir so'z aytmoqchiman. Men Sobir Rahimov tumani rahbariyati tarkibida ishlab turgan yillarim, ustoz O'razaev Shavkat Zakariyevich bir safar menga murojaat qilib qoldilar. "Nasibaxon, bir iqtidorli yigit bor. Universitetning hamma ishlarida jonbozlik qilib yuradi. Paxta terimi mavsumimi, talabalarning yirik anjumanlarimi, doim ishboshi. O'zi ilmga chanqoq, o'sadigan yigit" dedilar. Men shu yigitga e'tibor qaratishim, kerak bo'lganda qo'llab-quvvatlashim kerakligini tushundim. Ustoz hammaning ham o'rtasiga tushavermasliklarining o'zi menga yo'l ko'rsatdi.

Keyinchalik Qobilbekni teleko'rsatuvlarda, xususan, xalqaro mavzudagi lavhalarida ko'rib, quvondim. Yana sal vaqt o'tib, siyosiy sharhlarda paydo bo'la boshladi. Keyin esa yetuk sharhlovchilar qatoridan o'rin oldi. Universitetning hurmatli domlari qatoridan o'rin oldi. Fikri tiniq, nutqi ravon, ko'zlarida ishonch balqib turgan bu yigit, keyinchalik bilsam, Farhod Bobojonovning singlisiga uyланib, kuyov bo'libdi. Bundan xursand bo'lganimning boisi, Farhod o'zi, opasi, turmush o'rtog'i, singlisi, mana kuyovi ham ziyoli, fikrlovchi, hayotga tetik nigoh bilan boqadigan odamlar davrasini tuza olgani edi. Ko'z oldimga intilish va izlanishlari bir bo'lgan bunday odamlarning g'oyalar junbushga kelgan, fikrlar g'alayon qilgan qizg'in davralari keldi.

Farhod Bobojonov maqtoqli oila, maqtoqli ijod barpo qila oldi. U mening maqtoqli ukalarimdan biri. Farhod televideniye-da, badiiy ijodda, jamiyatda o'z o'rnini topdi, yetuk inson bo'lib shakllandi va tarixga kirdi. Shunday desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

*Nasiba Ibrohimova,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.*

FARHOD IJODIDAN BIR SHINGIL

O'zbekistonga qariyb chorak asr rahbarlik qilgan atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov 1973 yilning sentyabr oyida Surxondaryo viloyatiga safar qiladilar.

O'z xalqining hurmatiga, e'zozlashiga, faxrlanishiga sazovor bo'lgan inson uning ezgulik yo'lida qilayotgan ishlariga, odamlar qalbiga iltimoslariga quloq tutadi: – Sharof ota (ba'zida xalq ularni e'zozlar, ota deyishardi), el-yurt uchun qilayotgan xayrli ishlaringizning cheki yo'q. Rahmat sizga. O'zingiz ko'rdingiz, paxta yig'im-terimi avjida. Qani shularni televizorda ko'rsatishsa.

– Albatta ko'rsatamiz. Ustoz paxtakor Shoymardon Qudratov boshchiligida viloyat paxta dalalarida qirqta mexanizator qizlar paxta terishyapti. Ular har qancha maqtovg'a loyiq.

Dala shiyponlarida dam olish soatlari tashkil qilib, mashhur san'atkorlar paxtakorlar xizmatida bo'lishadi. Dehqonlar o'z mehnatlari haqida gapirishadi. Bularning barini televizor orqali ko'rasizlar.

Hali texnik imkoniyatlar unchalik rivojlanmagan davr. Surxondaryoga ko'chma televizion stansiya borguniga qadar, viloyat bo'yicha muxbir – tasvirchi Kim tomonidan 16 mm kinyonkada ovozsiz, oq-qora tasvirlar jo'natilib, unga dorilar bilan ishlov berilib, quritilib, montaj qilinib, efirga uzatilar edi.

Sharof Rashidov ko'rsatmalari asosida qisqa fursatlardan so'ng, ko'chma televizion stantsiyaning Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga bir oylik ijodiy safar uyushtirildi. 40 kishidan iborat bo'lgan texnik va ijodiy xodimlar jamoasiga meni rahbar qilib tayinlashdi. Barcha ko'rsatuvlarga boshlovchilik qilish esa xalq orasida tanilib qolgan, endigina 24 bahorni qarshilagan diktor Farhod Bobojonovga topshirildi.

Birinchi kun Jarqo'rg'on tumanining eng xushmanzara tabiati qo'ynida shiypondagi uchrashuvlar ko'rsatuvi yozib olindi. Teletomoshabinlar Farhodni olqishlar bilan qarshi olishdi. Har

kuni, kun ora televideniya chiqadigan insonning jonli timso-
lini ko'rish, qishloq ahli uchun kutilmagan voqealik, quvonch
edi. Farhodning o'ziga xos tabassum-la gapirishlari, she'rlar ay-
tib chiqishlari, har bir ko'rsatuvga joziba bag'ishlar edi. Yaxshi
xushxabar aloqa vositalarisiz ham qishloq odamlari orasida tez
tarqaydi.

Safarimizning dastlabki kunlaridan birida bir voqeaning
guvohi bo'ldim. Bularning bari hali-hanuz ko'z oldimdan nari
ketmaydi. Jarqo'rg'on tumanining biz joylashgan dam olish
uyi yonginasida tong otishi hamano tumonat odam yig'ilgan,
ko'pchilik yoshlar – maktab o'quvchilari. Uyqu aralash yuz-
qo'limni yuvib, ularning ro'parasiga chiqdim. Va o'zimni tanish-
tirdim.

– Anvar aka, sizdan iltimos. Farhod Bobojonovni bir ko'rib,
suhbatlarini eshitsak. She'r o'qib bersalar.

Biz bajonidil rozi bo'ldik va shu joyning o'zida, chamasi, ya-
rim soatlar samimiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Safar davomida paxta dalalarida, paxta terimida ishtirok
etayotgan terimchilar, mexanizatorlar, dehqonlar, bog'bonlar,
chorvadorlar bilan suhbatlar tasvirga olindi. Ishlab chiqarish kor-
xonalari, Denov yog' ekstraksiya zavodidan reportajlar olindi.

Farhoddagi muomala madaniyati, har bir ko'rsatuvga puxta
tayyorgarlik ko'rib, davraga chiqishi, javobgarlikni his qilishi,
odamlar bilan, jonli samimiy suhbatlari – barcha-barchasi obro'
olib keluvchi katta muvafaqqiyatlar, diktora uchun imtihon bo'ldi
desam mubolag'a bo'lmas.

Toshkentga, biz uchun muqaddas dargoh – televideniya
kelganimizda, bizni butun jamoa, rahbarlarimiz qarsaklar bilan
samimiy kutib olishdi. Olqishlar davomida rahbarlarimiz, diktora
Farhod Bobojonovning boshlovchilik qobiliyatiga alohida urg'u
berishdi.

Farhod men "Axborot"ga rahbarlik qilgan davrda, un-
dan keyin ham "Axborot" dasturini olib bordi. Mana oradan
qancha yillar o'tdi. Bizlardagi bir-birimizga bo'lgan hurmat,



mehr-oqibat, ijodiy rishtalar qattiq bog'langan ekanki, bir-birimizni o'sha davrning barcha ijodkorlari – quchoq ochib, kutib samimiy suhbatlar quramiz. Umr yo'llarimizni bir-bir xotirlaymiz, ana shunday daqiqalarda qalblarimizni jo'shqinlik va mahzunlik qamrab oladi.

Anvar Tojiyev, mehnat faxriysi

MEN SENI INJITMAYMAN...

Men televideniyeiga diktor bo'lib ishga kelganimda, chinakamiga xursand bo'lgan odamlardan biri Farhod aka Bobojonov bo'lsa kerak. Harqalay, menga shunday tuyuldi. Chunki u darhol meni yoniga olib, katta-kichik beminnat maslahatlari bilan, "aka"ligini boshlab yuborgani esimda. Ko'rsatuvlarni qanday qilib tanlash, qaysi korxona va tashkilotlar taklifini qabul qilish va hamkorlik qilish haqidagi xolisona maslahatlari o'shanda menga juda asqotgan. O'zi bilan birga, Jizzax, Samarqand viloyatlarga olib borgani, u yerdagi turli uchrashuvlarga guvohlik qilgani kechagiday yodimda. Meni katta, jo'shqin ijodga yetaklab, televideniyeining torgina studiyalaridan chiqib, qamrovi keng davralarga ilhomlantirgan ham shu Farhod aka bo'ladi. Uzoq safar yo'llarida odamlar bilan muomalasi, qiyinchilik va to'siqlarni yengishdagi usul va choralari menga saboq bo'lgani aniq. Qachon bir maslahat yoki yo'l-yo'riq so'raganimda ikkilanganini, galga solganini bilmayman.

Keyin bo'lsa men u tashlagan suvda o'zim suzib ketdim. Yoshlar tashkilotlari, respublika gazetalari bilan ijodiy hamkorlik, uchrashuv va tadbirlar yukini yelkama-yelka tortib ketdik. Bu ishlar paytida men "nima gapiraman" deb o'tirmas, ssenariy matnlarini yozishga o'zim kirishib ketaverar edim. Bu o'sha paytdagi elkadosh va hamfikrlarimga qanday qo'l kelgan bo'lsa, orqavarotdan ularni eshitib yurgan Farhod akaning ma'qullashlariga ham sabab bo'lgandi. "Muslimbek, mana bu-



naqa kirishib ketavering, hozirjavob bo'ling, shunda odamlarning o'zi sizni qidirib kelishadi", dedilar.

Xuddi shu singari maslahat, o'git va ko'rsatmalarni institutda Lola Xo'jaeva ham qulog'imga quyib, siyratimga singdirgan edi. "Aktor hamma vaqt tayyor turishi kerak. Har bir mavzu, har bir voqea, hodisa va sanalarga ishlata oladigan "materiallari" shay turishi kerak derdilar. Farhod akam xuddi shunday yo'l ko'rsatdi. Institutda berilgan saboqni tajribada, bevosita ijod maydonida yana bir bor tasdiqlab qo'ydi.

Televideniya birga ishlagan kunlarimizda ko'p vaqtni birga gaplashib, safarlar va ishlarning borishi haqida suhbatlar bilan o'tkazardik. Mana shunday fikr almashuvlarning birida: "Muslimbek, sizning qalamingiz bor, ijodkorsiz, shu yo'lni ham barobar olib ketavering. Yozavering, o'xshasa-o'xshamasa, kerak bo'lsa-bo'lmasa yozavering. Buning o'zi bir san'at. Diktorligingiz unutilib ketishi mumkin. Ammo yozilgan narsalar qoladi. Muslimbek Yo'ldoshevdan qoladigan narsalar o'shalar bo'ladi", deb aytganlari esimdan chiqmaydi.

Aslida bu gaplari ham men uchun yangilik emasdi. Rahmatli O'ktam Jobirov ham xuddi shunday, aynan mana shu so'zlarning o'zi bilan pandu nasihat qilgan edilar. "Mulla, mana biz umrni o'tkazib yubordik. Ilmga taklif qilishganida, dissertatsiyalar mavzulari bilan, beminnat ilmiy rahbarlar kutib turganidayam bormaganman, ishimizni qizg'onib. Lekin o'sha yo'lda ham kattagina muvaffaqiyatlar kutib turgan ekan, keyin bilsam. Endi sizlar adashmanglar. Yozing, kitoblar chiqaring, o'shalar qoladi aslida odamdan. Diktorligimiz o'tib ketadi", – degan edilar ustoz.

Ammo Farhod akaning aytgan gapi yangilik bo'lmasa ham, menga yaxshigina dalda bo'lgani aniq. Chunki yigirma kishilik jamoada shu ikkala ustozdan boshqa hech kim menga bu maslahatni bergani yo'q. Aksincha, gazeta-jurnallarda she'rlarim, maqolalarim yoki suhbatlarim chiqqan paytlarda ham buni sezmaganlikka olishdi. Lekin Farhod aka va O'ktam akalar doimo



nazorat qilib, yangi ijodlarga ruhlantirib turishardi. Va albatta mana shunday madadkorlik yoshlarga har doim ham o'zining ijodiy ta'sirini o'tkazadi. Men ham mana shu salaflarning qanoti ostida o'zimni sal erkin qo'rganman.

Farhod aka boshqa hamkasblarimizdan farqli o'laroq smenada ishlagan paytlarimizda, har xil bo'lar-bo'lmas gaplar, latifalardan valaqlashib o'tirish o'rniga foydali, biron-bir naf chiqadigan mavzulardan gaplashib o'tirardilar. Bu umuman adabiyot bo'ladimi, she'riyat bo'ladimi yoinki o'zimizning diktorialik ishimiz bo'ladimi, kuyinib, katta qiziqish bilan gapirardilar. Tojikistonda yashab o'tgan buyuk bir so'z ustasining dovrug'i, bir ulug' shoir o'z o'limidan oldin o'sha so'z ustasi uning dafn marosimida qabri boshida she'r o'qib turishini vasiyat qilganini ulardan eshitganman. Xalqimizning ulug' adiblari Turob To'la bilan Hamid G'ulomlar ham radio diktorligidan ish boshlashganini, o'z davrining yetuk diktorlari bo'lishganini ham menga Farhod aka gapirib berganlar.

Farhod akaning boshqa diktorlardan farq qiladigan yana bir jihati uning mehnatkashligida. Hech tinmaydi, deng. Hali qarasang, imorat soladilar, hali ko'rsang, viloyatlarga safarga chiqib qoladi. Bir qarasang, "Bir aktyor teatri" ruknida she'rxonlik qilib qoladilar. Bir qarasang, dala shiyporida reportaj ustida. Allaqanday ko'rsatuvlarda she'rlar o'qib qoladilar. Ularning bu tinib-tinchimasligi menga ham yuqqan. O'z-o'zimdanda men ham "Bir aktyor teatri" ustida ish boshlab qolaman. O'sha kezlarda o'zim osmonlarda yuraman – mavzu, mualliflarim ham osmon! Pushkin she'rlaridan boshlabman birinchi televizion she'rxonligimni. Keyin Hamid Olimjon she'riyatiga qo'l urdim. "Baxtlar vodiysi" deb nomladim uni va o'sha baxtlar vodiysining eng baxtli diktoriday maza qilib, rohatlanib o'qidim. Navbat Abdulla Oripov she'riyatiga kelganida, meni shu ishlarga ilhomlantirgan Farhod aka "Muslimbek, endi hajmini kattalashtiramiz. Men ham siz bilan birgalashib she'r o'qiyman. Iloji bo'lsa yana bir qizni ham yonimizga olishimiz kerak", dedi-

lar. Bu taklif menga ma'qul bo'ldi. Albatta, bu endi bir aktyor teatri emas edi. Ammo abadiy kompozitsiyada bir guruh aktyorlarning chiqishlarida ham go'sht bor-ku. O'shanda safimizga endigina qo'shilib kelayotgan diktorlarimizdan Mavluda Ahmedovani taklif qilib "Oftob o'lkasidan kuladi quyosh" nomi bilan adabiy-badiiy kompozitsiyamiz jonli efirga uzatilgan edi. Xronometraj o'ttiz daqiqa!!! Ssenariy muallifi o'zim.

Farhod aka bilan bir sahnada, bir ko'rsatuvda she'r o'qish menga katta dars bo'lgan. Efirdagi ko'rsatuv o'ttiz daqiqada o'tib ketdi. Ammo unga tayyorgarlik jarayonida qanchadan-qancha narsalar o'zlashtirdim. Mana, shunday darslarning biri:

"She'riyat shunday narsaki, uning o'zi o'n sakkiz ming olamlik bir borliq. Shunday she'rlar bo'ladiki, hayqirib, bor ovoz bilan o'qish kerak. Shundaylari borki, yaqin atrofingizdagilar eshitadigan qilib o'qiysiz. Ammo shunday she'rlar bo'ladiki, ularni shivirlab, go'yoki sevgilingizning qulog'iga aytayotganday qilib o'qish kerak. Mana, masalan:

*Men seni injitmayman
Va lekin tinchitmayman.
Charx urib, bo'z to'rg'ayday
Bo'zlashim bor boshingda
Ey, sochlaring to'qlini
Tun singari sim-siyoh,
Xol kabi paydo bo'lgum
Yonog'ingda yo qoshingda,
Ey, izlaring g'ubori
Ko'zlarimga to'tiyo...*

(Mirtemir)

Bunaqangi misralarni baland ovozda o'qib bo'lmaydi-da! Shunday qilinsa ular butun shirasini, ranginligini yo'qotadi.



Agar, shoirlaridan so'rasangizu ular ham sizga ochig'ini aytadigan bo'lsa, bunaqangi she'rlarni ularning o'zlari ham pichirlab aytib turib yozgan bo'lib chiqadilar".

She'riyatni mendan ko'ra ko'proq bilishlariga kelsak, Farhod aka qachon qarasang yozuvchilar uyushmalarida, uchrashuvlar va she'rxonlik davralarida yuradilar. Bir kun qarasang Abdulla Oripov, ertasiga Erkin Vohidov bilan, yana bir qarasang Rauf Parfi davrasida. Mirtemir, Asqad Muxtor ijodini yaxshi ko'rardilar. She'riyat olamidan sipqorardilar ilhom bodasini.

O'zlari Xorazm taraflardan bo'lishlariga qaramay, alohida sezilib turadigan mahalliy shevalarini shunchalik charxlab, adabiy tilda gapirish hadisini o'zlashtirgan edilarki, men anchagacha buni bilmay yurgan ekanman. Aslida millionlab tomoshabinlar orasida kuchli tilshunos mutaxassislargina buni bilishlari mumkin edi. Bu ham ularning o'z ustilarida tinimsiz beto'xtov ishlashlari mevasidir.

Jamoamizga qo'shilgan yangi-yangi diktorga tez orada kirishib ketishar, kim-kimni "siz"lab, kim kimni "sen"lashga o'tib ketishardi. Ammo Farhod aka bironta odamni sensiraganini hayotimda eshitmaganman. Kattani ham, kichikni ham, ayolni ham erkaklarni ham birday sizlab gapiradilar. Bu qachon ularning fikratlariga singib ketgan, nima uchun monolitday qotgan bu aqidalarini beixtiyor, adashib ketib ham buzib yubormaydilar? Mana, o'ttiz yildan ortiq muddat – eshitganim faqat "siz". Qoyil qolish kerak.

Farhod aka izlanuvchan ijodkor. Ham diktorga sifatida, ham bi-diiy so'z ustasi sifatida, keyinchalik esa ko'rsatuv muallifi sifatida ham yangi-yangi g'oyalar bilan yuradilar.

1994 yillarda qandaydir sabablar bilan bosh direktor o'rinbosari lavozimiga tayinlandilar. O'sha yillarda nafaqat o'zi uchun, balki barcha yosh ijodkorlar uchun ham ijodiy qulay imkoniyatlar yaratish yo'lida jonbozlik ko'rsatdilar.

Farhod aka diktorgalarimiz tarixida mukofotlangan beshinchi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist. U chinakamiga artist



bo'lib, asli diplomdagi mutaxassisligi ham teatr va kino aktyori. Ammo shunga qaramay, yangi g'oyalar topishda, qalam tebratib, ssenariylar yozish borasida ham o'zini chegaralab o'tirmaydi.

90-yillarda "O'zanini topar daryolar", "Ochun", "Maktub ko'ngil oynasi", "Bir o'lkaki..." degan mualliflik ko'rsatuvlari dunyo yuzini ko'rganida men juda ham quvondim. Chunki kelib-ketuvchi "gastrolchi" rahbarlar tashabbusi bilan bir necha malakali diktorlarimiz diktorlar guruhidan boshqa tahririyatlarga o'tkazib yuborilganida, ularning orasida Farhod aka ham bor edi. U o'zini yo'qotib qo'ymadi o'shanda. Nasiba Maqsudova ham, Farhod Bobojonov ham tezgina tahririyatlariga aralashib ketib, o'zlarining o'rinlarini topib olishdi. Ehtimol, avvalgidan ham ko'ra qaynoqroq ijod bag'riga otishdi o'zlarini. Ba'zida atrofda bo'layotgan ishlarni ko'rib hayron qolasan kishi. Yosh, kuchga to'lgan odamlar shunaqangi holatlarga tushib qolganlarida, o'zlarini dunyodagi eng baxtsiz odam hisoblab, bor hafsalarini bir yoqlik bo'ladi-da, to'nib, o'zlari bilan ovora bo'lib qolishadi. Ammo bu hol Farhod aka uchun yot narsa edi-da.

Bepoyon respublikamizning turli burchaklaridagi yurtdoshlarimiz, ularning o'y-xayollari, kundalik tashvishlari-yu, buyuk orzulari bo'ldi Farhod akaning qiziqishlari. Va bizlar millionlab o'zbekistonliklar ham bu ko'rsatuvlarni jon dilimiz bilan tomosha qildik. Mana kuch-g'ayrat qayerda. Mening o'zim ham shu ustozning izlaridan borib, bir qancha turkumda mualliflik ko'rsatuvlari tayyorlaganman va buni siz aziz tomoshabinlarim yaxshi bilasiz. Birgina "Egiz qo'shiqlar" ko'rsatuvining o'ziyoq yuz martadan ortiq efir yuzini ko'rgan. Ko'rsatuv tayyorlash nima ekanligi, uning mashaqqatli barcha jarayonlarini boshdan kechirgan odam sifatida aytishim mumkinki, Farhod akamdagi energiyaning kuchi va quvvatiga qoyil qolish mumkin, xolos.

Televideniye ko'rsatuvlarining aksariyatida bitta ko'rsatuv uchun bir qancha mutaxassislar ishlashadi. Rejissyor, uning yordamchisi, muharrir, ma'mur, boshlovchi, tasvirchilar, chiroq ustalari, dekoratorlar, pardozechilar... Ammo diktorlar ko'rsatuv



tayyorlashganida asosan hamma yukni o'z zimmalariga olishadi va bitta operator va birgina chiroq ustasining o'zi bilan ko'rsatuv tayyorlab ketaverishadi. Bu ularning ijodiy jarayonlaridagi kuzatuvchanliklari, chiniqib ketganlarining belgisi. Farhod Bobojonov ham aynan mana shunaqa toifadagi mualliflardan. Diktorlarimiz orasida o'zi turkum ko'rsatuvlar tayyorlab efirga uzatadiganlari bir qo'l barmoqlari bilan sanarli. Farhod aka ana o'sha noyob diktorlarning biri.

Endi bo'lsa, diktorlar guruhi "Zada bo'lgan qushlar singari har tarafga potrab ketishgan". Ko'rishib qolamiz ba'zida. Oradan bir necha oylar, hatto yillar o'tib ketgan bo'ladi. Ammo har safar yuzimiz yorug'ligicha ro'para bo'lamiz bir-birimizga. Chunki o'rtamizda nima o'tgan bo'lsa, faqat yaxshilik va samimiylikdan iborat bo'lgan. Biron marta talashib tortishmabmiz, ijodiy jarayonlarni hisobga olmaganda. Xafalashmabmiz, bir-birimizni izlab o'pkalashlarni aytmasa. Ular mening xonadonimda bo'lgan tadbirlarda ishtirok etadilar. Men ham ularning farzandlarining orzu-havasli hashamlarida bo'lganman, xizmat qilganman, non-tuz ichganman.

Ularning bebaho maslahatlarining qarzini qanday uzaman, deb o'ylab qolaman ba'zida. Bunday o'ygga kelishimning sababi esa juda ham oson. Hayotda shunday bo'ladiki, otang, akang, eng yaqin qarindoshing berishi kerak bo'lgan maslahatlarni ba'zida chetdan olasan. Shunda o'ylab qolasan: shu to'g'ri maslahatmikin? Shu yo'ldan borsammikin? Axir yaqinlarim bunday maslahat berishmadi-ku? Lekin o'zi mantiqiy fikr yurita oladigan odam, jiddiyroq mushohada qilsa, qaysi maslahat to'g'riyu qaysinisini e'tiborsiz qoldirsa bo'ladi, ajratib oladi. Farhod akam ham doim jo'yali, to'g'li maslahatlar berganlar. "Muslimbek, mashina olmaysizmi?" deb so'radilar bir kuni. "E, qayoqda, Farhod aka, pul yo'q-ku", dedim. "Pul bo'lmasa qarzga olish kerak. Bo'lmasa, pul to'plab keyin olaman, deguningizcha sochingizga oq tushib ketgan bo'ladi. Qarzga oladigan bo'lsangiz, tezroq qarzimni uzay, deysizu, topgan-tutganingizni tugib, qarzingiz



evaziga to'lashga harakat qilasiz va mashinalik bo'lib qolasiz"... Farhod aka menga shuni aytib, mana shu fikr to'g'ri ekanligiga ishonтира oldi va mening dilimda "men mashinalik bo'ldim", degan bir ustun paydo bo'ldi. Buni qarangki, xuddi mana shu suhbatimizni kutib turgandek, hech qancha vaqt o'tmay, shunaqa taklif ham chiqib qoldi! Uch yil muddatda hamma pulini to'lab berish sharti bilan, deyarli yangi Jiguli rusumli "03" mashinali bo'lib oldim. Lekin qarzimdan ilgari kelishilganidek uch emas, ikki yilda qutulib ketdim. Farhod aka dilimga solgan ishonch tufayli birinchi mashinamni shunaqa qilib olganman. Kezi kelsa bunaqangi maslahat pul turishini ham ta'kidlab o'tsa bo'ladi. Axir, hozir har qanday savolingiz uchun maslahatxonalarda pul to'laysiz-ku. Ammo Farhod aka qadamida bu singari maslahatlarini bepul tarqatib yuraveradi.

Menga ularning mana shu xislatlari ham o'tgan. Hozir ularni sanashning o'рни emas. Qilgan ishlarimni minnat qilgandek bo'lib qolishi mumkin. Lekin kimga nima yaxshilik qilgan bo'lsam, bunda bevosita Farhod akaning ham hissasi bor.

Menga shuncha marotaba "yozing, yozing" degan Farhod akaning o'zi shu kungacha bitta kitob qoralab qo'ymaganiga hayron bo'lib, men ham ularni shu ishga undadim. Menga aytgan gaplarini o'zlariga aytdim. Shoyadki shu "niqtov"larim sabab ajoyib xotiralar bitilgan bir kitob dunyo yuzini ko'rib qolsa.

Farhod aka serfarzand odam. Nevaralari ham bir etak. Shu sababli topganlarini uyga tashiydilar. Farzandlarning kamoli, bekamu-ko'st ulg'ayishini orzu qilgan odam shunaqa bo'lishi kerak. Imoratlar solib, hammalariga boshpana qilish bilan ovoralar. Sho'xchan davralardan qochmaydi, "ochilib" qolsalar bir hazilnamo raqslarga tushib qoladilar. Yarim xorazmcha, yarim to'qima! Otashin satrlarni baland ovozlariida o'qib qoladilar! Atrofidagi hamma odamlar bilan do'stona munosabat qoidalariga amal qiladilar. Xullas, o'sha Mirtemir so'zi bilan aytadigan bo'lsak:



Mayli, hansirab qolay,
Imillamayin lekin,
Ketda qolmoqning o'zi
Yuz o'limdan yomonroq.
Halol non oshab yashay,
Bir ushoq yemay tekin,
Mehnatkash yurt oldida
Yuzim bo'lsin doim oq...

Farhod akaning rejaları ko'p, qiladigan ishlarining ro'yxati uzun. Katta-katta ishlarning azmoyishini olib o'rgangan. Biz, do'stlarning va muxlislarning birdan-bir tilagimiz, aslo char-chamang, ijoddan to'xtamang.

"Qadriyat" gazetasi 2012 yil 29 sentyabr.

Muslimbek YO'LDOSHEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

MA'NAVIYAT GULSHANINING YORQIN VAKILI

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, "Do'stlik" ordeni sohibi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq artisti, "Oltin qalam" milliy mukofotining sovrindori Farhod Bobojonov hayotining ayrim jihatlarini to'g'risida falsafiy chizgilar.

Odatda biron-bir taniqli inson haqida gapirish yoki yozish uchun kishi ko'p xayolga toladi. Bu insonni salkam qirq yildan beri bilganligim, qolaversa, qadrdonim, qarindoshim va hamkasbim bo'lgani uchun xayolimdan nimalar o'tsa shularni yozishga jazm etdim. Farhod Bobojonov – bu nomni mamlakatimizning barcha go'shalarida juda yaxshi biladilar, eslaydilar va bugun ham o'zining eng yaqin zamondoshi hamda

vatandoshi sifatida sevadilar. Mening nazarimda bu fikr ham kamlik qiladi. Chunki Farhod akani yon qo'shnimiz Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi qardosh respublikalarda ham katta hurmat va ehtirom bilan kutib olganliklarining guvohi bo'lganman. Ma'lumki, bu qardosh respublikalarda ham millionlab o'zbeklar istiqomat qiladilar. O'sha qardosh respublikalardagi qozog'u qirg'iz, tojigu turkman ham Farhod Bobojonovni o'zining Farhodi, o'zining farzandi, o'zining jigargo'shasi sifatida ko'radilar.

Farhod aka asli Xorazm diyorida. U kishi o'z faoliyatining ma'lum bir davrini Xorazm ma'naviy-madaniy merosini o'rganishga va uni targ'ib qilishga bag'ishlab kelmoqda. Shu o'rinda qoraqalpoq diyorida mustaqillik yillarida olib borilayotgan islohotlarni targ'ibu tashviq qilishda ham Farhod akaning xizmatlari beqiyos. Xususan, aziz teletomoshabinlarimiz tomonidan katta hurmat va ehtirom bilan kutib olingan va olinayotgan "Bir o'lkaki...", "O'zanini topar daryolar", "Ochun" va boshqa o'nlab ko'rsatuvlarning mazmun-mohiyati Xorazm va Qoraqalpoq diyoridagi milliy-ma'naviy merosni xalqimiz oldida yanada kengroq targ'ib etishga qaratilgan.

Farhod akaning diplomida oliy ma'lumotli aktyor ekanligi ta'kidlangan. Biroq men rasmiy hujjatlarda e'tirof etilgan mutaxassislikdan tashqari Farhod aka timsolida ajoyib jurnalist, nuktadon diktor, zargarona so'zga ega bo'lgan notiq xislatlarini ham ko'rganman. Oddiy qilib aytganda, Farhod aka o'zi ham juda yaxshi gapiradi, birovni ham chiroyli so'zlata oladi. U kishini gohida Zomin tog'larida, ba'zida esa Orol sohillarida, yana bir qarasangiz Boysunning byetakror manzaralari bag'rida ko'rish mumkin. Farhod aka tayyorlagan ko'rsatuvlarda chuqur ma'no bor.

1

U xalqimizning hayoti, o'tmishi, buguni va kelajagi bilan chambarchas bog'liqdir.



Albatta, Farhod Bobojonovning ijodiy faoliyati haqida hali yana to'xtalib o'tamiz. Men shu o'rinda bu insonning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasiga ham ayrim chizgilar bermoqchi edim. Zero, bu masalani yoritish uchun menda ma'naviy va insoniylik zarurati bor deb o'ylayman.

Chunki Farhod Bobojonov mening nafaqat qadrdon ustozim, hamkasbim, to'g'ri yo'lga boshlovchim, balki eng sevgan va eng hurmat qilgan qayinog'am hamdir. U kishining otalari Bobojon Rahimberganov (Olloh rahmat etgan bo'lsin) haqida ko'pgina yaxshi gaplarni eshitganman. Avvalo, bu fikrlar rafiqamdan, umrlari uzoq bo'lsin hozir 90 yoshdan oshib qolgan qaynonamdan eshitganman. 1973 yilning 5 noyabr kuni Bobojon otani ko'rishga, u kishining qo'lini olishga va duolarini qabul qilishga muyassar bo'lganman. O'sha kuni bo'lajak rafiqam Gulandon Rahimberganovanning yuklarini ko'tarib yuborish uchun (biz paxta terimidan qaytib kelayotgan edik) ularning Kattabog' ko'chasi, Atirgul muyulishidagi 50 "A" uyga kirdim. Shu chog' bir nuroniy otaxon, ya'ni Bobojon ota samimiy kutib oldilar, rahmat aytib, duo qildilar. Keyinchalik bu inson haqida yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lganman. Xususan, Bobojon ota Rahimberganov qariyb 50 yil Xorazm vohasida o'qituvchilik qilganligi, ajoyib adabiyotshunos bo'lganligi, ularning uylarida navoiyxonlik muntazam o'tkazib kelinganligi va hatto yetuk insonlar bilan birgalikda she'rxonlik qilinganligi hamda qo'shiqlar aytilganligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ldim. Bobojon ota urushdan avvalgi va keyingi yillarda o'zi rahbar bo'lgan maktab o'quvchilari uchun daftar, qalam, kitob, siyohdon va boshqa anjomlarni baholi qudrat sotib olib, o'quvchilarga tarqatganligi to'g'risida ko'p bor eshitganman.

Aslida Bobojon ota Rahimberganov haqida eshitganim, rasmlarda ko'rganim o'zi bir kitob bo'ladi. Bu inson haqida shunday his-hayajonga berilib yozishimning sababi u kishining ilmga tashnaligi, bilimdon va ma'rifatparvar bo'lganligidir. Shu bois Bobojon otaning farzandlari ham ilmi, ma'rifatli, xalq sevgan

inson bo'lib yetishdilar. So'zsiz bularning ichida Farhod Bobojonov alohida o'ringa va mavqega egadir.

Farhod aka barchaga yaxshilik qilishga intiladi, uning g'oyasi ham shu – yaxshilik va yana yaxshilik! Kimnidir kasalxonaga yotqizish, o'qishiga yordam berib yuborish, kimningdir she'rini yoki maqolasini matbuotda chiqarishga ko'maklashish va hakoza... Lekin Farhod aka kimga yaxshilik qilmasin, hech qachon bularni eslamaydi, ta'ma ham qilmaydi. Masalan, mening o'zimga ham bir marta emas, ko'p bor yaxshilik qilganligining guvohi bo'lganman. O'tgan asrning 80-yillari boshlarida hozirgi O'zbekiston Milliy universitetida tarix fanidan saboq berar edim.

2

Kunlardan birida Farhod akaga televideniye orqali namoyish qilinayotgan "Bugun olamda nima gap?" nomli ko'rsatuvga katta havasmand ekanligimni bildirdim. U kishi agar shunday ko'rsatuvni olib bormoqchi bo'lsangiz yordam beraman dedilar. Tez orada ustoz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Tursunboy Qoratoyev bilan tanishtirdilar. Aynan ustoz Tursunboy akaning ko'magida dastlabki chiqishimiz, aniqrog'i, birinchi sinov, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Ubay Burhon tomonidan qabul qilindi. Shu tariqa Farhod akaning tavsiyalari, maslahatlari va yo'l-yo'riqlari sababli dastlabki sinovdan muvaffaqiyatli o'tganman.

Yana bir voqeani eslash muhim. Taqdir taqozosi bilan 80-yillar boshlarida oilamizda uy-joy muammosi kelib chiqdi. Akalarimning ham farzandlari ko'p, menda ham u kezlari ikki farzand bor edi. Shu bois bir oz muddat ijara haqi to'lab, oilam bilan birovning uyida istiqomat qilishga majbur bo'lganman. U kunlarni hozir eslasam hatto tunlari sakrab uyg'onib ketaman va Xudoga behisob shukurlar qilaman – bugun o'zimning uyim, o'zimning go'sham, o'zimning farzandu nevaralarimning qurshovida baxtiyorman. Bunda ham aslida Farhod aka Bobojonovning hissasi beqiyos. Voqeani qisqacha izohlayman. 1981 yilning yozida hozirgi



O'zbekiston Milliy universitetining kasaba qo'mitasi men kabi yosh muallimlarga uy-joy ajratdi. Kamina oilasiga turar joyning to'qqizinchi qavatidan 2 xonali kvartira ajratildi. Men esa hozircha to'qqizinchi qavatdan uy olmay turganim ma'qul, kelajakda olarman, deb o'yladim. U kezlari yana uy olish xomxayoldan boshqa narsa emas edi. Farhod akaga to'qqizinchi qavatdan uy berishyapti, olaymi deb mujmallik qildim. Shunda qadrdonim qisqa va lo'nda so'z qo'lladi: "Qobilbek, to'qqizinchi qavatdan uy olmasangiz, qayerda yashamoqchisiz?". Ana shu gapning o'zi men uchun katta hayot maktabi, 50 jildga arziydigan kitob bo'ldi. Aynan Farhod aka sababli uylik bo'lib, vatanga ega bo'ldim.

Men Farhod Bobojonov haqida xayolimdan o'tayotgan narsalarni yozar ekanman, ko'proq mavzu atrofida, ya'ni aynan Farhod aka timsolini, uning fenomenini yoritishga harakat qilaman. Tashqaridan kuzatgan odam Farhod akani ajoyib diktor, jurnalist va ijodkor sifatida biladi. Biroq kamdan kam odam uning quruvchilik sohasida ham katta mahorati borligidan xabardor. Bir qarasangiz Farhod aka timsolida g'isht terayotgan, yana bir qarasangiz uyiga isitish moslamasi (pechka) qurayotgan, yana bir qarasangiz devoru shiftlarga chiroyli jilo berayotgan ustani ko'rishingiz mumkin. Uning xonadonida doimo 4-5 qo'yni, parandalarni, ba'zi-bazida sog'in sigirni ko'rish mumkin. Men iste'mol qilgan eng shirin non bu rahmatli onam o'zimizning tandirimizda yopib bergan piyozli nondir. Shunday nonni Farhod akaning xonadonida kuyovto'ra sifatida bir necha bor iste'mol qilganman.

3

Farhod aka Bobojonov dastlab radioning "Yoshlik" studiyasida boshlovchilik qilganligi hali-hali yodimda. U kezlari Farhod aka menga qadrdon emas edi. Men u kishiga efir orqali mehr qo'yanman va taniganman. O'tgan asrning 60-yillari oxirlarida Farhod aka televideniye orqali diktor sifatida tanila boshladi. Tez



orada "Axborot" ko'rsatuvining eng faol boshlovchilari qatorida bo'lgan O'ktam Jobirov (Xudo rahmat qilsin), Nasiba Qambarova, Nasiba Ibrohimova, Davron Zunnunov (Xudo rahmat qilsin), Galina Vitalevna Melnikova kabi mashhur diktorlar safidan joy oldi. Albatta, Farhod akani xalqimiz juda-juda sevadi. Shu bilan birga uni eng qadrlaydigan, suyardigan, alqaydiganlari birinchi galda uning yaqinlari va qarindoshlaridir. Shu jumladan mening oilam ham. Men Farhod aka Bobojonovning farzandlarimga tog'a ekanligidan doimo g'ururlanganman. Farhod aka farzandlarim uchun nafaqat tog'a, shu bilan birga ma'naviy suyanchiqdir.

Ancha yillar bo'lib ketdi. Rahmatli dadam To'xtabek ota Karimbekov qayinog'am Farhod Bobojonovni qattiq yaxshi ko'rar edi. U kishini ko'rgani borsam, "kecha qayinog'ang chiqdi, rosa gapirdi, zo'r she'r yodlar ekan" der edilar. Soddadil dadam urush nogironi edilar va televideniye orqali chiqib, ajoyib she'r yodlagan yoki gapirgan insonlarni hamisha hurmat bilan tilga olar edilar. Kunlardan birida otam bilan suhbatlashar ekanman, "Farhodjon ajoyib lektor ekan, kecha chamasi bir soat gapirdi" deb u kishini ulug'lagani hali-hali yodimda.

Ta'kidlaganimdek, ijod yo'lida tolmay mehnat qilayotgan Farhod Bobojonov haqida bir necha risolalarga sig'adigan fikrlarni bayon qilish mumkin. Mening nazarimda Farhod aka Bobojonov bugunning zabardast ijodkoridir. Bu zabardastlik uning vujudidan joy olgan, ertangi kun g'oyalari bilan yashash, ezgulikka va yangilikka intilish, oddiyoq qilib aytganda, Vatanga sidqidildan xizmat qilish rejalari bilan chambarchas bog'liq.

Nima ham derdik?! Ijod yo'lida, izlanish yo'lida, yaxshilik va ezgulik yo'lida toliqmang, Farhod aka!

Qobilbek Karimbekov,

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining siyosiy sharhlovchisi, "Shuhrat" medali sohibi, Xalqaro ANTIQUE WORLD (Antik Dunyo) Ilmiy Akademiyasining akademigi, xalq ta'limi a'lochisi

"Guliston" jurnali, №3. 2012 yil



BIZNING DIKTOR

Farhod Bobojonov O'zbekistonimizning eng xushsuxan so'z san'ati donishmandlaridan biri. Undagi so'zga ustalik, go'zal so'zlik, chuqur bilimdonlik, qadimiy Xivaning mashhur Gandumiyon (Gandumkon) qishlog'ida istiqomat qilib, umr bo'yi ilm chiroqlarini yoqib yashagan maxdumzoda bobolaridan merosdir.

U efirga chiqib so'zlar ekan, har bir so'z harflaridagi jarangni, so'z ifodasidagi ma'no gavharini yuragiga, jismi-joniga jo etib gapiradi. Shu boisdan uni tinglamaslik mumkin emas.

Farhod so'z – tasvir vositalari ichra eng qudratli qurol ekani ni yaxshi biladi. U ana shu o'tkir qurol sohibidir.

So'z san'atini egallash – bu jamiyat taraqqiyotida so'zning rolini yuksakka ko'tarish, yetti qat osmon martabasiga ega bo'lish, Olloh ne'matiga sazovorlik deganidir. Bizning diktora ana shu voizlik san'ati shohsupasiga chiqib olguncha, ilmning qanchadan-qancha chag'ir toshli so'qmoqlarini bosib o'tdi. U ko'z ochib, ziyoli oila bag'rida kitobni, qalam va qog'oz hidining xushbo'yliklarini tuyib o'sdi.

Farhodning xotira osmoni shu qadar keng va musaffoki, u yuzlab she'rlarni yod biladi. Efirga berilayotgan kundalik ko'rsatuvlarning matni o'n-o'n besh bet bo'lishiga qaramay, osonlikcha xotira oynasiga joylab oladi. Ko'rsatuv muallifi g'oyasini teletomoshabinlarga chiroyli va ohista ohangda so'zlab yetkaza oladi. Rejissyor tafakkuridagi nafis suratlar tanlash silsilasini, ko'rsatuv uslubiyatining barcha ranglarini tez ilg'ab oladi. Eng muhimi, to'g'ridan-to'g'ri efir chog'ida oldida xizmat etib turgan teleoperatorlar ko'z ishoralarini, efirda turgan kamera chiroqlarini tez ta'blik bilan his yetib, diktorlik qiladi. Ko'rsatuvga kelgan ishtirokchilarni ustalik bilan suhbatga tortadi. Uning har bir so'zini tinglab, suhbatdoshga o'rinli savollar beradi, a'lo darajada g'oyaviy maqsadlarga yerishib, suhbat doirasidan chiqadi.

Ikkinchi suhbatdoshiga yuzlanib, fikrini davom ettiradi. Televideniye inson tafakkurining gultoji ekan, uning diktora bo'lish juda qiyin jarayon.



Men Farhodning shoirona kayfiyat hukmron bo'lgan talabalik yillaridan bilaman. U bilan O'zbekiston televideniyesida yigirma yilcha birga ishladim. Deyarli barcha turkum ko'rsatuvlarni Farhod Bobojonov olib borgan: "Shiypondagi uchrashuvlar" (qishloq mehnatkashlari huzurida bo'lar edi), "Do'st bilan obod uying", (Tomoshabinli ko'rsatuv. Har millatning qadimiy noyob urf-odatlarini qayta tiklashga bag'ishlangan), o'nlab shoirlar she'rlaridan saralangan badiiy kompozitsiyalar, O'zbekiston Xalq hofizlarining tomoshabinlar bilan savol-javob muloqoti uslubida olib borilgan qator "Musiqiy uchrashuvlar", "Yangi yil bazmi" (O'n soatlik bayram tantanalari), nihoyat "Bir o'lkaki..." ko'rsatuvi dovrug'ida Farhod Bobojonovning nafis diktorlik iqtidorining go'zal ranglari bor.

U to'g'ridan-to'g'ri efigra beriladigan ko'rsatuvlarga, video-zapislarga puxta tayyorgarlik bilan orasta kiyingan holda, ko'tarinki ruh, tabassum bilan kelar edi. Bu, albatta, sharqona kelinlarga xos mehribonlik va odob – ikromni egallagan, saranjom-sarishta, ajoyib telejurnalist Shoiraxon tufayli ekanini bilar edim. Farhod dilkash umr yo'ldoshi bor, serfarzand, tinch, osuda oilaning baxtiyor otaxonidir.

Men O'zbekiston televideniyesi musiqali ko'rsatuvlar bosh tahririyatida oldin katta muharrir, keyinchalik bo'lim mudiri bo'lib faoliyat olib borarkanman, uch nafar talant sohibiga tayanib ishlardim. Bu afsonaviy rejissyorlar: Qo'zijon Hakimov va Larisa Inozemtsovalar bo'lsa, yana biri tengsiz diktor Farhod Bobojonovdir.

Biz televideniye oltin merosiga 15 ta videofilmni ishlab berganmiz.

Bugungi diktorlar Farhod Bobojonov iqtidoridagi xotira kengligini avaylab-asrash, diktorlik mulkingi sohibi bo'lmish sharqona odob-ikrom, hamkasblarga nisbatan cheksiz sadoqatni o'rganishlarini istayman.

*Anbara Otamurodova,
faxriy telejurnalist*



TELEVIDENIYE JONKUYARI

Farhod Bobojonov bilan deyarli bir davrda televideniye ostonasiga qadam qo'yganimiz. Bu insonning turli qirralarini kashf qildim, desam mubolag'a bo'lmas. Birinchi navbatda uning insoniyligi, men shuncha yillar davomida ovozi bilan ko'tarib gapirganini ko'rmaganman, kamtarin inson. O'z ishiga o'ta mas'uliyat bilan yondashadi. Ham ssenariy muallifi, ham boshlovchi sifatida ko'rsatuvlar tayyorlaydi. 25 yillar mobaynida jonli tarzda "Axborot" dasturini olib bordi. O'sha davrlarda badiiy ko'rsatuvlar, she'riyat kechalarida ishtirok etib, teletomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lardi.

Keyinchalik u viloyatlardan ko'rsatuvlar olib borishni odat qildi. 70-yillarning oxirida mohir jurnalist Anbara Otamurodova, iste'dodli rejissyor Qo'ziboy Hakimov, o'z kasbining ustasi, Oliy toifali diktor Farhod Bobojonov bilan qahraton qish bo'lishiga qaramay, Xorazm viloyatida ijodiy safarda bo'ldik.

Dastlab Xiva shahriga borib, 90 yoshdan oshgan Bolabaxshi Abdullayevning oq fotihasini olib, tasvirga tushirishni boshladik. Farhod boshlovchi sifatida birdaniga ishga kirishib ketdi. U har bir ko'rsatuvda ishtirok etuvchining harakterlaridan (fe'l-atvoridan) kelib chiqib, jonli savollar berardiki, u hamma boshlovchilarning qo'lidan kelavermaydi. Men hazil aralash "Sizda tug'ma iste'dod bor" derdim. Odamlarga savol berib, murojaat qilish juda osondek tuyuladi. Boshlovchi chiquvchi qahramonning qalb dunyosini ocha bilmog'i kerak. Men tasvirchi sifatida boshlovchi Farhod Bobojonov bilan erkin ijod qilamiz va qaysidir jihatdan o'zimga ozuqa olaman. U kamerani his qila biladi, xuddi hayotdagi singari gapiradi.

Bolabaxshi Abdullaev bilan shundan samimiy suhbat bo'ldiki, bobo o'z quvonch va tashvishlarini, armonlarini, qo'shiqchilik san'atining eng inja jihatlarini ayta bildi. Farhodning mahorati tufayli ro'parasida turgan kamerani sezmadi ham. Bolabaxshining butun fikru zikri, o'y-yu xayolini o'z hayotidan kechgan vo-

qealar qamrab oldi. Shu paytda tasvirchi yuz ifodasini, ko'z qarashlarini ilg'ab olib, yirik tasvirga olib kelishi kerak.

Maqom yo'nalishida katta maktab yaratgan Xorazm san'ati darg'alaridan biri bo'lgan Hojixon Boltaev haqida hujjatli film olish maqsadida Xivadan chiqib, Xonqa tumani markaziga yo'l oldik. Farhod ko'pam gapiravermas, uy-xayoli keyin olinadigan lavha bilan band bo'lardi. Muallif, rejissyor, tasvirchi va boshlovchi hamfikrlikda ish yuritisa, muvaffaqiyatlarga erishiladi. Hozir Hojixon Boltaev haqidagi bu noyob hujjatli film O'zbekiston MTRK oltin xazinasida saqlanadi.

Men Farhod bilan ko'plab ijodiy safarlarda bo'lganman. U tong-saharlab turib, bugun qilinajak ish rejasini tuzadi. U har bir daqiqani qizg'anar edi.

1998 yil buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining 800 yillik yubileyi munosabati bilan ko'p qismli videofilm yaratilishini Farhod Bobojonov o'z zimmasiga oladi. U og'ir mashaqqatli mehnatdan qochmadi. Ko'rsatuvda 8 asr ilgarigi davr ruhini berishimiz kerak edi. Asosiy voqelik suv bo'yida kechadi. Jaloliddinning otasi Muhammad Xorazmshoh bilan uchrashuv onlari... Xorazmshohning o'limi oldidagi oxirgi daqiqalari. Bu voqeliklar Farhod yozgan ssenariy asosida tasvirga olingandi. Otasi Jaloliddinga shohlik kamarini taqadi. Agar ssenariy mukammal bo'lmasa, videofilm talabga javob bermaydi, ishonarsiz chiqadi.

Farhod ajoyib tashkilotchi edi. Ogahiy nomidagi viloyat teatri rahbarlaridan iltimos qilib, aktyorlar jamoasini Urganch shahridan uzoq bo'lgan Yangiariq tumanining bir tomoni qumlarga tutash bo'lgan ko'l bo'yiga olib keldi va tasvirga olish jarayonlari davom etdi. Bir epizodda oppoq harir libosda qizlar xuddi uchayotgan qushlar misoli kelishyapti. Xuddi shu daqiqada osmonda tasodifan turnalar uchib o'ta boshladi. Farhod xursandligidan hayqirib yubordi. Uning sezgisi shu darajada kuchliki, atrofda kechayotgan voqealar va bironta kerakli manzarani ko'zidan qochirmaydi.



Oppoq harir libosdagi qizlar va osmonu falakda uchayotgan turnalar bir-biriga uyg'unlashib ketdi. Bular bari erk va ozodlik timsollari. Bu voqelikka yarasha so'z topa bilish va kadrda ayta bilish juda katta mahorat talab qiladi.

Farhod Bobojonov asos solgan bu videofilm va boshqa juda ko'plab ko'rsatuvlar O'zbekiston MTRK oltin fondidan joy olgan.

Do'stim Farhod! Hali siz televideniye uchun keraksiz. Qishin-yozin tinim bilmaysiz. Bir qarasam Orol bo'yida, bir qarasam Chotqol tog'larida, yana bir qarasam Farg'onada yoki Surxondaryoda... Yurt kezib, bobolaru momolar fotihasini olib, kamsuqum, kamtar, zahmatkash insonlar bilan suhbatlashib, ularni "Oynai jahon"da ko'rsatishdan charchamang.

Rafael Kamolov,
tasvirchi, O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi

2014 yil, 21 avgust

DIKTORLIK MARTABASI

Hayotimizga internet kirib kelgani qadar televideniye odamlarning ongu shuurini o'ziga bog'lab turgan yagona mo'jiza edi. Agar "oynai jahon" o'tgan asrning 60-yillarida xonadonlar to'ridan joy ola boshlagan bo'lsa, 70-yillarda har bir oila ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylanadi.

Men bu o'rinda televideniye mo'jizaviy qudrati to'g'risida biron-bir yangi gapni aytmoqchi emasman, faqat uning ommaga ta'siri borasida bir mulohazamni ta'kidlamoqchiman. Bu – mening televideniye diktor (diktor)lari faoliyatiga doir kuzatuvlarimdir. Avval ta'kidlaganimdek, televideniye sharofati bilan, hammasidan ham unda xizmat qiluvchi diktorlar har bir oilaning yaqin kishilariga aylangan edi. "Oynai jahon"ning ushbu sehrli kuchi shunda ediki, uning texnika imkoniyati bu kasbga, to'g'rirog'i, bu sharaflı martabaga noil bo'lganlarni qisqa vaqt

ichida mashhurlarning mashhuriga aylantirib yuborardi. Balki endilikda bu kasb egalarini omma o'shandoq maqomda qabul qilmas, chunki bizni hayratga soluvchi texnika omillari kun o'tgan sayin oddiy, jo'n vositalarga aylanib qolmoqda, lekin u paytlarda diktorlikning martabasi nihoyatda yuksak edi.

Jumladan, hozir biz tengilar orasida O'ktam Jobirov, Nasiba Ibrohimova, Nasiba Qambarova, Mirzohid Rahimovlarning "oynai jahon"dagi qadrdon siymosini kim ehtirom bilan eslamaydi, deysiz? Farhod Bobojonov ana shunday diktorlar safiga kelib qo'shilgan yangi iste'dod edi.

Men Farhodjonni bu sohaga dastlab ixlos qo'ygan, to'g'rirog'i, dastlab ishini boshlamoqchi bo'lgan paytidan beri bilaman. Bir kuni ustoz Abdulla Oripovnikida ko'rishib qolganimiz esimda. Abdulla aka uni:

– Mana, televideniyeining bo'lajak diktori, – deya tanishtirgandi. Men o'shanda nihoyatda kamsuqum, oddiy muomalali, kamtarin yigitga ajablanib boqqan edim. Haqiqatan ham u ko'p o'tmay "oynai jahon"da ko'rina boshladi. Va uzoq yillar unda diktor bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

Men Farhod Bobojonov haqida o'ylaganimda bir narsa hayratga soladi. Kishilarda hayratangiz ehtirom uyg'otuvchi diktorlik martabasi uning oddiyligiga, kamsuqumliligiga zarracha ham "putur" yetkaza olmadi. Holbuki, o'sha paytlarda diktorlar haqida shunday gaplar ham yurardi. Televideniyeining ijodiy jamoasi qaysi bir viloyatga safarga chiqibdi. O'shanda viloyatdagi oddiy odamlarningu, hatto eng katta rahbarning ham diqqat markazida asosan "Axborot"da chiqib turadigan diktor bo'lgan ekan. Bunday ehtirom, bunday hurmat-tavoze har qanday o'ziga mustahkam shaxsni ham esankiratib, "sindirib" qo'yishi hech gap emas.

Lekin Farhod Bobojonov bunday holatlarga ro'baro' bo'lganida esankiramadi, "sinmadi", uning fe'lidagi nurli qirralar "putur" topmadi. Men buning sirini Farhodjonning diktorlikni "oynai jahon"dagi nom qozonish minbari emas, balki – ish, ish bo'lganda ham ijodiy ish deb qaraganligida deb bilaman.



Farhodjon diktorlik sir-sinoatini zo'r sabot bilan o'rgandi, o'zlashtirdi, Ayni chog'da o'zini ma'nan boyitib, iste'dodiga yangi imkoniyatlar ochib bordi. Bu uning adabiy ko'rsatuvlarni yuksak did va mahorat bilan olib borganida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, u shoirlar ijodidan namunalar o'qir ekan, har bir she'rning mohiyatiga chuqur kirib borar, shoir qalbidagi teranliklarni ochib berishga harakat qilardi. Men Maqsud Shayxzoda va Asqad Muxtor she'rlarini har doim uning ijrosida eshitgim keladi.

Farhod Bobojonov bugungi kunda "Oynai jahon"dagi diktorlik minbarini yoshlarga bo'shatib berdi va ustozlar safiga qo'shilib, ularga bu sohada orttirgan tajribasini, bu kasb san'atini o'rgatmoqda. Lekin u televideniye bag'ridan batamom uzoqlashib ketgani yo'q. O'z tashabbusi bilan "Bir o'lkaki..." ko'rsatuvini tashkil etdi va mana, uzoq yillardan beri, teleekranda bu ko'rsatuv ko'plab tomoshabinlarning qadrdon ko'rsatuviga aylanib qoldi. Zero hammamiz bu ko'rsatuv orqali diyorimizdagi betakror manzaralar, ko'rkam qishloqlarda yashayotgan samimiy odamlar, xalqimizning boqiy udumlari, shuningdek, unutilayozgan an'analari bilan tanishamiz va ko'rsatuv muallifining sururi, shavqi shu damlarda bizning ham qalbimizga ko'chadi, muhrlanadi.

Farhod Bobojonov ijodkor shaxs. Uning ko'nglida turfa orzular, turli rejalar ayni qulf urgan payt. O'ylaymanki, ko'nglidagi ushbu orzulari ham, albatta, ro'yobga chiqadi. Chunki u har bir ishga kamtarin, odamiylik shohsupasida turib jazm etadi.

Farhodjon, siz ma'naviy solnomamizning nomi o'chmas fido-yilaridan birisiz. Buni unutmang, do'stim.

Mirpo'lat Mirzo, shoir, 2013 yil

TUNNI UYG'OTMANG

Moziyga, ulug' ajdodlar hayotiga, qoldirgan boy merosga ko'z yugurtiradigan bo'lsak, ular chindan ham biror inson haqida so'z aytishga kirishar ekanlar, jiddiyoq, o'ylabroq mulohaza



yuritganlar, zero inson biz bilan siz emas, borliq egasi – Yaratganning mo'jizasi ekan, bandasiga baho berishga, maqtozni quyuqlashtirishga qanchalik haqqimiz bor yo yo'q, o'xshatib ayt-sak, har holda vijdonimiz qiynalmaydi, ammo so'zni mirob kabi erkin yuritolmasak, yarim egatda kulobga aylantirsak, nima bo'ladi?! Kazzob, o'g'ri, muttaham va g'iybat qilsa bo'ladigan uch "chalajon" toifa haqida gapirish mumkindir, chunki o'g'rini o'g'ri, deb yomonlamasak, xurmacha qilg'iliklarini gapirmasak, bola, o'smir qaerdan qanday tarbiya oladi?! Xo'p, bu bor masala, biz tilga olgan jihat: bola-chaqasi, oilasi, elu yurti uchun fidoyilar-cha mehnat qilgan insonni Xudoning o'zi siylaydi, omadini be-radi, sal harakatiga ko'z yugurtirib, bu hikmatga yana bir karra guvoh bo'ldim:

"Otam Alisher Navoiyning "Xamsa"si, Sa'diyning "Bo'ston", "Guliston" asarlaridan hikoya qilar edi. Ogahiy, Mashrab, So'fi Olloyor, Cho'lpon, Oybek asarlari miltillagan kerosin chiroq yorug'ida qulog'imga quyilgan.

Otamning maftunkor so'zlashi, o'ta bilimdonlik hislatlari qadimiy Xivada istiqomat qilib, umr bo'yi ilm chiroqlarini yoqib yashagan maxdumzoda bobolarimizdan merosdir".

Men behuda bu so'zlarni keltiryotganim yo'q, o'zim ham yoshlikdan mashhur kishilarning qanday va qay usul, qay yo'llar bilan maqsadlariga erishganlarini bilish, hayot mohiyatlarining aslini anglash uchun ularning umr sahifalari bitilgan kitoblarni, tarjimai hollarini, do'stlarini, yoru birodarlarining esdaliklarini tinmay o'qir edim. Qanday qilib yaxshi odam bo'lish mumkin, degan savol Farhod Bobojonovning fikri-zikrini band etgani aniq. Behuda osmondan ham tushmaydi, ulug' ajdodlarimizning muborak qadamlari tekkan zaminda voyaga yetgan Farhod Bobojonov azim Toshkentga kelib ham, Xudoning marhamati bilan, zamonasining mashhur kishilari bo'lmish akademik adib G'afur G'ulom, Mirtemir domla va Asqad Muxtor hamda san'atimizning ko'zga ko'ringan namoyandalari bilan birga nafas olib, tanlagan



kasbining nafaqat sir-asrorlarini, balki odamiylikni, chin inson sifatida yashashni ham o'rgandi.

Men uni ana shu qiyofasida taniganim uchun ham so'zimni aynan shu so'zlardan boshladim. O'tgan asrning 60-70-yillariga kelibgina viloyatlarda, shahar-qishloqlarga televizor kirib keldi, o'ziga to'qlar, rahbarlar bu yangilikdan birinchi bo'lib foydalanishgan bo'lsa, asta-sekin har bir xonadon sohibi ham oynali quti bilan oilasiga quvonch olib kirdi. Bir umr tuproq kechib, oltin hayotlari paxta dalalari ichra sovurilgan millatdoshlarimiz uchun bu narsa jahonshumul yangilik edi. Alisher Navoiy bashorat qilgan "Oynai jahon" mo'jizalari, hech bo'lmasa, daladan horib-charchab qaytgan xalqimizning yurak chigillarini yozishga sababchi, madadkor bo'la boshladi. Yaratgan bu sehrli qutini ilk bor Toshkentda kashf etilishini ham istagan edimi?! Shak-shubhasiz, algoritmni va o'nlab olamshumul ixtirolarni yaratishda zamin bo'lgan tuproq bu! Ammo shunday ulug' bir xalq XX asrning o'rtalariga kelib, sim to'rlar orasida dalasidan, paxtasidan boshqa narsani bilmay, yupun va nochor ahvolda kun kechirishga majbur edi. 1993 yilda yapon va amerika maktablari, ularni ta'lim tizimi xususida shug'ullanib ko'rib, hayratga tushganman: 1994 yilda Amerika ta'lim jurnalida e'lon qilingan bir suratga amerikalik 12 yashar bola kompyuterda ishlab turganini ko'rib, eski tuzum bizni naqadar laqillatganini anglab, yurtimizdan zil ketganini yashirmay qo'ya qolay. Vaholanki, bu paytlarda bizda yozuv mashinkalari hali urf bo'lmagan, katta tashkilotlarda borlari ham davlat maxsus xizmatlarining hisobida turar, oddiy xalqning ulardan foydalanishi mumkin emasdi. Undan so'ng, Robindranat Tagorning "Rossiya haqida hikoyalar" esdaligidagi sovetlarning katta xatosi shuki, maorif tizimlari bir yoqlamalikka asoslangan va bu narsa kelajakda manqurtlashgan avlodning vujudga kelishiga sababchi bo'ladi, degan fikrlarni o'qib, yanada dahshatga tushdim. Fikri bor odamgina hayotdagi kamchiliklarni ko'ra oladi. Ulug' adibning uzoqni ko'ra bilishi meni judayam hayratga soldi va men esa yonimda fikrlashdan



to'xtaganlarni ko'rib, yanada iztirobga tushganim rost. To'g'rida, eski tuzumdagi rahbarlarning necha foizi o'z xalqining taqdirini o'ylardi. Paxta dalasida kasallanib qolgan o'smirlarga yordam o'rniga "Nega paxtani yagona qilishdan bo'yin tovlayapsan?!" deya yuziga shapaloq tortgan rahbarni ko'zim bilan ko'rganim uchun guvohlik berishdan cho'chimayman. O'sha manqurt odam, paxta dalasi egasi reja quli edi, vaholanki, o'sha paytda chindan ham boshi og'rib, behol bo'lgan o'quvchiga u yordam ko'rsatishi, darhol uyiga jo'natishi kerak emasmi?! Va bu narsa nimadan shohidlik beradi? Inson xuquqini, inson qadr-qimmati bir pul edi-mi?! Bir pul edi. Yana aytish, qayd etish kerakki, xuddi shu paytlarda London yoki Parijda, Nyu York yoki Tokioda birov birovning burnini chertib ko'rsin-chi, matbuot nima deb ayyuhannos solardi. Eski tuzum matbuoti esa butun boshli xalqlarni laqillatishdan boshqasiga yaramas edi, ammo ana shunday paytlarda ham vaziyatdan ustunlik bilan foydalanib, millatning o'zligini, tarixi va madananiyatini saqlab qolishda fidoyilik ko'rsatgan ziyolilar nomlarini bugun tilga olib o'tmasak bo'lmaydi. Esimda bor, qariyalar bizga ham "kofirning ishini qilma" deb tanbeh berishar va o'zligimizda qolishimizni ta'minlashar edi. O'tgan eski tizimda xomtalash bo'lishdan, o'zgalar tanasiga singib ketishdan bizni asragan olimlarning ayrimlari ana shular edi.

*Hasratim ko'p, elga aytolmayman,
Armonim ko'p, dilda saqlolmayman.*

Farhod Bobojonov ohangida, ovozida, talqinida o'z ifodasini topgan bu dard yosh qalbmida abadiy muhrlanib qolgan edi. Abdulhamid Cho'lponning tor va zax xonada, tutqunlikda o'z o'limini kutib o'tirganini tasavvur etganingizda, etingiz jimirlab ketadi. Faqat tosh odamgina, ya'ni qalbi yopiq kimsa bu dardni his etolmaydi. U o'z tanasi bilan his etadi, ammo fikrlamaydi. Afsus, hozir ham shundaylarni uchratganingizda moddiylik sinov bir narsa, qulga aylanish qanday jirkanchlik, degingiz keladi.



Farhod akaning horg'in ovozlari qulog'im ostida chalinadi:

"Ingliz va fransuz tillaridan...lar dars berishar edi. Kitoblardan mavzuni belgilab ko'rsatishardi-da, so'ngra bizni o'z holimizga tashlab qo'yib, to qo'ng'iroq chalinguncha bir-birlari bilan laqillab o'tirishardi".

O'zbek bolasining ilmi bo'lishi shart emasdi, traktorchi, suvchi, paxtakor, ishchi kerak edi ularga, o'zingiz bilganlarga! Shaxsan, o'zim ham maktabimizda bir voqeani guvohi bo'lganman. O'ninchi sinfda o'qiyotganimizda, paxtaga olib chiqishlaridan norozi bo'lgan ota-onalarimiz maktabimiz ilmiy mudiridan: "Qachon bolalarimizga haqqoniy ilm berasizlar?" deb so'raganlarida, u: "Bizdan olimlarni emas, ishchilar yetishtirib berishni so'rashyapti", deya to'g'ri gapni aytib qo'ya qolgan edi.

Yana Farhod akaning kundaligiga yopishamiz:

"Paxta terimi davrida menda oshqozon yarasi paydo bo'lib, og'riqning zo'ridan kechalari tiniqib uxlolmay, ertalabgacha qiynalib chiqardim. Bu kasallikdan to'rt yil azoblandim. 1969 yilning izg'irinli Yangi yil oqshomida oshqozon yarasi yorilib ketib, hushimni yo'qotibman. Shifokorlarning tez jarrohlik yordami tufayli omon qoldim. Tuzalishim uzoq muddat cho'zilib, o'qishga borolmaganman".

Men bu achchiq haqiqatlarni nega tilga olyapman?! Undan ko'ra, Farhod Bobojonov haqida qarsak chalib o'tib ketaversam bo'lmaydimi?! Ammo Yaratgan bergan qalam, qo'l va qalb bilan qanday yolg'on so'zlashim mumkin?! Ammo Farhod Bobojonov aynan ana shu yolg'onlar ichidan o'ziga haqiqat qidirgani rost. Bu haqiqat shundan iboratki, u paxta dalalari ichidan o'zining o'zbekligini, ulug' ajdodlarining qalbini izladi va shu bois ham zamonasining ulug'lariga yaqin yurdi.

Bu odamni qanday taniganim masalasiga kelsak, aytishim kerakki, uyimizga otam telequti ko'tarib kelib, ilk ko'rsatuvlarni tomosha qilgan kunimizda Farhod aka boshlovchi sifatida ekranda ko'rindilar va men: "Qaranglar, bu kishi qo'shnimizga juda o'xshar ekanlar!" deb yuborganman. Shu-shu Farhod aka ekran-

ga chiqdimi, uydagilar: "Ana qo'shnimiz chiqdi!" deydigan bo'lib qolishdi.

Taqdir ekan, 1992 yilda O'zbekiston televideniyesi Bosh direktori o'rinbosari vazifasiga ishga keldim va turgan gapki, Farhod aka bilan tanishdim. So'ngra yana qizig'i qachonlardir "Yoshlik" studiyasiga qo'shib yuborilgan "Bolalar" studiyasini qayta tashkil etish menga topshirilganda, bolalar ko'rsatuvlari muharriri Shoira opaning ismlarini ro'yxatda ko'rib yanada hayratim oshdi. "Bu opa direktor Farhod Bobojonovning oilasi", deyishdi menga. Masalaning og'ir tomoni shundaki, bolalar uchun hech nima yozolmaydi. Lekin men bolalar uchun fidoyi bo'lgan telejurnalistlarning yaqindan yordami tufayli elkamga qo'yilgan vazifani uddalay oldim. Ko'rsatuvlarimiz chet el televideniylarida namoyish etila boshlagach, rahbariyatdan iliq so'zlar ham eshitdik. Albatta, bu muvaffaqiyatlarda Shoira opaning ham o'z o'rnini bor edi. Opani "Yulduzcha" ko'rsatuvi orqali yaxshi bilardik. Hali o'quvchi edikki, bu ko'rsatuvning har bir sonini kuzatib bo'radik. Shoira opa ko'rsatuvni samimiy kulib turib, qiziqarli olib borar, go'yoki biz o'quvchilar bilan yonma-yon so'zlashayotgandek tuyulardi. Vaholanki, Toshkent bilan Sariosiyo orasi ming kilometrdan oshiq masofani tashkil etadi. Darvoqe, rosti shuki, qaysi boshlovchi har bir tomoshabin qalbiga kira olar ekan, u albatta, sevimli teledastur egasiga aylanadi. Shoira opa chindan ham ana shunday fidoyi muharrir, ajoyib boshlovchi va eng muhimi, Farhod akani qadrllovchi muhtaram ayol, besh farzandni tarbiyalagan mo'tabar ona edi. Goho: "Farhod akangiz bilan mana bu mavzuni hamkorlikda ishladik, Baraka topsinlar, ishlari ko'p bo'lishiga qaramasdan erinmay yordam berdilar..." deb quvonch ohangida gapirganlarida, bu oilaning, bu ikki qalbning bir tashkilotda ishlab, obro'-e'tibor topganidan, bir-birlariga bo'lgan mehr-muhabbatlari, izzat-ikromlaridan boshimiz osmonga etgani ham rost.

Qaysi kuni Farhod aka to'satdan xonamga kirib keldilar. O'sha samimiylik, o'sha soddalik, o'sha yurish-turish, faqat yillar "gul



yoshlikni olib qolib”, o’rniga keksalik nurlarini ato etgan. “Opan-giz ham 66 yoshida bizni tashlab ketdilar, – dedilar aka xo’rsinib. – Toqqa chiqib, buloq bilan gaplashdim, zilol suvning qaynab chiqishidan zavqlandim”.

Ey birodar, kim buloq bilan gaplashishi mumkin? Qalbi po-kiza inson emasmi?! Kim tiniq suvdan zavqlanishi mumkin?! O’zini tanigan qalbi pokiza odam emasmi?! Shoirona gaplarni to’qiyapti, demang! Buni zo’r qo’shiq qilsa bo’ladi, ammo Far-hod aka bilan Shoirana opaning bosib o’tgan yo’llari bir qo’shiqqa sig’armikin?!

Sukunat cho’chitmasin dardim...

Jonlar oromini buzmasin dardim,

Tunni uyg’otmasin!

Bu dunyo qiziq ekan-da: “Yolg’iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dongg’i chiqmas”. Yolg’iz, bir o’zimiz qayoq-qa ham borardik?! Inson hamisha suyanchiqqa muhtoj. Yaxshi suyanchiqqa. Farhod aka, siz yolg’iz emassiz, do’stlar, yaxshilar, farzandlar, nevara-chevaralar, ya’ni bir butun Farhod Bobojonov sulolasi! Siz sulola yarata oldingizmi, shuning o’zi katta gap!

To’lqin Hayit, adib,

O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan

madaniyat xodimi

YO’LDAGI YO’LDOSHING...

Farhod Bobojonovni mamlakatimizda tanimagan odam kam topilsa kerak. U juda jonkuyar, kuyinchak inson. Ko’cha-ko’ya uchrashib qolsangiz ham hamisha Farhod akani haya-jonlar ichida ko’rasiz. Hech narsaga befarq qaramaydigan, har bir ishga mas’uliyat bilan yondashadigan, doimiy ijodiy haya-jonlar bilan yuradigan bu odamni men ko’p yillardan beri bi-

laman. Farhod aka she'riyatni sevadi. Biz maktabda o'qib yurgan yillarimizda Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Asqad Muxtor she'rlarini yonib o'qiyotgan Farhod Bobojonovni televizorda ko'rganmiz. Va shu jarayonda she'rni qanday o'qish kerakligini, she'r o'qiyotganda so'zga his berish mahoratini shu kishidan o'rganganmiz. Umuman, biz mansub bo'lgan avlodga she'r ruhini singdirishga Farhod akaning ham o'z hissasi bor.

Keyinchalik men universitetni bitirib, televideniye ga ishga kelganimda Farhod aka bilan tanishdim. Nihoyatda samimiy, jonkuyar, she'rsevar bu odam menda juda katta taassurot qoldirdi. Har gal ko'rishib qolganimizda u o'zbek shoirlarining she'rlarini yoddan o'qirdi. She'riyatimiz durdonalaridan minglab misralarni yoddan o'qirdi. Shayxzoda, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Usmon Nosir, Cho'lpon, Asqad Muxtor, Abdula Oripov, Erkin Vohidov kabi ulug' shoirlarimiz haqida hayajon bilan yonib gapirar, soatlab ularning she'rlaridan namunalar o'qirdi. Bunday shoirlarimizga nisbatan mehri va muhabbati Farhod akaning yuzida ham, ko'zida ham balqib turardi. Farhod akaning yo'ldagi yo'ldoshi hamisha adabiyot edi. U o'qigan she'rlar o'sha yillari ustozlar she'rlarining san'ati va sirlarini anglashimizga yordam bergan va u kishi bu shoirlarimizning, umuman, adabiyotimizning targ'iboti uchun xizmat qilgan.

So'ng biz Farhod aka bilan xizmat safarlarida bo'ldik. Har bir safarimiz hozir ham qadam-baqadam esimda... Yo'llarda yaxshiga yo'ldosh bo'lsang, yaxshi ekan... Vatanimizning qadimiy manzillarida, ulug' ziyoratgohlarida, qadrdon dalalarida, bepoyon qir-adirlarida Farhod aka bilan birga kezganmiz. Yurtimizning tog'day ulug'vor, tuproqday xokisor, suvday halol, nonday aziz odamlari bilan gurunglarda bo'lganmiz. Ular ham bu kishini ko'rishlari bilan quvonib ketishar, samimiy suhbatlarga shoshilishar, o'zlarining qadrdon bir kishisini ko'rishganday yayrab ketishardi.

Hayoti butun bir tarixga aylangan XX asrning barcha taloto'plarini, qatag'onlarini boshidan kechirib, kelinlik yillarida Sibirga surgun qilinib, yigirma yildan keyin yurtga qaytgan



Qirmiz momoning ko'z yoshlar bilan sug'orilgan suhbatlarini birga tinglaganmiz. Xalq shoiri Abdulla Oripovning ota uyida shoirning otasi zahmatkash va fidoyi inson Orif otaning qizg'in suhbatlaridan birga bahramand bo'lganmiz.

Bu odamlar Farhod aka bilan suhbatlashgani sayin suhbatlashgisi kelar, ko'nglidagi gaplarini mehr bilan unga so'zlab berishardi. Bizning odamlarimiz Farhod akani yaxshi ko'rishlarini o'shanda sezganman.

Farhod aka "Bir o'lkaki..." ko'rsatuvini ham qizg'in muhabbat bilan tayyorlaydi. Bu ko'rsatuvning har bir lavhasida uning ona yurtga mehri-muhabbati aks etib turadi. Bu ko'rsatuv mamlakatimizning olis va yaqin manzillaridagi qadimiy yodgorliklardan tortib bugungi ulkan bunyodkorlik ishlariga qadar, har bir odam qalbidan tortib, butun elimiz qalbiga qadar, gullab kirgan birgina daraxtidan tortib, yurtimizning betakror tabiatiga qadar o'zida aks ettirishga harakat qilgan.

Farhod Bobojonov haqida ko'p gapirish mumkin. Lekin shu nuqtada so'zimni muxtasar qilib, u kishiga hamisha shunday ko'rkamlik tilab qolaman. Sizni samimiyat va mehr, katta ijodiy hayajonlar sira tark etmasin.

Eshqobil Shukur, shoir

O'zbekiston Respublikasida xizmat

ko'rsatgan madaniyat xodimi

BEG'UBOR INSON U

O'tgan asrning yetmishinchi yillari.

Farhod Bobojonov har gal televizorda ko'rinish berganida, go'yo uy ichi o'zgacha yorishib ketganday tuyulardi. U "Axbarot"da chiqadimi yo biror-bir adabiy-badiiy ko'rsatuvni olib boradimi, doimo o'sha holat – xona mayin tusda yog'dulanardi. Ammo men shunchaki kuzatish, ya'ni tuyish bilan cheklanib qolmay, boshqa suxondonlarni ham kuzatardim. Biroq o'ziga xos nurlanishni



faqat unda his etardim. Bu meni juda ajablantirar, gohida esa butunlay lol qoldirardi. Ana shunday kunlardan birida ko'pni ko'rgan keksa otaxondan bu jumboqning yechimini so'radim. Otaxon ayni shu damda "Axborot"ni olib borayotgan Farhod Bobojonovga bir muddat tikilib turib, so'ng dedilarki: "Bu yigit tabiatan boladay beg'ubor hamda kibrdan xoliligi yuzu ko'zidan aniq ko'rinib turibdi. Botinidagi yog'du chehrasida aks etib turibdi. Bunaqa yigitlarni biz keksalar, "palagi toza" deymiz. Ana, yaxshilab qaragin, ziyoli xonadonda o'sib-ulg'ayganligi va kitobni umrbod do'st tutganligi yuz-ko'zidan shundoqqina sezilib turibdi. Agar kishi qalbi ezgu amallarga to'la bo'lsa, uning chehrasi hamisha nurlanib turadi. Bu jumboqning bor sir-sinoati shu, bolam".

U paytda Farhod Bobojonov bilan tanishligim sirtdan edi. Bir kun kelib do'stlashib kyetishimiz mumkinligini hatto tassavvur ham qilolmasdim. Ammo taqdir charxpalagini qarangki, kutilmaganda 1983 yilning kuzida "Toshkent oqshomi" gazetasi-dan "O'zbekiston" telekanaliga ishga o'tdimu, birinchi rejissorim Haybatilla Aliyev tufayli Farhod Bobojonov bilan yaqindan tanishib, do'stlashib oldik. Bunga, hozir nomi esimda yo'q, adabiybadiiy ko'rsatuvlardan biri sabab bo'ldi. Muallif – kamina, boshlovchi – Bobojonov, ssenariyda keltirilgan ayrim she'rlar borasida ikkimizning fikrimiz bir joydan chiqmay qoldi. Oqibat, qizg'in bahs yuzaga keldi. Ana shunda, uning shunchaki diktator emas, balki yuzlab she'r va g'azallarni yoddan biladigan, bu soha bo'yicha o'z qarashiga ega bo'lgan kuchli ijodkor ekanligiga amin bo'ldim. U Erkin Vohidov hamda Abdulla Oripov ijodining ashaddiy shaydosi, Rasul Hamzatovning haqiqiy muxlisi ekanligini shu kuni bilib oldim va o'zimizcha jindek mushoira qilgan bo'ldik. O'sha kuni u meni o'ziga yaqin olib dedi: "Siz faqat nasriy asarlarnigina emas, balki ulug' shoirlar ijodini ham muntazam o'qib borishingiz lozim. Ana shunda qalbingiz yanada nurlanib, tiriklikning asl ma'no-mohiyatini teranroq anglay boshlaysiz."

Men nasriy asarlar kabi she'riy asarlarni ham ko'p o'qishimni aytib, o'zimcha uch-to'rt shoir ijodidan namunalar o'qib berdim.



Kaminaning bu o'ziga xos maqtanchoqligim Farhod Bobojonovga unchalik yoqmadi shekilli, bir muddat ko'zlarini katta-katta ochib, tikilib turdi-da, so'ng dedi: "Unda hozir men sizga mashhur shoirlardan birining she'rini o'qib beraman. Kimning she'ri ekanini, qani, toping-chi." U o'qidi:

*Garchi shirin emas barchaga hayot,
Biroq barcha sevar... mangu abadiy.
Garchi seni qarg'ab solarman faryod,
Biroq yuragimda o'chmas ishq o'ti.*

*Men sovuq qotyapman, yomg'ir ham tinmas,
Men nodon kutaman ko'klamda qorni,
Garchi tushimda ham va o'ngimda ham,
Sira topolmayman chorlab sen yorni.*

Kamina mazkur she'riy misralar qaysi shoirga tegishli ekanini ikki hafta davomida qidirdim. Shu bahonada o'nlab she'riy kitoblarni qaytadan varaqlab, qaytadan o'qib chiqdim va oxiri topdim. Bu she'r avar xalqining ulug' shoiri Rasul Hamzatov qalamiga mansub ekan. Men, misli dunyo topgan tentakday, shu zahotiyoq telemarkazning ikkinchi qavatidagi diktorlar bo'lmasiga urib bordim. Ammo xonadan u kishini topolmay, studiyalardan biriga mo'raladim. Topdim. Eshikdan kiraverishdagi royal yonida ko'rsatuvga hozirlanib turgan ekan. Men ikki hafta burungi gapso'zlarni esiga solib, bu misralar kimga tegishli ekanini aytarkanman, endi siz toping, deya qachonlardir Rasul Hamzatovdan yodlagan quyidagi misralarni o'qimoqqa tutindim:

*O'g'ilning nasibi dunyoni bo'ylar,
Lekin ona yopib bergan non shirin,
Fayzga, mehriga to'lmasmi uylar
Ona chiroqlarimni yoqsa kechqurun!*

Biroq u uzoq kuttirmadi, to'rtinchi qatorni yakunlashim bilan, "to'xtang", deya ishora qildi va kaminani hayratga solib, mazkur she'rning qolgan to'rt qatorini o'qimoqqa tushdi:

*Onamni o'ylayman har kun, har soat,
Uning qo'shiqlari qalbimda shoyon,
Dunyoda men ilg'ab etgan har hikmat
Aziz validamning mehridan ayon.*

Bu kaminani quvontirmadi. Xuddi mendek, kunlab kitob varaqlashini istagandim. Ammo u kitob varaqlab o'tirmadi, boy xotirasini titkilab, allaqachonq ko'nglim bisotimga aylanib ulgurgan misralarni maroq bilan o'qib berdi. Men, buni topingchi, deya navbatdagi she'rni o'qimoqqa tutindim.

*Bilamiz – umr ishi ko'p qiyin savdo,
Noliymiz. Hayotni so'kamiz battar.
Qancha solmasin u sho'rishu g'avgo,
Ko'ngilni bog'laymiz unga shu qadar.*

Bu safar u kulimsiragancha menga jo'rovoz bo'ldi va qolgan misralarni birgalikda o'qidik.

*O'ydim-chuqur yo'llar, olqishlar, junun...
Bu qanday ko'rgulik, qanday ixtiyor!
Va lekin baribir umr ko'p shirin,
Hayotdan go'zalroq yana nima bor?!*

O'sha kuni Farhod Bobojonovni yanada yaqindan tanidim. She'riyatga nisbatan bo'lgan ulkan muhabbati hamda teran xotirasiga g'oyatda qoyil qoldim. Shu kezgacha uni diktir sifatida bilardim, keyingi ketma-ket uchrashuvlardan so'ng uni bilimdon



kishi sifatida qayta kashf etdim. U kishi ishtirok etgan choqqina davralarda suhbat nazmsiz tugamasdi. U hech qachon, falon she'rni o'qing demasdi, o'rni kelganda, hali Erkin Vohidovdan, hali Abdulla Oripovdan, hali Shavkat Rahmondan, hali Pushkindan she'rlar o'qib, suhbatning g'oyatda qiziqarli bo'lishiga xizmat qilardi. Tag'in bir gap, u hamma davralarda ham birdek ochilavermasdi – o'tirganlarning saviyasi va dunyoqarashiga qarab ish tutar, ya'ni hech qachon qorong'iga qarab tosh otmasdi. "So'z, – deydi u, – juda muqaddas, uni har yerda tilga olib, isrof qilib bo'lmaydi." U o'zining ushbu o'gitiga doimo amal qiladi. Shuning uchun ham Farhod Bobojonovning aslida qanday odamligini hamma ham bilavermaydi. Uni yaqindan bilish, suhbatidan bahramand bo'lish uchun siz nazmdan boxabar bo'lishingiz, eng muhimi, turli mayda-chuyda gap-so'zlardan nari yurmog'ingiz kerak. Davralarga g'iybat oralashini yoqtirmaydi u.

Agar shu o'rinda gapni muxtasar qilar bo'lsak, har bir inson o'z umri davomida turli toifadagi odamlarga to'qnash keladi. Kimdir misli soyaday sirg'alib, kishi xotirasida hech bir iz qoldirmay o'tib ketadi. Kimdir esa chaqinday chaqnab, bir umrga qalbingizda qoladi. Farhod Bobojonovga kelsak, u yaqin do'st, dilkash suhbatdosh sifatida doimo qalbim to'rida yashaydi. Zerikkan kezlarimizda qo'ng'iroqlashib, uchrashib hanuz she'rxonlik qilib turamiz. U Abdulla Oripov va Erkin Vohidov she'rlaridan o'qiydi, men esa Rasul Hamzatovdan o'qiyman. Marhum rejissyor Haybatilla Aliev u haqda doim bir gapni aytib, "Farhod zo'r shoir", derdi. Keyinchalik esa taniqli aktrisa, mening sevimli rejissyorim Dilorom Karimovadan ham shu gapni eshitdim. Aslida Farhod Bobojonov shoir emas, shunchaki tiyrak inson. Dunyoni keng ko'z bilan ko'radigan, butun olamni o'zining qaynoq bag'riga singdira oladigan beg'ubor inson u.

*Normurod Norqobilov, yozuvchi
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi*



UNI HAMMA TANIYDI

Uni hamma taniydi, ammo u hammani tanimasa ham bar-chaning ko'ngliga yo'l topa oladi.

Men u bilan ilk bor 1971 yilning avgust oyida O'zbekiston televideniyesining Ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlari tahririyatida rejissyor yordamchisi, u esa rejissyor asissenti lavozimida ishlashimiz jaryonida tanishgan edim. Menga uning o'ta kamtarligi, kam-suqum va oliyjanobligi yoqar edi. U o'zining oddiyligi va sodda-dilligi bilan har qanday insonni o'ziga jalb qila olish qobiliyatiga ega edi. Uning hayoti haqida, inson taqdiri haqida fikr va mushohada yuritishi, lirik qahramonning ichki kechinmalarini to'g'ri anglashi meni lol qoldirardi. U o'ziga yoqqan she'rni tezda yodlab olardi. Repertuari shu qadar ko'p ediki, hatto kun bo'yi o'qisa ham ado bo'lmas edi. Asqad Muxtor, Mirtemir, Usmon Nosir, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon she'rlari uning jonu dili edi. U she'r o'qish jaryonida obrazga shunday berilar ediki tinglovchini butun borlig'i bilan o'ziga maftun eta olardi. 1972 yilda Adabiy-dramatik ko'rsatuvlari tahririyatiga o'tganimdan so'ng, Farhodjon bilan har oyda ikki marotaba Adabiy kompozitsiyalar tayyorlab unga rejissyorlik qila boshladim. Avvaliga uning o'zi yod olgan she'rlardan, keyinroq esa "Sharq yulduzi" jurnali va "O'zbekiston madaniyati" gazetasida chop etilgan shoirlarning she'rlari asosida kompozitsiyalar tayyorladik. Kunlarning birida mashhur shoira Zulfiyaning "Sharq yulduzi" jurnalida chiqqan "Kamalak" turkumidagi she'rlari asosida adabiy teatr tayyorlab, o'zim rejissyor, sahnalashtiruvchi rassom vazifasini o'z zimmamga oldim. Maqsad she'rlarning mazmunidan kelib chiqib, hayot kamalakdek rang-barang degan – g'oyani ilgari surish edi. Shunga munosib fon ham oq-qora soyalardan iborat edi. O'zimcha topgan bunday rejissyorlik yechimi, kuni kecha O'zbekiston tel-radio kompaniyasining televideniye bo'yicha rais o'rinbosari Ubay Burhonovning o'rniga ishga kelgan Zokir Yo'ldoshyevga yoqmasdan bevosita efir ketayotgan pultga telefon qilib, "Nega



Farhod qabrlar yonida she'r o'qib yuribdi", deb baqirib qoldilar. Men tezda efirdagi umumiy planni olib tashlab, faqat o'rta va yirik planda ishlar ekanman, hayajondan ko'rsatuvni qanday tugatganimni ham bilmay qoldim.

Zokir aka asli tarixchi edilar. U kishi kamchilikni aytganda, jim turib izohsiz eshitgan odamni yaxshi ko'rar edi. Ammo men o'ylab topgan oq-qora tasvirdagi rejissyorlik yechimini tushunishni ham xohlamaganlari aniq. Jazolansak Farhod bilan ikkalamiz ishdan ketishimiz mumkin. O'zimdan ham Farhodjonga achinaman. Axir mening rejissyorligimga u javob berolmaydiku. Nima qilishni bilmay Farhodjonga maslahat soldim.

– Farhodjon! Ayb menda. Ko'rsatuvimiz rangli ekran orqali namoyish etilganida maqsadim aniq ko'rinar edi. Ammo oq-qora tasvir butun g'oyamni chippakga chiqardi. Lekin siz hozir bitta ish qilasiz.

– Nima qilay?

– Zulfiya opaga qo'ng'iroq qilib ko'rsatuv haqida fikrlarini biling. Agar Zulfiya opaga ma'qul bo'lgan bo'lsa, marra bizniki.

– Qanday bo'lar ekan?

– Farhodjon! Ertaga boshimizga qanday kun tushishini bilmaymiz. Hozir yotib qolguncha, otib qolishga esa vaqtimiz bor.

Ming hayajonu andisha bilan Farhodjon Zulfiya opaga qo'ng'iroq qilib uning ko'rsatuvdan olgan olam-olam taasurotini va minnatdorchiligini eshitib jo'yakni joyiga qo'yar ekan:

– Maratjon! Xayriyat, – dedi.

Darxaqiqat, ertasi tongi letuchkada, Zokir Yo'ldoshyev xonaga kirib kelar ekan:

– Kechagi Zulfiyaning she'rlariga kim rejissyorlik qildi? – dedi.

– Men, – dedim titrab o'rnimdan turar ekanman.

– Sen qanaqa bolasan? – deyishlari bilan stoldagi telefon qo'ng'iroq chaldi. Zokir akaning gapi bo'linib, telefonni olib:

– Allo, Eshitaman! – dedi.



– Zokirjon! Sizmisiz? Zulfiya opangiz bo'laman. Men sizlarga kechagi ko'rsatuvingiz uchun minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Hech qaysi diktora Farhodjondek chiroyli qilib o'qiy olmagan mening she'rlarimni. Har doim boshqalarni eshitib qoniqmas edim. Bu gal Farhodjonga she'rlarimni o'qish uchun topshirib, juda savob ish qilibsizlar. Mening nomimdan ko'rsatuv ijodkorlari, shaxsan Farhodjonga minnatdorchiligimni bildirib qo'ysangiz!

Zokir aka Zulfiya opaning gaplarini tik turib tingladilar. Go'shakdagi ovoz xonadagi hammaga baralla eshtilgan edi.

– Zulfiya opa ko'rsatuv uchun rahmat deyaptilar. Farhodning yaxshi o'qiganini ham aytdilar. Ammo sening rejissyorlik ishing mutlaqo qoniqarsiz.

Oradan bir kun o'tib menga xayfsan e'lon qilishdi.

Shu voqea sabab Farhodjon bilan biz sirdosh do'st, ajralmas hamkasb bo'lib qoldik. Men Oqtepada, u Samarqand darboza ko'chasidan kiraverishdagi Katta bog' mahallasida istiqomat qilganimiz uchun yo'limiz bir, deyarlik har kuni ishga birga borib kelamiz.

Farhodjonning oddiyligi va kamtarligi har qanday inson uchun u bilan sirlashishga ko'nglini ochib so'zlashishga yo'l berar edi. Uning tanimagan odamlar bilan ham xushmuomalalik bilan suhbatlashishi atrofida juda ko'p do'stlarning jipslashishiga sabab bo'ldi.

Safarlarga chiqqanimizda Farhodjonni oddiy xalq orasida ham do'stlari ko'pligining, oddiy ishchilardan tortib, dehqonlargacha, rahbar xodimlardan tortib, hunarmandlargacha hamma soha bo'yicha insonlar unga yaqin do'st bo'lishga, uning ikki og'iz shirin suhbatini olishga intilishlarining guvohi bo'lganman.

Farhodjon qaysi viloyatga borsa o'sha viloyatning kattadan kichik mehnatkashlari uni quchoq ochib kutib olar, qalbidagi o'y-fikrlariniyu, dardlarini xuddi o'zining akasi yoki ukasiga to'kib solayotgandek hurmat qilishar edi. U har bir viloyat



shevasida bemalol gaplasha olar, odamlarning qalbiga yo'l topa olar edi. Bunday fazilati meni hayron qoldirar, ba'zan har qanday sharoitda ham insonlarning dardu hasratini erinmasdan eshitish qobiliyatiga qoyil qolar edim.

Shunday qilib, men Farhodjondan odamlar qalbiga zargaron yo'l topib do'st orttirishni o'rgandim. Jizzax viloyatidagi O'rish Hamidov, O'ktam Olimov, Muqim Hasanov, Qahramon Silliyev, Jaynar aka, Erkin Zohidov, Erkin Qodirov, Burhon Jo'rayev, Zokir Isaqulov, Qahhor Mamanov, Sodiq Mamanov, Akrom Turdiyev, Bahrom Mallayev, Bozorboy To'rabekov, Anvar Tog'ayev kabi cho'lquvar va xo'jalik rahbarlar bilan tanihib, do'stlashganimdan, ularning zahmatli mehnatlarining samaralarini millionlab teletomoshabinlarga yetkazish orqali telejurnalistik burchimni to'la ado etganimdan o'zimni baxtiyor his qilaman.

Farhodjon bilan ajralmas do'stligimiz faqatgina ishda emas, balki oilaviy do'stligimizda ham yuksak namuna edi. Uning rafiqasi Shoiraxon o'ta dilbar va samimiy ayol edi. Mening rafiqam Diloromxon bilan ham yaqin dugonaga aylanishgan edi. To'yimizdan uncha ko'p vaqt o'tmasdan Farhodjon oilasi bilan bizni Farg'ona vodiysi bo'ylab sayohatga olib ketdi. Qo'qon, Shohimardon, Farg'ona, Marg'ilon kabi shaharlardagi ziyoratgohlarni ziyorat qilib, yurtimizning ajoyib, mehmondo'st kishilari bilan tanishtirdi. Oilaga sadoqat, rafiqasiga mehr-muhabbat ko'rsatish xislatlarining yuksak namunasi bor unda. Chunki Shoiraxon ham, mening rafiqam ham qandli diabet kasaliga yo'liqishgan edi. Bu kasallik esa o'ta e'tibor va mehr-muhabbatga zor dardlardan hisoblanadi. Farhodjonning o'z rafiqasini ardoqlashi, uning ko'nglidagi hamma narsani muhayyo qilishini har qanday erkak uchun ibrat deb bilaman. Ming afsus-nadomatlar bo'lsinkim, mening rafiqam Diloromxon 2011 yilning sentyabr oyida, Farhodjonning sevimli yori Shoiraxon esa 2017 yilning sentyabrida qandli diabet dardining asoratlari natijasida bu



olamni juda erta tark etib, bandalikni bajo keltirdi. Ajal yosh tanlamas ekan. O'g'il-qizlarimizni ne mashaqqatlar bilan voyaga yetkazib, endigina ularning rohatini ko'ramiz deganida, ularni Olloh taolo o'ziga aziz qilib, oilamizdan yulib olib ketdi. Har ikkalalarini Olloh rahmatiga olsin!

Mana Farhodjon bilan tanishganimizga ham hademay 50 yil to'ladi. Uning yuksak madaniyati, ichki va tashqi olami-ning go'zal, mukammalligi ko'pchilikka manzur deb o'ylayman. Chunki ana shu davr mobaynida asabiylashib, kimningdir dilini og'ritganini, yoki birovni g'iybat qilib yomonlaganini ko'rma-dim va eshitmadim. U doim har qanday vaziyatda ham og'ir va vazminlik bilan dardu hasratini ichiga yutgan holda, mashaqqat-li mehnati natijasida muvaffaqiyatlarga erishadigan ma'naviy barkamol ijodkor. U yashaydigan xonadonning eshigi doimo ochiq. Chunki respublikamizning turli viloyat va shahar, qish-loqlaridan uning qo'lini bir olib ziyorat qilish uchun keladigan turli kasb egalarining keti uzilmaydi. U shohdur, gadodur, bar-chaga barobar quchog'ini ochib kutib oladigan, odamlar dardiga malham bo'la oladigan, bag'ri keng saxovatli inson. Buni men do'stim Farhodning yaxshi-yomon kunlarida atrofida jipslashib turgan zamondoshlarimizning unga ko'rsatgan mehr va muhab-batlarini ko'rib, ko'p marotaba guvohi bo'ldim.

Qadrdon do'stim va ustozim Farhod Bobojonovning diktor-lik mahorati, jurnalistlik faoliyati haqida aytiladigan gaplarim juda ko'p bo'lsa-da, fikrimni shu yerda muxtasar qilib shun-day xulosa qilmoqchimanki, har bir insonga Farhodjondek oqilu dono, ma'naviy barkamol, ta'limu tarbiyasi mukammal bo'lgan farzand ato etsin. Uning ijodi esa gullab yashnab, millionlab tomoshabinlar qalbida o'chmas iz qoldirsin!

Marat Asadullaev,

O'zbekiston teleradiokompaniyasining

faxriysi. 2019 yil, 20 yanvar.



NURLI MANZILLAR

1970 yillarda yoqqan qalin-qalin qorlarda biz bolakaylar yurishga qiynalardik. Ertalab maktabga borishdan avval ko'chadan katta kishilar o'tishini kutardik. Qishlog'imizning zabardast kishilari ulkan etiklari bilan ochib ketgan "yo'lakcha"lardan zavq bilan chopqillardik.

Bu manzaradan keyinchalik qandaydir hayot falsafasini kashf etdim, ya'ni, kattalar ochgan yo'ldan yurish – nurli manzillarga eltadi!..

Ijodiy, ilmiy faoliyatim davomida ko'p ulug' ustozlar sabog'i xuddi o'sha qalin qorlar ichra ochib berilgan nurli izlarga o'xshardi. Bu qutlug' izlar baxt manzillari sari undayotganini his etardim. Ijod bo'stonida Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Oqiljon Husanov, Shoyim Bo'tayev, jurnalistikada Shavkat Miralimov, Abduhamid Fozilov, Ahmadjon Meliboyev, Ziyod Esenboyev, Shuhrat Jabborov, ilm yo'llarida Fayzulla Mo'minov, Xurshid Do'stmuhammad, Abdug'afur Rasulov, o'qituvchilikda Ochil Tog'ayev, G'aybulloh as-Salom, Najmiddin Komilov... Bu ro'yxatni uzoq davom ettirishim mumkin. Umri bo'yi yuzlab shogirdlariga hayot yo'llarini ko'rsatgan, nurli manzillar sari chorlagan shu benazir ustozlarimga toabad ta'zimdaman.

Ancha yillardan beri faoliyatim televideniye bilan ham shu qadar bog'lanib ketdiki, jaydarigina qilib aytganda bu dargohda ishlaydigan ayrim hamkasblarimdan ko'proq ko'rsatuvlarda ishtirok etyapman. Shu tariqa telejurnalistlar safiga ham kirib qolgandek his eta boshladim o'zimni. Televideniya jurnalistik fakulteti talabalari uchun mahorat maktabini tashkil etdik.

Bu dargohda Qobilbek Karimbekov, Farhod Bobojonov, Muslimbek Yo'ldoshyev kabi ustozlardan olgan sabog'im qo'l kelmoqda.

Ustoz – otangdan ulug', deganlaricha bor ekan. Rahmatli otam meni ulg'aytirib qishloqdan Toshkentgacha olib kelgan



bo'lsa, aziz ustozlarim shu qadar baxt cho'qqilariga chiqishimda qanot baxsh etdilar.

Ustozlarimning kamtarona muomala madaniyati, halolligi va boshqa fazilatlarining o'zi katta hayot maktabi bo'lgan. Bola-ligimda qalin qorda "yo'lak" ochgan amakilar kabi ular mudom hayotning nurafshon yo'llarini ibrat maktabi qilib ko'rsatganlar. Yaxshiga ergashding – etding murodga, deganlaridek, umr bo'yi shu ulug' siymolar izidan borishga intilamiz.

Qirq yildan buyon ustozlarimning o'zgalarga yaxshilik qilganlarini ko'rib ulg'aydim. Ular hasad, ig'vo, g'iybat kabi illatlardan mutloq yiroq insonlar ekanligiga havas qilsa, ibrat olsa arziydi. Ustozlarning biror suhbatida kimnidir yomonlaganini eshitmaganman. Bu borada adib va jurnalist Ahmadjon Meliboevning hikmatli so'zlarini eslab yuramiz:

– Birov kimnidir yomonlasa, men o'sha yomonlangan odamni yaxshi ko'rib qolaman, – degandi ustoz bir gurungida. – Chunki o'zi yomon odamni hech kim yomonlamaydi! Yaxshi insonni yomonlaydilar. Shuning uchun kimlarnidir yomonlab yurgan odamning o'zini yomon ko'rib qolaman!..

Haqiqatan rost gap! Azaldan faqat buyuk insonlar g'iybatu g'urbatning qurboni bo'lib ketganlariga tarix shohid. Ming afsuski, "yaxshiga kun yo'q, yomonga o'lim..." deganlaridek olijanob ustozlarga turli davrlarda turfa tazyiqlar, zug'umlar o'tkazilganini ko'rib dilimiz xufton bo'lgan. Ana shu jihatdan ularning ba'zi qismatlari o'xshashib ketadi nazdimda.

Qoyil qoladigan va ibrat oladigan jihati shuki, qanchalik tazyiq va nohaqliklar ko'rmasin irodasi mustahkam, ma'nan yetuk ustozlarim hech ham nola qilmagan, biror kimsani ayblamagan, burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'ygandek chet elga bosh olib ketmagan, so'ng yurtiga tosh otmagan!.. Ular jaholatni ma'rifat bilan yengib yashaganlar! Asalarilarni ming quvg'in qilmang, ular qo'nim topgan joyida bol yarataverganlari kabi bu buyuk iste'dod sohiblarini bitta ishxonaga sig'dirishmasa boshqasida jimgina ijodini davom yettiraverganlar!



Aytaylik, 1986 yili sobiq mustabid tuzum davri mafkurasi atoqli adib Pirimqul Qodirov ijodiga chang solgan edi. Ya'ni o'sha davrdagi respublika rahbari yuksak minbardan "Yulduzli tunlar" romanida Bobur bobomizni "ideallashtirilgan" deya tuhmat toshini otgandi. Bu "tosh", nainki, roman muallifiga, shuning barobarida, butun millatimiz, tariximiz va buyuk ajdodlarimizga qarata otilgani ko'rinib turardi. Tarixiy romanning mantiqiy davomi bo'lgan "Avlodlar dovoni" chop etilishiga qarshi katta to'siq qo'yildi. Irodali ustoz adib esa indamay qalamini tebrataverdi. Oradan besh yil o'tar-o'tmas tarix g'ildiragi hayot haqiqatiga hamohang ravishda aylana boshladi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov 1989 yildan O'zbekiston Respublikasi Adabiyot, san'at va me'morchilik sohasidagi Davlat mukofotlari qo'mitasi raisi lavozimida faoliyatini davom ettirdi. 1990 yil oktyabr oyida «Boburnoma» yaratilganligining 460 yilligi respublikamiz miqyosida keng nishonlanishi ulug' ustozning ham ma'naviy g'alabasi edi! Shu tariqa adib ijodini yanada jo'shqin bir tarzda davom ettirib, umri poyonigacha (82 yoshgacha) qancha betakror asarlar, ilmiy badialar yaratdi.

Ustoz bilan o'sha suronli yillarda dildan suhbatlashib turardik. Goho uylariga borib, holidan xabar olardim. Bir kuni Pirimqul aka g'alati gaplar aytib qoldi:

– Qur'oni karimda hasad balosidan asrash haqida juda purma'no oyatni o'qib, o'ylanib qoldim. Muqaddas kitobimizni mutasaddilar o'qib mag'zini chaqsalar bo'lmasmikin? Kapkatta odamlar bu balodan qachon nari yuradigan bo'lisharkin? Qachongacha haqiqiy ziyolilarga hasad qilisharkin? Farhod Bobojonovni eng iste'dodli, ovozi shirali diktir sifatida yaxshi ko'ramiz. Necha o'n yillardan beri shu mehnatiga yarasha O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni berilganidan keyin uni yanada ilhom bilan ekranga chiqishini kutgandim. Negadir u butunlay ko'rinmay ketdi. Keyin bilsam, shunday ulkan dargoh – televideniye sig'dirishmabdi... Farhodjon bilan ko'p suhbatlashganmiz. U biror marta ishidan yoki o'sha rahbarlari-



dan nolib gapirmagandi. Ancha payt o'tgach, bo'lgan voqealarni bir hamkasbi aytib berdi. Farhodjonga unvon berilgach, uni imijimida dasturlardan olib qo'yaverishibdi... Shuyam gapmi? Axir, bunday noyob iste'dod egalari necha yilda bitta chiqadi...

Shunaqa tazyiqlar, ichiqoralik bilan qilinadigan xatti-harakatlar ijodkor ruhiyatiga qanchalik salbiy ta'sir etishini yaxshi bilgan adib Farhod Bobojonovni hatto bir necha bor uylariga taklif yetib, ko'nglini ko'targanidan boxabarman. U taniqli diktor ijodiga mehr bilan qarar edi. Mualliflik ko'rsatuvlarini e'tibor bilan kuzatib, "Farhod shu mavzuni yaxshi yoritibdi" deya munosabatini bildirardi.

2008 yili "Oltin qalam" milliy mukofoti tanlovi hay'atiga adib Pirmqul Qodirov raislik qilgan edi. Tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlar sinchkovlik bilan o'rganilgan va munosiblari saralangan. Tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimida Farhod Bobojonovga mukofotni ustoz o'zlari shaxsan topshirganlarida barcha muxlislarining dillari yorishib ketgan bo'lsa ajabmas.

Haqiqiy iste'dod sohiblarining qalbi toza bo'ladi. U nimaiki ishga qo'l urmasin, avvalo niyatni yaxshi qiladi. Bunday insonlarga omad kulib boqaveradi. Taniqli telejurnalist Farhod Bobojonovning omadi – doim muxlisleri ardog'ida! Qator yillardan buyon Respublika Ma'naviyat-targ'ibot markazi huzuridagi "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasida ustoz bilan birga faoliyat ko'rsatamiz. Mazkur markazda har hafta turli ta'lim muassasalari va boshqa soha xodimlari malaka oshiradilar. Bulardan tashqari poytaxt mahallalari hamda mehnat jamoalarida o'tkaziladigan "Ma'naviyat soatlari"ga ana shu markaz o'qituvchilari taklif etiladi. Shu asnoda Farhod Bobojonovni kunda-kunora yuzlab muxlisleri davrasida ko'rish mumkin. Tinglovchilar u kishining jozibali so'zlarini oynai jahon orqali qandoq maroq bilan tinglagan bo'lsalar, endi yuzma-yuz dildan muloqot qiladilar.

Turli davralarda so'z yuritadigan ma'ruzachi avvalo uning nazariy va huquqiy jihatlarini puxta bilishi hamda fikrlarini



amaliyot bilan payvasta holda tushuntirishi zarur. Ma'ruzachi biror xatoga yo'l qo'ysa tinglovchilarda albatta salbiy fikr uyg'otadi. Bundan tashqari u albatta adabiy tilda ravon gapirishi, so'zlarni aniq, ifodali talaffuz etishi lozim. Bu borada katta tajribaga ega, ta'bir joiz bo'lsa, o'z mahorat maktabini yaratgan mohir diktor hamisha hamkasblariga o'rnak. Shu boisdan ham turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga Farhod Bobojonovni bot-bot taklif etishaveradi.

Bolalik chog'larida Farhod aka ham qalin qorlarda katta kishilar ochgan "yo'lakcha"lardan zavq bilan yurgandir. Hayotda ulug' ustozlarining nurli izlaridan baxt manzillariga etgandir. Bizga shunisi ayonki, yarim asrdan buyon bu fidoyi inson telejurnalistika, ma'naviyat va ma'rifat sohasida ulug' ustozlar qatorida yoshlarga ana shunday nurli yo'llar ochib kelmoqda. Zamon-doshlariga ma'naviy nur baxshida etmoqda.

Ustozning nurli yo'llari barchani baxt qasriga yetaklayversin.

To'lqin ESHBEK,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

YURT FIDOYILARIGA OSHNO QALB

O'tgan asrning yetmishinchi yillari boshlarida bir yosh yigit O'zbekiston televideniyesida diktor bo'lib ish boshlagandayoq ko'pchilikning e'tiboriga tushdi.

U paytlarda hozirgidek o'nlab kanallarda emas, bor-yo'g'i ikkita kanalda sutkaning belgilangan soatlaridagina ko'ratuv berilar edi. O'sha davrda sanoqligina diktorlar bor edi. U paytlarda hozirgiday texnika rivojlanmagan bo'lib, faqat jonli efir orqaligina uzatilar edi.

Yuzida xoli bor yigit, kunora har xil ko'rsatuvlar olib borardi. Tomoshabinlar uni "xolli yigit" deyishardi. Ayniqsa, uning she'r aytishi uslubi boshqalardan farq qilardi.



Gap Farhod Bobojonov haqida borayotir. Bizlar deyarli tengdoshmiz, do'stligimiz rishtalari bog'langaniga qirq ikki yildan oshibdi. Ta'bir joiz bo'lsa, tanishishimizning asosiy sabablaridan biri: kamina o'sha vaqtlari taniqli xo'jalikning rahbari bo'lib ishlardim. Mamlakatdagi eng yosh rais bo'lganim va xo'jalikning faoliyati ham shuni taqozo etgan shekilli, matbuotda, xususan, televideniya tez-tez ko'rinib turardim. Shu sababli Farhod Bobojonov bilan goh Toshkentda, Samarqandda, gohida men boshqarayotgan xo'jalikda ko'rishib turardik.

Men qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda adabiyotga, ayniqsa, o'tmish tariximizga juda qiziqar edim. Tariximiz hali ochilmagan qo'riq edi. Ustiga-ustak shoirlar, yozuvchilar, tarixchilardan ancha yiroqda edim. Menga nisbatan Farhod tariximizdan ko'proq xabardor edi. Biz har gal uchrashganimizda soatlab o'tgan kunlarimiz, uzoq va yaqin o'tmishimiz, jadidchilik davri, Cho'lpon, Fitrat, Avloniylar qalam tebratgan fojiali yillar, akademik Ibrohim Mo'minov yaratgan "Amir Temurning O'rta Osiyoda tutgan o'rne" kitobi, Turkiston general-gubernatorining Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Skobelevning "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyati, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi" degan so'zlarini Farhoddan eshitganman.

60-70-yillarda Amir Temur bobomiz haqida xalq orasida qonxo'r, jallod degan so'zlar oralab qolgan va eng avjiga chiqqan davrlar edi. Akademik Ibrohim Mo'minovning Samarqandning 2500 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyasini ma'ruzasi kitobcha bo'lib chiqadi.

Shu kitobchadan bir donasini do'stim Farhod Bobojonov menga tuhfa qilgan edi. Bu kitobcha Amir Temur bobomiz to'g'risidagi haqiqatlar mening ko'zimni ochdi. "U bilimsiz, zolim edi. Turk Sulmoni Boyazidni enganidan so'ng, uni qafasga solib, otga uni bir tepib minar edi", – degan uydirma gaplar ekanligi, Amir Temur Boyazidga hurmat ko'rsatgani, oradan olti oy o'tib,



o'z ajali bilan o'tganligi haqidagi ma'lumotlarni do'stim Farhod-dan eshitganman.

Abdulla Avloniyning 103 yil ilgari e'lon qilingan bir maqolasida shunday satrlar bor.

“Emdi, vayrona sohiblarini faqir va xorlikda yashagan, bolachaqlarini qo'l kuchi ila to'ydiradigan, to'y degan yerda muqaddas Vatanini sotub, sarf qilmoqdan tortinmaydirgan “hoziram huzuram” deb istiqbolini o'ylamagan va bolalarining saodatini tushunmagan bir qavmdan qanday taraqqiy va ma'rifat kutmoq kerak?”.

Maqola “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914 yil 5-va 9-sonlarida chop etilgan.

Oradan yuz yildan ortiq vaqt o'tdi. Lekin... Achinib, darg'azab bo'laman gohida. “Ko'p achinmang, do'stim, – deydi Farhod – bunday illat boshqa millatlarda ham bor. Bunday odamlar tushunib yo tushunmay dunyoni tark etadi. Vatan, millat tushunchalaridan yiroq farzandlarining holi ne kechadi”.

“Taraqqiyot davom etaveradi. Tariximiz katta bir xazina, duru gavhar jahonda tengi yo'q fuzalolar, donishmandlar, din arboblari, buyuk sarkardalar o'tgan yurtda yashaymiz. Biz ulardan kuch-quvvat, o'zimizga madad olamiz. Tariximizning sahifalarida o'chmas iz qoldirgan donishmandlarimiz, bizlarni oydin yo'llar sari yetaklaydi”, – deb do'stim Farhod g'urur bilan so'zida davom etadi.

Bizlar Farhod bilan tengqur bo'lsak-da, men uni o'zimga ustoz sifatida ko'raman. Qadimshunos tadqiqotchiga aylanib qolishimda ham do'stimning o'rni beqiyos.

Butun umrini, ish faoliyatini O'zbekiston televideniyesiga bag'ishlagan Farhod Bobojonovning ko'rsatuvlarining o'z o'rni bor, boshqa ko'rsatuvlardan keskin farq qiladi.

Do'stimni doim Respublikamizning taniqli yozuvchi-shoir-lari, adabiyotshunos olimlar, tarixchilar, qo'ying-chi, ko'plab ijodkorlar davrasida ko'raman.



Hayotni doimo kuzatib borasiz, ko'p kitoblarni mutolaa qilgansiz, qomusiy bilimlarga ega bo'la turib, nega kitob yozmasligingizga hech tushuna olmadim. Lekin yana bir tomoni televideniya doimo band, bir qarasangiz, tog'u toshlar orasida, sahroyu cho'llarda, daryolar bo'yida, tabiat qo'ynida... Bu inson shu bilan daqiqalar, kunlar, oylar, yillar o'tganini sezmaydi. Bilaman televideniya maroqli va mashaqqatli ijod bilan band. Shunday bo'lsa-da, doimo uni kitob yozishga undayman. Bilaman, u yozgan asar, sevib o'qiladigan asarlar qatoridan joy oladi. Hormang endi, do'stim Farhodjon!

*Zoir Ziyotov, qadimshunos – tadqiqotchi,
Turon Fanlar akademiyasining akademigi.*

12 mart, 2016 yil

KAMTARIN VA FIDOYI USTOZ

Taniqli jurnalist, mohir diktor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Farhod og'a Bobojonovni men bolaligimdan yaxshi taniyman.

Kechagidek esimda: 1970 yillar oxiri edi o'shanda... O'zbekiston televideniyesining "Axborot" ko'rsatuvida Farhod og'aning ko'zlari yonib, teledasturni shu qadar shirinsuxanlik va samimiylik bilan olib borardiki, beixtiyor menda ushbu ustozga, qolaversa, telejurnalistika sohasiga nisbatan zo'r ishtiyoq uyg'ondi. Farhod Bobojonov shu kunga qadar O'zbekiston televideniyesida nechalab ko'rsatuvlarni tashkil qildi. Ularda o'zbek xalqining yuksak madaniyati, tarixi va bebaho qadriyatlarini tarannum etdi. Uning har bir chiqishi xalqimiz tomonidan o'zgacha qiziqish, hayajon va hayrat bilan kutib olindi.

Ustozning ko'p yillik mehnat faoliyatiga nazar tashlar ekanman, jamoatchilik e'tiborida chuqur hurmat qozonishiga sababchi bo'lgan omillar haqida o'ylay boshlayman. Darhaqiqat, Farhod og'adagi samimiylik, kasbiga o'ta sadoqatlilik, halollik,



jonkuyarlik va fidoyilik bugungi kunda har bir yosh jurnalist ibrat olsa arzigulik xislatlardan desak, adashmagan bo'lamiz.

Farhod og'adagi teran dunyoqarash, har bir mavzuga chuqur xulosalar asosida yondashish, mulohazalilik, garchi bilim-malakasi, tajribasi ulkan bo'lishiga qaramay, qarshisidagi suhbatdoshning fikrlarini o'ziga xos madaniyat bilan tinglashi, unga chuqur mulohaza asosida munosabat bildirishi, atrofdagilarning fikrlari bilan hisoblashishi, ularni qo'llab-quvvatlashi, o'z o'rnida qahramonimizdagi yuksak muomala va mutolaa madaniyatidan dalolat beradi. Qolaversa, Farhod og'a juda ko'p kitoblarni o'qiydi...

Shu o'rinda bir alloma shoirning "Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham, o'zgalar ilmiga quloq tut har dam!" – deya aytgan haqli xitobi yodga tushadi. Farhod og'a o'z hayotida ana shu ol-tin qoidaga amal qiladi, ya'ni o'zgalarni sabr va chuqur hurmat-e'tibor bilan tinglaydi. Bu esa undagi kamtarlik hamda olijanob xislatlaridan biridir.

Ko'p yillar elga sadoqat bilan xizmat qilib, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida o'z o'rnini va ovozigacha ega bo'lgan, ko'plab shogirdlarni kamolga yetkazgan Farhod og'a Bobojonovga bugungidek bardamlik, ishchanlik, xushchaqchqlik tilab qolaman.

Qadrdonim Farhod og'a, Yaratgan umringizni yanada ziyo-da va tabarruk aylasin, doimo sog'-salomat bo'ling, oilangizga qut-baraka, tinchlik-xotirjamlik mudom yor bo'lsin.

Po'lat Xudoyberganov, mehnat faxriysi.

Turon fanlar akademiyasi akademigi.

2019 yil 1 aprel

USTOZGA TA'ZIM

Men televideniya ko'p mualliflar bilan ijod qildim. Ustoz Farhod Bobojonov bilan ijodiy hamkorligimiz 2003 yildan boshlandi va o'ta samarali kechdi. Mamlakatimiz bo'ylab ko'p ijodiy



safarlarda bo'ldik. Ularni olis qishloqlarda ham ko'pchilik yaxshi bilishar, hurmat va olqishlar bilan kutib olishar edi. Ba'zi joylarda ular sha'niga ko'p maqto'v so'zlar aytilardi, lekin Farhod aka bunday maqto'vlarni yoqtiravermas edi. Ko'rsatuvni tasvirga olish jarayonlarida odamlar bilan samimiy suhbatlashardi. Ustozning ba'zi jihatlari menga ham yuqqan. Safarimiz chog'ida ko'rsatuvni tasvirga olishdan oldin, ba'zi viloyat va tumanlarning rahbarlari Farhod aka bilan muloqotda bo'lar edi. Albatta shunday daqiqalarda ustozning o'ziga xos madaniy tarzdagi kamtarona uchrashuv va suhbatlari ko'rsatuvlarning qiyinchiliklarsiz yozib olinishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatardi.

Har gal Qashqadaryoga borganimizda, viloyat rahbari Nuriddin Zayniyev (oxiratlari obod bo'lsin) ishlari ko'p bo'lishiga qaramay Farhod aka bilan uchrashib, dildan suhbat qurardi. Uchrashuvlardan birida viloyat hokimi menga qarata:

– Farhod akangning peshini mahkam ushlab ol! Bunday inson bilan ijod qilish senga omad keltiradi, – deb nasihat qilganlari kechagiday yodimda.

– Sen tug'ilib o'sgan Arabxona qishlog'ida zora senga o'xshash ziyolilar ko'paysa, – deb, tilak bildirdi. Nuriddin Zayniyev tegishli rahbarlarga qishlog'imda anjuman o'tkazilish kerakligini ta'yinlab topshiriq berdi.

Shundan so'ng Farhod aka ishtirokida viloyatimizdan turli kasb egalari, ijodkorlari bilan men ta'lim olgan maktabda uchrashuv o'tkazildi. Qishlog'imiz nuroniylari ustozim Farhod akani “Arabxona qishlog'ining faxriysi” deb e'lon qilishdi va samimiy tilaklar bildirishdi. Bulardan sevinganimdan ko'zimda yosh, qalbim osmon qadar yuksaldi. Farhod aka, o'zingiz aytganingizday ijodda charchash neligini bilmaylik! Sizday o'z kasbi – ning yetuk, zabardast insoni bilan uzoq yillar yelkama-yelka turib faoliyat olib borganimdan faxrlanaman. Sizning ssenariyingiz asosida tayyorlangan “Bir o'lkaki”... ko'rsatuvi orqali yuksak mukofotlar olishga muyassar bo'ldim.

Ustoz! Sizning qilgan yaxshiliklaringizni unutib bo'lrmi? Men sizga hamisha ta'zimdaman, ustoz! Baraka toping. Sizga sog'liq-omonlik istayman.

*Jurabek HAMROYEV, rejissyor. Yoshlari Ittifoqining
"Ko'krak nishoni" va "Oltin qalam" milliy mukofoti sovrindori.*

2019 yil 26 mart

UNUTILMAS LAHZALAR

Farhod Bobojonov haqida gap ketganda xayolimda mehnatdan hecham horimaydigan, o'z kasbining yetuk, zabardast namoyandasi, halol inson siymosi gavdalanadi. Bolaligimdan oynai jahon orqali ustozning har bir ko'rsatuvini sevib ko'rar edim va har bir sonini kuzatib borardim. Bu sohani, kasbni tanlashimda ana shu insonning hissasi bor desam mubolag'a bo'lmaydi.

2013 yili O'zbekiston MTRKga ishga qabul qilingan bo'lsam, menda ulkan his-hayajon, qo'rquv bor edi. Sababi ana shunday mas'uliyatli ishni bajara olamanmi, yo'qmi degan savollar hayolimdan sira ham ketmasdi. Rejissyor sifatida faoliyatimni boshlaganimda taqdirni qarangki, g'oyibona ustozim hisoblanmish Farhod Bobojonov bilan birga ishlash baxtiga muyassar bo'ldim. Bu men uchun baxt, unutilmas lahzalar edi. Ustozdan har qadamda, ish faoliyatida, balki hayot yo'llarida ham saboq olardim.

Esimda. Ustoz bilan birinchi safarimizni Ohangaron tumani-ning Qamchiq dovoniga yaqin Ertosh qishlog'idan boshlaganimiz. Tog' qishlog'i odamlarining Farhod akaga bo'lgan mehr-larini, samimiyliklarini ko'rib hayratlanganman. Shunda men ustozning muomala madaniyatiga qoyil qolganman. Ko'rsatuvda ishtirok etuvchilarning yuragiga, qalbiga mehr-la kirib borardi.

Ertasiga dengiz sathidan 1400 metr balandlikdan tog' qishlog'idan taxminan 50 chaqirim naridagi Arashon bulog'i sari avtoullovda tog' oralab o'rlab ketdik. 36,5 darajadagi Arashon bulog'ini tasvirga olib, qoyalar osha tog' so'qmoqlaridan yurib,



halloslaganimizcha tepalikka ko'tarilib ketdik. Yo'l boshlovchi Farhod aka bizdan ancha ilgarilab ketdi. 70 yoshni qoralab qolganlariga qaramay charchash neligini bilmaydi. Men nafas ola olmay o'tirib qoldim. Uyalaman. Besh kishidan iborat 22-27 yoshlardagi ijodiy jamoamiz yoshlari ham ustoz ketidan orqama-orqa yurib toliqib qolishdi.

Qorli tog'lar qo'ynidagi Uzunko'l, Chuqurko'lning go'zal manzaralarini ko'rib charchoqni unutdik. Ko'rsatuvni tasvirga olish jarayonlari boshlandi.

Ming bir azob bilan tong-saharda Ertosh qishlog'iga qaytib keldik. Charchaganimdan oyoqlarim zirqirab uxlay olmadim. Qishloqda tog' cho'qqilaridan quyosh mo'ralab chiqishini tasvirga oldik. Shu-shu chiniqib ketdim.

Tasvirga olish jarayonlaridagi qiyinchiliklardan qo'rqma, umuman, mehnatdan qochma, erinma. Shularni yenga olsangina yuksak cho'qqilarni egallab, yanada olg'a qarab ketasan, deb nasihatlar qilardi ustoz.

Ikkinchi ijodiy safarimiz Qoraqalpog'iston bo'ylab o'tdi. Ustyurt kengliklarida, Orolbo'ylarida, Qo'ng'iroq, Mo'ynoq atroflaridagi saksovulzorlaru qamishzorlar, Sudocho'eko'lining o'ziga xos go'zalligini, cho'lu sahrolarni erinmasdan tasvirlarga muhrladik.

Ketma-ket ijodiy safarlar...

Surxondaryoning Boysunidan tortib, Buxoroning sahrolariga, cho'lidagi saksovulzorlar oralab, Farg'onaning Vodil qishlog'idan, go'zal So'x tumanigacha, Namanganning tog'li Chodak qishlog'i, Surxonning Vaxshivor tog'lari, Sariosiyodagi sharsharalargacha, Qashqadaryoning deyarli barcha tumanlari, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon bo'ylaridagi o'ziga xos o'simliklar va hayvonot olami qo'riqxonalaridan tortib, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva Ichanoqal'asidagi tarixiy obidalar... sanab sanog'iga etolmaydigan jannatmakon ona-yurtimiz O'zbekiston qiyofasini borligicha tasmalarga muhrladik.



Ustoz Farhod akaning serharakatligi, dunyoqarashining ba'zi jihatlarini, hayotga chanqoqlik bilan qarashlari, falsafiy mushohada qilishlari, atrofidagi biz yoshlarga ham yuqqan.

Ustoz! Hali siz bilan biz yosh ijodkorlarning qiladigan ishlarimiz bisyor, sanog'iga yetish mushkul. O'zingiz aytganingizday, charchash neligini bilmaylik! Sizday o'z kasbining yetuk, zabardast insoni bilan yelkama-yelka turib faoliyat olib borayotganimizdan faxrlanamiz.

Doimo shunday ko'tarinki kayfiyat bilan kuch-quvvatga to'lib yuring, ustoz!

Islom Tojiyev

"Mening o'lkam" ko'rsatuv rejissyori.

2018 yil 25 iyul

YURAKDAGI VATAN

...Ikkinchi jahon urushi asoratlari hali davom etayotgan og'ir yillar azim Qilichboyning Ocha mahallasi aholisi hayotiga ham o'z muhrini bosgan: xalq non topsa, kiyim-kechak topmas, kiyim-kechak topganida qora qozoni qaynamasdi. Maktab mudiri vazifasida ishlovchi Bobojon Rahimberganov tinimsiz ishlar, kunduzi bolalariga ilm sirlarini o'rgatsa, kechqurun piltalarga chiroq yorug'ida mahallaning katta yoshdagi kishilarini o'qitardi. Tarix, adabiyot, jug'rofiya fanlarini, matematika ilmini ham yaxshi biladigan Bobojon muallimning mahallada obro'si baland edi.

Bobojon muallimning katta o'g'li Hakimjon juda intiluvchan, qobiliyatli bo'lganidanmi yoki oiladagi o'ziga xos ma'naviy muhit tufaylimi, Hakimjondan keyingi barcha farzandlari Setora Bonu, Farhodjon, Diloromxon va Gulandomxonlar ham o'z tenqurlariga nisbatan ilg'or fikrliliklari bilan ajralib turardi. Biri-biriga o'rgatib, biri-birini qo'llab-quvvatlashga o'rgangan farzandlar ota-onalari – Bobojon muallim va Shukurjon opalar orzusini ro'yobga chiqarish yo'lida hayot qi-



yinchiliklarini fidoyilik bilan yengib va yana oldinga intilib yashashga odatlandilar.

Ota-onam nafaqat ilm olishga, balki mehnatkashlikka ham o'rgatishgan.

– Ayniqsa, ona yurtga muhabbat tuyg'usi bilan yashash, kindik qoni tomgan yer qadrini ulug' tutish, vatanparvarlik, xalqparvarlik – bizga ota-onamizdan, bobolarimizdan o'tgan irsiyat, – hikoya qiladi Farhod aka.

Farhod Bobojonov shaxsining shakllanishida, el-yurt e'tiborini qozonishida uning o'zi aytmoqchi, ana shu irsiyat asosiy mezon bo'lgan bo'lsa, ne ajab!

...Istiqlol Farhod Bobojonov ijodining gullab-yashnashi uchun katta imkoniyatlar berdi. Qoliplashtirilgan dasturlar, siyqasi chiqqan ko'rsatuvlar, televideniyaedagi bir xillik, erkin ijod qilish istagini so'ndiruvchi buyruqlarga chek qo'ydi. Ana shunday evrilishlar silsilasida Farhod Bobojonovning "O'zanini topar daryolar", "Ochun" va "Bir o'lkaki..." mualliflik ko'rsatuvlari oynai jahon yuzini ko'rdi. Ko'rsatuvlarning ilk sonlari o'zbek xalqining tarixiy ildizlaridan so'z ochadi. 1996 yilda efirga uzatilgan "Bir o'lkaki..." mualliflik ko'rsatuvi ko'hna Xorazm zaminidan tayyorlandi. (Ko'rsatuvga Xiva shahrida va qadimiy Sayyod qishlog'ida asos solindi.) O'lkaning boy tarixi, asrlar bilan tillashgan me'moriy obidalari, bunyodkor xalqimizning buyuk tarixi va buyuk kelajagi haqida hikoya qiluvchi mazkur ko'rsatuvning ilk soniyoq ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Shundan so'ng navbatdagi ko'rsatuv Buxoro viloyatidan tayyorlandi. Xalq "Bir o'lkaki..." ko'rsatuvi orqali, nazarimda, o'zini qaytadan kashf etdi.

"Bir o'lkaki..." ko'rsatuvi juda qisqa fursat ichida millionlab ko'ngillardan joy oldi. Avval O'zbekiston televideniyesining "Axborot" informatsion dasturi orqali shirali, jarangdor ovozi bilan xonadonlarga kirib borgan Farhod Bobojonov, mana, 21 yildirki o'zining mualliflik ko'ratuvi bilan tom ma'noda xalqimizning "o'z Farhodi"ga aylandi. Ijodiy faoliyatidagi izchillik, o'ziga xoslik, mavzular xilma-xilligi, bundan ham muhimi, ho-



zirgi zamon o'zbek adabiy tili imkoniyatlaridan zukkolik bilan foydalanish qobiliyati, betakror uslubi Farhod Bobojonovni el aro tanitdi, shuhrat keltirdi. Kasbga fidoyilik, ona Vatanga cheksiz mehr-muhabbat tuyg'usi uni aziz va muqaddas, kindik qoni tomgan tuproq – O'zbekistonga butunlay maftun etdi.

Xalq orasiga kirib, ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo'lish, birga quvonib, birga yayrash, shu xalqqa singib yashash hammaga ham nasib etavermaydi. Farhod Bobojonov O'zbekistonning har shaharu yovonini, cho'lu tog'ini yayov kezib chiqdi, buyuk Vatanini yanada ulug', buyuk iftixor bilan avval o'z yuragiga, so'ng g'oyatda fidoyilik bilan xalq yuragiga joyladi u! Bag'rida tuzli to'fonlar bir zum tinmaydigan, tobora qurib borayotgan Orol dengizi qirg'oqlaridagi qoraqalpoq o'tovlarida tishlari orasida tuz g'ichirlab, non kavshaganida, bepoyon Qizilqum sahrosini kezgan damlarida ham uning yuragini bir haroratli tuyg'u nurafshon etdi: bu – ona Vatanga cheksiz muhabbat tuyg'usi. Dilida toshib turgan tuyg'ulari tiliga ko'chdi:

“Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi

Bir o'lkaki, qishlarida shivillar bahor...”

Oybekning ushbu mashhur she'ri Farhod Bobojonov ijodining butun mazmuni-mohiyatiga singib ketgani kabi, ijodkor hayotining ham mazmuniga aylandi.

O'zbekiston o'zining fidoyi farzandi mehnatiga, ijodiga yuksak baho berdi:

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston xalq artisti unvonlari bilan taqdirlandi. U “Do'stlik” ordeni, “Oltin qalam” Milliy mukofoti sohibi, “Eng ulug', eng aziz” tanlovi g'olibi bo'ldi.

– O'zbekiston televideniyesida juda ko'p yoshlar bilan birga ishlashdik, – deydi Farhod aka samimiyat bilan. – Ijodiy jamoa-



miz juda ahil, ustoz-shogird an'anasiga sodiqlik har bir ijodkor uchun qadrlı. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Rahmatilla Mirzayev, (Alloh rahmat qilsin)ayniqsa, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Muslimbek Yo'ldoshev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Qobilbek Karimbekovlar bilan birga ishlash, ijodiy suhbatda bo'lish juda maroqli. Ularning har bir yutug'idan quvonaman, bahra olaman.

Ayni kunda umrining 68 bahorini qarshilagan Farhod aka Bobojonov xizmat taqozosi bilan qayerda, qaysi mamlakatda yoki mamlakatimizning qaysi hududida bo'lishidan qat'i nazar, hamisha kindik qoni tomgan aziz tuproq – Amudaryo tumanining azim Qilichboy zaminidagi Ocha mahallasidan tortib, Farg'ona vodiysi-yu Surxon va Xorazm vohasini, Samarqandu Buxorodan to Qoraqalpog'iston kengliklarini, Orolbo'yi shamollarini ajib bir entikish bilan sog'inadi. Alloh rahmat qilsin, umrini jurnalistika sohasiga bag'ishlagan umr yo'ldoshi Shoiraxon opa Nizomova bilan birgalikda voyaga yetkazgan biri jurnalist, biri shifokor yana birlari malakali huquqshunos bo'lgan ikki o'g'il, 3 nafar qizi, 8 nafar nevaralari bilan ona yurt mehri, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari haqida soatlab suhbatlashishdan olam-olam zavq oladi. Ana shu zavq unga kuch beradi, sinmas qat'iyat baxsh etadi, diliga va ijodiga sho'ng'iydi. Ijod uni yoshartiradi, yuragiga yoshlik shijoatini olib keladi.

O'zbekiston teleradiokompaniyasining "Dunyo bo'ylab" telekanali tomonidan tasvirga olingan Farhod Bobojonov muallifligidagi "Mening o'lkam..." ko'rsatuvi har gal efirga uzatilganida, ona O'zbekiston xalqining yuragi junbushga keladi.

Nihoyatda shirali, jarangdor ovoz, dillarga xush yoquvchi, ko'ngillarni tebratuvchi, xonadonlarga O'zbekiston jannatlari-ning iforini taratuvchi ovoz egasi – Farhod Bobojonovning oynai jahon tashrifidan xonadonlarimiz fayzga to'ladi. U hammani, uni hamma sevadi, u ona yurt oshig'i, yuragida Vatanini olib yurguvchi fidoyi farzand!



Bir o'lkaki... Bag'rida Quyosh,
Nurli kunlar tug'averadi.
Xalq dilida harorat, otash,
Yangi reja tuzaveradi.
Bir o'lkaki... takror va takror,
Fasllar ham kelaveradi.
Yurt ishqida tunu kun bedor,
Shoirлари kuylayveradi.
Bir o'lkaki... Qaynoq nafasli,
Farhodlari mangu parvona.
Kezaverar necha farsahli,
Cho'lu tog'in, ishqida yona...

Robiya Yo'ldosheva,

Qoraqapog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist.
"Mening oilam" gazetasidan olindi. 2017 yil 22 noyabr

O'LKA FARZANDI

Farhod Bobojonovni avvalo diktorlik maktabi tobladi. 70-yillarning boshlarida "Televideniya bir yigit paydo bo'libdi. Har bir fikrni emas, har bir so'zni qulog'ingga quyib, yuragingga joylab qo'yadi", – deganlar ko'payib ketdi. Odamlar diktor aytayotgan gaplarini o'zi yozadi deb o'ylardi. Nega? Farhod Bobojonov berilgan har qanday matnni avvalo tushunib, o'zlashtirib, so'ng tomoshabinga yetkazardi. Ayrim matnlarni mualliflar bilan qayta ishlab chiqardi. Matnga bo'lgan bunday talabchanlik bora-bora uni diktorlikdan telejurnalistlik tomon yetakladi.

Tomoshabinlar uning tayyorlagan har bir ko'rsatuvini entikish bilan qabul qiladigan bo'lib qoldilar...



Hech esimdan chiqmaydi. Bu voqea bundan bir necha yil muqaddam Marg'ilon bozorida ro'y bergan. "Bir o'lkaki..." das-turining navbatdagi sonini tayyorlash harakatida yurib, yo'limiz Marg'ilon bozoriga tushib qoldi. Farhod aka oldinda, men, re-jissyor Qodir Sa'dullaev va tasvircilar ularga qorama-qora kirib boryapmiz. Dastavval yo'lga yaqin do'ppi bozoriga qadam qo'yganimizni bilamiz, do'ppi sotayotgan bormi, olayotgan bor-mi, savdo savdoda qoldi, hammalari atrofimizni o'rab oldi. Katta-roq yoshdagi do'ppi tutgan ayol davrani yorib o'tib, to'g'ri Farhod akaning oldiga keldi-yu, uning bo'yniga osilib ho'ngrab yubordi:

– Farhodjon, siz mening o'g'limsiz, – dedi ovozi titrab.
– Hayron bo'lmang, mening suqsurdek o'g'lim bor edi. Har-biy edi. Chegarada jangarilar bilan bo'lgan to'polonda halok bo'ldi. Yig'lay-yig'lay ko'zimda yosh qolmadi. Musibat meni yengishi aniq edi. Bir kuni haqiqiy yurt o'g'loni o'lmaydi, de-gan gapingizni televizordan eshitib qoldim. Ko'rsatuvingizni oxirigacha kiprik qoqmay ko'rdimu ruhim yengil tortganday bo'ldi. Ayolning, Onaning ulug'ligini yana bir bor his qildim. Shunda sizni o'g'lim o'rniga o'g'limdek qabul qildim. Allohdan o'g'lim yashayolmagan umrini sizga bag'ishlashini tiladim. Mana bu do'ppini o'z qo'llarim bilan tikkanman. Keling, shuni o'g'limning boshiga kiydirgandek bo'layin...

Kimdir onaizorning yuragidan otilib chiqqan bu gaplardan bo'g'ziga kelgan yig'ini yutdi, kimdir ko'z yoshini yashirishga urindi.

Oddiy ayolning bir ko'rsatuvdan shunchalar ta'sirlangani, telejurnalistga mehri meni hamon hayajonga soladi. Bora-bo-ra oddiy odamlarning Farhod Bobojonovga samimiy ehtirom ko'rsatishlariga ko'nikib ham ketdim. Chunki xizmat safari bilan qayerga bormaylik, bunday hodisalarning guvohi bo'lardim. Har xil viloyatlarda, shahar va qishloqlarda, tog'lik joylarda va vodiylarda, yoshlar va keksalar, erkaklar va ayollar o'rtasida kasbi kori turlicha bo'lganlari ham Farhod akani ana shunday samimiyat bilan sevadilar.



Ko'klam chog'i Shohimardon tog'lariga chiqdik. Shaharning issiq havosiga mos engilroq kiyinib olgan ekanmiz. Tog'da kechqurun yaxshigina salqin tushishi xayolda ham yo'q. Shohimardondagi bir xonadon egasi darhol sandiqdagi yap-yangi to'nni Farhod akaning elkasiga tashladi:

– Sizdek aziz mehmonga to'n kiydirishning o'zi sharaf, – dedi mezbon.

Farhod akaning hurmati orqasidan tasvirga olish guruhi-ning boshqa a'zolariga ham to'n berildi. Buni qarangki, hamma-mizga to'n yetdi-yu, mezbonning o'ziga razm solsam, eski kostyumining ustidan yana bir kostyum kiyib olibdi. O'g'illari esa uy ichidan tashqariga chiqolmay qolishdi. Ertasiga tog' tepasidagi ko'lga boradigan bo'ldik. Buning uchun Qirg'iziston Respublikasi hududidagi tor yo'ldan o'tib boriladi. Ikki kishilik o'rindiqqa Farhod aka bilan o'tirdik. Yuqorilab borar ekanmiz, qarama qarshi tomondan kelayotgan qirg'iz qizlari chuvillab qolishdi: “Hay, qarangiz! “Bir o'lkaki!” Farhod aka, ketib qalmang! Dastxat alamiz!...” Farhod aka bu gapdan qanday holga tushdi, bilmadim, amma men hatto qo'shni davlat oddiy odamlarining bu munosabatidan faxrlanib ketdim.

Mustaqillik bayrami arafasida “Bunyodkorlik” turkumidan filmlar tayyorlashga kirishildi. Ijodiy guruhimiz bilan Farhod aka boshchiligida Samarqand viloyati sari yo'lga tushdik. Yo'l taraddudi yugur-yugurlari bilan bo'lib, tushlikni ham nari-beri qilibmiz. Poyezd kechki payt Toshkent vokzalidan qo'zg'alishi bilan qorin g'ami esga tushib qoldi. Vagon-restoranga borishni mo'ljallayotgandik, Farhod aka kulib:

– To'ymasak boramiz, – deya sumkalarini ochdilar.

Yo'lning issiq-sovug'ini ko'raverib, pishib ketganlaridanmi, yo turmush o'rtoqlari telejurnalist Shoira opa ham bunday safarlar tadorigini bilganlaridanmi, yeguliklar olti kishiga bimalol yetib ortadigan qilib joylangandi.

– Farhod aka bilan yursang, och qolmaysan, – dedi Qodir hazil aralash.



Ha, bu gapda jon bor edi...

Saraton quyoshi go'yo ko'kdan olov purkaydi. Biz xumdon devoridek qizigan Nurota tog'larining marmar konidamiz. Po-yimizdagi, yonimizdagi qizigan marmardan nafas qaytadi. Farhod aka go'yo bu harorat taftini sezmayotgandek hali u qoya ustiga yuguradi, hali bu qoyadan turib tasvirga olishni mo'l-jallaydi. Konchilar kiydirib qo'ygan boshidagi temir kaskaga suv purkasangiz bug' chiqadi. Ishlar ko'ngildagidek bitdi. Shundan keyingina bir oz xordiq olgani nariroqda ko'rinayotgan tollar tomon yurdik. Bordigu hayratda qoldik. Shunday olov-otash "o'txona"ning bag'rida muzdek soy sharqirab oqib turar, konchilar atayin bir necha joyidan tosh bilan dimlab, hovuzchalar qilib qo'yishgandi. Farhod aka darhol yechinib o'zini suvga tashladi-yu:

– Tabiatning mo'jizasini qarang, suvga tushsang, butun charchog'ing yuvilib ketadi, – deb qo'ydi.

Uning ovozidan huzur, ona zaminga mehr, undan zavqlanish, g'urur shundoqqina ufurib turardi. Shu on hammamizdan u jonu tani, butun vujudi bilan ona yurt, shu o'lka farzandi, degan fikr kechdi.

*Muzaffar Usmoniy,
telejurnalist*

KITOB MUTOLAASI – QALB OZUQASI

Inson hayotda qaysi ishga qo'l urmasin, avvalo qalb da'vati bilan kirishadi. Qachonki, qalb buyurmas ekan, "u yerdagi cho'pni bu yerga olib qo'ymaydi". Ammo olamda oq va qora, nur va soya kabi tushunchalar bor. Ezgulik boshqa-yu, dilozorlik boshqa. Yaxshilik ketidan quvib, odamlar ko'nglidan o'rin olgan insonning qalb dunyosi go'zal deydilar. Men neki ish qilgan bo'lsam, qanday yutuqlarga erishgan bo'lsam, bularning bariga asosiy us-tozim, tengsiz boyligim – kitoblarni sabab deb bilaman. Bir nar-sani unutmaylik, kitob mutolaasi – qalb ozuqasi!



Zero, bugungi kunda ayrim yoshlar o'rtasida yuz berayotgan noxush holatlarni ko'rib salom-alik, muomala, hurmat borasidagi ko'ngilga og'ir botuvchi kamchiliklarni kuzatib, bular kitobdan uzoqlashish ta'siri emasmikin, degan xayolga boraman. Zamon shiddatli. Rivojlangan texnika asrida yashayapmiz. Ko'cha-ko'yda, transport, o'quv muassasasi va uyda hammaning qo'lida internetga ulangan telefon, kompyuter. Bugun kitob va raqlab ketayotgan yigit-qizni uchratish anqoning urug'i. Kattalarga hurmat mayli, o'z tengdoshlariga nisbatan bag'ritoshlik, beboshlik, hatto qotilliklar sababchisi yoshlarning kitob o'qimay qo'yishgani emasmikan?!

Kitob o'qishga o'rgangan farzand behuda ishlarga chalg'imaydi.

Yaqin o'tmishda nodir kitoblarga obuna bo'lib, oylab navbat kutib sotib olishgan bo'lsa, bugun kitob do'konlari va kutubxonalar juda ham boy.

Respublika Ma'naviyat-targ'ibot markazi huzuridagi "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasida ma'ruzalar qilish kundalik hayotimning bir bo'lagiga aylangan. Turli tashkilotlarda, ta'lim muassasalarida "Ma'naviy-ma'rifiy" uchrashuvlar tashkil qilinib turli mavzularda ma'ruzalar qilamiz. Ana shunday uchrashuvlardan biri Toshkent davlat Irrigatsiya va Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti-ning madaniyat saroyida "Kitob mutoalaa"si haqida o'qituvchi va asosan talabalar bilan bahs-munozarali suhbat bo'lib o'tdi. Barcha talabalarning ilmga chanqoqligi, ko'p kitob o'qiganligi shundoqqina sezilib turardi. Men ma'ruzamda yoshlarga boshimdan o'tgan bir voqeani so'zlab berdim:

– 1965 yili qish kunlarning birida G'afur G'ulom "Bizning millatimiz tarixi dunyodagi eng qadimiylaridan biri. Buni bilishing kerak. Tilimiz, adabiyotimiz, she'riyatimiz yuksak. Ko'tarib kelganing, mana bular hammasi Alisher Navoiyning kitoblari... (O'sha kuni G'afur G'ulomning uyiga kitob tashishda yordam



bergandim). O'qish kerak, uqish kerak, uqish... Gaplarimni yaxshilab uqib ol. Ko'p o'qi – odam bo'lasan!" degan edi.

Uyida tom-tom kitoblari bo'lishi mumkin, bezak uchun. Uni qo'lga olib o'qilmasa, uqmasa foydasi yo'q. G'afur G'ulom aytganlariday "o'qib, uqish kerak".

O'qib, uqqan insonlardan Qibray tumanining Alisherobod mahallasida istiqomat qiluvchi Matyoqub va Mohigullar oilasini men uzoq yillardan beri bilaman. Oila boshlig'i fermer, umr yo'ldoshi qishloq hamshirasi.

Farzandlari atak-chechak qilib yurgan paytlaridayoq "O'zbek xalq ertaklari"ni guyo alla aytganday bolalari qalbiga singdiradilar. Farzandlari Behzodbek Matyoqub o'g'li Boltayev, Boburbek Matyoqub o'g'li, Mohira Matyoqub qizi maktabda ilm olishdan tashqari, badiiy adabiyotlar o'qib, oradan yillar o'tib, yosh Boltayevlar elda mashhur bo'lishdi. Ko'z tegmasin deymiz.

Behzodbek taekvondo ITF yo'nalishida O'zbekiston kubogi va chempionatida ketma-ket Oltin medallar olishga sazovor bo'ldi. Eng qizig'i shundaki, 2013 yili Moskva shahrida bo'lib o'tgan kimyo fanidan 45-chi Jahon olimpiadasida Oltin medal, 2014 yili Vyetnamning Xanoy shahrida kimyo fanidan bo'lib o'tgan 46-Jahon olimpiadasida ham Oltin medal sovrindori bo'ldi. Kamdan-kam uchraydigan voqelik bu. Jami 20 ta Kumush va Bronza medallarini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Bekzodbek Boltayevning Tibbiyot fani dolzarb masalalariga oid 6 ta maqola va tezislari, Tibbiyot ilmiy jurnali va to'plamlarida, ularning aksariyati Yevropa va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida chop etilgan.

Behzodbek "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

Boburbek ham akasi Behzodbek izidan borib, taekvondo ITF yo'nalishida O'zbekiston birinchiligida Oltin medal va O'zbekiston kubogi musobaqasida ham Oltin medal sovrindori bo'ldi. Kimyo fanidan Jahon Olimpiadasi va Xalqaro Mendeleyev Olimpiadalarida 23 marta kumush va bronza medallarini qo'lga kiritgan.



Boburbek Boltayev O'zbekiston Yoshlari Ittifoqining "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanadi.

Boburbek ham akasi singari kelgusida bo'lib o'tadigan Butunjahon olimpiadalariga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

Boltayeva Mohira Matyoqub qizi ham akalari bosgan izlardan ketmoqda. Mohira yaqindagina Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan 53-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida qatnashib bronza medalini, Parijda o'tkazilgan 51-Butun jahon kimyo fani olimpiadasida kumush medalini qo'lga kiritdi. Hozirda Mohira Toshkent tibbiyot pediatriya instituti qoshidagi akademik litseyi o'quvchisi.

Bu oilani ko'p bora kuzatib, farzandlarining biror daqiqa bo'sh o'tirganini ko'rmaysiz. Kitob mutolaasi bilan band, doimo izlanishda.

Ancha yillar ilgari qo'limga bir kitob tushib qolgandi. Qiziqib, varaqlab ko'rdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, badiiy asar talablaridan mutlaqo uzoq, ustoz ko'rmagan havaskor muallifning tumtaroq jumalari bitilgan, hatto muharrir qalami tegmagan bir qoralama qimmatbaho qog'ozda chop etilgandi. Mazmuni hayotda o'z yo'lingni topmoqchi bo'lsang, yo'ling to'sgan odamlarni bir-bir "yo'qot". Zo'ravonlik, qotillik, qonundan qochib qutulish kabi il-latlar kitobda asosiy o'rin egallaydi. Nashriyotga qaradim. Xususiy firma, xususiy bosmaxona ko'rsatilgan. Afsuski, kitobxonlar e'tiborini tortish uchun oldi-qochdi, bozorbop mazmundagi qoralamalarni "qissa" deb atab, nashr qiluvchilar ko'payib ketgandi o'sha paytda.

– Kitobga oshnolik oilaviy muhitdan boshlangan. Dadam shanba va yakshanba oqshomi hammamizni yig'ib, kitoblardan qiziq-qiziq parchalar o'qib berardi. Katta buvimdan to to'rt nafar – kichkina ukamgacha diqqat bilan quloq osardik. Onamning ham yaxshi odati bor edi. "Kim birinchi o'qib tugatadi" degan musobaqani boshlardi. Kechlik ovqatdan so'ng o'qigan asarlarimiz haqida talashib-tortishib bahslashardik. "Nega bosh qahramon bu yo'ldan ketdi? Bunday yo'l tutsa bo'lmasmidi?", "Muallif nima demoqchi?" deya, asar qahramonlarining hatti-



harakatini muhokama qilardik, deb xotirlaydi yurtimizning eng yosh akademigi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti direktori Komiljon Tojiboyev.

Komiljon harakatchan, ishonch-la qadam tashlaydi, ko'zlari yoniq. U bilan soatlab suhbatlashsangiz ham sizni zeriktirmaydi. Xoh tarixiy mavzu, xoh adabiyot, kimyo-biologiya sohasi – mavzu juda katta...

Komiljon sakkizinchi sinfdan boshlab, biologiyadan fan olimpiadalarida qatnashib, doimo yuqori o'rin oladi. Bitiruvchi sinfda esa biologiya fanidan Respublika olimpiadasining g'oliblaridan biri bo'ldi. Maktabni bitirgach, Namangan davlat universitetining biologiya fakultetiga o'qishga kiradi. O'simliklar bilan tanishish, auditoriyalarda olgan bilimini amaliyotda sinab ko'rishga o'rgandi. U ko'p kitob o'qirdi, izlanardi. Inson o'z suygan mashg'uloti bilan shug'ullansa aslo charchamaydi. O'simliklar dunyosi uni sirli olamga olib kirdi.

Onam Muhsina opa bolaligimdan kitobga mehr qo'yishimga katta xizmat qilganlar. Dastlab qo'limga tutqazgan kitoblari "O'zbek xalq ertaklari" bo'lgan va bu kitobga bo'lgan katta qiziqish meni hali maktabga bormasimdan o'zbek xalq ertaklarining bir necha ko'rinishidagi kitoblarni o'qib chiqishga undagan, qiziqtirgan. Maktabni bitirgunimcha kutubxonaning eng faol a'zolaridan bo'lib, ayrim paytlarida bitta kitobni bir kunning ichida o'qib tugatardim. O'zbek, rus va Yevropa adabiyoti mashhur asarlarini ko'p o'qiganim keyinchalik hayotda ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimning asosi bo'lgan deb hisoblayman.

– Namangan viloyatining so'lim go'shasi Shahand qishlog'ida ziyoli oilasida voyaga yetdim, – deb hikoya qiladi Komiljon Tojiboyev. – Otam Sharofiddin Tojiboyev biolog olim. Namangan davlat universiteti professori. Hayot va ilmdagi ilk ustozim.

Mening olim bo'lishimda, ilmdagi muvaffaqiyatlarimda dadamlar Sharofiddin akaning xizmatlari beqiyos. Bolalik chog'larimdan "...olim bo'lasan, professor darajasiga yetasan" deb qayta-qayta takrorlar edilar va hayot yo'limdagi barcha



so'qmoqlarni "fan yo'li"ga birlashtirishga harakat qildilar, bu yo'lining har bir burilishida tegishli maslahatlar va nasihatlarini ayamadilar.

Komiljonning hayotdagi eng asosiy maqsadi, shiori desak ham bo'ladi. O'qish, izlanish, iroda, chidam, kelgusiga ishonch-la qadam tashlash... Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanining tog'larga tutash, olis Jizmonsoy qishlog'ida adabiyot o'qituvchisi Hasan Alimatov istiqomat qiladi. U kishi bilan suhbatlashib qol-sangiz, gap asosan kitob mutoalasi haqida bo'ladi. Bu inson o'z qishloqdoshlari, tenqurdoshlari bilan uchrashganda, uchrashuv she'rxonlikka aylanib ketadi. Ayniqsa, qish kechalari adabiy suhbatlar, mushoira uzoq davom etadi. Qishloqdagilarning barchasi ijod qilishini, she'r yozishini ko'rib hayratlanganman. Ularning ijod qilishlariga ne sabab? She'riyatga, adabiyotga ishtiyoq ularning qonida bor. Ular ixtiyoriy tarzda kitobni sevib mutolaa qilishadi, o'qishadi, izlanishadi. Menimcha, kitob o'qishga ishtiyoq inson qalbida bo'lishi kerak.

Toshkent shahrining go'zal go'shalaridan birida istiqomat qiluvchi bir insonning kutubxonasiga havas bilan qarardim.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor, mohir yurak jarrohi Hanifa Murodova faqatgina tibbiyot sohasida emas, adabiyot ixlosmandlari bilan milliy va jahon adabiyoti durdonalari yuzasidan berilib bahslashardilar, minglab kitoblar uylarini to'ldirgandi. Ko'p o'qishlari sabablarini so'rasam, "Yetimlikda katta bo'lganman. Hayot mashaqqatlaridan olib chiqib meni odam qilgan shu kitoblar", – derdilar.

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida 80 yoshdan oshgan Mashhura aya degan onaxon istiqomat qiladilar. Garchi farzand tarbiyasi bilan bo'lib, hech yerda o'qib, ishlamagan bo'lsalar-da, bo'sh qoldi deguncha darrov kitobga yopishardilar. Ayrim ayollarga o'xshab g'iybat qilishga hushlari ham, vaqtlari ham yo'q. Qo'ni-qo'shni, qarindoshlar davrasida o'qigan kitoblardan misollar keltirib, hammani og'izlariga qaratib o'tiradilar. Kattayu kichik ularni "Kitob buvi" deyishadi. Ularga havas qilib,

“voy, buvijon, shu kitoblaringizni menga berib turing”, – deb so'rovchi qiz-juvonlar ko'payib ketgan. O'zlari bilan suhbatlashsangiz, o'g'il-qizlari olib bergan ko'ylak, ro'mollari haqida emas, qanday kitob olib kelganlari haqida faxrlanib gapiradilar. Demak, kitob o'qishning, ilm o'rganishning erta-kechi yo'q.

Biz farzandlarimizda bolalikdan – bog'cha yoshidan boshlab, kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirishimiz kerak. Avvalo oiladagi muhit bolani tarbiyalaydi. Xalqimiz orasidagi ziyoli, o'qimishli, o'z Vatani, xalqini, uning farzandlarini sevuvchi har bir inson yurtimiz egasi ma'naviyati yuksak farzandlardan tarkib topishini orzu qiladi.

Bugun qo'l telefonidagi bo'lmag'ur o'yinlarga tikilib o'tirgan yoshlar ham, qo'lga telefon o'rniga kitob tutsa qaniydi...

O'Z ELINING FIDOYILARI

Adabiyotshunos olim, O'zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov xotiralarida shunday yozadi. “Angrendan chiqib, Qamchiq dovoni tomon o'n-o'n besh chaqirim yo'l bossangiz, Chetsuv qishlog'iga yetib borasiz. Hamma tog' qishloqlari kabi Chetsuv ham kichikroq bir soylikda joylashgan, juda bahavo va so'lim qishloq. Ayniqsa, bu yerning havosi shunaqa xushbo'y va muattarki, nafas olib to'yimsiz. Tog'dan esadigan shabada guyoki tog'dan hamma o't-o'lanlarning, gullarning bo'ylarini yig'ib, shu qishloqning ustidan sochib yuborganday”.

Har faslning go'zalligi, husni tarovati o'zgacha...

Bundan chamasi o'n yillar ilgari, qishli-qirovli noyabr oyi oxirlarida, vodiy tomonlarga ketayotib, Chetsuv qishlog'i ro'parasida yo'l chekkasida to'xtadik. Bu yerda qor yog'ayotgan palladagi go'zallikni ko'rib, tog' havosidan nafas olib, to'yamaydi odam. Ayniqsa, minglab kilometr masofadan – Qoraqalpog'istondan qadamanjida qilgan insonlar uchun naqadar yoqimli bu tog' havosi.



Safardagi hamrohimiz Amudaryo tumani hokimi Rajabboy Yo'ldoshyev:

– Ilgari qish oylarida necha bor o'tganmiz bu tog' yo'llaridan. Bu yil qor juda ko'p yog'ibdi. Tog'larimizda qor ko'p bo'lsa, suvimiz mo'l bo'ladi. Bu rizq-nasiba. Qarang, o'zgacha manzara yana qachon kelamiz bu joylarga. Bularni uzoq yillar eslab yuramiz, – dedi atrofni kuzatayotib. (Oллоh rahmatiga olgan bo'lsin.)

Andijonning Marhamat tumaniga borganimizda, ikkita voqea aniq esimda qolgan. Yetib borishimiz bilan mehmon Farhod Ermonov, andijonlik Nizomiddin Bakirovga bahor boshlanishi arafasida Qoraqalpog'iston O'rmon xo'jaligi uchun turli mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini olib ketish taklifini aytdi. Safardan qaytayotganimizda, Ellikqal'a tumani hokimi Ne'matulla Xudoyberganov:

– Vodiya hozir yog'ayotgan qor aralash yomg'ir mo'l-ko'chilikdan dalolat. Bu yil Qoraqalpog'istonda deyarli namgarchilik bo'lmadi. Daryoda suvimiz o'tgan yilga qaraganda ancha kam. Hozir yerlarimiz qup-quruq, suvga tashnamiz.

Marhamatning shu guppillab yog'ayotgan qorida bir oz "ezilib" turay, vodiyan vohaga shu qordan olib ketaman, – deb hazillashdi.

Bu hazil aralash gaplar tagida purhikmat ma'no bor edi. Odamlar yashashi uchun tabiat o'z ne'matlarini ayamaydi, unga obi hayotni ato qilgan. Vohamizni kesib o'tuvchi Amudaryomiz bor. Asov daryo qadim zamonlardan boshlab, goh mahzun, goh shodon to'lqinlanib, qanotlarini yoyib, qirg'oqlardan toshib oqqan. Oqqan daryo oqmay qolmas. Bugun toleimiz charaqlagan kunlarda suvga zarurat yanada kuchaydi. Amuning tilsimi-sirlari juda ko'p. Nafaqat qishloq xo'jaligi, iqtisodiy hayotga, balki ma'naviyat va madaniyatga bevosita ta'sir etadi. Millatimiz ilk daf'a shu daryodan suv ichgan, palak yozgan. Agar bizni boquvchi Ona daryo bo'lmaganda edi, na o'simliklar olami, na bir jon-zot bo'lar edi. Bu degani qup-quruq cho'l, sahro... Ming yilliklar



qaridan oqib chiqayotgan daryo, elimga suv qadri, hayot qadridan saboq beradi.

O'zbekim – o'z og'am deya qo'l bergan,

Bir-birovin hurmat qilgan, yo'l bergan.

Mard va tanti xalq – qoraqalpoq degan

Bovri, qadrdoni bordir o'zbekning.

Mansur Ahmedov

Safarlari qarib, Qoraqalpog'iston sari yo'lga otlanishdi mehmonlar. Ular ortiqcha bir soniya ham o'tirmadi, o'tirisha olmadi.

Mas'uliyatni chuqur his qilgan rahbar tinim bilmaydi, yil-o'n ikki oy ishini o'ylaydi, doimo ular uchun ish qizg'in kechadi. Hech bir narsaga odamzod, fikrsiz, tafakkursiz, aql-idroksiz, harakatsiz erisha olmaydi. Inson hayotida ko'p narsaga qodir, o'zida kuch topa biladi.

Uchala rahbar – Rajabboy Yo'ldoshev, Ne'matulla Xudoyberganov, Farhod Ermonovlar elu yurt oldida yuzlari yorug' bo'lib, qishloq xo'jaligidagi hamma rejalar bajarilib, ko'ngillari to'q bo'lib safarga otlanishgan edi. Lekin... Ular o'tirganlarida ham, yurganlarida ham, suhbatlar davomida ham o'y-xayollari ona yurtida.

Vatan nima u?

Har bir vijdoni, g'ururi, or-nomusi bor inson qalbiga "Vatan" degan muhr bosilgan. Illo... biz undan ayro ketolmaymiz. Odam bolasining qaysi tuproqqa kindik qoni to'kilgan bo'lsa, shu muqaddas zamin unga Ota makon, Ona yurt.

Shu vatan biz uchun muqaddas beshik.

Bu dunyoga yig'lab-yig'lab kelgandagi ovutgan beshik...

Bu insonlar uchun Ona tuproq mukarram va aziz. U joylarda umrguzaronlik qilayotgan har bir inson, ular uchun qadrl



va aziz. Eldagi obodlik, odamlarning farovon hayot kechirishi uchun rahbar mas'ul. Har bir ishda kamarbasta bo'lish, ular uchun muqaddas burch.

Atoqli adib va shoirimiz Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yozganlariday:

*Vatanni sev, tuprog'in o'p,
Har qarichi muqaddas bizga.
Cho'lidagi hatto quruq cho'p,
Jondan aziz yuragimizga.*

Ellikqal'aga nisbatan "cho'l" atamasini qo'llash kulgili bugun. Bu zaminga kelmaganlar bog'u rog'larga burkangan obod yurtini, muhtasham saroylaru ko'rkam binolarni, odamlarning turmush sharoitini bir kelib ko'rsin.

Ellikqal'a tumani hokimi Ne'matulla Xudoyberganov sabab, har yili yoz oylarida bu go'shada adabiyot, she'riyat bayrami bo'lib o'tardi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov bosh bo'lib, Toshkentdan, Nukusu Urganchdan shoiru yozuvchilar kelib, bir olam zavqu shavqqa to'lib, Ellikqal'aning, butun qoraqalpoq elining halol, pok, zahmatkash insonlari qalblarini ma'nan boyitib, yuraklarini jo'shtirib, odamlarga huzur bag'ishlar edi. Bular bari insonlar qalbida muhrlanib qolgan. U davrlar hozir tarixga aylandi.

Ellikqal'a Ne'matullaga

*Guldan gulga qo'nib sahar palladan,
Bolari bol yig'ar qirdan, daladan.
Shoir ham bolari bo'lsaydi agar,
Ishini boshlar edi Ellikqal'adan.*

Abdulla Oripov



Shoir bu diyor bog'larini kezib, qad ko'targan imoratlarga boqib, Aqchako'l sohillarida ilhomi jo'shib yozgan bo'lsa, ne ajab.

Bobolar ruhi kezib yurgan bu makonda qanchalab shoiru adiblarning qalblari jo'sh urmagan.

Ana shulardan biri O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir:

*Bu ne xaroba deb qilmagin ta'na,
Bu Tuproqqal'adir, bu Ayozi qal'a.
Qirq qiz qal'asiga joning qil pana,
Ham yana zulfini sen nurda tara,
Bu Ellikqal'adir, bu Ellikqal'a.*

*Shimol shamolida "Bo'ston" yaratgan,
Demangiz jannatni oson yaratgan,
Aslida bu xalqni armon yaratgan,
Qo'lingdan kelsa gar kuniga yara,
Bu Ellikqal'adir, Bu Ellikqal'a.*

Ellikqal'adagi har bir ijodiy jarayonlarga kamarbasta bo'lgan shoir Yangiboy Qo'chqorov shunday yozadi:

*Zardusht so'zdan bino etdi oltin qasr,
"Avesto"si yashar yana ming-ming asr.
Aqchako'lning sohilida ajdodlarim
Qancha-qancha qal'alarda qoldirmish sir.
Hatto siniq ko'zasi ham meros bizga,
Aziz Vatan sajdagohdir barchamizga.*

Amudaryo tumani hokimi Rajabboy Yo'ldoshev avtoulodda kelayotib Ohangaronning qor bosgan adirliklariga qarab nelarni o'ylaydi...



Hozir Amudaryo tumani dalalari uyquda, unda na yomg'ir, na qor izlari bor. Og'a ko'ngli bezovta. Kelgusi yilga tayyorgarlikni hozirdan boshlamoq kerak.

Orqada qolib, sudralish aslo mumkin emas.

Amudaryo tumaniga Rajabboy Yo'ldoshev rahbarlik qilgan davrlarda O'zbekistonda birinchi bo'lib paxta rejalarini bajarib kelgan. Rahbarning xalq tilini, dilini, dardini bilishi, ularning ko'ngliga qo'l solib, rag'bat uyg'ota olganligi sabab qishloq xo'jaligining barcha sohaları bo'yicha yuksak natijalarga erishgan. Bu odamlarning turmush sharoiti yaxshilanganligidan dalolat beradi.

Lekin hokimning ko'ngli nega bezovta?

Ocha qishlog'idan boshlanuvchi "Olieli yop" arig'i Rajabboy og'a tug'ilib o'sgan Do'rmon qishlog'ini kesib o'tadi. Ariq uzoq yillar davomida loyqa suv orqali kelgan qum cho'kindilari sabab, paxta dalalariga, odamlar tomorqalariga suv borishi mushkul ahvolga tushib qolgan. Birinchi galda o'nlab kilometr ga cho'zilgan dolzarb ishga bosh-qosh bo'lish rahbar zimmasida. O'h, ho'... yana qanchalab shunga o'xshash ishlar silsilasi.

Og'a ko'nglidagi asosiy vazifalaridan yana biri odamlar savodxonligini oshirib, o'z o'lkasidagi har bir qishloq tarixini, yurti uchun jon fido qilgan insonlar taqdiri, tumanning mashhur odamlari haqida hikoya qiluvchi "Amudaryo" kitobini o'z xalqiga armug'on qilish. Bir olam niyatu orzular...

O'sha yillari televideniye ijodkorlari safarga borganimizda, ilgari "Mang'it" deb atalmish tumanning naqadar qadimiyligi, Chilpiq va Gavr qal'alari haqida gapirib, biz ijodkorlarga tasvirga olishimizda tavsiyalar va maslahatlar berganlar. Shu sabab Amudaryo tumani tarixi haqida ko'p izlanishlar olib borganmiz.

Bir-birlariga dalalar orqali tutashib ketgan Ocha, Do'rmon, Qilich Niyozboy qishloqlarining yo'l bo'ylariga ekilgan terakzorlarni ko'rib qalb quvnaydi. Qilich Niyozboy qishlog'ining insonlari qadimdan ardoqlab, qadrlanib kelayotgan gujum darraxtini ko'paytirishni o'zlariga maqsad qilishgan. Yozning



jaziramasida, uning soya-salqinida o'tirish insonga rohat bag'ishlab, sog'ligi mustahkamlanib, kuch-quvvat ato qiladi.

Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a tumanlarida bo'y cho'zgan daraxtlar shu o'lkaning yashil libosi. Libos faqat ko'rk emas, salomatlikning beminnat himoyachisi.

Beruniy tumanida avlodlarimiz qadimdan terakni qadrlashgan. Buni tuman ahli yaxshi biladi. Suv mo'l joyda teraklar yaxshi yetiladi, yog'ochi baquvvat, chidamli bo'ladi. Bu bir tomoni. Terakning yana bir xosiyatini bilasizmi?

Tibbiyot ilmini yaxshi bilgan bobolarimiz ta'biri bilan aytganda qarshimizdagi oddiygina terak xiralashgan ko'zlarni ravshan qiladi, quloqni ochadi, bargini chaynasangiz tishni baquvvat, milkni mustahkam qiladi, jarohatlarni bitiradi. Sanayversa, shifobaxshligining adog'i yo'q. Mana shunday el koriga yaraguvchi ta'rifu tavsifi kitoblarga jo bo'lgan serxosiyat daraxtlardan qoratal ham voha tumanlariga, ayniqsa, Beruniy tumanining suvi mo'l ariq bo'ylariga ko'p ekilar ekan. Ma'lum bo'lishicha, har yili ko'chat ekish mavsumida, hatto murg'ak bolajonlar uchun ham qoratal ko'chat ekish odat tusini olibdi. Bu yerda eng ezgumaqsad tabiatni asrash, uni yanada boyitishdir. Zotan, ona tabiatga qancha mehr ko'rsatsak, u bizga cheksiz mehr, boylik va baxt-iqbol bo'lib qaytadi.

Qadim zamonlardan boshlab, shobboz (Shoh Abbos) qovunlari yon-atrof, Sharq mamlakatlarida ham ma'lumu mashhur bo'lgan. Ancha yillar ilgari Beruniy tumani hokimi Farhod Ermonov tashabbusi va ko'magi bilan tumanda "Qovun sayli" tashkil qilindi. Unda Qoraqalpog'istonning ko'plab tumanlaridan, qo'shni Xorazm viloyatidan qovun yetishtirishga mas'ul bo'lgan mutasaddilar, fermerlar, ijodkorlar ishtirok etishdi. "Dunyo bo'ylab" telekanali ijodkorlari, biz – jurnalistlar ham kelib, qovun yetishtiruvchi dehqon va fermerlar bilan dalalarda uchrashib, "Qovun sayli"ni jannatmakon yurtimiz bo'ylab keng targ'ib qildik.



Qarasangiz ishtahangizni qitiqllovchi, turli navlardagi, bir-biridan shirin qovunlarning ayrimlari, bahorda yangi qovun ekiladigan pallagacha o'z ta'mini saqlab, inson tanasiga rohat, kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Biz keng imkoniyatlar mamlakatida yashaymiz. Shaxsiy tashabbus ko'rsatgan har bir insonning o'z o'rne bor, u qadrlanadi. Tashabbuskorlikning ahamiyati va qadri shunchalar balandki, qancha yillar o'tsa hamki, shu yerdagi barcha insonlar qalbida muhrlanib qoladi. Biz hikoya qilganimiz o'sha davrdagi uchta rahbar ishidan ma'lum bir chizgilar, xolos.

Hozirgi kunda dunyoqarashi keng, fikr doirasi teran, ishbilarmon, o'z eliga qayishadigan, kamarbasta rahbarlar To'rtko'ldan tortib Mo'ynoqqacha, Chimboy-yu Xo'jayligacha... Qo'ng'irotdan tortib to Taxtako'pirgacha... qo'ying-chi, barcha tumanlarda yurt to'kinligi, el ma'murchiligini o'ylaydi.

Odamda bilim, ong, tushuncha, shijoat bo'lmasa g'oya tug'ilmaydi. Umid bilan maqsadni ko'zlab harakat qilish – katta muvaffaqiyatlarga olib keladi.

Bir dono odam: "Inson hayoti davomida har qanday vaziyatda aql idroki cheksiz, tafakkur olami keng, sabr va matonat bilan qiyinchiliklarni yengib o'ta oladigan, irodasi metindek mustahkam, mard odam bilan ishlash kerak", – deb aytgan.

O'zbekistonimiz bayrog'ini dunyoning eng yuksakliklarigacha olib chiquvchi, jannatmakon o'lkamiz qadr-qimmatini, odamlarining farovon hayotini o'ylovchi, o'z yurtining mehnatkash insonlari bilan birgalikda hamqadam-hamfikir bo'lib, dadil qadamlar ila olg'a qarab borayotgan Yurtboshi – Yo'lbooshchisi bor. Shuning uchun ham qaddi baland, qadri baland insonlarimizning ruhiyati tetik, ishga chanqoq.

Tog'larda tong otdi. Shu'larang titroq –

Osmon cho'qqilariga bog'langan yelkan...

Yer yuzida qancha yurtlar bor, biroq

Baridan barvaqtroq uyg'onar o'lkam...



*Bolari boshida tashvishli dunyo,
Bog'lardan bol terar, zarra yo'qdir kek...
Tongni qarshi olar rizq tutib guyo
Tinib-tinchimagan beminnat o'zbek.*

Qo'chqor Norqobil

Yurtimizning mehnatkash, behalovat odamlari musaffo osmonimizda bobo quyosh o'zining zarrin nurlarini sochmasdan turib, o'z yumushlari sari oshiqadi.

Jannatmakon qoraqalpoq o'lkasida umrguzaronlik qilayotgan o'z elining fidoyilari, halol, pok, saxiy, o'z oilasining baxtini, elu yurt obodligini o'ylovchi, mehnatkash inson – senga ofarinlar yog'ilsin. Sen har qanday maqtovg'a loyiqsan.

*Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi,
Bir o'lkaki, qishlarida shivillar bahor,
Bir o'lkaki, sal ko'rmasa quyosh sog'inar...*

Oybek

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist,
Qoraqalpog'iston xalq artisti, telejurnalist
Farhod Bobojonov*



MUNDARIJA

Kitob muallifi bilan tanishuv.....	3
Mikrofon sehri... ..	4
Bu kitobga turtki bo'lgan ijodkorlar	5
Hamon yurt kezayotgan Farhod	6
Xayrli hayratlar	8
I qism. Orzuga eltuvchi yo'l yoxud qalb kechinmalari	10
II qism. Biz anglagan, anglab yetmagan dunyo.....	68
III qism. Mendan nima qolur... ..	102
IV qism. 2019 yilning ilk kunlaridagi ijodim namunalari. Nurli yo'llarga chorlov. Londonga maktub	129
Nurli yo'llarga chorlov. Londonga ikkinchi maktub	133
V qism. Zamondoshlar talqinida	136
Farhodjonga tilaklarim. A.Oripov	136
Ovozida qadimiy harorat bor. X.Davron	137
Jonsarak. E.A'zam	140
Yaxshi odam. Q.Norqobil	141
Maqtoqli ukam. N.Ibrohimova	143
Farhod ijodidan bir shingil. A.Tojiyev	148
Men seni injitmayman... M.Yo'ldoshyev	150
Ma'naviyat gulshanining yorqin vakili. Q.Karimbekov	158
Bizning diktora. A.Otamurodova	164
Televideniye jonkuyari. R.Kamolov	166
Diktorlik martabasi. M.Mirzo	168
Tunni uyg'otmang. T.Hayit	170
Yo'ldagi yo'ldoshing... E.Shukur	176
Beg'ubor inson u. N.Norqobilov	178
Uni hamma taniydi. M.Asadullayev	183
Nurli manzillar. T.Eshbek	188
Yurt fidoyilariga oshno qalb. Z.Ziyotov	192



Kamtarin va fidoyi ustoz. P.Xudoyberganov	195
Ustozga ta'zim. J.Hamroyev	196
Unutilmas lahzalar. I.Tojiyev	198
Yurakdagi vatan. R.Yo'ldosheva	200
O'lka farzandi. M.Usmoniy	204
Kitob mutolaasi – qalb ozuqasi	207
O'z elining fidoyilari	213

Badiiy-publitsistik nashr

FARHOD BOBOJONOV

BIR O'LKAKI...

“Noshir” – Toshkent – 2022

Muharrir: S.Safayeva

Dizayner: Sh.Odilov

Musahhih: S.Norova

Sahifalovchi: R.Xidoyatov

Nashriyot litsenziyasi AI № 254, 31.12.2014 y.

Bosishga ruxsat etildi: 22.02.2022 yil.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «PT Serifs» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 14.

Adadi: 3000. Buyurtma № 4.

MCHJ «Noshir» nashriyot uyi, 100020,

Toshkent sh., Langan ko'chasi, 78.

MCHJ «Noshir» nashriyoti bosmaxonasida bosildi.

100020, Toshkent sh., Langan ko'chasi, 78.

Farhod BOBOJONOV

Bir o'lkaki...

*Men kindik qonim to'kilgan o'lkani,
Amudaryoni sog'inib yashayman*

ISBN 978-9943-6205-8-2



9 789943 620582

